

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI
ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TIL VA ADABIYOT INSTITUTI



406-77.6

Dostonlar



«SHARQ» NASHRIYOT-MATBAA
AKSIYADORLIK KOMPANIYASI
BOSH TAHRIRIYATI
TOSHKENT - 2011



УДК: 821.512.133

ББК 82.3(5Ў)

К – 92

Aytuvchi

Ergash Jumanbulbul o'g'li

Yozib oluvchilar

Muhammadisa Ernazar o'g'li va Hodi Zarif

Nashrga tayyorlagan

Hodi Zarif

Mas'ul muharrir

To'ra Mirzayev

К – 92 **Kuntug'mish. Ravshan:** Dostonlar/Aytuvchi Ergash Jumanbulbul o'g'li; yozib oluvchilar: Muhammadisa Ernazar o'g'li, Hodi Zarif; mas'ul muharrir T. Mirzayev. – T.: «Sharq», 2011. – 368 b.

I. Ergash Jumanbulbul o'g'li (aytuvchi).

Ayo, nozim, bir gapim bor, anglab ol,
Men so'zlayin, zehningni qo'y, quloq sol,
Jaloldlarga elanmagin, bo'yingdan,
Gavharni ne bilsin ushalgan sopol.

Yomonning qarori bo'lmas bir yerda,
Kishiga kasodi tegar tor yerda,
Gavharni ne bilsin ushalgan sopol,
Zarning qadrin zargar bilar har yerda.

Aziz kitobxon! «Kuntug'mish» dostoni tarkibidagi bu misralar sizning ruhiyatingiz va qalbingizdan allaqachon mustahkam o'rin olgan. Sizga yangidan havola etilayotgan ushbu dostonlar guldastasida bunday satrlar mo'l-ko'l. Ularni qayta o'qish ruhiy-ma'naviy olamingizni yanada boyitishi bilan birga o'zingiz mansub bo'lgan xalq ijodiga nisbatan g'urur va iftixor tuyg'ularingizni yanada kuchaytirishi tabiiydir.

УДК: 821.512.133


ББК 82.3(5Ў)

ISBN 978-9943-00-713-0

© «Sharq» nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi Bosh tahririyati, 2011.




Kuntug'mish



No'g'oy podsholaridan Avliyoyi Qoraxon degan bor ekan, laqablari Qilichxon ekan, shu vaqtning odamlari Avliyo ota derdi. Shul azizning bir yolg'iz o'g'li bor edi, undan boshqa bolasi yo'q edi. Otini Kuntug'mish to'ra der edi. O'n to'rtga kirguncha ilm-hunar, kasb-kamolot hosil qilib, o'n to'rt dan o'tgandan keyin sipohlik ishlariga yuz keltirib, qilich chopmoq, miltiq otmoq, chirishbozlik, ko'pkaritozlik, nayzadastlik, garovbastlik ishlariga ko'shish qilib, qirqta yigitni yoniga olib, goh tovga, goh ovga shikor qilib yurar edi.

Shahri Zangar degan shaharning podshosining otini Buvraxon der edi. Buvraxonning ikki vaziri bor edi. Birovining otini Shoir vazir der edi, birovini Tohir vazir der edi, ikkovi aka-uka edi. Bular irim qilib niyat qilib edi: «Bizlarga farzand bersa, o'g'il bo'lsa bir-biriga qo'lqanot bo'lsin, qiz bo'lsa do'st bo'lsin».

Kunlardan bir kun Shoir vazirning xotini qiz tug'di, Tohir vazirning xotini o'g'il tug'di. Qizning otini Xolbeka qo'ydi, o'g'ilning otini Xolmo'min qo'ydi. Lekin Xolmo'minning enasi qora bosib o'ldi, o'g'li etak ostida qoldi. Xolbekaning enasi emizib katta qildi. Bular shirxo'ra bo'lib, nikoh yurmaydigan bo'lib qoldi. Ikki vazirning avvalgi va'dalarini shaharning odamlari eshitgan edi. Mardumi shahar: «Xolbeka Xolmo'minning baxshandasi», – der edi, sut emishganini bilmas edi. Ammo Xolbeka

A decorative border with repeating floral motifs surrounds the text. The motifs are stylized flowers with multiple petals, arranged in a continuous line.

o'n to'rtga kirgandan keyin ovozasi olamga ketdi, dong'i Dog'istondan o'tdi. Xolbekaning tavsif-vasiyatini, husn zeboligini eshitgan podsho va to'ralar, polvon-botirlar har mamlakatdan, har yurtdan, har diyordan sovchi qo'ya berdi. Sovchilarga Xolbeka: «Har kim meni olaman deb kelsa, oldiga nard o'yinini qo'yaman, o'ynayman, utsa tegaman, utdirdsa so'yaman», – deb elga shuhrat berdi.

Har to'ra-kattalar, xonzodalar Xolbeka bilan nard o'ynab utdirib, ko'p kishilarni Xolbeka nobud qilib o'ldirib yubordi. Shu mamlakatda Xolbekaga oshiq bo'lmagan odam qolmadi. Kundan kun Xolbekaning husni ziyoda bo'lib, shuhrat-ovozasi ortar edi.

Kunlarda bir Xolbeka qirq zinali ko'shkining ustiga chiqib, olamni tomosha qilib o'tirib edi, shu shaharning podshosi Buvraxon Xolbekaning jamolini ko'rib, yuz shaydoyi dil bilan oshiqi beqaror bo'lib, ixtiyorini qo'lidan oldirib, dilida sabr-u qarori qolmay, arkiga borib tushib, bostirib, sovchini qo'ya berdi. «Tegsa ham olaman, tegmasa ham olaman, boshqaning kelganini ko'raman», – deb odam yubordi. Xolbeka javob aytdi: «Podsho nomardlik qilmasin, o'ziday podsholarga ta'na-malomat bo'lmasin. Mening shu shartim, eshitmagan, bilmagan odam yo'q. Ayol bo'lsam ham qavlimdan qaytmayman, shohingdan qo'rqmayman. Bizga oshiq bo'lgan bo'lsa, kelsin, nard o'ynasin, utsa, tegaman, utdirdsa podsho deb siylamayman, so'yaman, jondan kechsa bizga kelsin», – deb sovchisini qaytardi. Sovchi bu voqealarni podshosiga bayon qildi. Podsho eshitib hayron-lol bo'lib, arkoni davlatiga qarab, ulardan maslahat so'rab: – E umarolarim, e vaziri donolarim, bu ishning oxiri qanday bo'ladi? Borib nardini o'ynasak, utdirdsak, bizni shoh deb siylama-

sa, qo'yayik desak, ishqibozlik yomon bo'lsa, borsa qo'ysak, bir kun o'zbak-cho'zbak, karvon-sarvon, qozoqmi-suzoqmi – birov kelib utib olib ketsa, bu qanday bo'ladi? – dedi.

Arkoni davlat shu maslahatni aytdi: – Taqsir podshoyim, buning iloji shulki, baxtini bog'lang, hech kim Xolbeka deb otini aytolmasin, balki bu shaharga kelolmasin, o'zi ham to'rt-besh yil o'tgandan kay, er talab bo'lib, sizga tegmay kimga tegadi, – deb ma'qul qildi.

Podsho ko'cha, guzarlarga jarchi qo'yib qichqirt-diki: «Har kim Xolbeka deb aytsa, olti oy zindonda boqdiraman, suyagini toshga chaqdiraman, terisini tiriklay so'yaman, ichiga somon tiqdiraman, ikki ko'zini o'yaman, tepasiga moyni quyaman», – deb qichqirta berdi. Hech kimning zahراسi yo'qki, Xolbeka deb aytsa.

Shu o'rtada to'rt-besh yil o'tib ketdi. Xolbeka ham podshoga bo'ysunmadi, qirqin qizi bilan, necha turli nozi bilan davrini surib o'tira berdi.

Kunlarda bir kun Xolbeka noz uyquda yotib edi, bir tush ko'rdi: Chiltonlar va mardon g'oyiblar bir tongda suhbat qilib o'tirib edi, bir chilton kelib Xolbekaning ruhini olib bordi, bittasi kelib, Kuntug'mishning ruhini olib bordi. Chiltonlar to'y qilib, Xolbekani to'raga topshirdilar. Ikkovi bir to'shakda yotib, bir-biroviga so'z qotib, Xolbeka so'radi: «Sen kimsan, joy-manziling qayda, oting kimdir?» To'ra aytdi: «Otim Kuntug'mish, otamning oti Avliyoyi Qoraxon, otam No'g'oyga podsho, No'g'oy to'rasi bo'laman. Sen kimsan, oting kimdir, yurtning qayerda?» Xolbeka aytdi: «Otim Xolbeka, otamning oti Shoir vazir, yurtim shahri Zangarda».

Ikkovi bir-birovi bilan o'ynashib, to'rasining ju-

zugini¹ Xolbeka olib qo'liga soldi; Xolbekaning uzugini to'ra olib qo'liga soldi. Shu kecha Kuntug'mish ham shunday bir tush ko'rdi. Shu ishda ikkovi ham uyondi.

To'ra bir oh tortib, bu dardini hech kimga aytolmay, niginga² qarasa, boshqa nigin; qog'ozga muhr qilib bossa, Xolbekaning oti chiqadi.

Xolbeka ham uyqudan uyg'onib, to'raning ishqida ilonday to'lg'onib, aslo orom-qarori qolmadi. Bu ham uzugini ko'rsa, o'ziniki emas; qog'ozga bosib ko'rsa, Kuntug'mish to'raning oti chiqadi.

Xolbekaning Bahragul degan kanizi bor edi, ak-sari sirlarini Bahragulga aytar edi. Bahragul Xolbekaning bezovtaligini anglab: – Oybibim, seni ilgari-larday ko'rmayman, xotiringning mushavvashligini menga bildirsang, tanda jonim bor, tadorikini – ilojini qilsam kerak.

Xolbeka: – E Bahragul, menga bir dard tekkan, iloji ne bo'lishi aslo sira yo'q, – deb niginni ko'rsatib, ko'rgan tushlarini Bahragulga bir-bir bayon qilib, yana aytdi: – Bir suratlashni keltirsang.

Bahragul olib keldi, Xolbeka oyim o'zining suratini qog'ozga naqqoshga soldirib, bir sandiqcha tayyor qilib, ichini mumlab, sirtini tillo bilan berkitib, o'zining sochidan bir tola soch olib, to'raning uzugini o'zining suratiga o'rab, necha arzi-hollarini ham arz qilib, sandiqni qulflab, kalitini sandiqqa bog'lab (bir katta daryo shaharning ichidan o'tar edi), Xolbeka shahardan chiqib, shu sandig'ini suvga solib: «Shu ko'rgan tushim rahmoniy bo'lsa, oshiqma'shuqlik avvaldan pok bo'lsa, xudoyo xudovan-

¹ Uzuk.

² Uzuk.

do, shu sandig'im senga omonat, to'radan boshqaga tegmasin», – deb daryoga ravona qildi. Falakning sinoati bilan necha kun, necha vaqtlar oqib, hech kimning qo'liga tushmay, No'g'oyga doxil bo'ldi. Endi to'radan so'z eshiting.

To'ra qirq yigiti bilan daryoning yoqasida shikor qilib yurib edi. To'raning ko'ziga bir sandiq ko'rindi. Yigitlariga aytdi: – Ot solib olib chiqinglar.

Yigitlar Kuntug'mishga arz qildiki: – Daladan har narsa qo'limizga tushsa, siz podsholik deb olib qo'yasiz, biz xizmatkorlaringiz quruq qolamiz. Bu molni bir shart bilan olib chiqamiz, taqsir, shu sandiqni bo'lamiz, ichini olasizmi, yo tishini?

To'ra aytdi: – Sizlar saylab olinglar.

Yigitlar bir-biriga qarab, ittifoq qilib: – Tishi tilla ekan, bizlar tishini olamiz, – dedi.

To'ra aytdi: – Biz ichini olamiz.

Bir yigit ot solib olib chiqdi. Kaliti ham og'zida ekan, ochib ko'rdilar. Ichidan bir qog'oz chiqdi, qog'ozni yozib ko'rsa, Xolbeka oyimning to'lgan kamoli, oyday jamoli munavvar bo'lib turibdi. Shahzoda ko'rgan hamono tushida ko'rgan mahubuni tanib, ichki dardini hech kimga aytolmay yurgan edi, suratini ko'rgandan kay, osang, ustiga posang, hazor ustiga ponsad bo'lib, bir ishqi yuz bo'lib, toqat keltirolmay, behush bo'lib yiqildi. Qirq yigit shoshib, dami ichiga tushib, aqlidan adashib, barisi chuvlashib, to'rani o'rtaga olib, hay-hayni solib: – Ko'zingni och! – dedi. To'rani aslo o'ziga keltirolmadi. Oxir ikki otga saraja qilib, manzilga olib keldilar.

Qoraxon bechora yolg'iz farzandini bu holda ko'rib, yoqasini pora-pora qilib, qushnochni olib kelib qoqdirib, baxshini olib kelib boqdirib, mullani olib kelib o'qitib, eshonni olib kelib halqa qilib qara-

ta berdi. O'g'liga aslo naf qilmadi. Qoraxon podsho o'g'lining oldida betoqat bo'lib: – Nega ko'zingni ochib gapirmaysan? – deb shuncha iltijo qildi, o'g'li bilmadi, shu qushnochlardan bir ayyori bor edi. To'raning vujudidan kasal topmay, ishqdan gumon qilib, podshoga aytdi:

– Siz dalaga chiqib turing.

Qushnoch qirq yigitini hozir qilib, bir-ikki-uch piyola sharobni to'raga berdi. Sharobning kayfi bilan to'ra ko'zini ochib qarasa, qirq yigiti yig'lab, o'rtaga olib o'tiribdi. To'ra ishq dardini pinhon tutolmay, yigitlariga qarab, bir so'z aytib turibdi.

So'zi budir:

Bog' ichinda olma-anor istaydir,
Bo'yi mahbub, mushki dildor istaydir,
Qadrdonlar, birga yurgan beklarim,
Do'stlar-ay, ko'ngil bir yor istaydir.

Xizmatimda yurgan bas bir poralar,
Zulfi chin-chin, satta qoshi qoralar,
Kichiklikdan birga yurgan jo'ralar,
Do'stlar-ay, ko'ngil bir yor istaydir.

Qatorda yuk tortgan norcha lo'klarim,
Dushmanga ketmagay or-u keklarim,
Sirdoshlarim, vallomatim, beklarim,
Do'stlar-ay, ko'ngil bir yor istaydir.

Beklarim, qilmanglar bag'rimni kabob,
G'aribning ko'nglini ovlamoq savob,
Ertaroq podshodan olinglar javob,
Do'stlar-ay, ko'ngil bir yor istaydir.

Quloq songlar bu to'raning tiliga,
Bulbul oshno bo'lar bog'ning guliga,
O'zlaring chog'langlar Zangar yo'liga,
Do'stlar-ay, ko'ngil bir yor istaydir.

Alqissa, Qoraxon podsho o'g'lining dardini ishq-dan bilib, ko'ngli buzilib, yurak-bag'ri ezilib, qaddi bukilib, ko'zidan yoshi to'kilib, o'g'liga qarab, bir so'z aytib turibdi:

Falak peshtoqidan uchgan yulduzim,
Ulug' daryolardan chiqqan qunduzim,
Har so'zingdan tandagi jon aylansin,
Ne tilovman¹ tilab olgan yolg'izim.

Ot chopmoqqa qoyim Xizrning dashi,
Xizr Ilyos doim mardning yo'ldoshi,
Och ko'zing, boshingni ko'tar, yolg'izim,
Bir yor uchun yotarmikan mard kishi?

Dam shu damdir, o'zga damni dam dema,
Shukur qilgin, davlatingni kam dema,
Bir yor uchun yotarmikan mard kishi,
Bir yor bo'lsa, bolam, yordan g'am yema.

No'g'oyning qizini barin jiydiray²,
Sanam qizlar qora zulfin tuydiray,
Bir yor uchun, bolam, aslo g'am yema,
Bitta tugul, yuz suluvni suydiray.

Uzoq yo'ldan yaxshi tulpor chopilar,
Yov ko'rsa, botirlar qalqon jomilar³,
Bitta tugul yuzta suluv suydiray,
Chin suluvlar No'g'oyimdan topilar.

Eshitib ol, bu otangning so'zini,
Do'st-dushmanga tuban qilma yuzini,
Yig'dirayin No'g'oyning ulli-qizini,
Obberay qizlarning jodu ko'zini.

¹ Tilak bilan.

² Yig'diray.

³ Yopilar.

Ko'kragimga solma qayg'u-alamni,
Ko'zlari qambarday qoshi qalamni,
Bir yor uchun aslo, bolam, g'am yema,
Obberay paridan ortiq sanamni.

Alqissa, Qoraxonning bu so'zini o'g'li eshitib, yigitlariga buyurdi: – Kechagi qog'ozdagi suratni otamga ko'rsatinglar. Yigitlari suratni ko'rsatdi. Qoraxon qarasa, qog'ozda bir qiz turibdi qayqayib; qoshini kerib, labini burib, chikka bel bo'lib, shirin qilib kulib, taraqqos boylab, suqsurday bo'ylab, tovusday taranib, bellari buralib turibdi. Qoraxon insof qilib qarasa, No'g'oy yurtining qizi tuva¹, yer yuzining barnolari bir tola mo'yiga arzimaydi. Qoraxon bildiki, to'raning ilojini qilolmas, to Zangar bormasa, Xolbekadan boshqani xohlamas. Podsho noiloj, nochor javob bermoqchi bo'lib, lashkarlarini yig'ib, har dastasidan bittadan, qirq yigit ayirib berdi. Qirq xachirga zar ortib, aytdi: – E farzand, burungilardan bir so'z bor: «Musofirchilikda yo zar yarar, yo zo'r yarar kuningga», – degan ekan. Zarga kelsa, xachirdagi pulni ayama, zo'rga kelsa, qirq yigitga buyursang, xudodan kelgan ajal bo'lmasa, bandadan kelgan ajaldan bir-ikki-uchga dovur ayrib olar. Bor, bolam, ollo yoring bo'lsin, pirlar madadkoring bo'lsin, sog' borgaysan, salomat kelgaysan, omin ollohu akbar, – deb oq fotiha berdi.

To'ra qirq yigitini birga olib, xachirlarini yo'lga solib, necha vaqt, necha soatlar yo'l yurib, Zangarga doxil bo'ldi. Kelsa, darvoza berkilgan ekan. To'ra: darvozani och, – deb darvozabon, bobo qo'rboshiga qarab bir so'z dedi:

¹ *Tugul.*

Tog'larini boshin chalgan tuman-a,
Tiriklik barchaga besh kun gumon-a,
Ot horitib uzoq yo'ldan kelaman,
Och darvozungni, darvozabon-a.

Falakning dastidan keldim omon-a,
Bu dunyoda tirik ayrilgan yomon-a,
Ot horitib uzoq yo'ldan kelaman,
Och darvozungni, darvozabon-a...

Beklar minar bedov otning tolmasin,
Bemahalda mol dalada qolmasin,
Ochgin darvozungni, bobo qo'rboshi,
Molim qolib, o'g'ri zolim olmasin.

Darvozabon to'raning bu so'zini eshitib: –
O'zbek, ko'p baqirma, hammaning kayfini uchirib
yuborma, bemahalda senga kim darvozani ochadi,
barvaqt kel, – deb turmoqqa erinib, to'raga achchiq
etib, bir so'z dedi:

Qanday odam eding kelgan bemaza,
Darvozamning to'garagi andoza.
Ketgin har kim bo'lsang, qolma yo'lingdan,
Kun chiqmayin ochilmaydi darvoza.

Toza gulsan, oftob tegib so'lmagin,
Mavj urib daryoday toshib to'lmagin,
Kun chiqmayin ochilmaydi darvoza,
Ketgin, har kim bo'lsang, yo'ldan qolmagin.

Qatoringga tirkab qo'ygin noringni,
Nor ustiga yuklab qo'ygin zaringni,
Kun chiqquncha yota bergin dalada,
Ehtiyot qip qo'y-da xizmatkoringni.

To'ra darvozabonni qaytarib bir so'z degani:

Ichkilik sharbatin ichmay mast bo'ldim,
Qayda g'anim bo'lsa, anga qasd bo'ldim,

Ochgin darvozungni, bobo qo'rboshi,
Xudoni o'rtaga solib do'st bo'ldim...

Zerikmaydi kishi, bo'lsa yo'ldoshi,
Xafadir yo'lovchi, birgina boshi,
Sabab bilan kelib edim shahringga,
Qiyomatlik do'st bo'laylik, qo'rboshi.

Nasib qilsa, hali necha kelarman,
Har kelganda avval seni ko'rarman,
Qiyomatlik do'stim dedim o'zingni,
Endi sening yaxshiliging bilarmen.

Mard bo'lsang sen, darvozungni ocharsan,
Ichki sirni nega chetga socharsan,
Qiyomatlik do'stim dedim o'zingni,
Nomard bo'lsang, shunday do'stdan qocharsan.

Qo'rboshi bobo uch yuz o'ttizga kirgan edi.
Daqqi Yunusni ko'rgan edi, necha safar shay-
ton bilan bahslashganda firib bergan edi, qarilikni
bo'yniga olmay, doim bo'zbola bo'lib yurgan edi.
«Bu o'zbek mug'ambir ekan, jon yerimdan ushla-
di. Ko'rganim yo'q edi, eshitar edim, do'st bo'lar
emish, xudoni o'rtaga solar emish, qaysisi qaytsa,
xudoga urdirar emish, noqulay aytib soldi, tag'i xu-
doga chet bo'lib, o'zimni urdirib, yosh boshim bor,
juvonmarg bo'lib ketmayin», – deb joyidan tura kel-
di. Qulfning kalitini olib, darvozung ostiga kelib,
siyg'alab qarasa, qirq xachir entikib, terlab, zarla-
rini ko'tarolmay, tipirlab turibdi. Bobo xachirlarni
ko'rgandan: «Menga xudo bergan ekan, bir-ikki-uch
yil ilgari Chin-Mochindan shu boyvachcha kelib
edi, u darvozadan doxil bo'lib edi, shu guzarning
bari zardor bo'lib qolib edi, shu boyvachchanning
o'zginasi», – deb darvozani ochib yubordi. Qirq xa-
chir bitta-bitta kirib, bobo ko'rib: «Sad ofarin zardor

bo'lganingga», – deb turib edi, qirq yigit ko'kmak temir bo'lib, to'planib kirib edi; boboning aqli shoshib, damidan adashib, hisobi ketib, qulog'i bitib, burnining (suvi) oqib, betiga yog'ib, iyagi qaltirab, ko'zi yaltirab: «Har darvozadan qirq yigitdan kirsan, tong otmay arkni olib qo'yadi», – deb to'raning jilovini juppay ushlab, ko'zini yoshlab, qaydan bo'lasan, deb do'stiga bir so'z aytdi:

Ol-ol bo'lsin, ol-ol bo'lsin, ol bo'lsin,
Yarashiqqa mingan oting dol bo'lsin,
Sening tarzing bu yerlarga kelmaydi,
So'ylagil, jon do'stim, senga yo'l bo'lsin?

Menga aytgin urug'ingni, otingni,
Bayon bergin, do'stim, mamlakatingni,
Sening tarzing bu yerlarga kelmaydi,
Otang kim, enang kim, aytgin zotingni.

Jon do'stim, qayerda o'sgan diyoring,
Kuygan qulsan, chiqar oh bilan zoring,
Bayon ber, jon do'stim, mamlakatingni,
Bu yerlarga ne deb tushdi guzaring?

Paydo bo'lding ikki gavhar donadan,
Parvoz qilib uchding manzilxonadan.
Yo'l bo'lsin, jon do'stim, bizning ellarga,
Senday o'g'lon kam-kam tug'ar enadan.

Xudoyim beribdi sini simbatdi,
Tag'in bersin oda bo'lmas davlatdi,
Senday o'g'lon kam-kam tug'ar enadan,
Bilaging temirdan, panjang po'latdi(r).

O'zing sardor ekan, sardor saboqli,
Ot ustiga mingan kuni o'moqli,
Qarchig'ay kelbatli, burgut qaboqli,
Xaloyiqqa yomon kuni kerakli,

Tuyg'unday surating, lochin yurakli,
Sherdayin hayqirgan, arslon bilakli.

Ot chopilar baland tog'ning pastidan,
Jon qutulmas azroilning qasdidan.
Ne sababdan kelding bizning ellarga?
Yolg'on dema, do'stim, so'yla rostidan.

Shahzoda do'stining so'ziga javob berib, qo'rq-qanini bilib, bir so'z dedi:

Jon do'stim, No'g'oydir o'ynagan joyim,
Sabil bo'lib qoldi tilla saroyim,
Izlab keldim Xolbekaday sanamni,
Yurtingda bormikan Xolbeka oyim?

Ko'zlari qoradir, qoshi qalamdi(r),
Ko'kragimga solgan qayg'u-alamdi,
Yurtingda bormikan Xolbeka oyim,
Izlab keldim Xolbekaday sanamdi.

Eshitib ol, menday do'sting so'zini,
Izlab keldim Shoir vazir qizini,
Yurtingda bormikan Xolbeka oyim,
Ot ko'targan Xolbekaning o'zini.

Alqissa, bobo qo'rboshi avvalgi qo'rqqani qo'rq-qanmi, Xolbekaning otini eshitib, siyib-siyib yubordi. «Bachchag'ar loppi o'zbek, qaysi go'rdan mening ajalimga kelgan ekan, meni xudo urgan ekan», – deb do'stiga qarab: – Sen bu shaharning rasmini bilmaysan, shu bachchag'ar kasofatning otini ayta ko'rma, bundan bulayga aslo aytma. Mendan boshqa eshitmasin, – deb bir so'z dedi:

Otdan tushgin, bo'lg'in do'stingga mehmon,
Bu so'zlaring meni qildi sargardon.

Xon eshitsa, do'stim, tayin, o'ldirar,
Ayta ko'rma, oti qursin, ko'p yomon.

Armon bilan bilmaganing bildirar,
Xanjar chekib, qora bag'ring tildirar,
Ayta ko'rma, oti qursin, ko'p yomon,
Xon eshitsa, do'stim, tayin, o'ldirar.

Oqizar ko'zingdan selob yoshingni,
Yig'latar ortingda emikdoshingni,
Ayta ko'rma, oti qursin, ko'p yomon,
Xon eshitsa, tayin, kesar boshingni.

Toza gulsan, oftob tegib so'lmagin,
Mavj urib daryoday toshib to'lmagin,
Otdan tushgin, aslo aytma, otini,
Armon bilan, jonim do'stim, o'lmagin.

To'ra qo'rboshining bu so'zlariga achchig'i ke-
lib: – Sening aytgan nomardlaring boshqadir, – deb
bobo darvozabonga qarab, javob berib, bir so'z dedi:

Foni (dunyo) barcha quldan o'tarmi,
Behbudi yo'q, kunma-kundan batarmi,
Uch oychalik yo'ldan yor izlab kelib,
O'larman, deb yorni ko'rmay ketarmi?
Do'st bo'lsang, Xolbekadan xabar ber.

Ot chopmoqqa qoyim Xizrning dashi,
Otlarni koyitar tog'larning toshi,
O'laman deb qaytarmikan mard kishi,
O'limdan qo'rqmoqlik xumsaning ishi,
Do'st bo'lsang, Xolbekadan xabar ber.

Oqizib ko'zimdan qonli yoshimni,
Mard o'g'lonman, haq o'ngarsin ishimni,
Men No'g'oydan ot ustiga minganda,
Yo'luga dov qo'ygan yolg'iz boshimni.
Do'st bo'lsang, Xolbekadan xabar ber.

Haqiqat do'stim, deb so'zladim seni,
Qilichdan seskanmas botirning tani,
O'laman, deb qaytarmikan mard kishi,
Jon do'stim, nomard deb chog'lama meni,
Do'st bo'lsang, Xolbekadan xabar ber...

Bobo qo'rboshi: – Bachchag'ar, otdan tush endi.
Bu kun yot, erta tong otsin, kunduz bo'lgan so'ng
borasan, shu yoringni ko'rasan, ko'zi tushsa o'lasan,
u yog'ini o'zing bilasan, – deb tushirib, qirq yigitini
mehmonxonaga kirgizib, xachirlarni, mehmonlarni
joylab, do'stini siylab, xizmat qila berdi.

Beklar yotdi, qo'rboshi uyiga ketdi. Qo'rboshi
xotiniga: – Men bir o'zbek bilan do'st bo'lib qoldim.
Shuning kasofati bilan o'lmay qolsam, mingga kirar
edim. Bola-chaqalarimiz bilan o'lim ketamiz. Shu
bachchag'ar loppi o'zbek qayoqdan kelib qoldi, –
deb yotib qoldi. To'raning yigitlari yotib uxlab qol-
di. Shahzodaning ko'ziga uyqu kelmay o'tirib edi,
erta sahar turib, do'stining devoridan osilib, ichki
hovlisiga qarab baqirib: – Tong otib ketdi, do'stim,
Xolbekaga bormaymizmi? Hoy, – deb shovqin so-
lib yubordi. Qo'rboshi ham chala jonsarak bo'lib
yotib edi, do'stining tovushini eshitib, irg'ib turib: –
Ko'p baqirma, borayotibman-ku, – deb chopib ol-
diga tushib, bir ko'chaga ravona bo'ldi. Besh-olti
ko'chadan qirqib o'tib ketdi, bir katta ko'chani
ustiga borib: – Do'stim, shu ko'chadan adashma,
boshqa yo'lga burilma, to'g'ri ko'shkisining oldiga
borasan, aytganingni ko'rasan, ko'zi tushsa o'lasan,
u yog'ini o'zing bilasan, – deb ketiga qaytdi.

Endi Kuntug'mish shu ko'cha bilan ravona
bo'lib, qayerga borarini bilmay, past ko'cha, rost
ko'cha, moxov ko'cha, pes ko'cha, o'zi qorong'i
ko'cha, o'zingiz ko'rgan ko'p ko'cha – bir ko'chaga

solib ketdi. Shu yurgandan yura berdi, tushga dovur yurdi, chorsining ustidan borib qoldi. Shaharning bozori ekan, odamlar qumursqaday qimirlab yotibdi. To'ra kimdan so'rarini bilmay, bozordagi odamlarga baqirib, bizning yordan ko'rganlaring bormi? – deb bir so'z aytib turibdi:

Uzoqdan kelayotibman,
G'amning loyiga botibman,
E yoronlar, birodarlar,
Men yorimni yo'qotibman.

Necha darbanddan oshibman,
Olovday bo'p tutashibman,
E yoronlar, birodarlar,
Men yorimdan adashibman.

Bog'chadan gul tergan bormi,
Elda davron surgan bormi,
Yor daragin bergan bormi,
Xolbekadan ko'rgan bormi?

Past-pastgina past ko'chalar,
Holin bilmas bir nechalar,
Bedov mingan boyvachchalar,
Boyvachchalar, bekvachchalar,
Xolbekadan ko'rgan bormi?

Eshak haydagan bovalar,
Dardingga bormi davolar,
Kalava sotgan momalar,
Xolbekadan ko'rgan bormi?

Yig'layin qanotim sindi,
Qora baxtim qora do'ndi,
Do'kondagi juhud, hindi,
Xolbekadan ko'rgan bormi?

Bozordagi odamlar: «Bachchag'ar, kasofati o'z-bak qayoqdan keldi?» – deb savdo-sotig'iga qaramay qocha berdi. To'ra odamlar to'da bo'lgan yerga borib: «Xolbekadan ko'rgan bormi?» – deb so'rasa, odamlar qochib ketar edi.

Anda bir kampir bozorga kech kelib, yarim nimcha ipini qo'liga olib: «Tortmay olsang sotaman», – deb kalavafurushlar bilan janjal qilib o'tirib edi. Qarasa, bir yosh bachcha yo'lbarsday bo'lib: «Xolbekadan ko'rganing bormi?» – deb keladi. Kampir ko'rib: «Hay attang, bu bachcha bu elning rasmini bilmas ekan, bul uzoqdan kelgan ekan. Mabodo podshoning mulozim odamlariga ma'lum bo'lib nobud bo'lmasin», – deb joyidan irg'ib turib, to'raga qarab xezlab yurib, oyog'ining betini oyog'i bilan bosib, kifti bilan bir urib o'ta berdi. Shahzoda keyiniga qarasa, bir kampir ko'chaga qarab, qoshi bilan ishorat qilib ketib boradi. To'ra: «Shu kampir bir shumlikni biladi», – deb ortidan yura berdi. Kampir ko'p yo'llarga borib, u yoq-bu yoqqa qarab: – Sen qanday odam bo'lasan? – deb to'radan so'rab, bir so'z deb turibdi:

Zulfi zarafshonim, qaydin bo'lursan,
To'ti g'azalxonim, qaydin bo'lursan,
Seni tarzing bu yerlarga kelmaydi,
Tarafsiz polvonim, qaydin bo'lursan?

Paydo bo'lding qanday gavhar donadan,
Parvoz qilib uchding manzilxonadan,
Senday o'g'lon kam-kam tug'ar enadan,
E, durri yakdonim, qaydin bo'lursan?

Musofirсан, bolam, bizning ellarga,
Quloq solgin alvon-alvon tillarga,
Sening joying tar ochilgan gullarga,
Benom-u nishonim, qaydin bo'lursan?

Qararman, ko'nglingda qayg'uman dog'ing,
Ko'zlaring qambardir, bodom qobog'ing,
Bilaging temirdan, po'lat tirnog'ing,
Ajdarho nishonim, qaydin bo'lursan?

Aylanay, qayerda o'sgan diyoring,
Bu yerlarga ne deb tushdi guzaring,
O'z elingda kimdir shohi nomdoring?
Musofir mehmonim, qaydin bo'lursan?

Sen ham bir bog'chada bog'ning gulisan,
Otangman enangning jon-u dilisan,
Men bilimda ulug' shohning ulisan,
E davri davronim, qaydin bo'lursan?

Alqissa, to'ra momoga aytdi: – E momo, Xolbekani bilasanmi? Men No'g'oy mamlakatidan uch oy yo'l yurib, shu bugun shahringga kelib turibman. Shahringning past-u balandini bilmayman; otim Kuntug'mish, otamning oti Avliyoyi Qoraxon, No'g'oy elining podshosi bo'ladi. Shunday No'g'oyday elimni, ota-enamni, xalq-qorindoshimni tashlab, shahringga Xolbekani izlab keldim.

Kampir aytdi: – E jonim bolam, oshiqligi qursin, boshga tushgan so'ng kishini devonalar qilib, el-yuridan ayirib, g'ariblar qilgan. Bu kimlarning boshiga tushmagan. Momongning ham boshiga ko'p tushgan. Esiz, davri-davronlar o'tib ketdi. Sen Xolbeka deb kelgan bo'lsang, Xolbeka mening qo'limda. Yozsam ketadi, yig'sam keladi. Yur, bolam, ikkovingni bir uyga qo'shib, oshiq-ma'shuqni murod-maqsadiga yetkazib, savobini ola qolayin, – deb uyiga ertib bordi. Kampirning bir uyi bor ekan, eshigi yo'q ekan, odamlar emaklab kiradigan teshigi bor ekan. To'ra qisila-qisila bazo'r kampirning uyiga kirdi. Kampir yugurib o'tib, bir juni qolmagan po'stakni to'raning

ostiga tashlab: – Bolam, palosning ustiga o‘t, – dedi. Shahzoda momoning uyining u yoq-bu yog‘iga qarab: «Xo‘b tentak bo‘ldik-da. Bu yerlarda Xolbekajonning o‘zi tugul, izi ham topilmas», – deb o‘ylab o‘tirdi. Anda kampir aytdi: – E xonzoda, siz uyda o‘tiring, men borib Xolbekani olib kela qolayin, qo‘yningga sola qolayin, ko‘p savob ola qolayin, – deb chiqib ketdi. Endi uyning sirtiga chiqib kampir o‘ylaydi: Xolbekaning qayoqda ekanin bilmaydi, Xolbeka deb to‘radan eshitib o‘tiribdi, kampirni vahm bosib, lol bo‘lib, o‘tirib edi, ko‘ngliga bir gap kela qoldi: «Topdim, topdim», – deb joyidan irg‘ib turdi. Kampir nimani topdi? Bir qizi bor edi, otini Zamongul der edi. Uch oycha bo‘lib edi. Xolbeka kaniz qilmoqqa olib ketib edi. Shundan bir kun ilgari «Mening ustimni yuvib bersin», – deb arz qilib olib kelgan edi.

Zamongul hovuzning bo‘yida enasining ust-bo-shini yuvib o‘tirib edi, kampir qizga qarab ravona bo‘ldi. Yo‘lda o‘ziga-o‘zi aytdi: «Mening Zamongul jonim ham to‘ladan kelgan, iylab tashlagan po‘ladan kelgan: kachkul bet, burni past, qulog‘i yuqdan kelgan, qorinli, siyroqli, bo‘rboyli – ajabtovurroq qiz, hech kim ham kamsitmaydi. Xolbeka shu deb qo‘yniga solaman-da, qo‘yaman, tanib-bilib yotibmi? Bir xonzoda kuyovli bo‘lib qolaman», – deb urib Zamongul qizining oldiga borib, bir so‘z deb turibdi:

Ichki ko‘ylaging kiyinchi,
Toblab zulfingni tuyinchi¹,
Bir munosib yoring keldi,
Zamongul, bergin suyunchi.

¹ *Tuygin ma‘nosida.*

Nomus bilan oring keldi,
Qatoringda noring keldi,
Zamongul, bergin suyunchi,
Bir munosib yoring keldi.

Ketar baxtingning qorasi,
Bitmas ko'ngilning yarasi,
Bir munosib yoring keldi,
Keldi No'g'oyning to'rasi.

Nard o'ynagin, nardin utgin,
Oshliqlikdan qonlar yutgin.
Keldi No'g'oyning to'rasi,
Otingni Xolbeka tutgin.

Kokilingning bandin tuygin,
Yarashiqqa turli kiygin,
Keldi No'g'oyning to'rasi,
Otingni Xolbeka qo'ygin.

Sening husning toza guldir,
Sanam qizlar senga quldir,
Zinhor, otim Xolbeka de,
Tayinlagan so'zim shuldir.

Kampir bu so'zlarni aytdi, Zamongulning qulo-
g'iga yoqib ketdi. Tog'orani olib urdi, ikki bo'ldi,
sobunni otib yubordi, sobunni it oldi. Quruq ki-
yimning barisini suvga bosib oldi. Bir ko'ylakka
barini solib, egniga olib uyiga qarab ravona bo'ldi.
Ko'chaga yurmay, yo'lni to'g'rilab, bir paxsa, ikki
paxsa devordan oyog'i tegmay irg'ib oshib bora-
yotibdi. Kampir tirmalab devordan osholmay, qiziga
ergasholmay, orqasidan qichqirib: «Ho' siyohbaxt,
qarab tur, besh-olti og'iz gapim bor, tayinlayin», –
desa ham Zamongul qaramay, enasi yarim yo'lga
kelguncha, uyiga kelib qo'ydi. Ustidagisini bir yer-
ga qo'yib, yuzining terlarini artib, o'ziga oro berib:

«Assalom alaykum», deb kirib bordi. To‘raning haybatiga botolmay, pastroq o‘tirdi. To‘ra bir qarab, undan keyin qaramadi. Shu fursatda momo kelib qoldi. Qarasa, ikkovi yuzma-yuz bo‘lib yerga qarab o‘tiribdi. Momo aytdi: – E shahzoda, bu yerda aslo gumontars qilmanglar, bu yerga hech kim kelmas, odam bolasi gumon qilmas, izlab kelgan Xolbekang shu. Endi ikkoving o‘ynab-kula beringlar, bilganlaringni qila beringlar. Men hov ana u ovulga olachiqqa boraman, – deb kampir chiqib ketdi.

Zamongul bir fasl, ikki fasl o‘tirdi, to‘ra gap qotmadi. Zamongul o‘ziga aytdi: «Kel e, yotib qolguncha, otib qol», degan ekan.

Necha yerlardan timsol qilib, bir so‘z dedi:

Ayo to‘ram, aytmaguncha bilmading,
Yo bilmayman, bizni ko‘zga ilmading,
Uch oychalik yo‘ldan yor izlab kelib,
Ne bo‘ldi, yor bilan o‘ynab-kulmading?

Baland tog‘ning terskay beti qor bilan,
Bozirgonning ishi lo‘kcha nor bilan,
Uch oychalik yo‘ldan yor izlab kelib,
Ne bo‘ldi, kulmaysiz, to‘ram, yor bilan?

Bu Zangarda elning so‘zlar so‘ziman,
Ovozador elatimning noziman,
Bu ellarda chin deganning o‘ziman,
Izlab kelgan Shoir vazir qiziman.

Qizlarning ichida sarvinoziman,
Sanamlar ichida jodu ko‘ziman,
Ne bo‘ldi, kulmading, to‘ram, yor bilan,
Izlab kelgan Xolbekaning o‘ziman.

To‘raning qahri kelib, har ko‘zi piyoladay bo‘lib,
ilonday to‘lg‘onib, olovday yonib, bir so‘z dedi:

Xolbekajon bu yerlarga kemasdi
Kelgan bilan men Xolbeka demasdi,
Xolbekaga mengzay berma o'zingni,
Xolbekaning shakli senday emasdi(r).

Qo'lingdan uchirib turna, g'ozingni,
Za'faronday g'am sarg'aytib yuzingni,
Xolbekaning shakli senday emasdi(r),
Xolbekaga mengzay berma o'zingni.

Oqizarman ko'zdan qonli yoshingni,
Yig'latib ortingda emikdoshingni,
Noporom so'zlarni menga so'zlama,
Kesarman, juvonmarg, tandan boshingni.

Armon bilan bilmaganing bildirib,
Xanjar chekib, qora bag'ring tildirib,
Noporom so'zlarni menga so'zlama,
Ketarman, juvonmarg, darrov o'ldirib.

Quloqqa olmasman yig'laganingni,
Xazon qilib qizil gulday taningni,
Xolbekadan gapirmagin, juvonmarg,
Qilichman to'karman yerga qoningni.

Zamongul o'ziga aytdi: «Bu yaqin ko'rgan ekan-
da, aytdim, menga qaramaydi, deb. Kel-e, endi, agar
ko'rmagan bo'lsa, o'zimni bir maqtayin, agar qahr
qilsa, qochib ketaman-ku», – deb dasti alif lom qi-
lib, gardanini xam qilib, to'raga qarab, bir so'z deb
turibdi:

Xolbeka qizning qorasi,
Menman qizlarning sarasi,
Xolbekangdan o'zim yaxshi,
Betida ovg'on yarasi.

Yarashiqqa ko'zin suzgan,
Yigitlarning jonin uzgan,
Xolbekadan o'zim yaxshi,
O'ng betini ovg'on buzgan.

Naqsh olmaday yuzim yaxshi,
Mening so'zlar so'zim yaxshi,
Xolbekang qizning sarasi,
Xolbekangdan o'zim yaxshi.

Xolbekang bir qora qizdir,
Shoh ko'zlari ola qizdir,
Xolbekangdan o'zim yaxshi,
Oshiq'larga balo qizdir.

Ishq o'tiga kuygin, to'ram,
Endi meni suygin, to'ram,
Xolbekangdan o'zim yaxshi,
Xolbekangni ko'ygin, to'ram.

Alqissa, to'raning achchig'i kelib, isfihon shamshirning dastasiga qo'l soldi. Zamongul shoshib, surunib dalaga chiqaman, deb manglayini bo'sag'aga urib oldi. Bir kavush oyog'iga ilindi, birovi ichkari qoldi. Shu chopgandan hovlining u boshiga yugurib borib, orqasiga qarasa, hech kim yo'q. Asta keyiniga qaytib eshikdan siyg'alab qarasa, to'ra shu o'tirishida o'tiribdi. Ichkari kirib, kavushini olayin desa, to'raning haybatidan qo'rqib, to'raga qarab bir so'z degani, to'ra javob bergani.

S a v o l :

Quloq sol, to'rajon, aytgan so'zima,
Jimma-jimma yoshim to'lgan ko'zima,
Xolbekani men ko'rsatsam, to'ramjon,
Kirasiga ne berasan o'zima?

J a v o b :

Sen tila, qatorda beray norimni,
Nor ustiga yuklab beray zarimni,
Avval Xolbekani ko'rsat ko'zima,
Andin so'ngra olgin har darkoringni.

S a v o l :

Qizlar bilan sayr etmoqqa bog' yaxshi,
Qimorbozlar o'ynamoqqa joq yaxshi,
Necha-necha nasiyangdan kuyganman,
Harna bersang, to'ram, bizga naq yaxshi.

J a v o b :

Mard o'g'lonman, ishim haqdin ko'rayin,
O'lmasam dunyoda davron surayin,
Nasiyadan kuygan bo'lsang, Gulzamon,
Esa tila, maqsadingni berayin.

S a v o l :

Sening husning mening aqlim oladi,
Zulfing ofat, har xayolga soladi.
Mol-u dunyong darkor emas Zamonga,
Bir oqshom qo'ynimda yotsang bo'ladi.

To'ra yotsam yotayin, deb rozilik berganday bo'ldi... To'ra aytdi: – Xolbekaga bormaymizmi? Zamongul aytdi: – Bugun yotsangiz ekan. Kuntug'mish aytdi: – E, Zamongul, esing yo'q qiz ekan-san. Men Xolbekaga borgan bilan oldimmi, bir to-moshayi jamol uchun ko'rmak havasidaman. Borib ko'rsam, kunda kechkisin qaytib kela beraman-da, – dedi. Zamongul ahmoq qiz edi: – To'ram, shunday qiling, boshqa yerga bormang, kunda biznikiga kela bering, – deb oldiga tushib keta berdi. Xolbeka-ning ko'shkiga yaqin borgandan keyin Zamongul

aytdi: – To‘ram, pulingiz bormi? Agar pulingiz bor bo‘lsa, shu turgan tim, quruq turganingiz bo‘lmas, ikki bo‘g‘cha mol olib chiqsangiz, ko‘shkning ostida yoyib o‘tirsangiz, darrov Xolbeka chiqadi, ko‘rasiz, ko‘zi tushsa o‘lasiz, u yog‘ini o‘zingiz bilasiz, – deb o‘tib ketdi.

To‘ra timga kirib, ikki bo‘g‘cha mata¹ sotib olib, bazzobachcha bo‘lib, Xolbekaning ko‘shki ostida matalarini ko‘shkning devorlariga suyab, mollari-ni yoyib o‘tirib edi. Bir vaqt qarasa, Xolbeka qir-qin qizi bilan, necha sarvinozi bilan, qancha jodu ko‘zi bilan ko‘shkiga chiqib borayotibdi. Bu yog‘ida to‘qson besh, bu yog‘ida to‘qson besh – o‘ni kam ikki yuz kokili bor, bir yog‘ini tilla suvga botirgan, bir yog‘ini nuqra suvga botirgan, tong shamoliga qotirgan. Ko‘zi jovdirab, zulflari shovdirab, zulfi-ning jilosi yuziga urib, yuzining jilvasi zulfiga urib, yashin tushganday bo‘lib, musichalar, to‘rg‘aylar, g‘azalaylar Xolbekaning jamoliga oshifta-yu shay-do bo‘lib, egniga tegib uchib borayotibdi. Shahzoda Xolbekaning jamolini ko‘rib, qayqayib turib, biqini-ni ushlab, labini tishlab, ko‘zini yoshlab, iyagi qaltirab, ko‘zi yaltirab, qulog‘i bitib, hisobi yitib, aqlidan ketib, «Sad ofarin husni jamolingga», deb dovushi-ning boricha baqirib, «Bu yoqqa kel deyman», deb chaqirib, bir so‘z deb turibdi:

Bandaman yuzda xolingga,
Sening qilgan xayolingga,
Shuncha vaqtlar intiq bo‘lib,
Bugun yetdim jamolingga...

Qirqin qizi birday bo‘lib,
Bog‘da ochilgan gulday bo‘lib,

¹ *Mato.*

Jannatdagi hurday bo'lib,
Xolbeka chiqdi ko'shkiga.

Qirqin qizi gulday jaynab,
Hammasi suqsurday bo'ylab,
O'z zulfiman o'zi o'ynab,
Xolbeka chiqdi ko'shkiga.


Oyim qirqin qizi bilan,
Necha jodu ko'zi bilan,
Oltmish ikki nozi bilan
Xolbeka chiqdi ko'shkiga.

Nozi bilan bir-bir bosib,
Mushk-u anbar, yipor sasib,
Ko'rganing ko'kayin kesib,
Xolbeka chiqdi ko'shkiga.

Mavj urib, daryoday toshib,
Ko'rganlarning aqli shoshib,
Qoshi ko'ziga yarashib,
Xolbeka chiqdi ko'shkiga.

Xolbeka bir oyday bo'lib,
Qoshi sari yoyday bo'lib,
Asovligi toyday bo'lib,
Yuvoshligi qo'yday bo'lib,
Noz bilan kulib so'ylasa,
Mayin sari moyday bo'lib,
Silkinib chiqdi zinaga.

Olg'ir qarchig'ayday bo'lib,
Nozi bilan bir-bir bosib,
Ming qo'yi bor boyday bo'lib,
Xolbeka chiqdi ko'shkiga, –



deb baqirib-chaqirib turgan vaqtida, Xolbeka oyim pastga qarasa, bir o'zbek: «Xolbeka qizlari bilan ko'shkgiga chiqdi», – deb shovqin solib turibdi.

Xolbeka ko'shkining ustiga chiqib ketdi. O'z joyiga borib o'tirib, yuzidan niqobini olib, olamga nazar solib, tomosha qilib, qizlaridan so'radi: – E kanizlar, pastdagi turgan odamdin xabarlaringiz bormi, sog'mi, tentakmi?

Shunda kanizlarning ichida Chaqqon kaniz degan bir qiz bor edi. Shu turib arz qildi: – E buvushim, pastda turgan o'zbek yangigina Zamongul bilan birga kelgan edi. Men ko'rib tanib oldim. U chala bazzoz bo'lib o'tiribdi, – degandan Zamongul: – Odamlar so'qmoq bilan shunday gapirib qo'ya beradi, ko'rsak, ko'r bo'layik, ko'zimiz chiqsin, – deb turibdi. Xolbeka aytdi: – E qizlar, yaxshi bo'libdi. Agar bazzoz bo'lsa, Zamongul bilan Chaqqon, ikkovning borib har tusli matalaridan bir olchin-bir olchin olib kelinglar. Ko'raman, o'z yurtimning moli bo'lsa, meni ko'rmoq uchun kelib o'tirgan, o'zini o'ldirib, jazosini beraman va agar ikki oylik, uch oylik yerning matasi bo'lsa, mening rasmimni bilmaydi, mollarini talatib, o'zini badarg'a haydab yuboraman, – deb Chaqqon bilan Zamongul kanizini yubordi. Ular ko'shkidan pastga tushib to'raga qarasa, sherday haybatiga, ajdarday suratiga, Rustamday quvvatiga, arslonday siyosatiga, bulutday savlatiga bosib kelolmadi, moliga xaridor bo'lolmadi, molini ololmadi. Chaqqon hayron bo'lib, Zamongul uzoqdan betini berkitib, qoshiga yo'lamay qochib yuribdi. Alhol, ikkovi Xolbekaning oldiga qaytib chiqib ketdi.

– Ha, kanizlar, matalaring qani? – dedi.

Shunda Chaqqon joyidan turib, dasti alif lom qilib, gardanini xam qilib, bir soʻz dedi:

Mard oʻgʻlonga davron ikki kemasdi,
Mard oʻlmay haqini dushman yemasdi,
Bilganimni bir-bir bayon aylayin,
Kelgan odam sira bazzoz emasdi(r).

Beliga boylangan olmos qiyogʻi,
Koʻnglida koʻp ekan qaygʻuman dogʻi,
Koʻzlari qambardir, bodom qabogʻi,
Bu odamga oʻxshamaydi siyogʻi,
Bilagi temirdan, poʻlat timogʻi,
Yigitning tuygʻunin koʻrdim, buvushim.

Oʻzi sardor ekan, sardor saboqli,
Ot ustiga mingan kuni oʻmoqli,
Xaloyiqqa yomon kuni kerakli,
Qarchigʻay kelbatli, burgut qaboqli,
Yigitning lochinin koʻrdim, buvushim.

Muncha xushroʻy boʻpti, haqning farmoni,
Uni koʻrganlarning ketar darmoni,
Unga tekkan qizning yoʻqdir armoni,
Bir taʻrif aylayin, kuygin, buvushim.

Yoshliginda adab opti mulladan,
Bir zuvala ortiq kelgan ollodan,
Bir kokili nuqra, biri tilladan,
Zulfi zarafshonni koʻrdim, buvushim.

Gapirsa keladi gapning maʼquli,
Mard oʻgʻlonning boʻlar pirga doxili,
Biri nuqra, biri tilla kokili,
Bihishtning gʻilmonin koʻrdim, buvushim.

Qirgʻiy degan qushlar boʻlar qiyoda,
Oʻlimcha yomon ish bormi dunyoda?

Suluvligi, buvim, sizdan ziyoda,
Parizod insonni ko'rdim, buvushim.

Kokilingning bandin tuygin, buvushim,
Yarashiqqa turli kiygin, buvushim,
Bir ta'rif aylayin, kuygin, buvushim,
Meni desang, shuni suygin, buvushim,
Dunyodan bearmon o'tayin desang,
Olmaday iskalab yotayin desang,
Erga tegsang, shunga teygin¹, buvushim.

Xolbeka oyimning qahri kelib, ilonday zahri kelib: – Men senga mata olib kel desam, sen menga er topib kelar ekansan. Mencha bo'ldiyu, bo² ziyoda ham qoldimi? – deb qahri bilan Chaqqonga bir changal solib, qirq zinalik ko'shkidan siltab otib yubordi. Bechora Chaqqon yerga tushgancha bo'lak-bo'lak bo'lib ketdi. Bahragul vaziriga farmon qildi: – Zamongul bilan borib, har tusli matasidan bir olchin-bir olchin olib kel, – deb qaytadan yubordi. Bahragul ham to'raning haybatiga kelolmay, quruq qaytib ketdi. Xolbeka aytdi: – Bahragul, olib kelgan matalaring qani?

Bahragul Xolbekaga qarab bir so'z deb turibdi:

Buvushim, ul odam bazzoz emasdi(r),
Jondan kechmay bu manzilga kemasdi,
Bilganimni bir-bir bayon aylasam,
Bazzozlarning shakli unday emasdi(r).

Bir o'g'londir, misli daryoday toshgan,
Zulflari o'ralib gardanga tushgan,
Yuzlari qizarib olmaday pishgan,
Bormoqqa har kimning aqli shoshgan.

¹ Tekkin.

² Yana, ustiga-ustak.

Qoshida donolar soʻzdan adashgan,
Dushmani sher boʻlsa, qaytmay savashgan,
Mingan oti, kiygan toʻni yarashgan,
Jamoliga qaragan koʻz qamashgan,
Nur yuziga oy-u oftob talashgan.

Bilganimni bir-bir bayon aylasam,
Ikki koʻzdan oqqan qonli jalasi,
Isfihonni tebratadi qilgan nolasi,
Doyim¹ rahm aylasin tangrim tolasi,
Men bilgimda ulugʻ shohning bolasi.

Bilganimni bir-bir bayon aylayin:
Beklar minar bedov otning tolmasin,
Mard boʻlib beliga boylab olmasin,
Judolikni qodir egam solmasin,
Bu zohirda yomon kuni boʻlmasin,
Seni izlab Noʻgʻoydan toʻra kelmasin,
Gumonim shu, xon Kuntugʻmish boʻlmasin,
Qodir mavlon mening aqlim olmasin.

Husni ofat, har xayolga solmasin,
Chaqqonday buvushim gʻazab qilmasin,
Doʻst-dushmanga bu soʻz shoyon boʻlmasin,
Kelgan odam sira bazzoz emasdi(r),
Noʻgʻoydan Kuntugʻmish toʻra kelmasin.

Shonaman zulflari toblab oʻrayik,
Har ish boʻlsa yaratgandan koʻrayik,
Bazzoz bilan sening ishing boʻlmasin,
Koʻshkidan hovliga qaytib borayik,
Shu bazzozni olib borib oldingga,
Ahvolini oʻzidan, buvum, soʻrayik.

Xolbeka oyim: – Yaxshi maslahat berding, – deb
sirini ichida poʻshida qildi.

¹ Doim.

Podsho nog'orani urdi, qizlar ham pastga qarab yurdi, kelib xos manzilga kirdi. Anda Xolbeka oyim zarrin peshtoqli ayvonlarni bezab, qirquin qizni yasab, bor shohona kiyimlarini kiyib, o'ziga oro bera berdi. To'rtta darbon kanizlarini buyurdi: – Shu bazzozbachchani olib kelinglar, kelmaganiga qo'ymanglar.

Endi so'zni Kuntug'mish to'radan eshiting. Qizlar pastga tushib ketib edi, matalarni yig'ib, boylay berdi: «Foydani biz qildik, savdoni tamom qildik, kunda sahar kelmoq darkor, qizlar pastga tushgan-cha shu yerda bo'lmoq darkor», – deb bo'g'chalarini qo'ltig'iga olib ketib borayotir edi. Qizlar qarasa, bazzoz jo'nab turibdi. Qizlar orqasidan chaqirib, qarab tur, – deb bir so'z dedi:

Qizil gul ochilur g'unchadin g'uncha,
Toqatim yo'q yana gul ochilguncha,
Sen savdogar bo'lsang, qizlar xaridor,
Tura tur, bo'yingdan, savdogarbachcha.

Senga tolib, bilsang, bu yerda necha,
Oshiqning zavqidir qorong'i kecha,
Sening bilan qizlar savdo qiladi,
Tura tur, bo'yingdan, savdogarbachcha.

Sening husning mening aqlim oladi,
Xulqing ofat, har xayolga soladi,
Tura tur, bo'yingdan, savdogarbachcha,
Sening bilan qizlar savdo qiladi...

O'q o'tsa, merganning o'qi zirlaydi,
Qamchi tegsa, chin bedovlar pirlaydi,
Sen savdogar bo'lsang, qizlar xaridor,
Kelsin dedi, sizni buvum charlaydi.

Alqissa, to'ra ketiga qarasa, to'rt qiz «to'xta-chi, to'xta», – deb chopib keladi. Avvalgi ikki mar-

ta kelgan kanizlardan ham xabari bor edi. To'ra to'xtamay: – E qizlar, meni to'xtatib nima qilasizlar, mata olaman desang, timdan ola ber, lekin men xotin kishi bilan savdo-sotiq qilmayman, – deb keta berdi. Qizlar aytdi: – E, bazzozbachcha, buvushim sizni olib kel, – deb bizlarni buyurdi. Bizlar buvimning oldiga olib boramiz.


To'ra aytdi: – Bizlar, o'zbek odam, tojikingga tushunmaymiz, buvushing qanday jondor, erkakmi, urg'ochimi?

Qizlar: – Voy-bo'y, ne balosi keldi, siz qanday odam edingiz, bizlarning kattamizni bilmagan? Bizlar shuning kanizimiz.

To'ra aytdi: – A, buvung sizlarning kattalaring bo'lsa, u ham ayol ekan-da. Men xotin bilan savdo qilmayman. Xotin degan o'zini pishiq bilib, bir pul uchun talashib, odamning ko'nglini qora qiladi. Bor, bormayman, – dedi. Qizlar aytdi: – Bormaysan? Bormaganingga qo'yasmiz, seni sudrab olib boramiz.

Ikki qiz ikki bo'g'chasini tortib olib, ul ikkovi to'raning ikki qo'ltig'idan kirib, oyog'ini yerga tegizmay, olib keta berdilar.

Xolbeka oyim qizlarini yasab, o'zlariga oro berib, xos mehmonxonasida yigirma qizini bu yog'iga o'tqazib, yigirmasini bu yog'iga o'tqazib, zich bo'lib o'tirdi. Qizlarga tayin qildiki: – Shu odam eshikdan kelsa, bittang joy bersang, yo o'ringdan tursang, o'ldiraman, – dedi. Shu vaqtda to'ra borib qoldi: – Assalomu alaykum, – deb eshikdan kirib bordi. To'rani ko'rgandan, Xolbeka oyim joyidan irg'ib turib: – Vaalaykum assalom, to'rga o'ting, – deb o'zi poygaga yugurib o'tganini bilmay qoldi. Xolbeka turib edi, qirqin qiz gurullab bari joyidan turdi.



Xolbeka to'raga taxtning ustidan joy berib, qo'liga
bir piyola qand choy berib, qizlariga avvalgi aytgan
so'ziga tirra bo'lib, to'raga yo'l bo'lsin, – deb bir
so'z dedi:

Ol-ol bo'lsin, ol-ol bo'lsin, ol bo'lsin,
Ko'ngli suysa, yorning labi bol bo'lsin,
Qanday qo'rqmay kelding ajalxonaga,
Jondan qo'rqmay yurgan jonim, yo'l bo'lsin?

Bu yerlarga ne go'zallar yig'ilgan,
Oltin piyolaga maylar quyilgan,
Kelgan ketolmagan, bari so'yilgan,
Jondan qo'rqmay yurgan yorim, yo'l bo'lsin?

Bu yerlarga ne yo'lbarslar kelgandi,
Bizning bilan dasti daroz bo'lgandi,
Kelgan ketolmagan, bari o'lgandi,
Jondan qo'rqmay yurgan jonim, yo'l bo'lsin?

Xabaring yo'q sening qilgan ishingdan,
Ayrilib kelibsan teng-u to'shingdan,
Qaytib kelding qo'rqmay, bachcha, boshingdan,
Jondan qo'rqmay kelgan jonim, yo'l bo'lsin?

Jallod qizlar tashna sening qoningga,
Xanjar qo'yar qizil gulday taningga,
Qanday rahming kelmay shirin joningga,
Jondan qo'rqmay kelgan jonim, yo'l bo'lsin?

So'zlagin, qayerda o'sgan diyoring,
Ne deb tushdi bu yerlarga guzaring,
O'z elingda shohing kimdir, nomdoring?
Qo'rqmay yurgan jonim, senga yo'l bo'lsin?

Sen ham bir bog'chada bog'ning gulisan,
Rasulga ummat, xudoyimning qulisan,
Qaysi yurtda qaysi shohning ulisan,
Jondan qo'rqmay yurgan jonim, yo'l bo'lsin?

To'ra Xolbekaning jamolini ko'rib, yuz shavqi-zavqi bilan ko'ngil berib, Xolbekaning bu vahshatiga hayron qolib, noziga qoyil bo'lib, husniga moyil bo'lib, odamni o'ldiradigan jallod qizlaring qaysi? – deb bahodirlik tomirlari harakatga kelib, ayol degan kishining qo'lidan nima keladi, deb Xolbekaga qarab bir so'z deb turibdi:

Foniy dunyong barcha quldan o'tarmi,
Kuysin o'lim, barchani yig'latarmi,
Uch oychalik yo'ldan bir yor izlab kelib,
O'laman, deb yorin ko'rmay ketarmi?

Oh urib to'kkanman ko'zdan yoshimni,
Mard o'g'lonman, haq o'ngarsin ishimni,
No'g'oydan ot minib senga chiqqanda,
Yo'lingga dov degan yolg'iz boshimni.

Omonat, sanamjon, odamning joni,
Qilichdan seskanmas botirning tani,
Jondan kechmay bu yerlarga kelmaydi,
O'limdan qo'rqadi, deb aytmagin mani...

O'lim yolg'iz, hech kimim yo'q qoshima,
Kim rahm etar ko'zdan oqqan yoshima,
O'laman, deb mard talabdan qaytmaydi,
Senikiday lachagim yo'q boshimda.

Xolbekaning qahri kelib, ilonday zahri kelib, qir-qin qizlarga qarab bir so'z dedi:

Og'ziga gap solsam, gapim olmaydi,
O'zbek ekan, bilganidan qolmaydi,
Olib kenglar, qir-qin qizlar, nardimni,
Ajal haydab kelgan ekan, bo'lmaydi.

Sinab ketsin nomardimni, mardimni,
Minib ketsin bedovimni, otimni,
Ajal haydab kelgan ekan, bo'lmaydi,
Olib kenglar, qirqin qizim, nardimni.

Albatta, eshitgan mening shartimni,
Kimga aytayin, do'stlar, ichki dardimni,
Ajal haydab kelgan ekan, bo'lmaydi,
Olib kenglar, qirqin qizim, nardimni.

Bek bo'lib minibdi otning tolmasin,
Beliga boylabdi keskir olmasin,
Olib kenglar, qirqin qizlar, nardimni,
Yosh bachcha-de, hech armoni qolmasin.

Yangilmaydi endi aytgan so'zidan,
Ko'llarning uchirgan turna, g'ozidan,
Harna bo'lsa, to'ra ko'rsin o'zidan,
Domongir bo'lmasin Zangar qizidan.

Ikki qiz bo'langlab joyidan turdi,
Bordi-da, oyimning nardin keltirdi,
Yigirmadan bo'linishib kanizlar
O'tirib nardining donasin terdi;
Ikki shahzod chorzoni bo'p o'tirib,
Kisht, deyishib ikkovi o'ynay berdi.

«Zangarning elinda manzirim, joyim,
Ko'kraginga solma qayg'uman voyim, –
Qirq kaniz dilida aylar munojot, –
Shahzodaga iqbol bergin, xudoyim.

Bu zolim to'kmasin yerga qonini,
Qabul qil qizlarning yig'laganini,
Shahzodaga iqbol bergin, xudoyim,
Borib ko'rsin No'g'oyda makonini,
Omon saqla vallamatning jonini.

Rivoj bergin shahzodaning ishiga,
Yomon savdo kasod qilar kishiga,
Shahzodaga iqbol bergin, xudoyim,
Ko'p savdo solmagil yolg'iz boshiga.

Armon bilan bilmaganin bildirar,
Xanjar chekib qora bag'rin tildirar,
O'zing rahm aylagin, nodon qo'ziga,
Utsa¹ rahm aylamas, mardni o'ldirar».

Ikki tolib bir-biriga duch bo'ldi,
Jamoliga shahzod vaqti xush bo'ldi,
Choshtgohda qurildi oyimning nardi,
O'ynay-o'ynay biling rosa tush bo'ldi.

Shahzoda to'kadi ko'zining yoshin,
Xolbeka, deb qattiq tutdi koyishin,
Ikki barno utisholmay o'tiri²,
Kun bo'ldi shu vaqtda, bilinglar, peshin.

Xolbeka, deb shahzod xun ila jigar,
Mot bo'lsa rahm etmas, qonini to'kar,
Utisholmay o'tiribdi ikkovi,
Shu vaqtda bo'libdi nomozidigar.

Shom bo'libdi, bular judo bo'lmaydi,
O'yini bularning odo bo'lmaydi.
Ikki barno kisht deyishib o'tiri,
Qaysisin utarin kishi bilmaydi.

Shahzoda utsam deb jonini sotar,
Va lekin utguncha ko'p erur xatar.
Kisht dedi, o'ynay berdi ikkovi,
Shu vaqtda kun bo'ldi, bilinglar, yotar.

¹ *Yutsa.*

² *O'tirar.*

Yig'lamay, naylayin, qismati qatti'¹
Nard uchun shahzoda jonini sotdi,
Utisholmay o'tiribdi ikkovi,
Shu vaqtda tun yarim oqshomdan o'tdi;
Balki o'tib, biling, saharga yetdi,
Shahzoda dilinda munojot etdi.


Uzoqda qolgandir manzirim, joyim,
Sabil bo'lib qoldi tilla saroyim,
Giriftor aylama zolim qo'liga,
O'zing obro' bergin, qodir xudoyim.

Uzoqda qolgandir manzil, diyorim,
Bexabar qolgandir ko'p ich kuyarim,
Men dar qoldim bu zolimning qo'lida,
O'zing obro' bergin parvardigorim...

Kosa olib sharob ichgan qirq chilton,
Xizr Ilyos pirim, yo shohi jahon,
Bu qizning qo'lida qo'yma sargardon,
Bu mushkul ishimni aylangiz oson...

Xolbeka oyimning ko'ziga bir uyquyi g'alabani
keltirdikim, uyquning mastligidan hushini yo'qotib,
g'aflat xayoli bilan bir kishitni bejoy bosib yubordi.
Shu vaqtda tong yorib, subh bo'ldi. Shahzoda Xol-
bekaning g'aflat uyquga ketganini bilib, bir kisht-
ni bejoy bosib, Xolbeka oyimni mot qildi. Xolbeka
hushiga kelib qarasa, shahzoda mot qilib o'tiribdi.
Joyidan turib, izzat qilib: – Mening shartimni bajo
keltirding, men seniki bo'ldim, – deb ikkita much-
chini shahzodaga naqd berdi. Bazm, suhbatini qurib,
aysh-u ishratini qila berdi. Bularni aysh-u ishrat qil-
moqda qo'yib, endi ikki kalima so'zni shu shahar-
ning podshosi Buvraxondan eshiting.

¹ *Qattiq.*



Xolbekaga oshiq bo'lgandan so'ng, u ham qirq zinali nog'oraxona qildirib edi. Xolbekaga kishi yuborib aytgan ediki: «Har kun namoz vaqtidan kichik choshtgohga dovur ko'shkisiga chiqsin, yuzidan niqobini olsin, olamni tomosha qilsin». Shu sababdan har kun bir marta Xolbeka ko'shkiga chiqar edi, bir soat turar edi. Podsho ham nog'oraxonaga chiqar edi, shu joydan Xolbekaning tomoshayi jamolini ko'rar edi. Shahriga jarchi qo'yib qichqirtgan edi: «Har kim podshoning nog'orasini eshitmay, podsho nog'oraxonadan tushmay (dalaga chiqmasin)». Har vaqt podsho pastga qaytar bo'lsa, nog'orani urib qaytar edi. Ahli shahar muayyan eshitar edi. Undan ilgari hech kim dalaga chiqolmas edi. Amri podsho shu ediki: «Har kim tomga chiqsa, eshikdan qarasa, teshikdan qarasa – boshi o'limda, moli talovda», – deb edi.

Alhol, podsho uch kun nog'oraxonaga chiqdi, Xolbeka oyim ko'shkiga chiqmadi. Podsho ikki yuz jallod, to'rt yuz mirg'azabni buyurdi: – Borib ko'ringlar, Xolbeka kasal bo'ldimi, yo ish o'sal bo'ldimi?

Podshoning hukmi bilan jallod, mirg'azab bosib kela berdi. Kam aql barcha kanizlar Xolbekaning tobi yo'q deb aytolmay, jallodlardan qo'rqib, ol keldi, – deb qocha berdi. Mirg'azablar: «Bir shumlik bo'lgan ekan», – deb hujralarning eshigini buzib kela berdi. Qirq uch hujra ichkima-ichki, bir-birining ustidan bo'lgan edi, bir tarafi Xolbekaning ko'shki edi. Bahragul chiqib qarasa, jallodlar qariyb o'ttiz hujrani buzibdi, kanizlar yig'lab, chuvlab qochib kelayotibdi. Anda Bahragul Xolbekaning oldiga kelsa, olamdan bexabar, to'rasi bilan bir to'shakda uxlab yotibdi. Shunda Xolbekani uyg'otib, jallodlardan xabar berib, bir so'z dedi:

Oqizib ko'zingdan qonli yoshingni,
Xudoyim o'nglasin sening ishingni.
Shohdin farmon bo'ldi, keldi mirg'azab,
Buvushim, uyqudan ko'tar boshingni.

Rivojing ayladim xudodan talab,
Doim ishing edi ilm ila adab,
G'aflatdan ko'targin, buvum, boshingni,
Shohdan farmon bo'ldi, keldi mirg'azab.

Oyimlar shonaman zulfin taradi,
Shona tashlab qora zulfin o'radi,
G'aflatdan ko'targin, buvum, boshingni,
Seni deb bir yo'lbars o'lib boradi.

Quloq solgil kanizingning tiliga,
Bulbul oshno bo'lar bog'ning guliga,
Uyqudan ko'targin, buvum, boshingni,
Tushar bo'ldik zolimlarning qo'lga.

Mergan otar suvsiz cho'lining g'ozini,
Kim ko'tarmas sanam yorning nozini,
Eshitib Bahraning aytgan so'zini,
Uyqudan Xolbeka ochdi ko'zini.

Alqissa, to'ra ham uyg'onib qarasa, to'rt yuz
mirg'azab, ikki yuz jallod, haybat boltasi qo'lida,
keskir xanjari belida kelib qolibdi. To'ra aytdi: – E,
Xolbekajon, dunyoga kelmoqdan murod – o'lmoq;
bog'ona¹ seni olmay o'lib ketganimda, yuragim-
da ot boshiday armon ketar edi, alhol bir kun ham
bo'lsa, bir yil ham bo'lsa, ming yil ham bo'lsa, ol-
dim, maqsudimga yetdim, dunyodan armonim yo'q.
Endi shu yomonlarning qo'lida o'lgancha, xudoning
yo'lida o'lsam bo'lmasmi? Xolbeka: – Men ham
qabul qildim, – deb ikkovi birov-birovini qo'lma-

¹ *Boya.*

qo‘l ushlab, quchoqlashib, ko‘shkdan o‘zini tashlab yubordi. «Haq saqlasa balo yo‘q, haq qarg‘asa davo yo‘q», o‘tning ichida paxtani saqlaydi. Ikkovining ham ko‘ylagiga shamol kirib, misli qanotday bo‘lib, beozor, sihat va salomat yerga tushdi.

Xolbeka g‘ururi husnda hech kimni odam demay yurgan edi, qayoqqa borarini bilmay: – E to‘ram, oshnoxonang¹ bormidi? – dedi. Anda shahzoda yorining qo‘lidan ushlab, kampir enasinikiga olib qochib ketdi. Kampir joyidan turib, shahzodaning boshidan parvona bo‘lib, aylanib, tomining ichida bir go‘salaxona-o‘rachasi bor edi, ikkovini shu o‘raga solib, ustidan taxtayini qo‘yib, ustidan po‘stagini solib, charxini oldiga olib, paxta ipini yigirdi-da, o‘tirdi.

Podshoning jallod, mirg‘azablari Xolbekani topolmay, hamma manzillarini buzib: «Xolbeka qochibdi», – deb qaytib bordi. Podsho bu so‘zni eshitib, uyquda edi, bedor bo‘ldi – uyg‘ondi; yo mast edi, hushyor bo‘ldi, balki jonidan, jamiy umridan bezor bo‘ldi. Xolbekaning ishqiga toqat qilolmay, darvoza-darvozaga odam qo‘yib berkitdi. Hech kimni dalaga chiqqali qo‘ymadi, hammaga yo‘l band bo‘ldi. Jarchilar: «Har kim Xolbekadan xabar bersa, balki qoshidagi jo‘rasi bilan olib kelsa, bo‘yi barobarli zar beraman», – deb ko‘chama-ko‘cha, guzar-ma-guzar, mahallama-mahalla chaqirib yuribdi. Bir taftish, taraddud bo‘ldi, shaharning ichi ostin-ustun, taloto‘p bo‘lib qoldi. Kampir jarchilarning so‘zini eshitib: «Podshoning zari boshidan qolsin, menga oshiq-ma’shuqning alqagan savobi ham bo‘ladi», – dedi.

Uch kun shaharga chaqiruv bo‘ldi. Uch kundan keyin bo qichqirdi: «Har kimning hovlisini, uyini

¹ *Tanish, qarindosh, oshno, do‘stning xonasi, uyi.*

podsholik odamlari borib qaraydi, har kimnikidan topsa, o'zini o'ldirib, molini talaydi».

Kampir bu so'zni eshitib qo'rqdi. Kuntug'mish to'ra bilan Xolbekaga: – E bolalarim, mening uyimni qarab o'tib ketgancha, podshoning bir ko'hna somonxonasi bor, shunga olib borib qo'yayin, uyimni ko'rgandan keyin sizlarni tag'i qaytarib olib kelaman, – deb ikkovini oqshom hech kimga ko'rsatmay, podshoning somonxonasiga olib borib berkitib ketdi.

Endi gapni kimdan eshiting.

Podshoning Zamonqul degan bir qari eski quli bor edi. Davlatxonaga somon darkor bo'lib qoldi. Yigirma-o'ttiz qanorni olib kelib, somonga yotqizib, somondan tiqib joylay berdi. Yigirma qanor tiqib edi, o'ntasi qolib edi, ikkovi juppay bo'lib, og'ziga yiqilib qoldi. Zamonqulning ko'zi tushdi, tura solib qochdi. «O'zim ham gumon qilib yurar edim, ajinasi bor deb, narmoda ekan», – deb qocha berdi. Xolbeka oyim orqasidan xez qilib quvdi. Zamonqul ushlatmay, dalaga qochib chiqib, orqasiga qarasa, Xolbeka eshikning oldiga kelib qopti. To'ra shu joyida turib qolibdi. Shunda Xolbeka elanib-yolborib, qulni al-dab bir so'z deb turibdi:

Oqizing ko'zidan qonli yoshini,
Uchiring qo'lidan davlat qushini,
Tan bag'ishlab, bobo, sizga tegayin,
Kelib kesgin shahzodaning boshini.

Armon bilan bilmaganin bildirgin,
Xanjar chekib qora bag'rin tildirgin,
Tan bag'ishlab, bobo, sizga tegayin,
Endi kelib shahzodani o'ldirgin.

Kokilimning bandin toblab tuyayin,
Yarashiqqa turli libos kiyayin,

Kesib olgin shahzodaning boshini,
Tan bag'ishlab, bobo, sizga tiyayin.

Alqissa, Zamonqul Xolbeka ekanligini tanib:
«Baxti badga qaytgan bachchag'arga qara, meni
sehr-nayrang bilan firib-fusun qilaman deydi, bo-
bong bu soqolni qayerda oqartgan», – deb Xolbeka-
ga qarab bir so'z dedi:

Ko'zlari qambarsan, qoshi qalamsan,
Ko'rganlarga solgan qayg'u-alamsan.
Senday sanam menday qulga tegarmi,
Jodugar, sehrgar, battol sanamsan.

Qochmoqqa qo'ymassan, yo'lim to'sarsan,
Poralab-poralab go'shim o'sarsan,
Jodugar, sehrgar, battol sanamsan,
Aldab ushlab Zamonqulni bosarsan.

Shahzodangni sira ko'zing qiyarmi,
Senday sanam qora zulfni tuyarmi,
Aldab ushlab Zamonqulni bosmoqchi,
Senday barno menday qulga tiyarmi?

Zamonqul shohdan suyunchi oladi,
Bek Zamonqul beglarbegi bo'ladi,
Beglarbegi nasib qilsin o'ziga,
Bandi boshi ozod bo'lib qoladi.

Alqissa, Xolbeka la'limi qasamlardan ichib: –
Shu so'zimdan qaytsam, yelkamning chuqurin
ko'rmay o'layin, bosgan izim orqamda qolsin, – deb
shunday «katta» qasamlardan ichib, Zamonqulni ar-
bab¹ turib edi. Zamonqul ham firib yemas edi, lekin
tomoshayi jamol qilib turib edi.

Uzoqdan so'zlashib turgan vaqtda bir Mutavalli
kal degan benavo shu guzarining podasini boqqan

¹ Avrab.

edi. Bir qallob chatoq qilib, ikki podaning haqini bermay yurib edi. Unda kal: «Podshoga borib, o'ttiz podaning haqi, deb uyini kuydirib yubormasam», – deb ko'chada kelar edi. Qulog'iga gung-gung odamning dovushi kelib, devorning teshigidan qarasa, to'ra tomning to'rida, Xolbeka o'rtada, Zamonqul eshikning oldida gaplashib turibdi. Kal... chopib ketdi. Podshoning taxtining oldiga borib dustuman yiqildi. Anda darbonlar: – Tur e, sassiq kal, – deb tepki ostiga oldi.

Kal: – Tepma, xushxabar keltirdim, – deb edi, podsho aytdi: – Ayt, e, o'ldim, bo'ying barobarli zar beraman.

Anda kal aytdi: – Bo'yim barobarli zaring bir kunlik ichkiligimga bo'lmaydi.

– Ko'p katta xarj kal, agar topsa, – dedi podsho. – Esa, nima olasan? Kal aytdi: – Qo'rg'onxonni, qo'rg'on.

Podsho aytdi: – Bor, falon qo'rg'onni senga berdim, o'lgancha yeb yotaber.

Anda kal, qulluq, deb podshoga bir so'z dedi:

Oqizing ko'zidan qonli yoshini,
Qo'lidan uchiring davlat qushini,
Avval kesing Zamonqulning boshini,
Tashib berar ekan noni-oshini.

Avval oling Zamonqulning jonini,
Yerga to'king buning qizil qonini,
Uchovi o'tirur somonxonada,
Tashib berar ekan oshi-nonini.

Armon bilan bilmaganin bildiring,
Xanjar solib, qora bag'rin tildiring,
Avval boshlab Zamonqulni o'ldiring,
Ularni boylatib, olib keltiring.

Quloq solgin turli-tuman namoga,
O'lim haq buyrug'i shoh-u gadoga.
Avval boshlab Zamonqulni o'ldiring,
Uchovi o'ttirur somonxonada.

Podshoning qahri kelib, ilonday zahri kelib, aj-darhoday to'lg'onib: – Zamonqulni ko'rgandan o'ldiring. U ikkovini arkoni davlatga o'ldirmay hozir qiling, – dedi. Ikki yuz jallod, to'rt yuz mirg'azab, qancha olomon bilan somonxonaga qarab ravona bo'ldi. Zamonqul ham Xolbekaning oldidan chiqib: «Podshodan suyunchi olaman», – deb kelayotir edi. Bir odam ko'rib: – Qoch, Zamonqul, o'lasan, – dedi. Zamonqul aytdi: – Zamonqul o'ladi? Zamonqul xushxabar olib borayotibdi, beglarbegi bo'ladi, hech narsa bermasa ham bandi boshi ozod bo'lib qoladi.

Zamonqul borayotir edi, bir jallod chopib kelib qilich bilan qo'yib yubordi, bechoraning bandi boshi ozod bo'lib qola berdi.

Podshoning mirg'azab, jallodlari somonxo-naga kirib, to'ra bilan Xolbekaning ikki qo'lini bog'lab, siynasini dog'lab, oldiga solib haydab, qor-yomg'irday boshiga qamchi yog'dirib, har qaysisi-ning boshiga birdan besh yuz, olti yuz qamchi urib borar edi. Shunda Xolbeka oyim o'zining tayog'i o'ziga bilinmay, to'rasiga rahmi kelib, jallodlarga elanib bir so'z dedi:

Barchani yaratgan qudratli jabbor,
Har kimni bir ko'yga qildi giriftor,
Qo'ling dard ko'rmagur, jallod, mirg'azab,
Quloq sol, jallodlar, aytar arzim bor.

Uzoqda qolgandir manzili-joyi,
Sabil bo'lib tilla naqshin saroyi,

Meni o'ldir, to'ramni ozod aylanglar,
Bu ishda to'ramning yo'qdir gunoyi.

O'tar dunyo, qiyomatni o'ylanglar,
Til borinda turfa-turfa so'ylanglar,
Qancha gunoh desang, mening bo'ynima,
Meni o'ldir, to'ramni ozod aylanglar.

Quloq sol, jallodlar, qilgan dodima,
Qaytayin yetmay o'ldim maqsadima,
Meni o'ldir, to'ramni ozod aylanglar,
Bir o'g'lon o'lmasin kasofatima.

Beklar minar bedov otning tolmasin,
Hech kimsa dunyoda menday bo'lmasin,
Meni o'ldir, to'ramni ozod aylanglar,
Mening uchun bir shahzoda o'lmasin.

Qoraxonning yurti sabil qolmasin,
Bek bo'lgan beliga boylar olmasin,
Meni o'ldir, to'ramni ozod aylanglar,
Meni deb mard o'g'lon nobud bo'lmasin.

Quloq songlar Xolbekaning tiliga,
Bulbul oshno bo'lar bog'ning guliga,
Meni o'ldir, to'ramni ozod aylanglar,
Musofirdir, eson ketsin eliga.

Jallodlar: – Bu baxti qaytgan bachchag'ar, hali ham avvalgi hukumatini qiladi, hali tayoq o'tgan yo'q, qattiqroq uring, – deb ilgarigidan ko'proq urdi. Shunda to'ra yorining ahvoliga rahmi kelib, jallodlarga elanma, deb bir so'z dedi:

Ayo, nozim, bir gapim bor anglab ol,
Men so'zlayin, zehningni qo'y, quloq sol,
Jallodlarga elanmagin, bo'yingdan,
Gavharni ne bilsin ushalgan sopol.

Yomonning qarori bo'lmaz bir yerda,
Kishiga kasodi tegar tor yerda,
Gavharni ne bilsin ushalgan sopol,
Zarning qadrin zargar bilar har yerda.

Befarzandning ko'rgan kuni zoyama,
Yo'qchilik jo'mardning ko'zin o'yama?
Jaloldlarga elanmagin, bo'yingdan,
Sen qo'y degan bilan jallod qo'yama?

Attang-a, davri davronim bo'lmadi,
Bul ishlardan pushaymonim bo'lmadi.
Men shuningday bandi bo'lgan kunimda,
Vo bolam, deb otajonim bo'lmadi.

Uch lak edi oldimdagi sipohim,
Savash izlar pahlavonim bo'lmadi,
Qaytayin, o'sgan diyorim bo'lmadi,
Jon achirim, ichkuyarim bo'lmadi.

Bir nechcha xesh-u toborim bo'lmadi,
Men shuningday bandi bo'lgan kunimda,
Enam bebaxt ul nochorim bo'lmadi,
Armon bilan o'lar bo'ldim men endi,
Hay attang, tayin mozorim bo'lmadi.

Paydo bo'ldim ikki gavhar donadan,
Parvoz qilib uchdim manzilxonadan,
O'lim uchun g'am yemayman, bo'yingdan,
Bir armonim, yolg'iz edim enadan.

Belima boylangan zarrin po'tadan,
Kamligim yo'q edi atlas-kimxobdan,
O'lim uchun g'am yemayman, bo'yingdan,
Bir armonim, yolg'iz edim otadan.

Belima boylangan olmos qiyog'im,
G'am bilan sarg'aygan gulday siyog'im,
O'lim uchun g'am yemayman, bo'yingdan,
Qolmadi olamda biror tuyog'im.

Dona edim, somon bo'ldim,
Oltin edim, cho'yan bo'ldim,
Qimmat edim, arzon bo'ldim,
Bir shoh edim, cho'pon bo'ldim,
Birisidan suvo bo'ldim.

G'ariblikda e'tiborim bo'lmadi,
Isfihon – keskir xanjarim bo'lmadi,
No'g'oy eldan birga kelgan, qoshimda –
Qirq yigitim, ajdahorim bo'lmadi,
Kichiklikda birga yurgan beklarim –
Ne shahzodlar, nomdorim bo'lmadi.


Xolbeka to'rasining bu so'zlarini eshitib: «Hay
attang, to'ram yolg'iz ekan», – deb ko'ngli buzilib,
ko'zidan yoshi tizilib, bag'ri ezilib, jallodlarga bir
so'z deb turibdi:

Jallodlar, aytayin senga bir so'zni,
Meni deb tark etgan kecha-kunduzni,
Esiz, to'ram yolg'iz ekan enadan,
Merganlar irim qip otmas yolg'izni.

Paydo bo'lgan ikki gavhar donadan,
Parvoz qilib uchib qo'ngan xonadan,
Merganlar irim qip otmas yolg'izni,
Esiz, to'ram yolg'iz ekan enadan.

Beliga boylangan zarrin po'latdan,
Bandasining ishi kori xatodan,
Merganlar irim qip otmas yolg'izni,
Esiz, to'ram yolg'iz ekan otadan.

Jallodlarga elangani qo'ymaydi,
To'rasini sira ko'zi qiymaydi,
– Urha-ur, – deb satta zolim mirg'azab, –
Haliyam enag'ar tildan toymaydi.



Chinqirmoqda bunda armon qolmadi,
Dovushiga tog'lar toqat qilmadi,
Zangar elda katta-kichik xaloyiq,
Yig'lamagan elda odam bo'lmadi,
Muruvvatsiz, sop berahm jallodlar,
Shahzodaning qadrini hech bilmadi.

Yig'laydi Xolbeka, yoshin tiymaydi,
Ko'p mahosil biror fasl qo'ymaydi,
O'zin jabri ko'rinmaydi ko'ziga,
To'rasini aslo ko'zi qiymaydi:

– Meni izlab No'g'oydan nega kelding, deb,
Men bebaxtga nega oshiq bo'lding, deb,
Yoring bo'lib ne kuningga yaradim,
Mening uchun armon bilan o'lding, deb.

Zarrin ro'molimni boshga o'radim,
Tush ko'rganda yaxshilikka jo'radim,
Ozoringdan tanda jonim aylansin,
Yoring bo'lib ne kuningga yaradim.

Savdo tushgan shahzodaning boshiga,
Qul qoyil qudratli haqning ishiga,
Zulm bilan qonga bo'yab zolimlar,
Haydab bordi podshosining qoshiga.

Alqissa, podshoning oldidagi umarolari, mahram, yasovul, o'gachi, shig'ovul, darbon, bakovul, asabador, tug'dor, qozi, muhrdor – hech qaysisi shahzodaga sovuq shamolni ravo ko'rmay, nima qilarini bilmay, shahzodani tilab ololmay, shohiga bir gapni ma'qul qilolmay, lol bo'lib turib edi, podsho maslahat so'rab aytdi: – Arkoni davlatim, ulamo-muftilarim, inoq-vazirlarim, kengashdon donolarim! Menday ulug' podshoning haybatidan qo'rqmay, qi-

lichdan xavfi tars qilmay, (podsho) xonadoniga xiyo-
nat qilguvchilarni nima qilmoq kerak?

Hamma umarolar maslahat qilib kengashdilar-
ki: «Bu gapni shoh yaxshi aytdi. Bir ish-e qiling,
shu begunohlar o'lmasin. «Xon g'azabi – xudo
g'azabi», degan ekan. Bularni shahardan tirik chi-
qarib yuboraylik, bandi bo'lsa ham tirik ketsa, aja-
li yetmasa, bir yerdan chiqar, agar o'lib ketsa, gu-
nohi shohning bo'yniga-da», – deb arkoni davlat
gurullab birdan arz qildiki: – E taqdir podshohim,
osib o'ldirdingiz – ko'rdik, bosib o'ldirdingiz –
ko'rdik, minordan tashladingiz – ko'rdik, to'pga
solib otdingiz – ko'rdik. Bu beadablarga shun-
day jazo buyuramiz: bir tuv biyani olib kelib
so'ysangiz, terisini tulup qilib olsangiz, xom teriga
ikkovini zich qilib tiqsangiz, bir asov baytalning
dumiga taqib, cho'l-jaziraga haydab yuborsangiz,
bularning o'ligini g'ajir-quzg'unlar yeb ketsa, –
deb arz qildi. Podshoga ma'qul qildilar. Podsho
buyurib, bir tuv biyani tulup qilib so'yib, ikkovini
zich qilib, xom teriga tiqib, darvozadan chiqarib,
bir asovning dumiga taqib, bir cho'l-jaziraga qara-
tib, ko'p odam chuvlab hurkitib, haydab yubordi.

Asov baytal hurkib, ikkovini sudrab, cho'lga ulo-
qib ketdi. Baytalning dumi bir tol, yarim tol uzila-
uzila, olti kun deganda (tulup) bir yerda tushib qoldi.
Xom teri oftobning harorati bilan qurib, chunon qis-
diki, temirday bekitdi. Shu vaqt Xolbeka oyim uzilib
qolganin bilib, to'rasini uyg'otib bir so'z dedi:

Gapirsam keladi gapning ma'quli,
Mard o'g'lonning pirga bo'lar doxili,
Vallamat ramaqda joning bormidi,
Volloh a'lam, bizlar qoldik shikili.

Narkas-narkas xumor ko'zlar suzilib,
Hasratingdan yurak-bag'rim ezilib,
Vallamat, taningda quvvat bormidi,
Bizlar qoldik deyman cho'lda uzilib.

Bir bog'chada olmamidi, normidi,
Parvardigor sizga voyim yermidi,
Bizlar qoldik, deyman bunda uzilib,
Mard to'ram, yoningda xanjar bormidi?

To'ra yoridan bu so'zlarni eshitib, bir so'z dedi:


Kokilingning bandi-bandin tuydirma,
Qoshing kerib, qabog'ingni uydirma,
O'z kuyganim bo'lar mening o'zima,
O'rgilay, o'rtangan jonim kuydirma.

Quloq sol, bo'yingdan, aytgan so'zima,
Mard o'g'lonman, dushman tushdi izima,
Sanamjon, o'rtangan jonim kuydirma,
O'z kuyganim bo'lar mening o'zima.

Oh, desa to'kilar ko'zlardan yoshlar,
Ollo, deydi xonaqoda darveshlar,
Hayron qoldim, nozim, aytgan so'zingga,
Bandi bo'p tushganda xanjar nimishlar?
Har nima deb so'zlar ekan buvushlar,
Qo'llarida nigin, tilla-kumushlar.

Yoronlar, xudoning qudrati kuchli,
Hu tog'dan bir quzg'un davr olib uchdi,
U jonivor parvoz aylab osmonga,
Nogahondan ko'zi qudoqqa tushdi.

Qanotin chimirib qo'nib ustiga,
Amri xudo bo'ldi, cho'qidi, teshdi.
Qo'lin solib ikkalasi yirtishdi,
Sog'-salomat shu qudoqdan chiqishdi.



Shahzoda omon-eson, sihat-salomat yori bilan qudoqdan chiqib qarasarlar, bir cho'l-jazira, qo'rqinchlik changalzorga tushib qolibdilar. El qayoqda, yo'l qayoqda – hech narsani bilmadilar. Atrofga qaraydi, na tog' va na boshqa hech narsa ko'rinmaydi. To'raning ko'ziga uzoqdan soyaday qorayib bir narsa ko'rinadi. Shahzoda ko'nglida: «Shu qora yo tog' bo'lg'ay, yo bir qora daraxt el bo'lg'ay», – deb ikkovi qo'l ushlab, shu tarafga qarab ravona bo'ldi.

To'raning munojoti:

Elimdan bo'ldim judo,
Bu jonim senga fido,
Adashganda yo'lga sol,
Otingdan qodir xudo.

Men yig'layin zor-zor,
Ketdi qo'ldan ixtiyor,
Adashganda yo'lga sol,
Otingdan parvardigor.

Unutibman yo'limni,
Uzoq tashlab elimni,
Adashganda yo'lga sol,
Ushla, egam, qo'limni.

To'kdin ko'zdan yoshimni,
Qabul qil nolishimni,
Adashganda, xudoyim,
O'ngga boshla ishimni...

Belimda zarrin po'ta,
Qilganim bo'ldi xato,
Adashganda qo'lim ol,
Bolam, deb Odam Ota...

Suvday qaynab toshayik,
Daryoday bo'r jo'shayik,
Qo'lim olib yo'lga sol,
Kulli o'tgan mashoyix.

Qoldi sohibtamizlar,
Yo'lda adashib bizlar,
Qo'lim ushlab yo'lga sol,
Kulli o'tgan azizlar.

Taqdiridan ko'ranlar,
Elda davron suranlar,
Madad qilib qo'lim ol,
Jami o'tgan eranlar.

Bo'ldi bu ishlar bo'hton,
Cho'llarni qilib vatan,
Madad qilib qo'lim ol,
Sharob ichgan chiltonlar...

Alqissa, shahzoda issiq qumda oyoqlarini oldirib, yo'l yurolmay, jaziraning haybatidan badanlarida nam qolmay, tashnalik-suvsizliklari g'olib bo'lib, ko'zlari tinib, boshlari aylanib, giyohlarning tomirlarini qazib so'rib: «Shu suv bo'larmi?» – deb, ba'zan tomirlarni qazib: «Ovqat bo'larmi?» – deb necha kunlar och, suvsiz cho'llarda kezib, quvvatdan madori ketib, avvalgi kunlari yodlanib, falakdan shikoyat qilib, bir so'z dedi, shikoyati bu turur:

Bir vaqtinda edim No'g'oyning shoyi,
Xizmatimda edi uch lak sipoyi.
Qancha xor aylasang, falak, rizoman,
Bo'ldim endi qultum suvning gadoyi.

Talxi bor deb yemovchedim nabotdi,
Gardi bor deb to'shamovchedim banotdi,

Endi bo'ldim parcha nonning gadoyi,
Shu takabburchiligim boshimga yetdi.

Bir bog'chada bog'ning toza guli edim,
Otamman enamning joni, dili edim,
Talxi bor deb yemovchedim nabotdi,
Endilikda och bo'riday uludim.

Yurmakka, qaytayin, yo'qdir toqatim,
Suvsiz cho'lda chiqar oh bilan dodim,
Nonxurishga yemovchedim asalni,
Bu cho'llarda giyoh bo'ldi ovqatim.

Yig'lamay, naylayin, qismatim qatti(q),
Kuysin o'lim, barcha qulni yig'latdi,
Ko'p takabburligim boshima yetdi,
Menga xudo lutfi bilan ko'rsatdi.

Oh urganda esga kelar boyag'im,
Burungiday ermas mening siyog'im,
Suvsiz cho'lda giyoh bo'lib ovqatim,
Yuray desam bostirmaydi oyog'im.

Shahzoda olti kun och, tashna ketib borayotib edi, Xolbeka oyim tashnalab, lablari gazarib, tанда majoli qolmay, qumga yiqildi. Shunda to'rasiga qarab: – Men senga iyarolmayman, bir manzilga yetolmayman, qumda o'lib qolaman, menga qarab sen ham nobud bo'lma, sen elga yetib, odamlarga qo'shilsang, yurtingga borsang, men sendan roziman, zinhor menga qayrilma, orqangga boqmay keta ber, mening kasofatimga shuncha ranjlar ko'rding, qattiq mashaqqatlar ko'rding, mening uchun ko'rding. E, mard to'ram, mendan rozi bo'l, men ham sendan roziman, ket, – deb bir so'z dedi:

Gapirsam keladi gapning ma'quli,
Mard o'g'lonning pirga bo'lar doxili,
Qaramayin keta bergin orqangga,
Baxtim qora, yaramayman shikili.

Toza gulsan, oftob tegib so'Imagin,
Yorim qoldi debon ko'ngling bo'Imagin,
Qaramayin keta bergin orqangga,
Meni deb, mard to'ram, cho'lda o'Imagin.

Suvsiz cho'lda mening yetdi ajalim,
Yurmakka, qaytayin, yo'qdir majolim,
Qaramayin keta bergin orqangga,
Menga sitam qildi bu falak zolim.

Toza gulday so'lar bo'ldim men emdi,
Daryoday bo'p to'lar bo'ldim men emdi,
Sendan judo bo'lar bo'ldim men emdi,
Suvsiz cho'lda qolar bo'ldim men emdi.

Armon bilan o'lar bo'ldim men emdi,
G'arib mozor bo'lar bo'ldim men emdi,
Qaramayin keta bergin orqangga,
Taqqirimga ko'nar bo'ldim men emdi.

Alqissa, Xolbeka oyim yig'lab yiqilib qoldi. Shunda to'rasi Xolbekaning boshiga soya solib, yorini suyab, ko'nglini ovlab: – Bir g'ayrat qil, yo'limiz yaqin qoldi, – deb ko'nglini ko'tarib bir so'z dedi:

Uzoqdan chopilar otning sarasi,
Ko'rinadi bir narsaning qorasi,
Bir faslga g'ayrat qilgin, bo'yingdan,
Yaqin qoldi manzilimning orasi.

Bandadirman, olloni yod etarman,
Yolborib haqqa munojot etarman,
Bir faslga g'ayrat qilgin, bo'yingdan,
Ko'zim bilan qaytib tashlab ketarman.

Po'lat nayza qor ostida yotarmi,
Temir nayzang egovlasang o'tarmi,
Sening to'rang nomardlardan emasdir,
Mard o'g'lon sevdigin tashlab ketarmi?..

Ilohi kelmasin senga mahosil,
Qaytayin, bo'lmadi maqsudim hosil,
Yurarga quvvating, holing qolmasa,
Kel, orqamga ko'tarayin bir fasl.

Yurolmaydi och buyrini ayanib,
(Xizmatkorlar xon oldidan joy olib),
Suvsiz cho'lda kelayotir mushtipar,
O'ldim deydi, to'rasiga suyanib.

Kuntug'mish to'ra yoriga g'ayrat berib, shu qora tarafga tasmollab, oqshom yurib, kunduzlar issiq bo'lsa, changallarning soyasida orom olib, bo uch kun deganda, Mug'olning tog'iga yetdilar. Ikkovlari ham xursand bo'lib: «Shukur, ajalimiz yetgan yo'q ekan, o'lmay shu toqqa keldik, albatta, chashmazor suvlar, har alvon mevalar bo'lsa kerak», – deb chunon g'ayrat qilib yurdilar. Tog'ning darasining ichiga kelib ko'rsalar, yovvoyi yong'oqlar, pistalar, jiydalar va yovvoyi toklar – har alvon mevalar pishib turibdi. Ikkovlari qorinlarini to'yg'azib, bir joydan oqmaydigan bir chashma ham topdilar. Shu chashmaning bo'yini manzil qilib o'tira berdilar. Kuntug'mish: «El daragini topamanmi, yo'l daragini topamanmi?» – deb har kun chiqib, shu tog'larni izlar edi. Mug'ol shunday tog' edi... Yovvoyi meva chunon ko'p edi. Yoz kunlarida yovvoyi mevalarni quritib, bir yerni qazib, qishlik ovqatini berkitib olar edi.

Kuntug'mish to'ra ertangisin turib ketar edi, bir baland cho'qqiga chiqib qarar edi, el topolmas edi.

Shu qish-u yoz shu yerda qoldilar. Xolbeka oyim-ning bo'yida homila paydo bo'lib, oyi kuni yetib, vaqti kuni yaqin bo'ldi. Shahzoda doyimgi odatini qilib, toqqa chiqib ketib edi.

Xolbeka ikkita o'g'il tug'ib, bolalarini qo'liga olib, avvalgi kunlari esiga kelib: «Ochdan o'ldirib qo'ysam qanday qilar ekanman?» – deb yig'lab o'tirib edi, qarasa, Kuntug'mish to'ra ham el-yo'l daragini topolmay, g'amgin bo'lib kelayotib edi. Xolbeka bolalarini qo'llariga olib, to'rasining oldiga chiqib, go'daklarini ko'rsatib, bir so'z dedi:

Quloq solgin alvon-alvon so'zlarga,
Bizlar yurdik odami yo'q tuzlarga,
Ikki go'dak ollo berdi bizlarga,
Ochdan o'lsa, norastangni naylarman?

Doyimgiday davri-davron bo'lmasa,
Saltanatli ko'shki-ayvon bo'lmasa,
Beray desam bir parcha non bo'lmasa,
Ochdan o'lsa, norastangni naylarman?

Ikki go'dak yig'lashib dod deyishadi,
Ochlikdan ikkovi faryod deyishadi,
Go'daklar zor yig'lab ovqat deyishadi,
Ochdan o'lsa, norastangni naylarman?

Bu go'daklar bizni qilar sargardon,
Sabil bo'lib qolgan manzilman makon,
Endi bo'ldi, to'ram, ahvoling yomon,
Ochdan o'lsa, norastangni naylarman?

Rahmim kelar buning yig'laganiga,
O't tushar ko'rganning, bilsang, taniga,
Ochdan o'lsa, zomin bo'ldik qoniga,
Ochdan o'lsa, norastangni naylarman.

Shahzoda yorining ko'nglini ovlab, go'daklarini
qo'liga olib, ko'nglini ko'tarib: – Aslo xafa
bo'lma, – deb bir so'z dedi:

Dam shu damdir, o'zga damni dam dema,
Shukur qilgin, davlatingni kam dema,
Suydigim, sallangan nozim, sanamjon,
Go'dak uchun aslo, yorim, g'am yema.

Quloq solgin mard to'rangning so'ziga,
Jimma-jimma yoshi to'lgan ko'ziga,
Suydigim, sallangan nozim, g'am yema,
Go'daklarni topshir haqning o'ziga.

Uzoqda qolgandir, manzilim, joyim,
Sabil bo'lib tilla naqshin saroyim,
Go'daklarni topshir haqning o'ziga,
Tish beribdi, rizqin berar xudoyim...

Mard o'g'lonman, savdo tushdi boshima,
O'zim yolg'iz, hech kimim yo'q qoshima,
Hayron edim bu ishima, bo'yingdan,
Uch kun bo'ldi, otam kirar tushima.

– E sanamjon, uch kundan beri otam kunda tushi-
ma kirar edi, men hayron edimki, nega bunday qildi
deb. Endi xotirim jam bo'ldi. Shu go'daklar uchun
aynalib yurgan ekan, – deb joyiga kelib, bachchalar-
ning tarbiyatiga mashg'ul bo'ldi.

Shu yil ham o'tdi. To'ra aslo el-yo'l topolmadi.
Alhol, bachchalar uchga kirdi. Endi to'raning shu
tog'da hech bir chiqmagan cho'qqisi qolmadi. Le-
kin uzoqda, bir balandda qiyali cho'qqi ko'rinadi.
Necha safar boraman, deb chiqdi, kun kech bo'lib
yetolmay, Xolbeka yolg'iz, deb qaytib joyiga kelib
edi. Bir kuni to'ra o'yladi: «Kel-e, kechga qolsam,
Xolbekaning mana ikki bolasi bor-ku, men shu tan-

gining ustiga chiqib, atrof-olamga qarayin. Agar el daragini topmasam, yo'l daragin topmasam, andan so'ng umidimni uzib, shu tog'da vahshiy hayvonlar qatori o'tayin-da ketayin», – deb turib, g'o'g'adan belbog' qilib eshib oldi, belini ikki joyidan mahkam bog'lab bo'g'ib oldi. Xolbeka oyim to'rasining harakatini ilgaridan ziyod anglab, ko'nglida aytdi: «Hay attang, bu to'ram ketadi ekan, shu vaqtga dovur yo'l topolmay yurgan edi, alhol, eliga ketmoqchi bo'ldi, men qolar ekanman», – deb to'rasiga qarab: – Yo'l bo'lsin, to'ram? Aytuvchi eding, mard yorini tashlab ketmaydi, deb. Bugun qanday nomard bo'lding? Meni tashlab ketib borayotibsan, qaytib kelmaysan. Agar ketsang, bolalaringni olib ket. Men yomon bo'lsam, bolalaring ham yomonmi? – dedi. Shahzodaning ko'ngliga qattiq tegib: – E attang, sendan bu so'z lozim emas edi. Nahotki seni tashlab ketsam? – dedi.

Xolbeka oyim: – Endi ketasan, bildim endi, – deb bir so'z aytdi:

O'tar dunyo qiyomatni o'ylading,
Yorim deding, oxir ko'zdan taylading,
Valloh a'lam, ketar bo'lding shikili,
Ikki yerdan beling mahkam boylading.

Gapirsam keladi gapning ma'quli,
Zarafshon bo'ylagan oyim kokili,
Ikki yerdan beling mahkam boylading,
Men bilgimda ketar bo'lding shikili?

Izlading, topmading o'sgan elingni,
Axtarib topmading yurgan yo'lingni,
Men bilgimda ketar bo'lding shikili,
Ketsang, olib ketgin ikki ulingni.

Uzoqda qolgandi manzil diyoring,
Bexabar qolgandi ko'p ichkuyaring,
Ketsang, olib ketging ikki ulingni,
Sen ketsang, bollarga tutar xumoring.

Kuygan qullar daryoday bo'p toshmaymi,
O'rtanganlar qaynab-qaynab jo'shmaymi.
Shu ketgandan agar qaytib kelmasang,
Go'daklaring otam qani deyshmaymi?

Oyim qizman, ishim haqdan ko'raman,
Shonaman zulfimni toblab o'raman,
Agar ketsang, olib ketgin bolangni,
Yurtingni top, to'ram, javob beraman.

Shahzoda aytdi: – Men No'g'oy mamlakatimni,
arkoni davlatimni, shohlik hukumatimni tark qilib,
sening yo'lingga yo'q qilganman, aslo tashlab ket-
masman. E sanamjon, to'rt yildan beri men chiq-
magan tangi-cho'qqi qolmadi, aslo yo'l topolmadim.
Ammo uzoqdan bir baland tangi ko'rinadi. Necha
marta boraman, deb chiqdim, seni yolg'iz, qo'rqadi
deb yo'ldan qaytdim. Endi senga aytar so'zim shu-
ki, shu tangiga ham chiqib qarayin, yo'l daragini
topmasam, el daragini topmasam, andin so'ng shu
tog'da vahshiy hayvonlar qatori o'tayinda-ketayin, –
deb bir so'z deb turibdi:

Dam shu damdir, o'zga damni dam dema,
Shukur qilgin, davlatingni kam dema,
Bukun ketsam, tongla qaytib kelarman,
Ketadi deb, sanamjonim, g'am yema.

Toza gulman, oftob tegsa so'larman,
Mavj urib, daryoday toshib to'larman,
Ketadi deb, suyduk yorim, g'am yema,
Bukun ketsam, tongda qaytib kelarman.

Ot chopilar baland tog'ning pastiga,
Quloq solgin gapimning payvastiga,
Bukun ketsam, tongla qaytib kelarman,
Chiqib kelay bir tangining ustiga.

Bir bog'chada olmamikan, normikan,
Parvardigor bizga voyim yermikan,
Chiqib kelay shu tangiga, sanamjon,
El daragi, yo'l daragi bormikan?

Sensiz bu to'rangga olamdir zindon,
Sen bo'lmasang, naylor hur ila g'ilmon?
Mard o'g'lon suydugin tashlab ketmaydi,
Ketadi, deb xafa bo'lma, sanamjon.

Sening to'rang yigitlarning og'asi,
Unga tekkan Shohimardon duosi,
Chiqib kelay bu tangining ustiga,
Jilvalanib ko'rinadi qorasi.

– Shu tangiga necha boraman dedim, seni
qo'rqadi, deb qaytdim. Endi, mana, bolalaring bor,
qo'rqmaysan, men bu kun yurib, ertan kelaman, –
deb jo'nay berdi. Xolbeka oyim yig'lab qola berdi.

«Lekin to'ram mening ko'nglimga qarab aytdi,
endi kelmaydi», – deb xo'rak mevalaridan olib, ikki
bolasini ko'tarib, qorama-qora to'raga bildirmay
kela berdi. To'ra shu yurgandan uch kun yo'l yurdi.
Shu cho'qqi tog'ning oda bo'lgan yeri edi. Shahzoda
pastga qarasa, bir angqillagan, karvon yurgan katta
yo'l tog'ning tumshug'idan o'tib ketibdi. Shahzoda
yo'lni ko'rib: «Xudoyo shukur, men ham yo'l ko'rar
ekanman-a, yo'l ko'rdim, elni ham ko'rarman,
pastroqqa tushib qarayin, shu yo'l qayoqdan kelib,
qayoqqa borar ekan», – deb pastga tushib qarasa,
yo'lning ikki tarafida katta ikki saroy turibdi. Bir
saroyga qariyb yigirma ming karvon tushib yotibdi.

Shahzoda aytdi: «Men ham odam ko‘rar ekanman. Kel-e, Xolbeka bo‘lsa bir kunini ko‘rar-da, pastga tushay, shu karvonlardan bir kosa suv, bir non tilab olib yeb ketay», – deb pastga tushib kela berdi. Kelib, karvonlarni oralab: – E yoronlar, non xudoyi bormi? – deb o‘zining kam-ko‘stligiga ko‘ngli buzilib, bag‘ri ezilib, o‘zini to‘xtatolmay, bir so‘z deb turibdi:

Bir vaqtda edi No‘g‘oyning shoyi,
Xizmatinda edi uch lak sipoyi,
Mo‘min bo‘lar mo‘min bilan birodar,
Bormidi, karvonlar, noni xudoyi?

Kuygan qullar gapni gapga ulaydi,
To‘xtatolmay o‘zin, xonzod jilaydi,
Bir vaqtda ark so‘ragan shunday xon,
Karvonlardan elanib non tilaydi...

Shahzoda o‘ksinib, ko‘zining yoshini tiyolmay yig‘lab turib edi, shu karvonlarning kattasi – Azbarxo‘ja degan karvonboshisi bor edi, shahzodaga ko‘zi tushib, qoshiga chaqirib olib, bir so‘z dedi:

Qizil gul ochilar g‘unchadan g‘uncha,
Toqatim yo‘q, yana gul ochilguncha,
Suvrating qalandar, shakling xonzoda,
Yo‘l bo‘lsin, qaddingdan, qalandarbachcha?

Ne sabablik¹ bunday bo‘lding aftoda?
G‘am bilan beribsan umring barboda,
Suvrating qalandar, tarzing xonzoda,
Yo‘l bo‘lsin, qaddingdan, qalandarbachcha?

Bulbul degan qushlar qizil gullarga,
So‘naning mavsimi oydin ko‘llarga,

¹ *Sababdan.*

Gado degan shavqi kelar ellarga,
Qush uchsa qanoti kuygan cho'llarga,

Xon qalandarbachcha, senga yo'l bo'lsin?
Qalandar, qayerda o'sgan diyoring,
Bu jahonda nedur kasb ila koring,
Bu yerlarga ne deb tushdi guzaring,
Xon qalandarbachcha, senga yo'l bo'lsin?

Shahzoda yig'lab: – E qofilaboshi, men umrim bo'lib, bir kishining bir nima narsasini olgan emas edim, alhol, musofirchilik va g'ariblik, bir kosa suv va nonga zarur bo'lganimga shu karvonlardan tilanib, yig'lab turibman, – deganda, Azbarxo'ja bir so'z dedi:

Uzoq yerdan yaxshi tulpor chopilmas,
Chopilmayin xasa tulpor sovulmas,
Unday desang, bizning eldan topilmas,
Talabingni ollo bersin, qalandar.

Bozironman, tirkaganim nor edi,
Nor ustiga yuklaganim zar edi,
Ul saroyda bir chashmamiz bor edi,
Talabingni ollo bersin, qalandar.

Chashmaning ko'zini yuho¹ tutibdi,
Meningday nechovni borsa yutibdi,
Karvonlar holini xarob etibdi,
Talabingni ollo bersin, qalandar.

Bilmayman, ahvolim qanday bo'ladi,
Barchani yaratgan tangrim toloদি(r),
Bir kosa suv, bir non bersam men senga,
Chokarimning biri cho'lda o'ladi,
Talabingni ollo bersin, qalandar.

¹ Ajdarho.

Shahzodaning achchig'i kelib aytdi: – O'zing xudodan qaytgan yomon xo'ja ekansan. Shu yigirma ming odamga bir kosa suv bilan bitta non nima gap ekan. Kel, endi sen menga bir kosa suv, bir non bergin, nonni yeyayin, suvni ichayin, qo'limga bir o'tkir isfihon qilich ber, shu yuho – ajdar bilan urushayin, agar ajdarhoni o'ldirsam, bir kosa suv, bir noningga rozi bo'l, agar o'lib ketsam, mening xunim bir kosa suv, bir non bo'lsin, – dedi. Anda Azbarxo'ja xudodan qaytgani rost edi: – Sen joningni sotmoqqa xaridor topmay yurgan ekansan, – deb bir kosa suv, bir nonni joniga baraka qilib berdi. Shahzodaning ko'zining yoshi hali ham tiyilmay, suvdan picha ichib, nondan yeb, non yarim bo'lib edi, qolgan non tomog'idan aslo o'tmadi. Karvonlarning ko'zini olib, nonni qo'yniga soldi: «Agar ajalim yetmay, o'lmay borsam, go'daklarim emaklab oldimga chiqsa, ikkovining qo'liga bo'lib bera-man», – deb qolgan suvni ichib: – Qani, qilichingni ber, – dedi.

Shahzoda No'g'oyda yurgan vaqtida chilsimotni bilar edi. Anda shahzoda qilichni qo'liga olib, bosgan qadami o'ngmay, falakdan shikoyat qilib: «Avval podsho qilib, oxir olib kelib bir nonga soting-a», – deb ko'ngli pora-pora bo'lib, ichi g'amga to'lib, bir so'z dedi:

Uzoqda qolgandi manzilim, joyim,
Sabil bo'lib tilla naqshin saroyim,
Armon bilan o'lar bo'ldim men endi,
O'zing obro' bergin, qodir xudoyim.

Kuygan qulman, chiqar oh bilan zorim,
Qaytayin, tanamdan ketdi madorim,

Giriftor aylama ajdar damiga,
O'zing obro' bergin, parvardigorim.

Qaytayin, topmadim o'sgan elimni,
Naylayin, unutdim sog'u so'limni,
Agar o'lsam shu zolimning damida,
Tog'da yetim qildim ikki ulimni...

Oqizib ko'zimdan qonli jolamni,
Qodir mavlon mo'l qilgan nolamni,
Agar o'lsam shu zolimning damida,
Tog'da yetim qildim ikki bolamni.

Ulug' dedim ostonaga bosh urdim,
Sirimni aytmay g'animdan yashirdim,
Agar o'lsam shu ajdarning damida,
Xudoyo, go'dakni senga topshirdim.

Qaytayin, boshimga bo'ldi qiyomat,
Kecha-kunduz ishim oh-u nadomat,
Xudoyo, go'daklar senga omonat,
Omonatga qilmagaysan xiyonat,
Saqlagin go'dakni sog'-u salomat.

Yangi tuqqan oyday botib boraman,
Ajaj yoqasini tutib boraman,
O'zing rahm etmasang g'arib holima,
Borsa kelmas yo'lga ketib boraman.

Bir vaqtida arz so'ragan xon edim,
O'zimni bir nonga sotib boraman,
Xudoyo, go'daklar senga omonat,
Qo'sh bolamni yetim etib boraman.

Armon bilan yig'lab qoldi ortimda,
Sanam yorimni unutilib boraman,
Xudo, rahm aylagin g'arib holima,
Oxirat yo'lini tutib boraman.

O'z elinda edi guldand ozoda,
G'ariblik yurtinda bo'lib aftoda,

Qo'lida qilichi mardning yalang'och,
Tashqarida arbay¹ berdi shahzoda.

G'amgin bo'lib ikki ko'zga yosh urdi,
Ulug' dedi, ostonaga bosh urdi,
Tashqarida arbay berdi shahzoda,
Arbov bilan ilonning aqlin shoshirdi.

Bu g'ariblik mardni qilgan sargardon,
Izlaydi, topmaydi dardiga darmon,
Shahzoda ilonning aqlin shoshirdi,
Ichkarida tikka bo'ldi ul ilon.

Dam-badam pishqirib damga tortadi,
Dashtlarning yuzini to'zon tutadi,
Har pishqirib damga tortsa ajdarho,
Tog'larning toshini larzon etadi.

Sadog'ini yuz qaytarib iyniga,
Dushman yurar mard o'g'lonning keyniga,
Yo'llarning roshini to'zon tutadi,
Jami karvon rido soldi bo'yniga.

Qiyomat bo'lganday bo'ldi bu dashtga,
Zilzilalar tushdi tog' bilan toshga,
Jami karvon rido soldi bo'yniga,
Odam bo'lsa, ofarin der bu ishga.

Monandi bo'lganday bo'ldi qiyomat,
Ajdarhoni arbayotir azamat,
Shahzodaning bu ishini ko'rganda,
Odam bo'lsa, der edi, ofarinbod.

Shahzodaning (endi) aqlin shoshirdi,
Zolim ilon zo'rligini oshirdi,
Ust-ustiga damga tortdi ajdarho,
Shahzodaning badanini shishirdi.

¹ Avray.

Shahzodaning qaddi yoyday bukildi,
Ikki ko'zdan selob yoshi to'kildi.
Turmoqqa shahzodaning qolmay majoli,
Esankirab, esiz, shahzod yiqildi...


Boshida kulohi, egnida janda,
Yetib keldi Burqsarmast devona:
– Boshing ko'tar. No'g'oy elning shahzodi,
Farzandim, To'ymadir ilonning oti,
Men o'zingga aytmas edim otini,
Tog'da qolgan norastangning hurmati.

Zolim ilon qaddi yoyday bukilar,
Qahr aylasang, tanda qoni to'kilar,
Farzandim, To'ymadir ilonning oti,
Uch marta To'yma deb aytsang, yiqilar...

Oqizdi ko'zidan qonli yoshini,
Qiyomat savdoga qo'ydi ishini,
Xanjari qo'lida mardning yalang'och,
Kesib oldi ajdarhoning boshini.

Armon bilan bilmaganin bildirdi,
Xanjar solib qora bag'rin tildirdi,
Xanjari qo'lida mardning yalang'och,
Mardlik bilan ajdarhoni o'ldirdi.

Shahzoda qo'lidagi xanjari bilan ajdarhoning tanasini besh g'o'la qildi. Har g'o'lasini jo'xori quriydigan bir mo'la qildi, g'ayrati kelib, shunday kattakon ajdar edi, dabdala qildi. Chashmaning suvlariga kiyim, xanjarlarini yuvib, karvonlarning qo-shiga borib qarasa, jami karvon yukini ortib, yo'lga tushib, qochib ketib borayotibdi. Shahzodani ko'rib to'xtab, jamiy karvon ketiga qaytdi. Kelib saroyga qaytadan tushdi. Shahzodani izzat-hurmat qi-

A decorative border with repeating floral motifs surrounds the text. The motifs are stylized flowers with multiple petals, arranged in a continuous line.

lib, hammasi jonidan ortiq bilib, har tarafdan ofaribod qilishdilar. Azbarxo‘ja aytdi: – E qalandar, barakalla, er bo‘lganingga. Shu ajdarho yigirma yil bo‘lib edi, shunday katta yo‘lni qatag‘on qilib edi. Bizlar yigirma ming savdogar bo‘lib yurganimizning ma‘nisi shuki, ajdarhodan qo‘rqib, ko‘p bo‘lib, to‘p, jazoyilimiz bilan yuramiz. Agar shu ilon chiqsa, to‘pni otsak, ko‘pga botolmas edi. Agar to‘pi bo‘lsa ham ikki yuz, uch yuz odam bo‘lsa, bexaros yutib ketar edi. Sening shu qilgan ishingni olamning boricha ta‘rif qilsak ham tamom bo‘lmaydi. Agar da avvalda sening shunday ekaningni bilsak edi, izingni ko‘zlarga surma, o‘zingni boshimizga toj qilmasmidik. E qalandar, burungilar aytibdi: «Aytmasang, kim biladi, ochmasang, kim ko‘radi». Odamlar rasmi do‘stlikka muhabbat qo‘yib jo‘ra bo‘ladi. Do‘st otini hurmat qilib, bir-biridan qayta olmaydi. Men kalomulloni ko‘kragimga qo‘yib, o‘ttiz pora Qur‘onni o‘ttiz marta o‘rtaga olib, sening bilan do‘st bo‘laman. Bir ismi do‘stlikdan mardum qaytolmasa, kalomullodan musulmon kishi qanday qaytadi», – deb o‘ttiz safar quchoqlashib do‘st bo‘ldi. Hamma mardum ko‘rdi, muborakbod qildi. Yana aytdi: – E do‘stim, jigarimdan bo‘lingan, ko‘zimning ravshani farzandimni sendan ilgari ko‘rsam, kalomulloga urdiraman. Sen ham menday e‘tiqod qilgaysan. E do‘stim, sendan bir gap so‘rayman, albatta, rost aytgaysan. Sen kelib, joningga baraka qilib bir non bilan bir kosa suvni olding, yarmini yeding, qolgan yarmini kim uchun qo‘yding? Endi, jo‘ra, sening shu tog‘da bir jo‘rang bor, joning bilan barobar ko‘rasan, balki ziyoda.

Shahzoda lol bo‘lib aytdi: – Tanho kelib edim, tanho edim.

Yig'inga, yolg'iz shu saroyga kelganini aytdi.

Azbarxo'ja qaradi, do'sti hamrohini aytmadi. Davlat degan bir quli bor edi, qanotli qushday bir bodpoyi bor edi. Balandga, pastga ilonday shuvshib ketar edi, uchar qushday edi. Azbarxo'ja: – E Davlat, bodpoyini min, tog'ning oftobro'y betini izlagin, do'stimning hamrohi bor, olib kel, – deb buyurdi.

Davlatqul tog'ning oftobro'y betini izlab borar edi. Xolbeka oyim ikki bolasini ko'tarib shu yerga kelgan edi, oftobning issig'idan bolalarini toshning soyasiga yotqizib, go'daklarning halqumi kuyunib, laylak qushday chirpinib, goh bunisining og'ziga, goh bunisining og'ziga tufrigini solib o'tirib edi. Davlat ustidan borib qoldi. Xolbekani ko'rib, otini to'xtatib: – Yuring, men sizga keldim, qalandarxon charlaydi-chaqiradi, – deb Xolbeka oyimga qarab bir so'z dedi:

O'q otsa merganning o'qi zirlaydi,
Qamchi tegsa chin bedovlar pirlaydi,
Tog'da o'tirgan qalandarning dilbari,
Yuring, sizni qalandarxon charlaydi.

Qalandar bo'lgandir karvonlar shohi,
Husni, bilsang, misli falakning mohi,
Tog'da o'tirgan qalandarning hamrohi,
Yuring, sizni qalandarxon charlaydi.

Ko'zlari qambardir, qoshi qalami,
Ko'rganlarga solgan qayg'u-alami,
Tog'da o'tirgan qalandarning sanami,
Yuring, sizni qalandarxon charlaydi.

Xolbeka oyim Davlatquldan bu so'zlarni eshitib, zor yig'lab: – Jon aka, meni yur dema, qalandarning o'zini yubor, – deb panada bir so'z dedi:

Bul judolik meni qildi sargardon,
Qaytayin, topmadim dardima darmon,
Aytib yubor qalandarning o'zini,
Mo'min bo'lsang, yur demagin, akajon.

Judolikning dardi meni yig'latar,
O'ylasam bu dunyo hammadan o'tar,
Mo'min bo'lsang, yur demagin, akajon,
Qalandarning o'zi kelib opketar.

Quloqqa ol mushtiparning so'zini,
Ko'zining yoshiga yuvar yuzini,
Mo'min bo'lsang, yur demagin, akajon,
Aytib yubor qalandarning o'zini...

Davlatqul lol bo'lib: – E singlim, qalandar-xon karvonlarning ichida misli podsho surat bo'lib o'tirur. Men bir kishining quliman. Agar kelmadi, deb borsam, begumon meni o'ldiradi, mening qoni-ma zomin bo'lasan, – deb bir so'z dedi:

Men borgan so'ng yana birov keladi,
Kim bodpoyni minsa, topib oladi,
Andin so'g'in menday Davlat o'ladi,
Jigarim, maslahat qanday bo'ladi?

Olgorga suv berar cho'llarning qoqi,
Jondorni qutqarmas ajalning o'qi,
Xudo haqi, aka, degin sen meni,
Singlim, dedim seni, olloning haqi...

Xolbeka oyim hech iloj-chora topolmay, ikki go'dagini Davlat akasining qo'liga berib, karvonga qarab ravona bo'ldi. Kuntug'mish to'ra qarasa, Xolbeka oyim ham kelayotibdi. Uviz eti uv bo'lib, to'la badani suv bo'lib, yoriga rahmi kelib, joyidan tura keldi, Azbarxo'ja aytdi: – E do'stim, hamrohing

ayol ekan-ku, ayolni jo‘ram yo‘q desa ham bo‘ladi.
Shuytib aytmagan ekansan.

Shahzoda yorining oldiga chiqib, Davlatqulning qo‘lidan go‘daklarini olib, farzandlarini suyib, yoriga dildorlik berib: – E sanamjon, inshoollo endi No‘g‘oyga ketarmiz, bizlardan bu kunlar ham unut bo‘lar, – deb bir so‘z dedi:

Dam shu damdir, o‘zga damni dam dema,
Shukur qilgin, davlatingni kam dema,
Bu mehnatga xafa bo‘lma, bo‘yingdan,
To‘rang eson, sarvinozim, g‘am yema,
Kamlikning kamoli bordir, sanamjon,
Menmanning zavoli bordir, bo‘yingdan.

Qismati azalda bizga chizilgan,
Bu mehnatlar peshonaga yozilgan.
Xumori, ola, shahlo ko‘zlar suzilgan,
To‘ram ketdi debon ko‘ngling buzilgan.
Kamlikning kamoli bordir, sanamjon,
Menmanning zavoli bordir, bo‘yingdan...

Sen bilan to‘rangning davr-u davroni,
Sensiz xazon bo‘lar bog‘-u bo‘stoni,
Omon-eson borsang No‘g‘oy yurtiga,
Xizmatkoring parilarning sultoni.
Kamlikning kamoli bordir, sanamjon,
Menmanning zavoli bordir, bo‘yingdan.

Inshoollo No‘g‘oyga, nozim, borarsan,
Suluv barnolar bilan suhbat qilarsan,
No‘g‘oyning suluvin kaniz olarsan,
Qadimgiday davri davron surarsan.
Kamlikning kamoli bordir, sanamjon,
Menmanning zavoli bordir, bo‘yingdan.

Alqissa, shahzoda yorining ko'nglini ovlab, bolalarini ko'tarib, saroyning bir tomoniga kelib kirgazdi. Yoriga va go'daklariga non berib, suv berib, qornini to'yg'azdi. Xolbeka oyim bechora, to'rasiga minnatdorliklar qilib: – Bizlar ham odamga qo'shilar ekanmiz, odamga aralashib yurar ekanmiz, – deb beadam-behisob shukurlar qilib, benihoyat vaqti xush bo'ldi. Shahzoda yorining vaqti xush bo'lganiga ko'p xursand bo'lib, husni gul-gul yonib, karvonlarning oldiga chiqdi. Do'sti aytdi: – Ov jo'ra, bu saroyda karvonlar ko'p, birovi chiqsa, o'ni kirar, sening xotiringni parishon qilar, u saroyga yuborsam, suv uchun unda ham ko'p borar, endi, do'stim, u saroyga biz o'tayik, sen ayoling bilan bu saroyda tur, – deb bir yaxshi tomga qimmatbaho paloslar solib, to'rani shu saroyga tashlab, karvon u saroyga o'tib ketdi.

To'ra Azbarxo'ja bilan suhbat qilib, gaplashib, hol-ahvol so'rashib bildiki, shu karvonlar Xolbekaning yurti Zangardan ekan, lekin o'zlari to'raning yurti No'g'oydan kelayotgan ekan. Shahri Zangarga qarab borayotgan ekan.

Bir hafta hamsuhbat bo'ldi. Tuyalari xo'b dam oldi. To'raga ham ikkita ot in'om qildi. Yo'l xarji, ob-oziq ham berdi. Haftadan keyin do'sti aytdi: – Bizlar ertan ko'chamiz. Sen ham Zangar borsang, birga olib ketar edik.

To'ra aytdi: – Men No'g'oy boraman.

Do'sti aytdi: – Ertan sahar kel, tuyachi xalqi sahar yuk ortadi, bizning bilan xo'shlashib qolgil, balki barobar salqinda sening ham jo'naganing yaxshi, – deb va'da qildilar.

Yotarda to'ra Xolbekaning oldiga kelib yotdi.

Baxtibad to'raga shumlik qilib, bir uyquyi g'aflat oldi. Ikkovi ham uyg'onmay qoldi. Karvonlar erta sahar yuklarini ortib, tuyalarini jo'natib, o'zlari ham jo'namoqchi bo'ldi. Azbarxo'ja: – Ey karvonlar, do'stim uxlab qoldi, ikkoving borib, do'stimni chaqirib kelinglar, – deb buyurdi.

Ikki xudo bexabar karvonsaroyga borib ko'rsalar, qalandarning uyidan yorug' chiqadi. Uy ravshan, munavvar bo'lib turibdi. Bir-biriga: «Qalandar uyov¹ ekan», – deb asta-asta eshikning orasidan siyg'alab qarasa, bular uxlab yotibdi. Uyda chiroq ham yo'q, uyi ravshan-munavvar bo'lib turibdi. Toza siyg'alab ko'rsa, Xolbeka oyimning yuzidan niqobi siljib ketibdi. Yuzi ochilib, o'n to'rt kechalik oyday bo'lib, uyni munavvar qilib turibdi. Karvonlar o'zlarini bildirmay, ketiga qayta berdilar. Borib Azbarxo'jaga: – Do'stingda ne bor ekan, xotin bor ekan. Jamoli qorong'i kechani misli kunduzday ravshan qilib turibdi. Ana xotinmana xotin, – deb ko'p ta'rif-tavsiflar qilib maqtadi. Azbarxo'ja aytdi: – Yoril-e, bachchag'arlar, lof debdi, nainki Ko'hiqof bo'lsa, hech vaqtda odamning yuzi ham qorong'i kechani yorug' qiladimi?

Shu vaqtda karvonlarning birovi aytdi: – E, qofilaboshi, o'zimizning elda Shoir vazirning qizi – Xolbekaning jamoli qorong'i kechani yorug' qilmasmidi?

Azbarxo'ja aytdi: – E karvonlar va e chokarlar, bu qalandar Kuntug'mish to'ra ekan. Shu ayol Xolbeka, buning ishqida podshomiz hali ham bag'rini nam yerga berib yotibdi. Endi to'rani o'ldirmoq

¹ Uyg'oq.

darkor. Xolbekani olib ketamiz. Bor tuyalarni qaytar, – deb qaytadan olib kelib tushirdi. Jamiy karvon to‘raga dushman bo‘lib, ittifoq bo‘lib turdilar. Azbarxo‘ja bir mahrami xosiga buyurdi: – Men to‘ra bilan ichkilik ichaman, sen kosagul bo‘lib soqi bo‘lasan. Sharobni suzganda, menga sovib qolgan choy berasan. To‘raga aroq berasan, – deb ko‘hna-eski aroqlardan choqlab qo‘ydilar. Endi to‘radan eshiting.

To‘ra sachrab uyg‘onsa, tong otayin deпти. «Hay attang, do‘stim ketib qolgandirov», – deb joyidan turganda, to‘rasining sharpasidan Xolbeka oyim uyg‘onib, to‘rasiga «to‘xta», deb bir so‘z dedi:

Savdogar yuk ortar moyali, norli,
Shakaman o‘q tortar sadog‘i parli,
Yotgan karvon, to‘ram, sizga el bo‘lmas,
Ertaroq otlaning, yo‘llar xatarli.

Chorvador mol solmas, chiyir yo‘l bo‘lmas,
So‘nasiz, suqsursiz oydin ko‘l bo‘lmas,
Ertaroq otlangin, yo‘ling xatarli,
Yotgan karvon, to‘ram, sizga el bo‘lmas.

Shu karvonning do‘stliklari gumondir,
Asli dushman, senga xasmi yomondir,
Ertaroq otlangin, yo‘ling xatarli,
Sening yo‘ling ochiq emas, tumandir.

Yotib edim, vallamatim, tush ko‘rdim,
Men tushimda bir qabohat ish ko‘rdim,
Mabodo ko‘nglingga og‘ir olmasang,
Ek‘ qanoti mayib bo‘lgan qush ko‘rdim.

¹ Ikki.

Vaqtı tong ko'ribman, mard to'ram, tushdi,
Bu tushdan ko'ngrim aylar xurushdi,
Tushimda qo'lingdan shunqoring qochdi,
Bordi-da, sayyodning to'riga tushdi,
Mabodo ko'ngringga og'ir olmasang,
Ikki birday yongan chirog'ing o'chdi.

Oyim qizman, ishim haqdan ko'rayin,
Shonaman sochimni toblab tarayin,
Mabodo ko'ngringga og'ir olmasang,
Shu tushimni, to'ram, o'zim jo'rayin:

Mard o'g'lonsan, nomusingni, oringdi,
Toraj etib qo'lda harna boringdi,
Shu tushimni, to'ram, o'zim jo'rayin,
Qochgan shunqor, baxti qora yoringdi(r).

Toza gulsan, oftob tegib so'lmagin,
Shu karvonni aslo do'st deb bilmagin,
Qochgan shunqor, baxti qora yoringdi(r),
Bir gap bilan ayrilib, to'ram, qolmagin.

Qo'lingdan uchirgan turna, g'ozingdir,
Endi senga duo qilmoq lozimdir,
Ikki qanoti mayib bo'lgan – o'zingdir,
Qochgan shunqor – sho'rli sarvinozingdir,
O'chgan chiroq – ikki birday qo'zingdir.

Shahzoda Xolbeka oyimning bu so'zlarini
ko'ngriga qattiq olib: – Tush ham gap ekanmi, shuni
ham so'z deb yuribsan, – deb yoriga itob qilib bir
so'z dedi:

Savdo tushar mard o'g'lonning boshiga,
Do'st-u dushman kelar mardning qoshiga,
Gohi tush shaytoniy, gohi rahmoniy,
Chap chiqar sipoyi bo'lgan kishiga.

O'zing sanam qizsan, husningdir alvon,
Jamoling munavvar, ruhlaring xubon,
Gohi tush shaytoniy, gohi rahmoniy,
Tush ko'rdim deb xafa bo'lma, sanamjon.

Alqissa, to'ra yoriga tasalli berib, chiqib ketdi; karvonlarga borsa, bari bazm-suhbat qilib, xotirjam o'tiribdi, jo'namabdi. Shahzoda aytdi: – E birodarlar, bugun yuk qo'ymadinglarmi?

Azbarxo'ja aytdi: – Jo'namoqchi edik, men to'xtatdim. Bugun ham turinglar, dedim. Do'stim bu yoqqa ketsa, men bu yoqqa ketсам, birov-birovimizni ko'ramizmi, ko'rmaymizmi, deb. Endi jo'ra, bir o'tirish qilib, suhbat tutib, ichkilik ichib, yuraklarning bir cherini ketkizib (olaylik), shu dam g'animat.

Necha yaxshi so'zlar bilan, izzat-ikromlar bilan Azbarxo'ja ikkovi xos o'tirish qilib, o'zga karvonlarga: – Sizlar ham boshqa tomda suhbat qilinglar, – deb chiqarib yubordi. Ikkovlari xos o'tirish qilib, chorzona o'tirib, ikkita o'g'lon kosagul bo'lib, ikkoviga bostirib kosa bera berdi. «Suhbat qildim», – deb shahzoda go'l aroq ichayotibdi. Azbarxo'ja zolim sovib qolgan choy ichayotibdi. Uch shisha, to'rt shisha aroq ichib edi, shahzodaning kayfi boshiga chiqib, olamdan xabari bo'lmay, chappa bo'lib yiqildi. To'ra yiqilgandan o'n shisha ko'hna aroqni og'ziburnidan, qulog'idan quydi. To'ra o'n yillik o'likdan ham yomon bo'lib qoldi. Shu vaqt Azbarxo'ja zolim dunyo deb do'stidan qaytib, bir obdor keskir qilichni qo'liga olib, to'rani o'ldirmoqchi bo'ldi. Shu karvonlarning ichida bir mullavachchai qashshoq, pok e'tiqod, azbaroyi tahsili ilm birga bo'lib kelayotib edi, hamma karvonlar ham qarashib tur-

gan edi. shu mullavachcha bechoraning tobi-toqati qolmay, qanday yugurib borganini bilmay, chopib borib xo'janing qilichini ushlay ketdi. Shunda Azbarxo'jaga qarab bir so'z dedi:

O'z elingda davri davron etganing,
O'tgan ishdan ko'p pushaymon etganing,
Ajdarhoni o'ldirganda shu o'g'lon,
Qani, eshon, ahd-u paymon etganing?!

Ichkilik sharbatin ichmay mast bo'lding,
Avval do'st bo'p, endilikda qasd bo'lding,
Do'st otiga sen qanoat qilmayin,
Haq kalomini guvoh qilib jo'st bo'lding,
Qani, eshon, ahd-u paymon etganing?!

Hali qo'lingdadir davri davroning,
Do'sting edi avval aziz mehmoning,
Agar shundan so'yib ketsang, Azbarxon,
Tayin bilgin, kuyib ketar imoning,
Qani, eshon, ahd-u paymon etganing?!

Hech kimdan kam emas izzat, hurmating,
Musulmonsan, qayda ketdi murvating,
Agar shundan so'yib ketsang, Azbarxon,
Tayin bilgin, kuyib ketar oxirating,
Qani, taqdir, ahd-u paymon etganing?!

Azbarxo'janing qahri kelib, ilonday zahri kelib: – Senmi mening qo'limni ushlaydigan, shunga qo'shib o'ldirib qo'yganimda, qo'lingdan nima keladi? – deb mulla bechoraning boshiga solib-solib yubordi. Shu karvonlarning ichida Qosim qofilaboshi degan bir yosh bachcha karvonlarning bir bo'lagiga katta edi, yugurib kelib, xo'janing qo'lini ushladi: – Senga bir balo bo'ldimi? Senga Buvra-xon podsho Xolbekani olib kelib ber deb pul berib-

midi? Xolbekani olib kelib beraman deb tilingdan xat beribmiding? Shu shahzodaning qilgan yaxshiligini unutib, yomonlik qilsang. Burungilar aytibdi: «Podsho benazar bo'lmaydi», agar nazarkardaligi rost bo'lsa, «Men shahzodani o'ldir debmidim», deb seni o'ldiradi, yolg'on bo'lsa, bilmayman, deb edi, Qosim qofilaboshi bilan ham to'balashib qoldi. Besh ming odam Qosimga qarar edi, o'n besh ming odam Azbarxo'jaga qarar edi. Karvonlar urushib, o'z-o'zidan qirilishib qoladigan bo'ldi. Azbarxo'ja ko'rdi, bo'lmadi. Bular o'ldirmoqqa qo'ymaydi. Agar urushsa, ko'p odam nobud bo'ladi. Ilojin topmay, bir katta o'ram kiyizni olib kelib, bo'yрани o'raganday to'rani o'rab tashladi. Olomonlariga buyurdi: – Ikki boshiga ikki katta tosh olib kelib bostirib tashlang, ichida dami kep o'lib qolsin, – deb dalaga chiqib, tuyalariga potirda-putir yukni orta berdilar. Ikkita zolim xudobexabarga buyurdi: – Bor, Xolbekani olib chiq!

Ikkita karvon chopib bordi: «Chiq, Xolbeka!» – dedi. Xolbeka bechora karvonlardan otini eshitgandan: «Oh sho'rim qursin, bular mening otimni qayoqdan bildi, to'ramni o'ldirib qo'ydi», – deb dovushining boricha chinqirib yig'lab qo'ya berdi. Ikki bolasi uxlab yotib edi, enasining dovushi bilan ular ham yig'lab tura keldi. Karvonlar: – Chiq! – dedi. Xolbeka chiqmadi. Ikki zolim yugurib kelib, qor-yomg'irday tayoqni yog'dirib, birovi urib, birovi sudrab chiqib keta berdi:

**Ikki zolim chopib borib qoshiga,
Qor-yomg'irday tayoq yog'ib boshiga.
Yer-u osmon toqat qilmas, yoronlar,
Xolbekaning chinqirgan dovushiga.**

Xolbeka sho'r zor yig'laydi, o'ldim, deb,
Mard to'ramdan endi judo bo'ldim, deb,
Dargohingga nima qildim, xudoyim,
Men mushtipar buncha g'amga qoldim, deb.

Yig'laydi mushtipar, yoshin tiymaydi,
Bolalarin sira ko'zi qiymaydi,
Ikki go'dak zor yig'laydi qoldik, deb
Osilibdi, Xolbekani qo'ymaydi.

Xolbeka yurmaydi, karvon uradi,
O'ldim, deydi Xolbeka, chinqiradi,
Goh turadi, goh o'tirib mushtipar,
Zulmman zolimlar sudrab boradi.

– Eshiting, karvonlar, aytgan so'zimni,
Yig'latmanglar ikki nodon qo'zimni,
Men sizlardan rozidirman, xaloyiq,
Buncha urma, o'ldirib ket o'zimni.
Ko'llarning uchirgan turna, g'oziman,
Xudoyim qarg'agan qulning o'ziman,
Bollarimdan ayirmanglar, karvonlar,
O'ldirib ket, men sizlardan roziman.

Judolikni menga egam solmasin,
Hech kimsa dunyoda menday bo'lmasin,
Ikki go'dak armonman yo'lda o'lmasin,
Menday bo'lsa, bu dunyoga kelmasin,
Jon og'alar, meni o'ldirib ketinglar,
Go'daklar qolganin ko'zim ko'rmasin.

Qizil gulim so'lganiga yig'layman,
Paymonamning to'lganiga yig'layman,
Baxtim qora bo'lganiga yig'layman,
Mard to'ramning o'lganiga yig'layman,
Bolam yetim qolganiga yig'layman,
Qodir mavlon, dargohingga ne yozdim,

Muncha alam solganiga yig'layman,
Bu dunyoning yolg'oniga yig'layman.

Ajdarhodan karvon o'lmay qolsin, deb
Endi o'zi o'lganiga yig'layman.
Dushmanlarni mening yaxshi do'stim, deb,
Do'sti dushman bo'lganiga yig'layman.
Katta yurtning g'am ko'rmagan azizi,
Bunda xor bo'p qolganiga yig'layman,
Ilohi buzilsin falak gardishi,
Judolikni solganiga yig'layman.
Azalda taqdirda muncha mehnatni
Menga nasib bo'lganiga yig'layman.

Qaytayin, tanimda qolmadi toqat,
Yolg'onchi dunyoda topmadim rohat,
Ilohi buzilsin falak gardishi,
Falak, sendan shod bo'lmadim bir soat.

Savdo tushdi Xolbekaning boshiga,
Yoqasi ho'l ko'zdan oqqan yoshiga,
Ura-ur, deb, torta-tort, deb zolimlar,
Olib bordi ko'p karvonning qoshiga.
O'ldim deydi, zor yig'laydi mushtipar,
Falak titrar chinqirgan nolishiga.

Zolim falak alvon-alvon do'ndirdi,
Urrib-so'kib Xolbekani ko'ndirdi,
Chirqiratib, voy-voylatib sho'rlni,
Qo'lin bog'lab bir tuyaga mindirdi.

Yig'laydi Xolbeka, yoshin tiymaydi,
Ko'p zolimlar o'rtaga olib qo'ymaydi,
Ketarini bilgandan so'ng mushtipar,
Bollarini sira ko'zi qiymaydi.

Alqissa, Xolbeka oyim ilojin topolmay, karvon-
larga qarab, elanib, bir so'z dedi:

Bolalarim er yetgan yo‘q, bo‘lgan yo‘q,
Hali nodon, hech narsani bilgan yo‘q.
Qancha edi go‘daklarning gunohi,
Norastalar o‘ynagan yo‘q, kulgan yo‘q.

Erta bilan uyqusidan turgan yo‘q,
Hali och-da, oq sutimga to‘ygan yo‘q.
Ikki nodon begunohga rahm ayla,
Yangi turdi, nodonlarim emgan yo‘q.

O‘zi nodon alvon-alvon do‘ngan yo‘q,
Hali bular yetimlikka ko‘ngan yo‘q.
Qancha edi norastamning gunohi,
Qorni ochdir, erta bilan emgan yo‘q.

Ikki go‘dak begunohga rahm aylang,
Mendayin baxti qoraga rahm aylang,
Qancha edi norastamning gunohi,
Yig‘lab qolgan muftaloga rahm aylang.

Kim emish ko‘zini yoshlab ketmaydi,
Mehribonlar ko‘nglin xushlab ketmaydi,
Sizlar baring musulmonsan, karvonlar,
Mo‘min tugur, kofir tashlab ketmaydi!

Sargardonsan, haydaganing lo‘kmidi,
Ko‘nglingga olganing sening kekmidi,
Qanday ko‘ngling toshdan edi, zolimlar,
Uyingda shuningday bolang yo‘qmidi?!

Har gap bo‘lsam, bollarimman bo‘layin,
Yo bo‘lmasam men ham shunda o‘layin,
Ikki go‘dak suvsiz cho‘lda o‘lmasin,
Obbergin go‘dakni qo‘lga olayin.

To‘ram o‘ldi, go‘daklarim o‘lmasin,
Hech kimsa dunyoda menday bo‘lmasin,
Menday bo‘lsa, bu dunyoga kelmasin,

Menga solgan bunday qayg‘-u alamdi,
Bu yolg‘onda hech bandaga solmasin.

Begunohga rahm aylanglar, karvonlar,
Ikki nodon suvsiz cho‘lda o‘lmasin,
Men sho‘rliga muncha zulm qilmanglar,
Tanim ketib, bunda jonim qolmasin.

Bandadirman, olloni yod etayin,
Yolborib, haqqa munojot etayin,
Ko‘ngli qattiq, bag‘ri toshdan, zolimlar,
Hech bo‘lmasa, bir emizib ketayin.

Karvonlarga g‘alag‘ul tushib, bu bechoralarning holi-ahvoliga yig‘lamagan odam qolmadi. Ba‘zi xudobexabarlari: – E, o‘lmasa, o‘ronlasin, otasi do‘stlik qilmaganning bolasi el bo‘larmi? – dedi. Ba‘zi rahmi bor kishilari: – Otasi do‘stlik qilmay (nima qildi?). Ikki xudobexabarning ishi-da. Shu ikki norasta go‘dakning ko‘zyoshi hech kimni omon qo‘ymas. Emizsa, emiza qolsin-da, nima qiladi, – deb andak ishorat qildi:

Alam tortib bandi bo‘g‘nin bo‘shladi,
Vo hasrato, xumor ko‘zin yoshladi,
Andak ishoratni anglab mushtipar,
Tuyadan o‘zini otib tashladi.

Savdo tushdi Xolbekaning boshiga,
Falak titrar chinqirgan nolishiga,
Tuyadan o‘zini otib tashladi,
Yig‘lab bordi bollarining qoshiga.

Quloq soling, kuyganlarning so‘ziga,
Jimma-jimma yoshi to‘lgan ko‘ziga.
Yig‘lab bordi bollarining qoshiga,
Borib oldi go‘daklarni tiziga.

Enasidan ne o'tganin bilmaydi,
Norastalar zulm etganga ko'nmaydi.
O'pkasini bosolmaydi entikib,
Ikki go'dak Xolbekani emmaydi.

Xolbeka sho'r daryoday bo'p to'ladi,
Bo'la-bo'l, – deb karvon g'azab qiladi,
Emolmaydi o'pkasini bosolmay,
Bir-biriga irjayishib kuladi.

Toza gulsan, oftob tegib so'lasan,
Mavj urib, daryoday toshib to'lasan,
Men ketgan so'ng ikki go'dak o'lasan,
Enang bandi bo'lgan karvon qo'liga,
Enangdan ayrilib yo'lda qolasan.

Ilohi toleying qursin, go'daklar,
Ne holingga irjayishib, kulasan?!
Hali sening aqling yo'q, hushing yo'q,
O'liming bilmagan qanday bolasan.

Enang bandi bo'ldi karvon qo'liga,
Yig'lay-yig'lay suvsiz cho'lda qolasan,
Ena, deysan, tanda jonim olasan,
Men ketgan so'ng armon bilan o'lasan.

Bolalarim, eminglar-da, to'yinglar,
Bukundan kay ena dernu qo'yinglar,
Bukundan kay ena senga qaydadir,
Oxirat libosin endi kiyinglar.

Bir vaqtida zarrin ro'mol o'radim,
Oyna olib oq yuzimga qaradim,
Go'daklarim, ena bo'lmay ketayin,
Ena bo'lib ne kuningga yaradim?!

Oyim qizman, ishim haqdan ko'raman,
Suvsiz cho'lda bolam, deb chinqiraman,

Ena bo'lib ne kuningga yaradim,
Ko'zim bilan tirik tashlab boraman!

Enang ketdi karvonlarning qo'liga,
Qolding endi Zarchamanning cho'liga,
Shu ko'rganim, endi qaytib ko'rmayman,
Sensiz qaytib yurar Zangar eliga...

Ot chopilar baland tog'ning pastiga,
Quloq solgin gapimning payvastiga,
Diydor qo'shsa, mahshar kuni ko'rgaymiz,
Topishgaymiz Olatog'ning ostida.

Go'dak qolding, taqdiringdan ko'ringlar,
Suvsiz cho'lda ena deb jon beringlar,
Topishgaymiz Olatog'ning ostida,
Enam, deb shu yerga izlab boringlar.

Yoqasi ho'l ko'zdan oqqan yoshiga,
Kim ko'nmas qudratli haqning ishiga,
Ur-a ur, deb, tur-a tur, deb zolimlar,
Depsib bordi Xolbekaning qoshiga.
Bollarini sho'rli ko'zi qiymaydi,
Qor-yomg'irday qamchi yog'di boshiga.

Alam tortib bandi bo'g'nin bo'shladi,
Ikki xumor ola ko'zin yoshladi,
Tayoq zarbi o'tib edi sho'rlidan,
Bollarini silkib qoqib tashladi,
Ikki go'dak zor yig'lashib shu vaqtda
Ena ded-da' etagidan ushladi.

Xolbeka sho'r o'ldim, deb chinquiradi,
Dovushiga yerlar larzon beradi,
Ikki go'dak etagidan ushladi,
Berahmlar bilagiga uradi.

¹ Dedi-da.

Ikki go'dak zor yig'laydi qoldik, deb,
Ena, bizlar nima gunoh qildik, deb,
Xolbeka sho'r zor yig'laydi, ingraydi,
Har qaysimiz har chuqurda o'ldik, deb.

Alqissa, karvonlar Xolbekani bog'lab, siynasini dog'lab, o'ldirgali chog'lab, Xolbeka sho'r dod deb yig'lab, oldingi tuyaga mindirib, tez yur, deb tayoqlab (olib ketdilar). Xolbeka sho'r bolalaridan ayrilib, bo'yni ortiga qayrilib, azalda qismati ayra¹ buyurilib, to ko'zi ko'rماغuncha orqasiga qarab, tiklab ketdi. Ko'zi ko'rmasday bo'lgandan keyin, bolalaridan umid uzib, o'z holi-ahvoliga yig'lab ketdi... Xolbeka bechoraning dod-faryodiga yer-osmon chidamay, ba'zi karvonlarning zahrasi ob bo'lib, qo'shilib yig'lab, ketib borayotib edi, ba'zilari esa: «Xo'p qildik, podshoga yaxshi o'lja topdik», – deb kulib borayotib edi. Shunda Qosim qofilaboshi odamlariga maxfiy aytar edi: – Hali ham yaxshi bo'ldi, to'ra o'lmay qoldi. Bu zolim bachchag'ar o'ldirganda, ko'p yomon bo'lar edi, bachchalar ham o'lar edi. Umidim shu: To'ra bir kun-yarim kun o'tsa, mastligi tarqab turar, go'daklarini topib olar, bizlarga qarab yurar. Agar yetolsa, shu bachchag'ar Azbarxo'jani odamlari bilan qirar. Bilmayman, yetolmay qolsa, to'ra sira bir to'g'ishmay² ketmas. Sizlarga so'zim shulki, shu bachchag'arlarga bildirmay, har mahalla, bandargohlarga, yo'lning labiga, bir kunlik, yarim kunlik yerga, bir ko'zacha suv, picha ovqat qo'yib ketinglar. To'ra kelsa, tashnalab, ochqab majoli ketib qolmasin. Agar to'ra yetsa, men ham jonimning

¹ *Ayriliq.*

² *To'qnashmay.*


boricha shu bachchag'ar bilan bir kurashmasam bo'lmas, – deb odamlarga tayinlab, o'zi Azbarxo'ja bilan barobar borayotib edi.

Endi ikkita go'dak enasining shu yoqqa ketganini bilib, goh emaklab, goh sudralib, yo'lda ikkovi yig'lab emaklay-emaklay qirga chiqqan edi. Azbarxo'ja ham to'radan xavotir qilib, karvonlarni qichashtirib, qattiq yurgizib borar edi. Endi gapni to'radan eshiting.

Shu kun yotdi, oqshom ham o'tdi. Bukun peshin-peshinda to'raning mastligi tarqab, hushiga kelib, bir to'lg'ondi, kiyizning bir yog'i toshdan judo bo'ldi. To'ra kiyizdan chiqib qarasa, saroylar dabdala bo'lgan, saroydan karvonlar ketib qolibdi. Chopib u saroyga borsa, Xolbeka ham yo'q, go'daklar ham yo'q. Shahzoda oh tortib, sherday chirpinib, yo'lbarsday yutinib, o'rdasini oldirgan bo'riday achinib, qoplonday chopinib, belini mahkam bog'lab, etagini qaytarib: «Shu karvonlarni shu yo'lda bir ko'rib qolsam, bearmon bo'lar edim», – deb ayiqday hayqirib, ajdarhoday ishqirib, yo'lning yuzi bilan, karvonlarning izi bilan, otday chopib, kiyikday sakrab ravona bo'ldi. Shunda o'zining hol-ahvoliga, yoridan judo bo'lganiga, bolalaridan ayrilib qolganiga falakdan shikoyat qilib, bir so'z deb yura berdi:

Qodir mavlon, meni solding savdoga,
Qayta boshdan men yorimdan ayrildim,
Yorim ketib, o'zim qoldim baloga,
Ko'nglim olgan dildorimdan ayrildim.

Ayrildim, armonman o'sgan joyimdan,
Boshim qutulmadi qayg'u-voyimdan,
Qariganda otam qiblagoyimdan,
G'amxo'r otam, g'amxo'rimdan ayrildim.



Ayrildim, armonman kulbaxonamdan,
Mehribon, mushfiqim, gavhar donamdan,
Boz ayrildim oq sut bergan enamdan,
Ka'bam enam, nochorimdan ayrildim...

Qarchig'ay bo'yniga taqdim jig'ovul,
Xizmatimda sop o'gachi, shig'ovul,
Oldimda necha saf mahram, yasovul,
Ulug' beklar, davronimdan ayrildim.

Judo bo'ldim endi harna borimdan,
Falak titrar qilgan ohu zorimdan,
G'ariblikda ko'nglim olgan yorimdan,
Nozli, shakar guftorimdan ayrildim.

Ikki ko'zdin oqqan qonli jolamdan,
Bu falakka chiqqan ohu nolamdan,
Boz ayrildim ikki birday bolamdan,
So'zlar tilim ham jonimdan ayrildim.

Armonman ayrildim o'sgan elimdan,
Bulbul bo'lib uchdi toza gulimdan,
Men ayrildim ikki birday ulimdan,
Bel quvvatim – madorimdan ayrildim.

Yorim, sabru qarorimdan ayrildim,
O'g'lim, gulu gulzorimdan ayrildim,
Qo'limda ixtiyorimdan ayrildim,
Tar ochilgan bahorimdan ayrildim.

Sog'inganda xumorimdan ayrildim,
Baxtim, qiziq bozorimdan ayrildim,
Bog'imda olma, norimdan ayrildim,
Naylayin, yo'g'-u borimdan ayrildim.

Ot chopilar baland tog'ning pastiga,
Quloq soling, gapimning payvastiga,

Mayib norday ingranadi Kuntug'mish,
Chopib chiqti katta qirning ustiga.

Yosh olgandir vallamatning ko'zini,
G'am bilan unutgan shahzod o'zini,
Chopib chiqsa bitta qirning ustiga,
Yo'lda ko'rdi go'daklarning izini.

– Hay attang, qiyomat bo'lgan ekandi,
Tar ochilgan gulim so'lgan ekandi,
Yig'layin, paymonam to'lgan ekandi,
Zolim karvon zulm qilgan ekandi.

Go'daklar ayrilib qolgan ekandi,
Necha kun o'tganin xonzod bilmaydi,
Armon bilan bollarim o'lgan ekandi,
Xolbeka yo'q, hasrat bilan qon yutib,
Armon bilan bandi bo'lgan ekandi.

Zolim karvon juda uzab ketibdi,
Kuysin o'lim, barchani yig'latibdi,
Shahzoda ko'zin ochib qarasa,
Ikki go'dak qumda ag'nab yotibdi.

Shahzodaning ko'ngli daryoday toshib,
Nodon go'dak enasidan adashib,
Ikki o'g'li qumda ag'nab yotibdi,
Quchoqlashib, qo'ziday bo'p ayqashib.

Bulbul oshno bo'lar bog'ning guliga,
Kuysin o'lim, kim chidaydi hiliga,
Hay attang-a, o'lib qolgan ekan, deb
Borib oldi bollarini qo'liga.


Mergan otar suvsiz cho'lining g'ozini,
Oldirgan qo'lidan sarvinozini,
Bollarin ko'tarib olsa qo'liga,
Go'daklar ena deb ochdi ko'zini.

Ikki go'dak yig'lashib dod deyishadi,
Ena, deydi bollar, faryod deyishadi,
Qarmalaydi otasining ko'kragin,
Och qopti go'daklar, ovqat deyishadi.

– No'g'oyday o'sgan elatim bo'lmasa,
Doyimgidayin davlatim bo'lmasa,
Yig'lasang xudoga yig'la, go'daklar,
Qaytayin ko'krakda sutim bo'lmasa,
Ikkovginang ochqab qopsan cho'llarda,
Berayin desam, ovqatim bo'lmasa.

Uchayin desam, qanotim bo'lmasa,
Turmoqqa, naylay, toqatim bo'lmasa,
Yerga kirmakka najotim bo'lmasa,
Ikkovginang cho'lda ochqab qolibsana,
Go'daklar, naylay, ovqatim bo'lmasa.

Alqissa, shahzoda bollarini qo'yniga solib, karvonlarning izini olib, chopgan otday ravona bo'lib, yugurib quva berdi. Shu suvsiz cho'lda o'zi ham ochqab, suvsab, majoli ketib kelayotib edi, boyagi Qosim qofilaboshining odamlari qo'yib ketgan non-suvning ustidan kelib, topib olib, o'zi ham yeb, non, suv berib, bolalarining ham qornini to'ydirib, yo'lga tushib, ko'nglida aytdi: «Vo ajabo, karvonlarning ichida ham xudotars, saxiylardan bor ekan. Mabodo to'ra orqamizdan kelsa, ochqab, suvsab o'lmasin, deb qo'yib ketgan ekan-da», – deb orqasidan tushib quva berdi. Anda to'ra ikki bolasini ko'tarib, bir hafta quvdi. Har kunda yo'lning labidan bir kunlik ovqat, bir ko'zacha suv topib, yeb, ichib quva keta berdi. Bir hafta deganda Tajan daryoning labiga bordi. Shahzoda qarasa, Azbarxo'ja xavotir qilganidan: «Mabodo

A decorative border with repeating floral motifs surrounds the text. The motifs are stylized flowers with multiple petals, arranged in a continuous line.

orqamizdan to'ra kelsa, suvdan o'tolmasin, mu'tal bo'lib, orqamizdan yetolmasin», – deb daryoning qayiqcha kemalarini ham suvga oqizib o'tib ketibdi. Shahzoda u yoq-bu yoqqa yugurib ko'rdi, kema-qayiq topolmadi. Oxir ilojini topmay, ikki bolasini yo'rgaklab, o'zin suvga chog'lab, daryodan yuzib o'tmoqchi bo'ldi. Bittasini og'ziga tishlab, u bittasini shu daryoning labiga qo'yib, daryoga kirib biror o'ttiz quloch urib edi. Endi baxti qaytgan to'rani ko'ring, «Davlat ham egiz, mehnat ham egiz», shu bachchani qo'ygan yerning oldida bir tup g'isha bor edi. Shuning ostida bir qizil iyak qari bo'ri pisib yotib edi. Shahzodaning daryoga tushganini ko'rib, to'ra uzagandan keyin, bachchaning belidan tishlab olib keta berdi. Bola qo'rqib: «Ota!» – dedi. Shahzoda qarasa, bo'ri tishlab olib borayotibdi. «Voh!» – deyman deb edi, og'zidagisi ham suvga tushib ketdi, bir baliq yutib o'ta chiqdi. Shahzoda aytdi: «Buku o'ldi, ana usiga yetar ekanmanmi?» – deb suvdan chiqib quvdi. Ikki oyoqliga to'rt oyoqli nega yetqizsin, u ham qutulib ketdi. Anda shahzoda ikki bolasidan umid uzib, bolalaridan ayrilib, qanotidan qayrilib, ikki bolasining firoqidan Xolbekani ham esidan chiqarib: «Ey zamona, qish-yozingni, ko'p-ozingni, o'rdak-g'ozingni, kecha-kunduzingni, oy, oftob, yulduzingni, osmon-yeringni, harna boringni bor enangni...» – deb shahzoda dilovarning qaddi bukilib, har bir ko'zidan oltmish qatra yoshi (to'kilib), bir dardi ming bo'lib, ichi g'amga to'lib, junun savdosi qo'zg'olib, falak kajraftordan shikoyat-shikvalar qilib, o'z holi-ahvoliga na'ra tortib aytgan so'zi:

Xonu monim bo'ldi chun barbod dastingdan, falak,
Bo'lmadi g'amgin bu ko'nglim shod dastingdan,
falak,

Qilmading aslo dilim obod dastingdan, falak,
To qiyomat dod etarman, dod dastingdan, falak,
Dod dastingdan, falak, bedod dastingdan, falak!

Shohlarning shohi erdim, hukm etardim o'ltirib,
Zolimiga jabr aylab, o'g'ri bo'lsa o'ldirib,
Hukmi shohlikning adolat birla davrini surib,
Zolimlar qo'rqr erdi, bu yomon hukmim ko'rib,
Dod dastingdan, falak, bedod dastingdan, falak!

Necha shahzodalar bilan har yerda maydon o'ynashib,
Gohlarda ot chopib, gohlarda chavgon o'ynashib,
Gohi go'ybozlik qilib, maydonda har yon o'ynashib,
Goh qilichlar siltashib, tig' ila javlon o'ynashib,
Dod dastingdan, falak, bedod dastingdan, falak!

Otlar bo'lsam, qo'shin mag'rib-u mashriq tomon,
Aylanib ketmas edi boshimda har kun ming g'ulom,
Shohlardan ming kishi har erta kelardi salom,
Kunda ming mullo kelib tafsirdin aylardi bayon,
Dod dastingdan, falak, bedod dastingdan, falak!

Otlar bo'lsam, qo'shin chiqar edilar lak-balak,
Ming xachir xizmatda erdi, yana erdi ming eshak,
Yana sonsiz suvor tashir edi xor-u xashak,
Yana yuzta fil yurardi ustida zarrin to'shak,
Dod dastingdan, falak, bedod dastingdan, falak!

Otimni Kuntug'mish deydi, men

No'g'oyning xoniman,

Dilbaridan ayrilib, men bir ajab sarsoniman,
Oldirib ikki qo'zimni diydayi giryoniman,
Onadan baxti qaro tug'dim¹, shuning hayroniman,
Dod dastingdan, falak, bedod dastingdan, falak!

¹ Tug'ildim.

Shahzoda farzand dog'iga toqat keltirolmay, no-
lishiga osmon-yer tebranib, yig'lab turib edi. Shu
vaqtda to'raning nolasini eshitib, bir cho'pon kelib
qoldi. Qarasa, bir odam, sher haybatli, yo'lbars si-
fatli bir kishi, falakdan shikoyat qilib yig'laganiga
tog'-u toshlar suv bo'lib turibdi. Cho'pon bechora
qo'yni qo'yib, to'raning oldiga kelib: – Nega mun-
cha yig'laysan? – deb bir so'z dedi:

E, yor, alam ko'rgan, qaydin kelasan, ayg'il,
Ko'p ranju sitam ko'rgan, qaydin kelasan, ayg'il.

Kim erding guli so'lgan, shum paymonasi to'lgan,
Yoki bolasi o'lgan, qaydin kelasan, ayg'il.

Diyoridan ayrilgan, qanotidan qayrilgan,
Yo yoridan ayrilgan, qaydin kelasan, ayg'il.

Sen muncha bo'lib shaydo, muncha qilib vovaylo,
Yusufmisan Zulayxo, qaydin kelasan, ayg'il.

Sen muncha bo'lib purxun, ko'z yoshing oqar Jayhun,
Yo Laylimisan Majnun, qaydin kelasan, ayg'il.

Yig'laysan bozi-bozi, ko'kka chiqar ovozi,
Yo Zebomisan Yozi, qaydin kelasan, ayg'il.

Yoinki qalandarsan, yo mardi dilovarsan,
Qilgin buni bovarsan, qaydin kelasan, ayg'il.

Ayg'il menga¹ otingni, bergil bayon zotingni,
Qo'y endi uyotingni, qaydin kelasan, ayg'il.

Anda shahzoda dilovar cho'pondan xabari yo'q,
o'z hollariga yig'lab turgan edi, ko'zlarini ochib qa-
rasa, bir qo'y quvuvchi kelib, «qaydan kelasan», –
deb so'z so'rab turibdi. Anda shahzodaning tutun-

¹ Qo'lyozmada meg'an.

olovlari jo'sh qilib, ko'ngillari qaynab, bir dardmand topolmay, ichi g'amga to'lib turgan emasmi, cho'ponni mungdosh bilib: – E bechora, beri kel, – deb cho'ponga qarab, boshidan o'tgan mashaqqatlarini aytib, bir-bir bayon qilib bir so'z dedi:

No'g'oy yurti – o'sgan joyim,
Ko'kka chiqar qilgan ohim,
Qoraxon deb qiblagohim,
Otam elga sulton bo'ldi.

No'g'oydadir mamlakatim,
Qayrilib sindi qanotim,
Kuntug'mish der mening otim,
To'ra nomi-nishon bo'ldi.

Quloq solgin nolishima,
Yo'q savdo tushdi boshima,
Men kirdim o'n to'rt yoshima,
Bir kuygur tushdi tushima,
Xotirim parishon bo'ldi.

So'zlamakka ko'nglim tolib,
Zulfim belimga irg'alib,
Qoshima qirq yigit olib,
Ko'nglim yo'lga ravon bo'ldi.

Ko'zimdan oqqan yoshimman,
Shu falakning gardishiman,
Uch oy yurib Zangar keldim,
Oshna bo'ldim qo'rboshiman.

Yor, yor dedim qonlar yutib,
Har tarafga ko'zim tutib,
Oldim yorning nardin utib,
Joyim – ko'shk-u ayvon bo'ldi.

Yig'layin, qanotim sindi,
Qora baxtim qora do'ndi,

Podshosiga bo'ldim bandi,
Qutulmog'im gumon bo'ldi.

Ko'ndim haqning taqdiriga,
Qoyil manglayning sho'riga,
Bizlarni tikdi teriga,
Bu keng dunyong zindon bo'ldi.

Qildi dushmanlar malomat,
Ko'rdim bir necha alomat,
Chiqdim teridan salomat,
Yana ko'nglim ravshan bo'ldi.

Quloq solg'il ushbu doqqa,
Ko'zimni soldim har yoqqa,
Necha vaqtlar cho'lda kezib,
Oxir keldik Mug'ol toqqa,
Mug'ol tog'i vatan bo'ldi.

Bir-birovga bo'lib payvand,
Ko'ngillarni qilib xursand,
Xudo berdi ikki farzand,
Yana ko'nglim ravshan bo'ldi.

Qidirdim alvon-alvonga,
Sig'indim qodir mavlonga,
To'rt yil yurdim Mug'ol tog'da,
Duchor keldim ko'p karvonga.
No'g'oy yurtning xoni edim,
O'zimni sotdim bir nonga,
Qimmatimiz bir non bo'ldi.

Omonat odamning joni,
Har kimning elda bo'lar davroni,
O'zimni sotib bir nonga,
Men o'ldirdim ajdarhoni,
Ilon yer bilan yakson bo'ldi.

Nomus bilan orim ketdi,
Qatorimda norim ketdi,

Aroq berib mast qip meni,
Shu karvonda yorim ketdi,
Do'st karvonim – dushman bo'ldi.

So'zlamakka ko'nglim tolib,
Zulfim belimga irg'alib,
Qo'sh bolamni topib olib,
Ko'nglim yo'lga ravon bo'ldi.

Birini solib iynima,
Birini solib qo'ynima,
Qo'sh bolamni topib olib,
Keldim Tajanning bo'yina,
O'tmakligim gumon bo'ldi.

Barchani yaratdi xoliq,
Bor edi vazir otaliq,
Birovini yutdi baliq,
U yer bilan yakson bo'ldi.

Yor dedim, xunoba ichdim,
Ey, dunyo, bahringdan kechdim,
Gadolik yo'lga tushdim,
Qalandar bo'lганиm bo'lган.

Avval ayrildim borimdan,
Ikki bolam ham yorimdan,
Eshiting oh-u zorimdan,
Qalandar bo'lганиm bo'lган.

Chiqmadi boshim alamdan,
Ayrildim yor-u bolamdan,
Jon chiqquncha bu tanamdan,
Qalandar bo'lганиm bo'lган.

Shul bo'ldi haqning taqdiri,
Ayrilmay manglayning sho'ri,

Bittasin op ketdi bo'ri,
Uni ko'rmak gumon bo'ldi.

Qarorim yo'q, turay desam,
Madorim yo'q, yuray desam,
Uyim yo'qdir, boray desam,
Vatanim yo'q, kiray desam,
Yorim yo'qdir, ko'ray desam,
Qo'zim yo'q, o'rgilay desam,
Ajal yetmas, o'lay desam,
Cho'pon, boshim sarson bo'ldi.

Cho'pon: «E bechora», – deb o'tib ketdi. Anda shahzoda Xolbekani ham unutib, borayotgan yo'lini ham qo'yib, boshqa bir yomon yo'lga tushib, ko'ngli jo'sh urib: «Bor, dunyongdan kechdim», – deb bir so'z dedi:

Mosuvoday ko'kka uchdim,
Ajal sharobidan ichdim,
Bu dunyo bahridan kechdim,
Qalandar bo'lганиm bo'lган.

Qiyomat tongi otguncha,
Olamni foni tutguncha,
Isrofil surin tortguncha,
Qalandar bo'lганиm bo'lган...

Kokilimning bandin yig'ib,
Qosh-u qabog'imni uyib,
Boshima bir kuloh kiyib,
Qalandar bo'lганиm bo'lган.

So'zlamakka ko'nglim tolib,
Zulfim belimga irg'alib,
Qo'limga bir mudbaq olib,
Qalandar bo'lганиm bo'lган.

Bog'larda bordir navbahor,
Gullar ochilar har sahar,
Qidirib shaharma-shahar,
Qalandar bo'lganim bo'lgan.

Shu bo'ldi haqning farmoni,
Ketdi tanimning darmoni,
Gohi o'rus, gohi armani,
Qalandar bo'lganim bo'lgan.

Gapga yetar aqli raso,
O'ng qo'limga oldim aso,
Gohi yahud, gohi tarso,
Qalandar bo'lganim bo'lgan.

Yig'layin, qanotim sindi,
Qora baxtim qora do'ndi,
Gohi mug'man, gohi hindi,
Qalandar bo'lganim bo'lgan.

Azroil jonim olguncha,
Sanovli damim to'lguncha,
Hisobli kunim bo'lguncha,
Qalandar bo'lganim bo'lgan.

Shahzodani keta bermoqda qo'ying, endi so'zni kimdan eshiting? To'raning qo'lidagi bolasini yutgan baliq mug'dor o'n gaz yer ham borgan yo'q edi. Olim sayyod degan qatag'anlik katta sayyod bir katta to'rni yozib o'tirib edi. Shu baliq boruvi bilan to'riga tushdi. Ko'tarib olsalar, bir katta baliq tushibdi. Ichini yordi, «Ota» deb ichidan bir bola chiqa keldi. Olim sayyod hayron qolib: – Ajab qudratlaring bor, – deb bolani uyiga olib borib, farzandi yo'q edi, tarbiya qilib boqa berdi.

Endi bo'ri olib qochgan boladan so'zni eshiting.
Bo'ri to'raning bolasini olib qochdi, bir, ikki

qirdan oshdi. O'nta cho'pon itiga osh pishirib yotib edi, bo'rining guzari ustidan tushdi. Cho'ponlarning ko'zi tushdi, itni qo'shdi, bo'ri shoshdi, bachchani tashlab qochdi. Cho'ponlar bolani tushirib olib, hayron qolib, birovi aytadi: – Qirga chiqqan xotinning bolasi.

Birovi aytadi: – Mo'ltonining bolasi.

Birovi aytadi: – Qozoqning bolasi.

Birovi aytadi: – Bir uyquchi befarq xotinning bolasi.

Shu yerda o'n bir cho'ponning qo'shi doyim bir edi. Kunda kechkisin bari yig'ilib kelar edi. Erta turib, qo'ylarni har tarafga haydab ketar edi. Kechkisin boyagi to'raga uchrashgan cho'pon qo'yini haydab kelsa, jo'ralari: – E birodar, bizlar bukun bo'ridan bir bola tushirib olib qoldik, – deb o'rtaga olib o'tiribdi. Cho'pon ko'nglida aytdi: «Haligi sho'rlikning bolasi».

Oradan bir-ikki kun o'tmay ovoza bo'lib qoldi: «Olim sayyod qatag'an baliqning ichidan bitta tirik bolani topgan emish». Buni ham haligi cho'pon eshitdi. «Haligi sho'rlikning bolasi», – deb yurdi.

Cho'ponlar bo'rini gurk der ekan, o'z oti o'zi bilan, bolaning otini Gurkiboy qo'yidilar. Baliqni sayyodlar mohi der ekan, unisining otini Mohiboy qo'yidilar. Bolalarni tarbiyatda qo'yib, endi so'zni Xolbeka oyimdan eshiting.

Azbarxo'ja necha vaqt, necha kunlar yo'l yurib, Zangarning shahriga doxil bo'ldi. Zangarga: «Xolbeka kelayotgan emish», – deb ovoza bo'ldi. Kattakichik, xurd-u kalon, qiz-u juvon, mard-u zan tomlarning ustiga chiqib, tomosha qilur erdi. Azbarxo'ja Xolbekani Buvraxon podshoga ko'rinish qildi. Podsho qarasa, Xolbeka oyimning qaddi bukilib, rang-

lari sarg'ayib, qovog'i tortib, tayoqday qotib, qizil
ola qoniga botib, ilgarigi husni jilvalaridan yuzdan
biri ham qolmabdi. Shunda Buvraxon podsho: «Hay
attang, esiz Xolbeka, sop bo'pti-ya», – deb arkoni
davlatning ichida Xolbekaga qarab, bir so'z deb tu-
ripti:

Bir vaqtinda banot bichding to'nlikka,
Qarayman etaging kepti yenglikka,
Qayda qoldi qoshingdagi hamrohing,
O'zing kepsan karvonlarman, Xolbeka!


Bir vaqtingda Zangarimni joylading,
Boshingga zar uqa ro'mol boylading,
O'zing kepsan karvonlarman, Xolbeka,
Qoshingdagi hamrohingni naylading?

O'rtading bir mardning joni-dilini,
Osmonga sovurding mardning kulini,
O'zing kepsan karvonlarman, Xolbeka,
Qayda tashlab kelding shohning ulini?

Seni deb shahzoda bo'ldi aftoda,
Bu umrin falakka berdi barboda.
O'zing kepsan karvonlarman, Xolbeka,
Qayda qoldi qoshingdagi shahzoda?

Ot chopilar baland tog'ning pastidan,
Jon qutulmas azroilning qasdidan,
Qayda qoldi qoshingdagi shahzoda,
Yolg'on dema, so'zla, nozim, rostidan.

Xolbeka oyim shohdan bu so'zlarni eshitib, do-
vushining boricha chinqirib, ko'ngli buzilib, bag'ri
ezilib, ko'zining yoshi marjonday tizilib, bir so'z
dedi:



Xonim, sizga deyin gapning bo'lganin,
Oraga solmayin so'zning yolg'onin,
Sahar vaqti ikki qo'lim bog'landi,
Bilmayman to'ramning tiri-o'lganin.

Vo hasrato, ichar suvim loylandi,
Falokat boshima yomon aylandi,
Qor-yomg'irday qamchi yog'ib boshima,
Sahar vaqti ikki qo'lim boylandi.

Erisin, tog'larning qori erisin,
Yer yutar odamning axir barisin,
Sahar vaqti ikki qo'lim boylandi,
Bilmayman to'ramning tiri-o'lisin.

Bir bog'chada olma edi, nor edi,
Ayrilgan qul bir ko'rmakka zor edi,
Bilmayman to'ramning tiri-o'lisin,
Ena degan ikki o'g'lim bor edi.

Armonman ayrildi qanoti sinib,
Yo'lima to'rt bo'ldi ko'zlari tinib,
Qola berdi Zarchamanning cho'lida,
Ena deyishib, oyday bo'lib talpinib.

Suvsiz cho'lda bollarim o'lgandir,
Armonman go'daklar nobud bo'lgandir,
Go'daklarning kimi borsin qoshiga,
Tanasini qarg'a-quzg'un olgandir.

Go'daklarning kimi borsin qoshiga,
Kim rahm etsin (ko'zdan) oqqan yoshiga,
Suvsiz cho'lda bollarim o'lgandir,
Qarg'a-quzg'un qo'nib yotir loshiga.

Oh tortganda ohim ipday eshildi,
Ayriliqdan siyna-bag'rim teshildi,

Gapning bo'lgani shul, taqdir podshoyim,
Diydor bukun sizga kelib qo'shildi.

Xolbeking shu so'ziga arkoni davlatdan eshitgan odam yig'lamay qolmadi. Podsho ham ko'ngli ko'p parishon bo'lib, arkoni davlatdan savol qildi: – E yoronlar, voy umarolar, vazir donolar, podsho g'azab qilib, ikki odamni bir teriga tiqib, bir asovning dumiga taqib, bir jazirai vahmnokil otashga haydab yuborsa, shundan chiqib, bola-chaqali bo'lgan, – deb hech eshitganlaring bormi?

Arkoni davlat bari joyidan turib, qo'l qovushtirib: – Taqdir podshoyim, bu sinoatni bizlar tugil, ilgari o'tgan payg'ambarlar ham ko'rgan emas, – deb javob berdilar. Podsho aytdi: – E xaloyiqlar, shu ikkovi teri ichida cho'l jazirada omon qolgan ekan, shu ikki go'dak ham cho'lda omon qolarmikan? Xaloyiq gurullab aytdi: – Taqdir podshoyim... agar saqlayman desa, qudrati yetadi.

Podsho aytdi: – E yoronlar, shu ikki go'dak o'lmas, qasos qiyomatga qolmas. Shu Xo'jadan shu go'daklar otasining qasosini, o'zlarining qasosini olmay qo'ymas. Men shu bachchag'ar Xo'jaga Xolbekani olib kelib ber, degan ekanmanmi? Azbarxo'jani tagizamindagi zindonga olib borib tashlanglar, mollarini pechat qilib qulflab tashlanglar.

Axir shu bachchalar kelar, shu Xo'jadan o'chini olar, – deb farmon qildi.

Jalldolar kelib, Xo'janing yoqasidan olib, shohi buyurgan obxonaga tashladilar, mollarini barkitdilar. Anda podsho Xolmo'min yasovulboshiga qarab, farmon qildiki: – Ov Xolmo'min yasovulboshi, bor, Xolbekani senga berdim.

Xolmo‘min yasovulboshi joyidan irg‘ib turib, qo‘l qovushtirib, qulluq taqsir, – deb Xolbekani uyiga olib borib boqa berdi. Xolbeka oyimni boqmoqda qo‘yib, ikki kalima so‘zni o‘zga joydan eshiting.

Alqissa, bachchalar bir ish buyursa qilguday bo‘ldi, bir yerga buyursa, borib kelguday bo‘ldi. Oydan oy o‘tdi, yildan yil o‘tdi, bachchalar o‘n birga yetdi. Lekin yurtga ovoza bo‘lib edi: «Xolbekani Zangar podshosi Xolmo‘min yasovulboshiga bergan emish». Haligi cho‘pon buni ham eshitdi. Lekin haligi cho‘pon har zamon qo‘y haydab Qatag‘onga borsa, Mohiboyini ham ko‘rar edi. Cho‘pon pulisini berib: – Ikkovimiz oshna bo‘lamiz, – deb tanish bo‘lib yurar edi. Cho‘pon bechora ko‘nglida aytar edi: «Shu bachchalar yigirmaga borsa, No‘g‘oy mamlakatiga olib borib, Avliyoyi Qoraxonga bir tanishtirib, nabira ekanligini bildirsam, men-ku hech nima emasman, shu bachchalar tufayli bir narsa bo‘lib qolaman», – degich edi.

Gurkiboy o‘nga kirgandan keyin, cho‘ponlar qo‘y boqtirib, har kun birovining qo‘yini boqib kelar edi, shu kuni cho‘pon o‘zi qo‘shda yotib qolar edi. Har o‘n bir kunda navbati bir aylanib kelar edi. Boyagi otasini ko‘rgan cho‘ponga navbat kelsa, Gurkiboyini izzatlab, eshagiga mindirib, qo‘yini o‘zi boqar edi. Otasini ko‘rgan sababli boshqa cho‘ponlardan bu ko‘p mehribon edi.

Bachchalar o‘n ikkiga kirdi. Bir kun yog‘in ko‘p bo‘lib, qo‘y ham ko‘plik qilib, Gurkiboy yugurib charchadi. Qo‘yni haydab kelib, xo‘ragini yeb, unday yerga borib yotib qoldi. Cho‘ponlar qo‘yning qiyiga olov berib, etak urib, cho‘g‘ qilib, ustlarini keptirib gaplashib o‘tirib edi. Bir cho‘pon gapirib soldi: – E birodarlar, shu Gurkiboyini bizlar bir

bo'ridan tushirib oldik, bir odam ham izlab kelma-
di-ya.

Buni Gurkiboy eshitib: «Qani, cho'ponlar nima
deydi ekan», – deb darrov quloq soldi. Boyagi to'rani
ko'rgan cho'pon yig'lab qo'ya berdi. Bu cho'ponlar
aytdi: – Sen bir nimani¹ bilasan, bizlarga aytmasan,
Gurkiboyni ham ko'p izzat qilasan. Bizlar Gurki-
boy, deb edik, sen yig'lading. Sen shuning sababini
aytmaysan, agar aytmasang, seni o'ldiramiz, – deb
yomonning hazili ham yomon bo'ladi, o'n cho'pon
dehqoniy mushtdan yigirma mushtni yasadi.

Gurkiboy ham qulog'iga tikib yotibdi. Shunda
cho'pon jo'ralariga qarab bir so'z dedi:

Narkas-narkas xumor ko'zlar suzilar,
Hasratingdan yurak-bag'rim ezilar,
Gurkiboyning zotin aytsam sizlarga,
Gurki desam, mening ko'nglim buzilar.

Quloq songlar alvon-alvon so'zlarga,
Qo'y boqamiz odami yo'q tuzlarga,
Gurki desam, mening ko'nglim buzilar,
Gurkiboyning zotin aytay sizlarga...

Bu go'dak bu yerda bo'lgan sargardon,
Qo'y qaytarib, tilab yeydi parcha non,
Gurkiboyning zotin aylasam bayon,
Tub bobosi Avliyoyi Qoraxon.

No'g'oy deydi buning asli joyini,
Yetimlik qaytargan bachcha ra'yini,
Tub bobosi Avliyoyi Qoraxon,
Kuntug'mish to'ra der qiblagoyini.

¹ Qo'lyozmada ningani.

Uzoqda Gurkinging manzil-diyori,
Bexabar bachchaning ko'p ichkuyari,
Qatag'anda sayyodlarning qo'linda,
Gurkinging bor Mohi degan jigari.

Kuymasin hech kimning kulbaxonasi,
O'rtanmasin qizil gulday tanasi,
Zangar elda Xolmo'minning qo'linda,
Gurkinging bor Xolbeka otlı enasi,
Xolmo'min yasovulboshi tog'asi.

Cho'ponlar aytdi: – Bizga tojikingni qo'y, o'z-
baki qilib, aytib ber.


Cho'ponlar sahnoshin-da, g'azalni ham tojiki
deydi ekan, ularning o'zbekisi jo'n so'z ekan.

Anda cho'pon bechora og'zaki aytdiki: – E
cho'ponlar, Gurkinging yurti No'g'oy, bobosining
oti Avliyoyi Qoraxon, No'g'oy shohi. Otasining oti
Kuntug'mish to'ra, Zangarga kelgan, Xolbekani nard
o'ynab utib olgan, podshosiga bandi bo'lgan, bir te-
riga tiqib, asovga sudratib, bir cho'l-jaziraga haydab
yuborgan. Bular omon-eson chiqib, Mug'ol tog'ida
el topolmay, to'rt yil qolgan. Shunda Xolbeka ho-
milador bo'lib, ikki o'g'il tuqqan. Shu bachchalar
uchga kirib, to'rtga chiqar bo'lganda, bir savdogarga
duchor bo'lgan. Savdogarlar shahzodaga aroq berib,
mast qilib, Gurkinging enasi Xolbeka oyimni pod-
shoga olib boramiz, – deb olib qochgan. Shu ikki
bola cho'lda qola bergan. To'ra mastligi tarqalgun-
cha necha kun yotgan. Andin so'ng joyidan turib,
ikki bolasini topib olib, karvonlarning orqasidan tu-
shib, Tajan daryosining labiga kelib, ikkovini birga
ko'tarib o'tolmay, birovini shu yerga qo'yib, biro-
vini og'ziga tishlab, suvda suzib borayotganda, buni

bo'ri olib qochgan, u birovini daryoda baliq yutgan. Bularning zotini bilsanglar shu, – dedi.

Gurkiboy buning barisini eshitib oldi... Tong otguncha yig'lab chiqdi. Cho'ponlar: – Endi Gurkiboyni katta qilayik, qattiq ishga buyurmayik, – deb hammalari va'dalashib qo'ydilar. Oqshom yotdi, erta-mertan tong otdi. Gurkiboyning oldiga bir qo'ra qo'yni haydatdi. Anda bachcha qo'yni yoyib, bir joyga borib, oqshom yig'lab chiqqan edi, yonboshlab yotib uxlab qoldi. O'zi chillaning ichi edi, bo'riining iliqqan vaqti edi. Beega qo'yga o'nta och bo'ri tegdi, bo'g'ib, o'ldirib keta berdi. Bir palla cho'chib, uyqudan uyg'onsa, qo'yning bari to'mpayib bo'g'izlanib yotibdi. Qarasa, qo'y uchdan bir bo'libdi. Gurkiboy so'kib: «...qirib ketibdi-ku. Agar bundan borsam cho'ponlar urar, balki o'ldirar. Meni kimim so'rab yotibdi. Birovning bolasini ko'tarsam ham kunim o'tadi-ku, mening nimamga yetmayotir», – deb soyini etaklab qocha berdi. Endi gapni Mohiboydan eshiting.

U ham kashishlik, nuronalik, martabalik bachcha bo'lgan edi. Har kim bir so'z qotsam der edi. Sayyod Mohining qo'liga kabob bersa, boshqa shogird peshalari bir savat baliq sotguncha, Mohiboy besh savat, olti savat baliq sotar edi. Shu sababdan sayyodlar ko'p yaxshi ko'rar edi. Bir kuni Mohiboy savatni boshiga qo'yib, bozorni oralab: «Yog'li kabob, dog'li kabob, olib yesang topasan savob», – deb qanqillab, kabob sotib kelayotir edi, qarasa, bir choldevor-vayronaning ichida, devorning ostida, to'rta sochi o'sgan, bir-biriga yuzma-yuz o'tirib: «Kel-e, gartkam», – deb o'tiribdi. Mohiboy aytdi: «O'tirib qiladigan yaxshi kasb ekan». – Joyni kengayt, – deb bu ham oshiqni olib, – gartkam, – deb



ota berdi. U xudobexabarlar Mohiboyning andiligini bilib, duqor tursa ham, ola tursa ham narsalarini ola berdilar. Bir faslda kabobning pulini, ustidagi bir-ikki yupqa ozoda to'nini boy berdi. Puli qolmagan-dan keyin: «E, bu ham kasb emas ekan», – deb bu Mohiboy o'yladi: «Endi borsam, sayyodlar qo'limga kabob bermas, doyimgiday ko'rmas, urar, balki o'ldirar. Meni kimim so'rab yotibdi», – deb bu ham bir yo'lga solib qocha berdi. Daryoning bu yog'idan Gurkiboy, u yog'idan Mohiboy kelib qoldi. Gurki-boy qarasa, daryoning u yog'idan o'ziga o'xshagan bir yetim kelayotibdi. Qarab tursa, yetimlikdan kami yo'q, chenkoqdan yengi yo'q. Gurki qarab bir so'z dedi:

Baland bo'lma, past bo'layik,
G'anim bilan qasd bo'layik,
Daryodan o'tgin beryoqqa,
Kel, ikkovimiz do'st bo'layik.

Ikkovimiz birday yetim,
Bog'da ochilgan gulday yetim,
Jannatdagi hurday yetim,
Ikki yetim do'st bo'layik.

Mavj urib daryoday toshib,
Bir-biridan hol so'rog'lashib,
Ikkovimiz quchoqlashib,
Ikki yetim do'st bo'layik.

Kuyib qolgan kulbaxonam,
O'tga kuygan gulday tanam,
Mening ham yo'q ota-onam,
Ikki yetim do'st bo'layik.

Quloq solgin ushbu doqqa,
Kiryaymiz bo'stonli boqqa,

Daryodin o'tgin biz yoqqa,
Ikki yetim do'st bo'layik.

Alqissa, Mohiboy qarasa, naq o'ziga o'xshagan bir yetim kelayotgan ekan, daryodan buyoqqa o't, deb chaqirib turibdi. Do'st bo'lamiz deydi. «Obbo, mug'ambir ekan-a, do'st bo'laman, deb aldab-suldab, mening ustimdagi harna qolgan yuqa choponni olaman deydigansandi¹. Menga sen do'st bo'lib, shu kebanakingni berasanmi? Kebanaklaringga», – deb so'kib bir so'z dedi:

Yurgan yo'lim, bo'ta ko'zli, jo'nag'ar,
Nayza tegsa, oqbadandan qon oqar,
Birov o'yga, birov qirga yuradi,
Yurganimman ishing nima, enag'ar...

Oyimlar shonaman zulfin o'radi,
Ish tavakkal, xudoyidan ko'radi,
Yurganimman ishing nima, enag'ar,
Birov o'yga, birov qirga yuradi.

Tarzinga qarasang nodon bolaman,
Mavj urib daryoday toshib to'laman,
Yurganimman ishing nima, enag'ar,
Qimorga boy berib qochib kelaman.

Mohiboy aytdi: – E enag'ar, men sen bilan do'st ham bo'lmayman, sen shekilli sahroyi bilan yurmakka or qilaman. Menga nima ishing bor, – deb chapanilab so'ka berdi. Anda Gurkiboy mehri toblab, ukasiga qarab, yaxshi gapirib, achchig'lanmay javob bergin, deb turibdi:

¹ Deydigandirsan.

Yaxshilarning yuzin ko'rsang – jannatdir,
Yomon odam qilgan ishi – minnatdir,
Achchig'lanmay javob bergin, chirog'im,
Ot so'ramoq, zot so'ramoq sunnatdir.

Javob ber, so'rayman, ukam, otingni,
Bayon bergin o'sgan mamlakatingni,
Ot so'ramoq, zot so'ramoq sunnatdir,
Otang kim, enang kim, aytgin otingni.

Kuygan qulman, gapni gapga ulayman,
Ulug' deyman, ostonani tunayman,
Ot so'ramoq, zot so'ramoq sunnatdir,
Oting bilan elatingni so'rayman.

Aytgan so'zlari ta'sir qilib, Mohiboyning ko'ngli
erib: «Men otimni aytganda tanib olib qo'yami shu
bachchag'ar. Ot so'ramoq sunnat bo'ladigan bo'lsa,
aytsam ayta qolayin-chi», – deb bir so'z dedi:

Qavmim yo'q, og'ajon, qarindoshim yo'q,
Sir aytayin desam, emchakdoshim yo'q,
Bir xudodan boshqa rahbar kishim yo'q,
Quvondisiz bepadardin bo'laman.

Og'ajon, ko'p turur qayg'uman dog'im,
G'am bilan sarg'aygan boshdan adog'im,
Bormoqqa bog'im yo'q, botmoqqa tog'im,
Vatani yo'q, bevatandin bo'laman.

O'zim yetim, yetimlikda kamim yo'q,
Tanhodirman, qoshimda hamdamim yo'q,
Hech murabbim, yonimda odamim yo'q,
Murabbiysiz bepadardin bo'laman.

Oh ursam g'amxona ko'nglim jo'shadi,
Alam tortsam bandi-bo'g'nim bo'shadi,

Chiqqan ekanman baliqning qornidan,
Otimni Mohiboy yetim deyishadi.

Mohiboy bu soʻzni aytgandan Gurkiboy bechoraning yurak-puragi yorilguday boʻlib, yoqasini ushlab, hazor-hazor shukurlar qilib: «Ukamni koʻrsatding», – deb ukasi ekanligini bilib, necha shirin zamonliklar bilan: – Daryodan oʻt, – dedi. Bu xumsa aslo oʻtmadi. Axiri oʻzi daryodan oq-oqa oʻtdi. Anda Mohiboy: «Bu dashlikning suvga oqib entikkaniga qara», – deb mazaq qilib turib edi, Gurkiboy suvdan chiqib, ukasi bilan koʻrishib, ikkovi chinachiq olishib, bolalarning rasmini qilib, ikkovi doʻst boʻldi. Gurkiboy qarasa, Mohi ukasi yomon tezzabon, bir gapni aslo toʻxtata olmaydiganiga oʻxshaydi. Koʻnglida aytdi: «Kel-e, bunga akangman, deb aytmayin, bizlar xonzodamiz, deb aytsam, ogʻzi yomon tezbob ekan, har kimga bizlar podshozodamiz, deb ayta berar. Podsholarning dushmani koʻp boʻlar emish, mabodo bir hodisa roʻy bermasin», – deb ikkovi doʻstlik muhabbatini mahkam qilib, yoʻlga tushib keta berdi. Bir-biroviga shunday mehr qoʻyib qolganki, birovini-birovi bir lahza koʻrmasa, aslo toqat qilolmaydi. Ikki bachcha bu yurganlaricha, uch hafta yoʻl yurib, Zangarning shahriga yetdilar.

Shahar xalqining mozoroti koʻp boʻladi. Gurkiboy mozorotni koʻrib, ogʻzi ochilib, Mohiboydan: – Bu nima? – deb soʻrab, Mohiboy: – Bilmaysanmi, qabriston, – deb javob berib turibdi:

S a v o l:

Oh ursam gʻamxona koʻnglim joʻshadi,
Alam tortsam, bandi-boʻgʻnim boʻshadi,

Hayron qoldim mina¹ elning rasmiga,
Mohi, yotganlarni nima deyishadi?

J a v o b:

Bu so'zlaring qildi meni sargardon,
Cho'pchak terib, tilab yeyber parcha non,
Men ham hayron qoldim Gurki aqlingga,
Bilmaysanmi, yotganlardir qabriston...

S a v o l:

Bir nechasi ko'hna bo'lib sepilgan,
Ba'zisiga yangi tuproq to'kilgan,
Ba'zining boshiga yalov tikilgan,
Mohi, yotganlarni nima deyishadi?

J a v o b:

Ajal toymas, odamzodga bahona,
Agar kelsa qo'ymas fasli zamona,
Yalov tiksa, buzrukligi nishona,
Bilmaysanmi, yotganlardir qabriston...

Alqissa, shaharning ichiga kirib edi. Gurkiboy shahardagi odamlarni ko'rib, og'zi ochildi-qoldi. Lekin Mohiboy shahar joyda o'sgan emasmi, jaltanglab o'tib, urib ketib borayotibdi. Bu bachchalarni har kim ko'rsa, yo'l bo'lsin, – deb bir gap qotadi. Anda Mohiboy: – Bizlar non talab, – deb javob beradi. Ular aytadi: – Unday bo'lsa, biroving biznikida turinglar. Mohi aytadi: – Biz ikkovimiz ayrilmaymiz, agar ayrilsak tong ham otmas, kun ham botmas. Har kimning ko'ngli bo'lsa, birovigaga yuramiz. Ular aytadi: – Bu shaharning ichida hech odamnikiga

¹ Mana bu.

sig'maysan. Anda Mohi: – Ming eshik yopiq bo'lsa, ming bir eshik ochiq, – deb jaltanglab urib ketib borayotibdi. Gurkiboy og'zi ochilib, har do'konga bir qarab: «Odam ham bunday ko'p bo'ladi ekan», – deb keyin-keyin qoladi. Anda Mohiboy to'xtab: – O', arvoch urgan, tez yursang-chi, – deb chaqirib turadi. Gurkiboy: – Borayotibman, – deb tag'i keyin qoladi. Shunday qilib, ikkovi ketib borayotib edi, bir palla Mohiboy qarasa, bir katta odam kelayotibdi. Otiga tilla dovirni solgan, ikkita mahrambachcha ikki jilovidan olgan, oldidagi odamlar do'konidan tushib, ko'chada qo'l qovushtirib, salom berib turibdi. Orqasida qolganlar do'koniga chiqib o'tirayotibdi. Shu vaqt Mohiboyga u odamning ko'zi tushib, otini to'xtatib: – Qaydin bo'lasan, – deb bir so'z deb turibdi.

Savol- javob:

S a v o l:

Bog'chali bo'stonim, qaydin bo'lursan,
To'ti g'azalxonim, qaydin bo'lursan,
Seni tarzing bu yerlarga kelmaydi,
Yosh go'dak, nodonim, qaydin bo'lursan?

J a v o b:

Ota, bizlar yuz ming g'amdan bo'lamiz,
Har zamon yuz ming motamdan bo'lamiz,
So'rma, og'a, tor siynamning dardini,
Bizni so'rsang, Qatag'andin bo'lamiz.

S a v o l:

Ol-ol bo'lsin, ol-ol bo'lsin, ol bo'lsin,
Uzundir, kaltadir – har to'n mo'l bo'lsin,

Qatag'an yurtidan bo'lsang, go'daklar,
Zangarning shahrida sizga yo'l bo'lsin?

J a v o b:

Gardishi kach ekan bu vayron falak,
Har kimni har ko'yga ayladi halak,
Bizni so'rsang Qatag'andan bo'lamiz,
Og'ajon, yurtingga keldik non talab.

Xolmo'min yasovulboshi aytdi: – Vo ajabo, sizlar
non talab bo'lganda, nima ish qilaszlar?

Mohiboy aytdi: – E aka, har kimning qo'lidan
kelgani. Bizlarning ishimiz shuki, o'zingizday yax-
shilarning, boybichalarining bolasini ko'taramiz,
yig'lasa yupatamiz, o'ynatamiz, otini sug'orib kela-
miz. Agar mehmonxonasiga mehmoni kelsa, uyidan
non-suv olib chiqamiz. Shu-da bizlarning ishimiz.

Xolmo'min yasovulboshi aytdi: – Unday bo'lsa,
birovning menikiga yuringlar, olib ketayin.

Anda Mohiboy: – Yo'q, aka, bizlar birov-birovi-
mizdan ayrilsak, tong ham otmas, kun ham botmas.
Har kimnikida yursak, biroviga yuramiz, – degan-
dan atrofdagi odamlari bari chuvlab: – Xolmo'min
yasovulboshi, ikkovi ham sizga bob bachchalar ekan,
ikkovini ham olib bora qoling, – dey berdilar. Anda
Gurkiboy tog'asi ekanligini bilib, betini devorga qi-
lib, yig'lay berdi. Mohiboy aytadi: – E arvoh urgan,
nega yig'laysan? Sen yig'lay yuriyoq meni kuydir-
ding.

Shunda Gurkiboy bechora nima derini bilmay: –
E Mohijon, yetimligi qursin, rangingga qarasam,
za'faronday sarg'ayibsan. Mening ham rangim sar-
g'aygan, deb yig'layman. Menga ishing bo'lmasin,
sen savdongni qila ber, – dedi. Mohiboy nima dedi,

nima qo'ydi – yasovulboshi bilan chiqishib, tog'asi bilan qo'shilib, hovlisiga borib yura berdilar. Gurkiboy shu hovlida enasining borini biladi. Mohiboy bilmaydi.

Bachchalarning borganiga besh oy, olti oy bo'lib edi, shu shaharning podshosi Buvraxon podsho o'ldi. U vaqtda podsholarga rasm shu edi: davlatqush degan qushini uchirar edi, kimning boshiga qo'nsa, podsho qilar edi. Shu davlatqushni uchirganiga uch kun bo'lib edi. Zangar shahrining jamiy katta-kichik odami dalada edi. Qush goh daraxtga, goh devorga qo'nib yurib edi. Banogoh shu vaqtda Kuntug'mish to'raning ham guzari shu yerga tushib qolgan ekan. Kuntug'mish to'ra katta bir chilimni beliga boylab olibdi, o'zini hech odamga o'xshatmay, yomon jandalarni kiyib, o'zini shaylab olibdi. Hech kim bilan ishi yo'q, odam bilan hushi yo'q, o'zidan boshqa kishi yo'q; chekadi bang, aytadi vadavang. Bir qurib qolgan daraxtning ostiga borib, ko'mir qilmoqchi bo'lib olov yoqib, nashaning taraddudida edi, davlatqushi borib to'raning boshiga qo'ndi. Shahri Zangarning odamlari qushni quvalab borsa, qush bir devonaning boshiga qo'nib turibdi. Arkoni davlat otdan tushib, izzat-ikromlar bilan salom berib:

– Taqsir podshoyim, yurtigingiz qutli bo'lsin, – desalar, to'ra teskariga qarab, dim indamaydi. Oxir-da odamlar qushni olib ketdilar. Podshoning arkidan boz uchirdilar. Boz yana kelib (Kuntug'mishga) qo'ndi. Bu mavrud ham «Yurtigingiz qutli bo'lsin», – desalar, dim indamaydi. Tag'i qushni olib ketdilar. Olib borib qushni yana arkdan uchirdilar. Boz kelib, uchinchi martaba ham bangining boshiga qo'ndi. Bu mavrud shahri Zangarning ulamolari, fuzalolari, katta-ulug'lari kelib muborakbod qilib: – Taqsir

podshoyim, yurtingiz qutlug' bo'lsin, – desa, teskari-
riga qarab, javob bermadi. Shunda kattalar turib aytdi: – E yoronlar, uch debdi, uchdan keyin puch debdi. Endi shu odamni olib borib, podsho qilmoq dardkor. Har vaqt bir odam podsho bo'ladi-da¹. Shu ishga qaraganda, shu odam nazokatli odam, yo bo'lmasa, qushni arvoh urgan. Agar bangi bo'lsa, jinni bo'lsa, bir kuni podsholik taxtini tashlab ketib qolar. Birovning podsho bo'lasan-da va agar bajarsa, shunday bir odam podsho bo'ladi-da, – deb qo'lidan chilimini tortib olib, otib yubordilar. Bir oq kigizning ustiga chiqarib, chir tevaragidan ko'tarib, jarchilar: – Zammon kimning zamoni, Qalandarxonning zamoni, – deb ko'cha-ko'chalarga jar solib qichqira berdilar. To'rani ko'tarib, taxti shohiga keltirib, tilla taxt ustiga o'tqizdilar. Ustiga podshoxona xilvatlar kiygizib, boshiga tilladan bo'lgan tojni qarqara qilib o'tqizib, hukumat niginni qo'liga solib, jamiy mardumi shahar dasti bay'at berdilar. Ana Kuntug'mish to'ra bir qarichdan beri yurt so'rab yurgan emasmi, jamiy olamni uzukday changaliga olib, chirsillatib so'rab keta berdi. Anda jamiy chulonxo'r umarolariga farmon bo'ldiki: «Mening chulon oshimga kelgan amaldorlarkim, bir hafta-bir haftadan jilovxonamda istiqomat qilib ketsin». Avval navbat Xolmo'min yasovulboshiga tegdi.

Yasovulboshi hovlisiga kelib, avval bachchalari-
ga tayin qildiki: – O', bachchalar, men yangi bo'lgan podshoning jilovxonasida bir hafta turib kelaman, lekin sizlar oqshom uxlamanglar, kunduz uxlanglar. Sipoyi xalqining dushmani ko'p bo'ladi, namozdigardan keyin aslo darvozani ochmanglar, mabo-

¹ *Qo'lyozmada bo'latga.*

do bachalik qilib, g'ofil qolib, bir hodisa ro'y bermasin, – deb ko'p tayinladi. Andin keyin ichkariga kirib ayoliga tayin qildiki: – O', xotin, men ikkita yetim bola saqlab qo'yibman, ilgari yetimlarday beparvo qolib ketib qolmasin, holi-ahvolidan ko'p xabardor bo'l, e, yetim-da, dema. Men bularning oxirini ko'raman, deb yuribman. Umidim shulki, bular soyasi yerga tushmagan xonzoda chiqar, agar hech nima bo'lmasa, bir asl sayidzoda chiqar. Bularni aslo yetim demagaysan, – deb xotiniga ko'p tayinladi. Andin so'ng hovlisidan chiqib, podshoning davlatxonasiga ketdi.

Xolbeka oyim chechasiga aytdi: – O', yanga, akam sira yetimni yetim demas edi, ikki yetim bor, deb og'zidan tushirmaydi. Shu yetimlarni bir ko'rsak qaytadi!¹

Xolmo'minning xotini aytdi: – Akangiz bo'lsa chiqib ketdi, ko'rsang, yur esa ko'rsatib kelayin, – deb bitta non, bir kosa suv olib mehmonxonaning eshigidan uzatib edi, Mohiboy kelib qo'lidan olib ketdi. Anda o'tirib nonni o'rtaga qo'yib yemakchi bo'lib turib edi. Xolbeka oyim mehmonxonaning takcha teshigining ichidan qarab, ikki go'dakni ko'rdi. Ikkovini ko'rgan hamono, uvuz eti uv bo'lib, to'la badani suv bo'lib, jamiy a'zosiga larza paydo bo'lib, emchagiga sut kelganday bo'ldi. Qaddi bukilib, ko'zidan yoshi to'kilib, dovushining boricha chinqirib yig'lab qo'ya berdi. Chechasi kelib aytdi: – E siyohbaxt, men sening ko'ngling ochilsin, deb olib kelsam, sen qayta dardi-alamingni ziyoda qilding-ku.

¹ Qanday bo'ladi?

Shunda Xolbeka oyim yangasiga qarab, ilohi
Xolbeka o'lsin, so'rama, deb bir so'z deb turibdi:

Bu judolik meni qildi sargardon,
Ayroliqdan¹ yurak-bag'rim to'la qon,
Ilohi, Xolbeka o'lsin, so'rama,
Men yig'lasam, sen ham yig'la, yangajon.

Yaxshilik ko'r, yomonlikni ko'rmagin,
Bevafo dunyoga ko'ngil bermagin,
Men yig'lasam, sen ham yig'la, yangajon,
Ilohi, Xolbeka o'lsin, so'rmagin.

Yetolmadim ko'nglimda havasima,
Tobe bo'ldim dushmanima, do'sima,
Men yig'lasam, sen ham yig'la, yangajon,
Cho'ldagi qo'sh go'dak tushdi esima.

Bu bevafo dunyo ichida kim qoldi,
Ikki zulfim gardanimga irg'aldi,
Shu bollarni ko'rgan zamon, yangajon,
Zor yig'layman, ko'hna dardim qo'zg'aldi.

O'tdi umrim, barchasi g'oz bo'ldi,
Yurakning rustasi andoza bo'ldi,
Shu bollarni ko'rgan zamon, yangajon,
Ko'hna bo'lgan alamlar toza bo'ldi.

Bolamdan ayrildim qanotim sinib,
Yo'liga termildim ko'zlarim tinib,
Shu bolarni ko'rgan zamon yangajon,
Ko'kragimga sutim keldi iysinib.

Qoq bo'p qolgan ko'kragimga sut keldi,
Sutim oqib ko'ylaklarim ho'l bo'ldi,
Men yig'lasam, sen ham yig'la, yangajon,
Bilmayman holima menga ne bo'ldi.

¹ *Ayriliq.*

Omon bo'lsin bolalarim, o'lmasin,
Toza gul-da, oftob tegib so'lmasin,
Afti-andomi, qoshi-ko'zi o'xshaydi,
Shu ikkovi ikki bolam bo'lmasin?

Oh ursam g'amxona ko'nglim jo'shaydi,
Alam tortsam bandi-bo'g'nim bo'shaydi,
Afti-andomi, qoshi-ko'zi shularning
Cho'lda qolgan sho'rliklarga o'xshaydi.

Enasin kelganin Gurkiboy bildi,
Mohini qo'yniga olib yiqildi,
Gurkiboy, ko'r, gapni gapga ulaydi,
Mohini ayqalab bebaxt yig'laydi,
Yig'laganga hayron qolib Mohiboy:
– Nega muncha yig'laysan? – deb so'raydi.

Gurkingin Mohiga bergan javobi:

Eshikka bir ayol kelgan ekandi,
Shu ayolning o'g'li o'lgan ekandi,
Bizni ko'rib zor yig'laydi mushtipar,
O'ylasam, bizlarday bo'lgan ekandi.

Bu yerda yuribmiz ikkovginamiz,
G'am bilan sarg'aygan guldai tanamiz,
Bizni ko'rib zor yig'laydi mushtipar,
Yig'lab yurgan bizlarning ham enamiz.

Uzoqda qolgandir manzirim, joyim,
Ko'kragimda ko'pdir qayg'uman voyim,
Dunyoda hech kimsa bizday bo'lmasin,
Har kimning murodin bersin iloyim.

Alqissa, Xolbeka oyim yangasiga aytgan so'ziga
pushaymon yedi. Lekin ko'nglida: «Shu ikkovi me-
ning bolam», – dedi.

Endi Xolbekaning yangasidan eshiting. Ayt-diki: – Ey, qizlar, men bir yoqqa boraman desam, akangiz urishadi. Falonchi o‘lgan, falonchining enasi ham o‘lgan. Tag‘i birovnikiga qutli bo‘lsin ham lozim bo‘lgan; shunday akangiz yo‘q vaqtida bormasam bo‘lmaydi, akangiz kelsa, yubormaydi. Akangiz yo‘qda borib kela qolayin.

Xolbeka oyim: – Borsangiz, borib kela qoling, – deb bir-ikkita cho‘zma, bir-ikkita chalpak qilib berdi, hovlidan chiqarib yubordi. Uyni ovloq qilib, ikki go‘dakni oldiga chaqirib olib, nonga to‘yg‘azib, ikkoviga qarab, Xolbeka oyim bir so‘z deb turibdi:

Biznikida yetim yurgan yetimlar,
Poygadan to‘rga termilgan yetimlar,
Bir gapim bor, quloq soling, go‘daklar,
Dalalardan cho‘pchak tergan yetimlar.

Bir gapim bor mendan ibo qilmanglar,
Meni aytdi deb siz as¹ uyalmanglar,
Biznikida yetim yurgan yetimlar,
Sen ikkoving ikki bolam bo‘lmanglar?

Oh ursam g‘amxona ko‘nglim jo‘shaydi,
Alam tortsam bandi-bo‘g‘nim bo‘shaydi,
Aft-andoming, qoshu ko‘zing ikkingning
Cho‘lda qolgan bir sho‘rliga o‘xshaydi.

Qolibinglar² Zarchamandan irlamay³,
Enajon, deb qavatimda yurolmay,
Sen ikkoving ikki bolam bo‘lmanglar,
Erta bilan oq sutimni emolmay.

¹ *Aslo.*

² *Qolib.*

³ *Iyara (ergasha) olmay.*

Ot chopilar baland tog'ning pastidan,
Quloq solgil gapimning payvastidan,
Sen ikkoving ikki bolam bo'lmanglar,
Go'daklar, so'zlanglar menga rostidan.

Xolbeka oyimning bu so'zini eshitib, Gurkiboy:
«Mabodo Mohiboy haqiqat holni aytib qo'yarmi?
Xolbekaga javob berib, bizlarda ota-ena qayoqda,
osmondan dumalab tushib, taltayib chiqib, shamolga
yumalab katta bo'lganmiz, deb aytib solmasin», –
deb oldini olib, Xolbeka oyimning ham ko'nglini
qaytarib, Gurkiboy bir so'z dedi:

Sen oyimsan, banot bichding to'nlikka,
Bizlar yetim, etak kelgan yenglikka,
Kovlay bersang, makoningdan ketarmiz,
Uy¹ dey berma, ko'nglim yarim, Xolbeka...

Bizlarni so'rasang nodon bolamiz,
Mavj urib daryoday toshib to'lamiz,
Kovlay berma, ko'nglim yarim, Xolbeka,
Ikkovimiz ikki yurtidan bo'lamiz.

Kuymasin hech kimning kulbaxonasi,
O'rtanmasin qizil gulday tanasi,
Ikkovimiz ikki yurtidan bo'lamiz,
Ikkovimiz ikki odam bolasi.

Bizlar ham birovning ko'ngil xursandi,
Osoyishta aziz jonning dilbandi,
Kovlay berma, ko'nglim yarim, Xolbeka,
Ikkovimiz ikki odamning farzandi.

Xolbeka oyim aytdi: «Bular mening bolam emas
ekan, mening bolalarim ham shularday yetim bo'lib
yurgan bo'lsa, men shularga yaxshilik qilay, shoyad

¹ Unday.

shularning oldiga kelgay», – deb ko‘p-ko‘p qarashlar edi.

Xolmo‘minning ketganiga to‘rt kun bo‘lib edi. Bachchalar oqshom uxlamas, bedor edi. Gurkiboy aytdi: – E Mohijon, uyqu ham garang qildi-ya. Uyqu bo‘lmasa, bu ham balo ekan, shu bugun tikka turib, uxlab qolmasak deyman.

Anda Mohiboy aytdi: – Uyquni qochiradigan ishlar bor. Men bir ish qilaman desam, sen so‘ka berasan, shuytib senga aytolmayman. Gurkiboy: – Sen bir kasofat ishni qilaman deysan, shuytib qo‘ysin deb so‘kaman. Bo‘lmasa, nega so‘kayin. Uyqu kelmaydigan ishing bo‘lsa, shuni qil, – dedi. Anda Mohi aytdi: – Uyquning ofati bo‘za-da, joningdan, bo‘zani ichib mast bo‘lgin, uyqung qayoqqa qarab ketadi ekan.

Gurkiboy aytdi: – E juvonmarg, doyim sen kasofati ishni qilaman deysan. Bo‘zani sotib olmoqqa puling bo‘lmasa, bo‘zaga mast bo‘lib dalbanglab yurganda, qo‘lga tushsang: «E, bu bola-da», – deb qo‘llab oladigan eling bo‘lmasa. Men cho‘ponlardan eshitar edim, bo‘zani qirq odam ichar emish, bo‘lmasa chortang bo‘lib ichar emish.

Mohiboy aytdi: – E uchangdan ursin, arvoh urgan, odam bo‘lmaydigan qurg‘ur, mujmal, bo‘zaga ham pulmi? Yasovulboshining otini suvga olib chiqqanda, bir-ikkita bo‘za sotguvchilar yasovulboshining besoqli, deb o‘lib yuribdi. Yasovulboshi buyurdi, – deb katta bir ko‘zasini olib kelaman, – deb yugurib chiqib ketdi. Chopib borib, bo‘zaxonaning eshigini taq-taq urdi. Bo‘zafurush aytdi: – Kist?

– Yasovulboshining yetimi, – dedi. Shunday degandan (bo‘zafurush) irg‘ib turib, chirog‘ni yoqib, eshikni ochib: – E ukajon, kela bering, keta bering,

bizlar bilan oshna-tanish bo'la bering, har qancha bo'za kerak bo'lsa, olib keta bering, aslo, bema-lol, – deb katta bir ko'zani orqalatdi. Mohi bir katta ko'zani ko'tarib yetib keldi. Gurkiboy aytdi: – Qirq bo'lmasa, chortang bo'lib ichar emish.

Mohiboy aytdi: – Sen Gurki gapni nima bilasan, seni biy qilaman, o'zim kosagul bo'laman, sening telpaging o'ng otaliq bo'ladi, mening telpagim chap otaliq bo'ladi, chortang bo'lamiz. Xolbeka piyola-tog'orani beradi-da, – deb yugurib chiqib ketdi. Xol-bekaning yotgan tomiga borib, eshikni taq-taq urdi. Xolbeka aytdi: – Kim?

Mohiboy aytdi: – Yetim.

– Nega kelding?

Mohi aytdi: – Bitta tog'ora, bir piyola bering, bo'za ichamiz. Anda Xolbeka: – Bo'za ichmakni kim qo'yibdi sizlarga. Shahrimizning yangi bo'lgan xoni bor, bo'zaning tahqiqi qattiq, – deb bir so'z dedi:

Musofir bolasan Zangar eliga,
Quloq solgin Xolbekaning tiliga,
Bo'za ichmakni kim qo'yibdi sizlarga,
Yetim degan yurar yetim yo'liga.

Quloq solgin alvon-alvon so'zlarga,
Karvon yurar elsiz qulo tuzlarga,
Yetim degan yurar yetim yo'liga,
Bo'za ichmakni kim qo'yibdi sizlarga.

Mard o'g'lonning tanda omonat joni bor,
Oda bo'lmas ko'nglida armoni bor,
Bo'zaning tahqiqi qattiq, farzandim,
Yurtimizning yangi bo'lgan xoni bor.

Bo'za ichganing nega shabgard bilmasin,
Erta bilan shohiga ayon qilmasin,

Bo'zaning tahqiqi qattiq, farzandim,
(Shabgard bilsa), eltib dorga ilmasin, –

deb edi, Mohiboyning ko'kragidan otgandan ham
qattiq tegdi. Vo, deb yig'lab, qaytib sola berdi, tikka
Gurkining oldiga kelib, Mohiboy bir so'z deb turibdi:

Narkas-narkas xumor ko'zlar suzildi,
Hasratidan yurak-bag'rim ezildi,
Erta bilan bu Zangardan ketayik,
Jon Gurkiboy, tuz-nasibam uzildi.

Meni o'zin bolasiday ko'rmadi,
Shona bilan zulfim toblab o'rmadi,
Ilohi yetimi qursin dunyoda,
Bir tog'ora, piyolasin bermadi.

Enam bo'lsa chiqarib bermasmidi,
Aytganimda, ma bolam, demasmidi,
Ilohi yetimi qursin, Gurkiboy,
Boshimdan ming yo'la o'rgulmasmidi.

Oh desam to'kilar ko'zdan selob yosh,
Jon og'ajon, tug'maganning tubi tosh,
Ilohi yetimi qursin, Gurkiboy,
Bu yetimlik sirim qildi elga fosh.

Alqissa, Mohiboyning boyagi yig'lab qaytga-
ni Xolbeka oyimga ko'p ta'sir qilib edi. «Hay at-
tang, avval payravligimning barini bekor qildimmi,
shu yetim ko'ngli qolib yig'lab ketdi», – deb joyi-
dan turib, bir tog'ora bilan piyolani qo'liga olib, bo-
lalarining orqasidan olib bordi. Bolalar tog'ora bi-
lan piyolani ko'rdi, dimog'i chog' bo'lib, kayflari
to'g'ri bo'ldi. Jimishib kulishib o'ynasholmadi, Xol-
bekadan iymandi, Xolbeka buni fahmlab: «Mening
oldimda bular yozilolmaydi ekan», – deb astagina

kovi ikki telpakni har to'lganda tepa-tepa, yana qaytib o'tirib ichib, ikki telpak bilan to'rttovi bir ko'za bo'zani ichib qo'ydi. Gurkiboy aslo bo'za ichmagan edi, bu suhbatni ko'rmagan edi, shunday mast bo'ldiki, o'zidan va so'zidan xabarsiz bo'ldi. Mohiboy ichib yurgan edi, lekin Gurkiday mast bo'lib hushidan ketmadi. Har nima bo'lsa, bu ham mast bo'ldi, o'zidan xabari bor edi.

Anda, Xolbeka oyim tomning ustida, shu ikki bolaning bo'zani o'ynab-kulib ichib, telpaklarni tepib yumalatganiga zavqi-shavqi kelib, vaqti xush bo'lib, qarab kulib o'tirib edi. Shunda Mohiboyni yuragi toshib, yetimligining sababidan, beqavm-u qarindoshligini, vatansiz-elatsizligini Gurkiboyga arz qilib, bir so'z dedi:

Barchani yaratgan qudratli jabbor,
Har kimni har ko'yga qildi giriftor,
Ilohi yetimlik qursin dunyoda,
Quloq sol, Gurkiboy, aytar arzim bor.

Oh desam to'kildi ko'zdan selob yosh,
Gurkiboyjon, tug'maganning tubi tosh,
Ilohi yetimi qursin, Gurkiboy,
Kishida bo'lmasmi qavm-u qarindosh.

Odamzodning ham avlodi bo'lmasmi,
Ichkuyari, jigarbandi bo'lmasmi?
Kishida bo'lmasmi qavm-u qarindosh,
Unib-o'sgan viloyati bo'lmasmi?

Yetimlikman o't olgandir tanamni,
Unutganman, qaytay, kulbaxonamni,
Odamda bo'lmasmi xeshi-tabari,
Bilmayman, Gurkiboy, ota-enamni.

Men bebaxtni shod-u xandon aylasang,
Ne bo'lar quvontib, xursand aylasang,
Gurkiboy, bilmayman ota-enamni,
Agar bilsang, netar bayon aylasang?

Gurkiboy, arzimni eshit, o'ylagin,
Davlat bersa, gulday bo'lib jaynagin,
Men bilmayman, Gurki, asli zotimni,
Agar bilsang, menga bayon aylagin.


Gurki bechora avval aytar edi: – «Podsho xalqining dushmani ko'p, agar aytsam, bu o'zi yengil ekan, birovga aytib qo'yar», – deb aytmas edi. Bul vaqtda o'zini to'xtatolmay, yuragi toshib, Mohiboyga: – E go'dagim, kishining zoti-zuryodi, ota-enasi, eli-yurti bo'lmasmi? San go'daksan. Yurting No'g'oyda, san bedarak emassan, – deb bir so'z dedi:

Bilmaganing bildirayin, bilmasang,
Bayakbar maqsadga yetsang, o'lmasang,
Men senga zotingni bayon aylayin,
Ertangman birovga aytib solmasang.

Toza gulsan, oftob tegib so'lmasang,
Mavj urib daryoday toshib to'lmasang,
Men senga zotingni bayon aylayin,
Ertangman birovga bayon qilmasang.

Uzoqda, Mohiboy, o'sgan diyorim,
Bexabar qolgandir ko'p ichkuyarim,
Ikkovimiz sut emishgan shirxo'ra,
Men akangman, sen bo'lasan jigarim.

Bu yetimlik seni qildi sargardon,
Cho'pchak terib, tilab yeysan parcha non,



Zotingni aylasam men senga bayon,
Tub bobongdir Avliyoyi Qoraxon.

Yetimlik qaytardi, bo'tam, ra'yingni,
No'g'oy deydi unib-o'sgan joyingni,
Tub bobongdir Avliyoyi Qoraxon,
Kuntug'mish to'ra der qiblagoyingni.


Maydon-maydon otam otin yelgandir,
Mard o'g'londir shirin jonni bo'lgandir,
No'g'oydan otamiz Zangar kelgandir,
Nard o'ynab enamni utib olgandir.

Musofirlik, shohga bandi bo'lgandir,
Tanimay bularga zulm qilgandir,
Bir teriga tiqib ikki oshiqni,
Asovga sudratib cho'lga solgandir.

Azobini tortib ikkovi bandi,
Shul asovdan cho'lda bular qolgandir,
Necha kunlar yo'l topolmay cho'llarda,
Horib-charchab Mug'ol toqqa kelgandir,
Mo'g'olning tog'iga kelib el topmay,
Noiloj shu tog'ni vatan qilgandir.

Bizni deb zor-zor bo'lgan otamiz,
Baloga giriftor bo'lgan otamiz,
Ikkovimiz uch yoshlarga kirganda,
Ko'p karvonga duchor bo'lgan otamiz.

Otam sho'rlik karvonga dod etgandir,
Bir non uchun, qaytsin, o'zin sotgandir,
O'zin sotib, ajdarhoni o'ldirib.
Shu ajdardin yurtni ozod etgandir,
Aroq berib otamizni mast qilib,
Enamizni karvon olib ketgandir.



Quloq solgin alvon-alvon tillarga,
Bulbul oshno bo'lar bog'da gullarga,
Enamizni karvon olib ketgandir,
Ikkovimiz qola bergan cho'llarga.

Otam sho'rlik hushyor bo'p dod etgandir,
Hay attang, deb dod-faryod etgandir,
Ikkovimizni topib olib shu cho'ldin,
Ko'tarib Tajan daryoga yetgandir,
Sen sho'rlikni shunda baliq yutgandir,
Men sho'rlikni bo'ri olib ketgandir.


Shunday bo'p ayrilgan ikkovginamiz,
G'am bilan sarg'aygan gulday tanamiz,
Ikkovimiz sut emishgan shirxo'ra,
Shu bebaxt Xolbeka bizning enamiz.

Otga minsak, ayil pushtan to'qamiz,
Sovut kiysak, kiravkadan yoqamiz,
Shu bebaxt Xolbeka bizning enamiz,
Xolmo'min yasovulboshi – tog'amiz.

Ayta bersam, sonsiz alam ko'p bo'lar,
Har yerda chin so'zni aytsang juft bo'lar,
Birovga aytmagin Mohi, zotingni,
Shohlarning dushmani, Mohi, ko'p bo'lar.

Necha soat o'tar tuqqan oyidan,
Mard yigit obro' tilar xudoyidan,
Bu so'zlarni aytib edi Gurkiboy,
Mohiboy chinqirab turdi joyidan.

Mohiboy ko'z yoshi ravona bo'lib,
Akam deb aqlidan begona bo'lib,
Chirqirab, zor yig'lab turdi joyidan,
Gurkinging boshidan parvona bo'lib.



Bu so'zni Gurkiboy Mohiga aytdi,
Xolbeka xatosiz barin eshitdi,
Bollarini bu so'zini eshitib,
Quvongandan bebaxt o'zidan ketdi.

Alam tortib bandi bo'g'nin bo'shladi,
Vo hasrato, xumor ko'zni yoshladi,
Bu so'zlarni barin sho'rli eshitib,
Vo bolam, deb tomadin otib tashladi.

So'z eshiting suxanvarning so'zidan,
Yosh quyilib ikki qora ko'zidan,
Vo bolam, deb tomndan o'zin tashladi,
Bolam, dedi, sho'rli ketdi o'zidan...

Savdo tushdi go'daklarning boshiga,
Yoqasi ho'l ko'zdan oqqan yoshiga,
Ikki go'dak zor yig'lashib, ena, deb,
Chopib bordi Xolbekaning qoshiga.

Bular lodon, dushman yurgan keyniga,
Bulbul oshiq toza gulning qo'yniga,
Ikki go'dak yig'lab bordi, ena, deb,
Qo'lin soldi bollarining bo'yniga.

Iskalaydi, ko'zin yoshin tiymaydi,
Bollarini qimirlarga qo'ymaydi,
Ikkovini bosib opti to'shiga,
Ikki go'dak diydoriga to'ymaydi.

Qolibinglar Zarchamanda iralмай,
Erta bilan oq sutimni emolmay,
Zor yig'lashib qolibinglar cho'llarda,
Enang sho'rming diydorini ko'rolmay.

Bir bog'chada olma ekan, nor ekan,
Ayrilgan qul bir ko'rmakka zor ekan,

Endi o'lsam olamda yo'q armonim,
O'lmay, tirik ko'rar kunim bor ekan...

O'lmay, ko'rdim tirik, bolam, sizlarni,
Haq yig'latgan, kuygan deydi bizlarni,
Endi o'lsam, xudoyimdan roziman,
Yig'lovman oqartdim qora ko'zlarni.

Sizlarsiz emrandi tandagi jonim,
Sabil bo'ldi mening davr-u davronim,
O'lmay, tirik ko'rar kunim bor ekan,
Endi o'lsam, olamda yo'q armonim.

Quloq soling turli-tuman namoga,
O'lim haq buyrug'i shoh-u gadoga.
Yetti yil begona bo'lgan bebaxtlar,
Nisbi shab topishdi sayisxonaga.

Alqissa, Xolbeka oyim bolalari bilan topishdi. Aytdi: – E go'daklarim, men sizlarni o'ldi, deb edim, sira tirik demas edim. Nima uchunki, sizlar juda yosh edinglar, hech murabbiylaring yo'q edi, o'ldi demakka tilim bormas edi. Xayolim bilan tirik qilar edim. Endi menga bola qayoqda, – deb umidimni uzgan edim. Ming-ming shukur, sizlar tirik bor ekan-sizlar. Otangning o'lganiga endi xafa bo'lmayman, – deb bolalari bilan topishib, og'zi-burnini o'pishib, xumori tarqashib, gaplashib o'tirdi. «Og'zi kuygan oshni puflat ichadi», degan ekan. Shunda Xolbekani vahima bosdi, qo'rqdi. Xolbekaning xayolida birov sirg'alib qarab tinglab turganday, bularning topishganini bilganday, erta bilan elga xabar qilganday, balki podshoga borib aytganday, yangi bo'lgan podsho bularni dorga tortganday bo'la berdi. Xolbeka bechora bolalariga aytdi: – Sizlardan ko'nglim joy

bo'ldi, ilohi Zangari qursin, otalaringga vafo qilma-
di, sizlarga ham vafo qilmaydi. Meni desanglar, tong
otmay ketinglar, mabodo birov ko'rmasin, bilmasin
ham, – deb bolalariga qarab bir so'z dedi. Bolalari
Xolbekaga qarab, javob berib bir so'z dedi:

X o l b e k a :

Bandadirsiz, olloni yod etinglar,
Yolborib haqqa munojot etinglar.
Iloyim Zangari qursin, farzandim,
Tong otmayin bu Zangardan ketinglar.

M o h i b o y :

Qirg'iy degan qushlar bo'lar qiyoda,
O'limcha yomon ish bormi dunyoda,
Ajab-ajab ishni aytding, enajon,
Tong otmay qayga boramiz piyoda?

X o l b e k a :

Eshitib ol enang sho'rning dodini,
Izlanglar otangni No'g'oy yurtini,
Tong otmay chiqinglar Zangar shahridan,
Egarlab min yasovulning otini.

M o h i b o y :

Sayr etar olqorli tog'im bo'lmasa,
No'g'oyda chorbog'im, bog'im bo'lmasa,
Otli chiqib qaytib elga yetamiz,
Qilich-miltiq, yov-yarog'im bo'lmasa?

X o l b e k a :

Dam shu damdir, o'zga damni dam dema,
Shukur qilgin, davlatingni kam dema,

Egarlab min yasovulning otini,
Enang eson, yov-yaroqdan g'am yema.

M o h i b o y:

No'g'oy elda bo'lsa manzili-joyi,
Qoraxonshoh bo'lsa pushtipanohi,
Bizlar chiqib ketsak Zangar elidan,
Duo qil saharda xolislillohi.

X o l b e k a:

Har tarafga bedov otni chopinglar,
Bedovlarga qoli zullar yopinglar,
No'g'oy borib Qoraxonni topinglar,
Qaytib kelib, engan sho'rni obketgin.

M o h i b o y:

Kuyganlarning ishi oh bilan voy-da,
Karvon yotar bandargohli saroyda,
Duo qil, enajon, xolislillohi,
No'g'oydan qaytib kelarman olti oyda.

X o l b e k a:

Ilg'or qip, farzandim, No'g'oy borsanglar,
Qoraxon bobongni topib olsanglar,
Enang duo qilar xolislillohi,
Lashkar qilib bunda qaytib kelsanglar.

M o h i b o y:

Zarrin ro'molingni boshga o'ragin,
Tushni ko'rsang yaxshilikka yo'ragin,
Lashkar qilib men kelarman olti oyda,
Olti oydan kay kunda yo'lga qaragin.

Alqissa, Xolbeka oyim xazinadan shohona sarpolarini ko'tarib, qip-qizil tilla kiyimlarga bolalarini o'rab tashladi. Yov-yarog', asbob-olat, yo'l xarjisiga davur olib kelib berdi. Bachchalarning o'zlari boqib yotgan ikki otning egar, yugan, ayil, pushtan, davuriga davr olib kelib berdi. Ikkita bachcha otlarini egarlab, ustiga minib, enasidan fотиha so'rab turdi. Anda Xolbeka bechora bolalariga qarab bir so'z dedi:

Falakning ishidan ming dol aylayin,
Yolborib haqqa munojot aylayin,
Bir faslga otni saqla, Mohijon,
To'xta bolam, bir nasihat aylayin.

Paydo bo'lding ikki gavhar donadan,
Parvoz qilib uchding manzil xonadan,
Avval aytgan nasihatim, go'daklar,
Har nafasda g'ofil bo'lmang xudodan.

Eshitib ol, enang sho'rning arzini,
Sarg'aytmasin qizil gulday tarzini,
Har nafasda g'ofil bo'lma xudodan,
Zinhor qo'yima sunnatini, farzini.

O'zingdan pastlarman har yo'lga ketma,
Bolam, aytgan nasihatim unutmam,
Oldingdan kim chiqsa, salomsiz o'tmam,
Bir g'aribni ko'rsang zinhor og'ritmam,
Nasihatim qabul qilgin, Mohijon,
Zinhor manmanlikning yo'lini tutmam.

Ostingda o'ynaydi mingan hayvoning,
Tulporing ostingda Mohidir noming.
Bolam, nasihatim bajo keltirsang,
Qayga borsang, dar qolsang, men zomin.

Tong otmay Zangardan chiqib ketarsan,
Suvsiz cho'lda otingni o'ynatarsan,
Ikkovginang yo'l tortsanglar, go'daklar,
Sabil qolgur Zarchamanga yetarsan.

Shohlarga qurilgan nuqradan joy bor,
Har kim kuysa, shunda oh bilan voy bor,
Shu yerda bizlarga bo'lgan qiyomat,
Ikki yoqda ikki katta saroy bor.

Xudoyo ishingning bo'lgay barori,
No'g'oydadir senday mardning diyori,
Bu so'zimga quloq solgin, Mohijon,
O'ng saroyda otang sho'rning mozori.

Otdan tushib ikkoving dod etinglar,
Otam, deb yig'lashib faryod etinglar,
O'ng saroyda otang sho'ming mozori,
Tug' ko'tarib belgi qilib ketinglar.

El ko'chirib Ola tog'dan oshirdim,
Ulug' dedim, ostonaga bosh urdim,
Sog' borib, salomat kelgin Zangarga,
Avval haqqa, so'ngra pirga topshirdim...

Bachchalar enasidan fотиha-duo olib, darvozadan
chiqib, ko'chaga tushib, jo'nadi. Erta sahar shahar-
ning darvozasiga borib, qo'rboshiga aytdi: – Och
darvozungni, bizlar chiqib yangi bo'lgan podshoga
joy tuzaymiz, ziyoratga chiqadilar.

Qo'rboshi aytdi: – Qo'llaringda inoyatnomala-
ring bormi?

Gurkiboy sodda edi: – Yo'q, – dedi. Qo'rboshi: –
Noma'qul debsan, o'g'ri, haromi. Sen bir yerni bu-
zib, qochib borayotibsан. Sening anoying kim dar-
vozani ochib beradigan. Kun chiqqancha, otdan tu-
shib, shu yerda o'tirasan, – dedi.

Anda Mohiboy aytdi: – Ov qo‘rboshi bova, inoyatnoma menda, menga inoyatnomani olib kelib berganda, bu ot egarlab yurib edi. Mana, kelib mening qo‘limdan inoyatnomani ol.

Qo‘rboshi oldiga yugurib borib: – Qani, – dedi. Shunda avval Mohiboy qilichni qindan sug‘irib olib turib edi, qo‘rboshining ustiga otini haydab kelib: – Senmi bizlarga darvozani ochmaydigan, – deb qo‘yib yubordi. Qo‘rboshini ikki bo‘ldi-ov. Jo‘rasi qo‘rqqanidan aytdi: – Barakalla, o‘g‘lim, xo‘b qilding-a, o‘ldirding bachchag‘arni, har kim kelsa, darvozani ochmay kerishar edi-da, turar edi. Mana kalit menda, – deb darvozani ochib, chiqarib yubordi. Ikki bola darvozadan chiqib ketdi. Ikkovi kulishib-o‘ynashib, bir-biriga: «Darvozasini qonladik-ov. Olti oyda No‘g‘oydan lashkar qilib kelib, enamizni bularning ichidan chiqarib olib, Buvraxon podshoning ota-onamizga qilgan zulmining bittasini yuzta qilib, burnidan chiqarmasak...» – deb katta yo‘lda sherday hayqirib, yo‘lbarsday chirpinib, qoplonday yuraklanib, Rustamday haybat qilib keta berdi:

Asli to‘ra No‘g‘oy elning shahzodi,
Ostida o‘ynaydi chin bedov oti,
Dono mavlon obro‘ ber, deb boradi,
Avliyoyi Qoraxonning avlodi.

Ikkovining tilinda bor sanosi,
No‘g‘oyning yurtining gavhar donasi,
Avliyoyi Qoraxonning avlodi,
Ikki go‘dak – Kuntug‘mishning bolasi.

Ostida o‘ynaydi mingan tulpori,
Yonida tut bosgan keskir xanjari,
Dono mavlon, obro‘ ber, deb boradi,
Ikki go‘dak – No‘g‘oy elning qo‘chqori.

Otga yo'l bermaydi tog'ning o'rasi.
Har kimning bor besh kun kun ko'rasi,
Dono mavlon, obro' ber, deb boradi,
Ikki go'dak – No'g'oy elning to'rasi.

Ostida o'ynaydi mingan ul oti,
Tog'cha bo'lib go'daklarning g'ayrati,
Dono mavlon, obro' ber, deb boradi,
Kuntug'mishning o'g'li – No'g'oy jallodi.

Boshida bor hasham tilladan toji,
Musofirlik dardning yo'qdir iloji,
Dono mavlon, obro' ber, deb boradi,
Ikki go'dak – o'zi yigit me'roji.

No'g'oyda bularning davri davroni,
Bularsiz buzilgan manzil-makoni,
Dono mavlon, obro' ber, deb boradi,
Shu zamonning bir tarafsiz polvoni...

Ot chopilar baland tog'ning pastiga,
Quloq soling gapimning payvastiga,
Sakkiz kecha-kunduz yurib go'daklar,
Borib qoldi Olatog'ning ostiga.

Alqissa, ikkita go'dak sakkiz kun yo'l yurib Olatog'ga yetdi. Mohiboy ko'zini ochib qarasa, ming bir, ikki ming bir, uch ming bir, to'rt ming bir – o'n mingcha yilqi yoyilib yuribdi. Podshoning yilqisi Olatog'da yurar edi. O'n ming qulni yov-yarog'i bilan, xotin, bola-chaqasi bilan shu yilqilarga qaraysan, deb o'tqizib qo'ygan edi. Shu o'n ming uyli qulga ikki qul sardor edi. Shunday bahodir polvon qullar edi: har vaqt to'qaydan sher chiqib, yilqilarga chopmoqchi bo'lsa, shu ikki qul sherlarning bo'yniga qo'riq solib, bo'g'ib o'ldirar edi. Birovi-

ning otini Ayrisoqol Axtaqul der edi, birovining otini
G'o'dolqul der edi.

Qullar qimizini ichib, kayf qilib, mast bo'lib,
ko'kalamda ag'nab yotib edi, shu bachchalar yil-
qilarning ustidan borib qoldi. Mohiboy yilqilarni
ko'rib, polvonlik tomirlari uyg'onib, mana bu yilqi-
larni ko'rdingmi? – deb Gurkiboyga bir so'z aytadi.
Gurkiboy Mohining ra'yini qaytarib bir so'z aytadi:

Mohiboy:

Xudo ochsin ko'ngillarning qulfini,
Yigit izlar chin suluvning zulfini,
Och, ko'zing, atrofqa qara, Gurkiboy,
Ko'rdingmi Oqsuvda yotgan yilqini?

Gurkiboy:

Baland-baland tog'da adir bel bormi,
So'nasiz, suqsursiz oydin ko'l bormi,
Xayolingni har tarafga buzmagin,
Bu yerda egasiz yotgan mol bormi?

Mohiboy:

Yurgan yo'ling el Xizrning dashidir,
Nima bo'lsa bir xudoning ishidir,
Ko'rdingmi Oqsuvda yotgan yilqini,
Egasi ham o'zimizday kishidir.

Gurkiboy:

Har tarafga solma, Mohi, ko'zingni,
Menga aytma tuzsiz, yomon so'zingni,
Bu yerda egasiz yotgan mol bormi,
Bir ish qilib koyitmagin o'zingni.

Mohiboy:

Mirishkorlar chiqar oydin ko'llarga,
Botirlar yugurar yasovli yovga,
Shu yilqidan haydab ketsak, Gurkiboy,
Kim chiqsa beramiz No'g'oyda sovg'a.

O'tar dunyo qiyomatni o'yladi,
Er Mohiboy turfa-turfa so'yladi,
Gurki shuncha qo'ygin, dedi, qo'ymadi,
Chopib borib bir to'pini haydadi.

Mohiboy Gurkiboyning so'ziga quloq solmay,
katta bir to'p yilqini oldiga solib haydab yura berdi.
Anda o'n ming uyli qullar qarashib: – E-ha, vo-ha,
u-hu. Hazil qilma, hov bola, nobud bo'lasan, – de-
yishayotibdi. Mohiboy yilqilarni to'plab, chinqirab
haydab yura berdi. Shunda G'o'dol bilan Ayrisoqol
qullar qozoqi otlarga minib, qo'riqlarini qo'llariga
olib, soqoli tirqirab, dovushi varqirab: – Molni qa-
yoqqa olib borasan, deb chirqirab, og'ziga kelganini
aytib, so'kib kelayotibdi:

Yurgan yo'lim bo'ta ko'zli jo'nag'ar,
Nayza tekxa oq badandan qon oqar,
Yilqim semiz, qoraterli bo'lmasin,
Mollarni joyiga qo'ygin, enag'ar.

Beklar minar bedov otning tolmasin,
Mard yigit beliga boylar olmosin,
Mollarni joyiga tashla, enag'ar,
Yilqim semiz, qoraterli bo'lmasin.

Yig'latib chashmingni giryon aylarman,
Olamni boshingga zindon aylarman,
Mollarni joyiga qo'ygin, enag'ar,
Yetib op yer bilan yakson aylarman.

Oqizarman ko'zdan qonli yoshingni,
Qiyomat savdoga qo'yib ishingni,
Yilqim semiz, qoraterli bo'lmasin,
Kesarman, haromi, tandan boshingni.

Endi senga yurmaklikka yo'l qayda,
Bormoqqa panoh bo'p turar el qayda,
Kesarman, haromi tandan boshingni,
To'xta, o'g'ri, senga tekin mol qayda?

Anda Mohiboy qarasa, ikki qul so'kib kelayotibdi.
Mohiboy aytdi:

– Ey nokas, qizilbosh, mol haydagan odam senga bermaydi-da. O'zingni er bilsang, birovni sher bil», – degan ekan. Ajaling yetgan bo'lsa, kela qol. Sendan qo'rqdikmi? Biz ham senday zo'rni izlab yurgan. Kel, Alining maydoni, – deb ikki qulga qarab, Mohiboy bir so'z aytib turibdi:

Zoti yo'q nokaslar, so'zimni dur bil,
O'zingdan kattani uchratsang, pir bil,
Sendan qo'rqqan bu yerlarga kelmaydi,
O'zingni er bilsang, birovni sher bil.

Befarzandning ko'rgan kuni zoyama,
Yo'qchilik jo'mardning ko'zin o'yama,
Sendan qo'rqqan bu yerlarga kelmaydi,
Qo'lingdan kelganin qilgin, ayama.

Senday nokas bu yerlarda yurami,
Keng darada mard bo'p davron surami,
Qo'lingdan kelganin qilgin ayama,
Mard o'g'lon qo'lidan molni berami?!

To'kilar seningday nokasning qoni,
Qizilbosh, nomard deb aytma-da, meni,
Sendan qo'rqqan bu yerlarga kelmaydi,
Ko'ngling bo'lsa, kel, Alining maydoni.

Endi ko'ring bollar maydon boshladi,
Taraf keldi dedi, vaqtin xushladi,
Chirqirab, varqirab ikki qizilbosh,
Bollarning bo'yniga qo'riq tashladi...


Kalima qaytar go'daklarning tilidan,
Bular chiqqan o'zi Zangar elidan,
Yo pirim, deb ikki qo'llab ushladi,
Bir yulquvman tortib oldi qo'lidan.

Endi ko'ring bollar o'yin boshladi,
Maydon bo'ldi dedi, vaqtin xushladi,
Bir yulquvman tortib olib qo'lidan,
Qo'rig'ini o'z bo'yniga tashladi.

Armon bilan bilmaganin bildirdi,
Zo'rlik qilib ichin g'amga to'ldirdi,
Qo'rig'iman yiqib otdan ag'darib,
Ikkovi qullarni sudrab o'ldirdi,
Ikki qulning og'zin qumga to'ldirdi,
Kel-ho-kel, deb bedov otin yeldirdi.

Quloq soling kuyganlarning dodiga,
Nayza tegar mard yigitning etiga,
Ikki qulning o'lganini ko'rgandan,
Yotgan qullar yoppa mindi otiga.

Shu yerda yotgan o'n ming uyli qul ikkita sardorining o'lganini ko'rib, birdan otiga minib, bachchalarning ustiga o'n tug', yigirma bayrog'i bilan, to'p-jazoyili bilan, qilich-nayzasi bilan, karnay-surnay tortib, maydon-urush bo'la berdi. Shunda ikki bachcha: «Qaytgan xotin, toygan to'qol. Bu yerda bir yaxshi hangama bor ekan», – deb otidan tushib, ayil-pushtonini mahkam-mahkam tortib, sovut-qalqonini kiyib, uchar qushday bo'lib, otga minib, dobilni tuyib, qilichni qindan sug'urib, talabgoring kela ber, – deb ot quyib turipti:



Kel, Gurkiboy, kechg'in jondan,
Umiding bo'lsa imondan,
Sen bir yondan, men bir yondan,
Ot qo'y g'animning ustiga.
Kalla kesib, qon to'kilsin,
Olatog'ning ostiga...

Ollo deydi, xo'ja, sayid,
Shul maydon bizgadir hayit,
Chopsang g'ozi, o'lsang shahid,
Ot qo'y g'animning ustiga,
Kalla kesib, qon to'kilsin,
Shu Olatog'ning ostiga.


Dushmanning aqlin shoshiring,
O'ligin toshga to'qshiring,
Qirg'inni yovdan oshiring,
Ot qo'y g'animning ustiga,
Kalla kesib, qon to'kilsin,
Olatog'ning ostiga...

Qullar bilan go'daklar maydonga aralashib qoldi:

Har tarafdan ol-ha deyishib,
Ol-ha, xanjar sol-ha deyishib,
Mayling bo'lsa, kel-ha deyishib,
Uning oltin ol-ha deyishib.
Qo'lingda xanjar yalang'och.

Siltab xanjar sol-ha deyishib,
Yarqillashib qilichlari,
Oy tuqqanday yarqillashib,
Qarmashdi maydon ichinda.

Goh ul quvib, goh bul quvib,
Olmosin qon bilan yuvib,
Maydonda bedovlar suvib,
Dushman boshiga kun tuvib,
Quvishdi maydon ichinda.



Har bedovlar shovshillashib,
Uzangilar sharqillashib,
O'liklar qoldi ayqashib,
Har o'liklar qopday shishib,
O'ligiga quzg'un tushib,
G'ajir qo'nib tortqillashib,
Tortishdi maydon ichinda.

Oq-qorabosh tug' so'lqillab,
Tikildi maydon ichinda;
O'mirovli ne go'zallar
Yiqildi maydon ichinda.


Bo'z tuproqqa qirmizi qon,
Sepildi maydon ichinda.
Ne ullaarning qaddi yoyday
Bukildi maydon ichinda.

Og'zi katta ashraflar,
Otildi maydon ichinda.
Bag'ri tortiq sari yoylar
Tortildi maydon ichinda.

Olmos qilich mard qo'lida,
Qatildi maydon ichinda,
Mard yigitning shirin joni
Sotildi maydon ichinda.

Bo'z tuproqqa qirmizi qon,
Qotildi maydon ichinda,
Maydonda kalla sholg'omday
Otildi maydon ichinda.

Dutor bo'yin arabi ot,
Qutuldi maydon ichinda,
Choplmagan qozoqilar
Tutildi maydon ichinda.

A decorative border with a repeating floral motif, possibly a fleur-de-lis or similar stylized flower, surrounds the text. The border is composed of a series of interconnected circular and floral shapes, creating a frame for the central text.

Saf tutib satta bo'yoqlar,
Ostida oti o'ynoqlar,
Qizil, yashil, oq baydoqlar
Yozildi maydon ichinda.

Yasov tortib satta botir,
Safni to'zib kelayotir,
Qora miltiq patir-patir
Otildi maydon ichinda.


Bo'lib g'azoga moyillar,
Dushmanni qilib qoyillar,
Ko'p zambarak, jazoyillar,
Gumburlab maydon ichinda.

Ko'p g'anim tutgandir saflar,
Qirg'in topib o'ng-u chaplar,
Ajdarhoday katta to'plar,
Ishqirdi maydon ichinda.

Qilich kelar alab-yalab,
G'arib ko'ngli istar talab,
Oltin kosa, gulgun sharob,
Ichildi maydon ichinda;
Ajallining kafan to'ni
Bichildi maydon ichinda.

Ot qo'yadi to'plab-to'plab,
Farangining og'zin qoplab,
Qo'sh jilovni qo'lga juplab,
Charx urdi maydon ichinda.

Qo'shin keldi dasta-dasta,
Yasov tortdi baland-pastda,
Urush bo'ldi asta-asta,
So'ng bo'p qoldi chaparasta,
Kim o'ldi, kim bo'ldi xasta,



Qullarni ko'rsang shikasta,
O'ldirmakka bollar usta,
Qirishdi maydon ichinda...

Aytganingcha bor edi,
Urushga xumor edi,
Yasov tortgan qullarga
Och bo'riday doridi.

Otning boshi burildi,
Ajab majlis qurildi,
Til bilmagan satta qul,
O'mma bo'lib qirildi.

Ko'ring endi movqumi,
Sanchmay, chopmay zovqumi,
Hay-hayladi Mohibek,
Beribdi achchiq shovqumi.

Yulduz uchganday bo'ldi,
Qunduz ko'chganday bo'ldi.
Bachchalarning otlari,
Parqin sochganday bo'ldi.
Ostidagi bedovlar,
Qonni kechganday bo'ldi,
Qiziq jangda go'daklar,
Qizni quchganday bo'ldi.
ArvoH urdi qullarni,
Tura qochganday bo'ldi.

Og'zidan ko'pik sochdi,
Turib buzila qochdi.
«Qochgan yovda qoruv yo'q»,
Ulkanin saylab sanchdi.

Terak butaganday bo'ldi,
Laylak yutaganday bo'ldi,

Dala o't olganday bo'ldi,
Qullar qatag'anday bo'ldi.

Bollar daryoday toshdi,
Quvib ketiga tushdi.
Nokas qullar yig'lashdi,
Bir xili o'ldik deyishdi.
Yarali qoldik deyishdi,
Molga qaramay qochishdi,
Oqsuvga borib bolalar,
Endi otidan tushdi.

Ikki go'dak otidan tushib, sovut-qalqonni yechib, qon bo'lgan kiyimlarini yuvib, shu yerdagi yilqilarning bittasini qo'ymay quvib, oldiga solib, yo'lga ravona bo'lib, No'g'oyning yurti qaydasan, deb haydadi-ketdi. Boz besh kun yo'l yurdi. Bachchalar ko'p molni haydab charchadi. Haydov ko'rmagan xom yilqilar, mollar ham terlab, charchab qoldi. Shunda bir ko'ning labiga borib qoldi. Mohiboy aytdi: – E, Gurkiboy, ko'p charchadik-ku, shu yerda yotib, bir damimizni olib o'tib ketsak.

Gurkiboy ham: – Xayr, – dedi. Shunda ikkovi otidan tushdi. Haydov yemagan yilqilar ham to'p bo'lib yotdi. Ikki shahzoda: «Otlar tepsinib, chibinlab, changitib bizlarni uxlatmas», – deb otlarini uzoqqa boyladi. Ikkovi ham kiyimlarini yechib, bir choponlarini to'shab, bir choponlarini ustlariga oyqora yopinib yotdi. Ikkovi ham yosh bachchalar emasmi, boshini qo'ygandan tarraday bo'lib, qattiq uxlab qoldi. Bularni uyquda qo'ying, endi gapni Zangar podshosi Qalandarxondan eshiting.

Shu bachcha darvozadan chiqarda, darvozabon qo'rboshini o'ldirib chiqib edi. U birovi borib, bo'lgan so'zlarni podshoga aytib, arz qilib edi. Shun-

da yangi bo'lgan podsho emasmi, olti ming lashkarni qo'r-u qo'rxonasi bilan, to'pu to'pxonasi bilan, yov-yarog'i bilan «shu o'g'rilarni topasan-da, kelasan, bo'lmasa kelmayсан», – deb jo'natib yuborib edi. Shunda lashkar ko'chaning yuzi bilan, bolalarning izi bilan kelayotib edi, oldidan olti ming qochqinchi qullar chiqdi, o'n ming qulning to'rt mingi o'lib, olti mingi qochib edi. U ham qaytib, qo'shilib, o'n ikki ming bo'lib, kecha-kunduz yo'l tortib, bolalar bilan izorma-izor kelayotib edi. Shu ko'lga kelib qarasa, yilqilar shu yerda, bolalar ikkovginasi ham uxlab yotibdi. Kelgan dushmanlar tappa-tappa otdan tashlab, ikki go'dakning uyquda ikki qo'lini mahkam bog'lab, g'ullab-zullab, mahkam bo'lgandan keyin, boshiga qor-yomg'irday qamchini yog'dirdi. Shunda qamchining achchiglig'idan ko'zini ochdi. Ko'rди, o'zlari dushmanning qo'lida bandi bo'lib, ko'p dushmanning o'rtasida qolibdi. Shunda Mohiboy qor-yomg'irday qamchi yog'ib turganini o'zi nazar-guzar qilmay, akasi Gurkiboyning qamchi yeganiga ichi achib: – Mening yomonligim uchun sen tayoq yeding, – deb Gurkiboy akasiga qarab bir so'z dedi:

Uzoqda qolgandir manzilim-joyim,
Ko'kragimda ketdi qayg'uman voyim,
Sabil bo'p gul keskan naqshin saroyim,
Bandi bo'lib chiqar osmonga ohim.

Gurkiboy, olmadim sening tilingni,
Aytgan-a, ko'rmadim No'g'oy elingni,
Uyquda bog'ladi nozik qo'limni,
Mening uchun sen ham ko'rding zulmni.

Gurki, sening aytgan tilingni olmadim,
Qazo bunday ekan, avval bilmadim,

Nasihating aslo bovar qilmadim,
Qilichlashib maydon ichra o'lmadim,

Har tarafdanda ol-ha, ol deb kelmadim,
Maydon-maydon bedovimni yelmadim,
Ali savoshinda kalla olmadim,
Bearmon bo'p qilichlashib o'lmadim.

Yetolmadim No'g'oy mamlakatima,
Qaytayin, yetmay o'ldim maqsadima,
Bir minolmay qoldim tulpor otima,
Qo'lim yetmay ketdi-da, po'latima.

Hay attang-a, o'zim nodon, o'zim yosh,
Dushman bilan bo'lma biror dam yo'ldosh,
Uyquda qop, sirim bo'ldi elga fosh,
Qo'lga tusharmikan to kesmayin bosh?!

Maydonga mard izlab tanho kirmadim,
Shu dushmanning barin birdan qirmadim,
Qilich bilan jazosini bermadim,
No'g'oy borib, davri-davron surmadim.

Uyquda qop ikki qo'lim boyladi,
Piyodalab, oldiga sop haydadi,
Osoyishta aziz jonim qiynadi,
Mening uchun Gurkiga jabr ayladi.

Bandi bo'ldim armon bilan dushmanga,
Ichim to'ldi qayg'u bilan armonga,
Mard bo'lib kirmadim, qaytay, maydonga,
Kasofatim tegdi, Gurkiboy, senga.

Yangi tuqqan oyday botib boraman,
Ajal yoqasidan tutib boraman,
Borsa kelmas yo'lga ketib boraman,
Armonman dunyodan o'tib boraman.

Toza gulday so'lar bo'ldim men emdi,
Daryoday bo'p to'lar bo'ldim men emdi,
Armon bilan o'lar bo'ldim men emdi,
G'arib mozor bo'lar bo'ldim men emdi.

Qavmim yo'q, qaytayin, qarindoshim yo'q,
Qo'lim tutar bu kunda qo'ldoshim yo'q,
Musofirman, tengim bilan to'shim yo'q,
Sendan boshqa bir murabbiy kishim yo'q...

Mosuvoday ko'kka uchdim men emdi,
Bu foniy dunyodan kechdim men emdi,
Uyquda qop qo'lga tushdim men emdi,
Bandi bo'p aqlimdan shoshdim men emdi...


Bular tushgan ko'p dushmanning qo'liga,
Piyodalab soldi suvsiz cho'liga,
Satta zolim rahm aylamay bollarga,
Bandi qip haydadi Zangar eliga.

Yoqasi ho'l ko'zdan oqqan yoshiga,
Ikki nodon, hech kimi yo'q qoshiga,
Ura-ur deb, yura-yur deb cho'llarda,
Qor-yomg'irday qamchi yog'ib boshiga.

Qamchi bilan soladi,
Bollar jonin oladi,
Tez yurgin, deb dushmanlar,
Qattiq zulm qiladi.

Qirg'iy yotar qiyada,
Lochin yotar uyada,
Ikki go'dak haydalib,
Otday bo'lib piyoda,
Tez yurgin, deb quvadi,
Balki otdan ziyoda.

Qamchi bilan soladi,
Hadsiz zulm qiladi,

A decorative border with a repeating floral motif surrounds the text. The border consists of a series of stylized, symmetrical floral designs, possibly resembling fleur-de-lis or similar motifs, arranged in a continuous line.

Ikki go'dak cho'llarda,
Otning yo'lin oladi,
Hay, attang, deb Mohiboy,
Ko'p ham armon qiladi.

Cho'lda yelar otday bo'p,
Ichi kuyar o'tday bo'p,
Og'zidan chiqqan dami,
Bachchalarning dudday bo'p.

Ko'zdan yoshi jo'shilib,
Ko'p dushmanga qo'shilib,
Yurolmaydi go'daklar,
Oyoqlari teshilib.

Bandiligi bilinib,
Kokillari yuliniib,
Yurolmaydi ikki go'dak,
Yurak-bag'ri tilinib.

Armon bilan o'ldik, deb,
Toza gulday so'ldik, deb,
Ikki go'dak zor yig'lab,
Suvsiz cho'lda qoldik, deb.

Qayda No'g'oy elim, deb,
Dushman qildi zulm, deb,
Yurolmaydi ikki go'dak,
Zor qaqshaydi belim, deb.

Sarg'aygandir siyog'i,
Bir aslning tuyog'i,
Zor yig'laydi go'daklar,
Bostirmaydi oyog'i.

Ol-ha yurdi, ol yurdi,
Ozgina emas, mo'l yurdi,

Ot hukmida go'daklar,
Ayni o'n kun yo'l yurdi.

Ot chidamas achchiq qamchi zahriga,
Kuysin o'lim, kim chidaydi jabriga,
Qo'li boyli, zor yig'lashib go'daklar,
Bandi bo'lib, bordi Zangar shahriga.

Bu ikki go'dakni bandi qilib, o'n kun yo'l yurib, o'n kun deganda, Zangar shahriga olib bordi. Gurkiboy tavakkal qilib ketib borayotibdi. Mohiboy so'zlab, yig'lab borayotibdi. Shunda bularning kelayotgani Zangar shahriga ovoza bo'ldi. Hech bir eshitmagan odam qolmadi. «Yangi bo'lgan podsho yangi bo'lgan bandisini to'xtovsiz dorga tortadi», – deb ovoza bo'lib, yaxshi-yomon, yugruk-chobon, xurd-u kalon, qiz-u juvon ko'chako'ylarda tomlarning ustiga chiqib, ko'rmagan odam qolmadi. Bu ikkovini ko'rib, yig'lamagan odam bo'lmadi. «Hay attang, dunyosi qursin, shunday yosh bachchalar, o'lib ketsa. «Xon g'azabi – xudo g'azabi», – degan, chiqmasak bo'lar ekan, chiqib alamimiz ziyoda bo'ldi», – deb mardumi shahar yig'lashib, orqasidan ergasha berdilar. Endi yangi bo'lgan podshodan eshiting.

Arkoni davlat, umaro, vazir-vuzaro, qozi-fuzalo, mufti-ulamo, mahram, yasovul, o'gachi, shig'ovul – jamiy sipohlari bilan o'tirib edi. Ikkita go'dakni olib borib, manzur qildi. Ikki bandiga ikki yangi dor tuzab, qurdirib turib edi. Podsho ko'rgandan mehri toblab, otalik mehri qaynab, bachchalarni ko'rgandan uvuz eti uv bo'lib, to'la badani suv bo'lib, ko'ngli buzilib, bag'ri ezilib, ko'zining yoshi tizilib, avvalgi aytib o'tirgan gaplariga pushaymon yeb: «Kel-e, bu bachchalarning og'ziga bir luqma

solay, agar bizlar qilganimiz yo‘q desa, ozod qilay, bu bolalar o‘ldiradigan bola emas ekan-ku», – deb ikki bolasiga qarab bir so‘z dedi:

Yurgan yering balandmidi, pastmidi,
Ko‘p odam bandi qip senga qasdmidi,
Oqsuvdan ne deb haydading yilqimni.
Haydaganing yolg‘onmidi, rostmidi?

Olatog‘ avvaldan qolgan mulkimdi(r),
Agar bilsang, oda bo‘lmas ko‘lkimdi¹.
Haydaganing yolg‘onmidi, rostmidi,
Oqsuvdan nega haydading yilqimdi?

Qizil gul ochilar g‘unchadan-g‘uncha,
Toqatim yo‘q tag‘i gul ochilguncha.
Rost-da desam, ikkovginang yosh bachcha,
Yolg‘on desam, bunda shohid bir necha,
Haydaganing yolg‘onmidi, rostmidi?

Yosh bachchalar, ko‘nglingni shod aylayin,
Bu foni dunyodan faryod aylayin,
Munkir kelsang, bollar, ozod aylayin,
Haydaganing yolg‘onmidi, rostmidi?

Ot chopilar baland tog‘ning pastidan,
Quloq solgin gapimning payvastidan,
Yolg‘on dema, bola, aytgin rostidan,
Haydaganing yolg‘onmidi, rostmidi?

Bachchalar podshoning bu so‘zini eshitdi. «Munkir kelsa, ozod bo‘lar ekan, lekin mardlik qo‘ldan ketadi», – deb Mohiboy: – E podshoyim, mardlar o‘laman deb so‘zidan qaytmabdi, – deb otasiga qarab bir so‘z dedi:

¹ Ko‘ligim.

O'laman deb mard qavlidan toyama,
Yo'qchilik jo'mardning ko'zin o'yama,
Oqsuvdan yilqingni o'zim haydadim,
Qo'lingdan kelganin qilgin, ayama.

Bo'ta o'lsa bo'zlab qolgan moyama,
Befarzandning ko'rgan kuni zoyama,
Oqsuvdan yilqingni o'zim haydadim,
O'laman, deb mard so'zidan toyama.

Uyquda boyladi Mohi qo'lini,
Bosib keldim elsiz, suvsiz cho'lini,
O'limdan qo'rqmoqlik nomardning ishi,
O'laman, deb mard qaytarmas tilini.

Mardlarning parvoyi bo'lmas o'limdan,
Musulmonman, kalma kelar tilimdan,
O'laman deb mard ham ikki so'zlarmi,
Munkir kelsam, mardlik ketar qo'limdan.

Mard bo'lib belima xanjar boyladim,
Ko'p qulingni qora yerga joyladim,
O'laman, deb mard ishidan tonmaydi,
Oqsuvdan yilqingni o'zim haydadim.

Shu bolalarni haydab borgan o'n ikki ming lashkar birdan chuvlab arz qildi: – Taqsir podshoyim, bunday bo'yni yo'g'on bola yerning yuzida yo'q; taqsir, o'n kundan beri haydab kelayapmiz-a, ertadan kechga dovur bizlar bilan o'rlashib, o'r yog'ini bizlarga bermay kelayotibdi. Bunday bo'yni yo'g'on bolani bizlar sira ko'rmay kelayotibmiz. Buning bo'ynini podsho ingichkartsin, – deb olib keldik.

Shunda podsho hayron bo'lib, nima deyarni bilmay qoldi. Avvaldan hukm bo'lgan emasmi, jallod-mirg'azablar urib-so'kib yangi tikilgan dor-ga qaratib olib keta berdi. Shunda Xolbeka bechora

ham ayollar bilan dorning oldidagi tomning ustiga chiqqan ekan, shunday tiklab qarasa, ikki bolasini ham jallod-mirg'azablar olib kelayotibdi. Bolalarini tanib, ichi o'tday yonib, chirqirab, tomndan o'zini tashladi:

Alam tortib bandi bo'g'nin bo'shladi,
Zor yig'ladi, ikki ko'zin yoshladi,
Ikki bolasini ko'rib Xolbeka,
Vo bolam, deb tomndan o'zin tashladi.

Savdo tushdi Xolbekaning boshiga,
Yoqasi ho'l ko'zdan oqqan yoshiga,
Vo bolam, deb tomndan o'zin tashladi,
Bo'zlab bordi bollarining qoshiga.

Xolbekaning ko'kaylari kesilib,
Bular yo'li dushmanlarga to'silib,
Vo bolam, deb bo'zlab bordi qoshiga,
Zor yig'laydi bollariga osilib:

– Vo go'daklar, mojaroga uchrading,
Qaytib men baxti qaroga uchrading,
Ne sababdan nozik qo'ling boylandi,
Nodonlarim, ne baloga uchrading?

Yomg'ir yog'sa halqob yerlar loylandi,
Falokat boshima yomon aylandi,
Go'daklarim, ne baloga uchrading,
Ne sababdan nozik qo'ling boylandi?

Shunda Xolbeka jallodlarga elanib, bir so'z aytayotibdi:

Barchani yaratgan qudratli jabbor,
Har kimni bir o'yga qildi giriftor,
Qo'ling dard ko'rماغur jallod-mirg'azab,
Quloq soling, aytadigan arzim bor.

Sizlarga buyurib Zangarning shohi,
Ko'kka chiqar menday kuyganning ohi,
Rahm ayla, go'dakni urma, jallodlar,
Qancha edi bollarimning gunohi.

Men bebaxtning xotirin shod aylanglar,
Mo'minsizlar, din uyin obod aylanglar,
Qo'ling dard ko'rmagur, jallod-mirg'azab,
Meni o'ldir, bolamni ozod aylanglar.

Armon bilan bilmaganim bildiring,
Xanjar cheking, qora bag'rim tildiring,
Arzima quloq sol, jallod-mirg'azab,
Bollarni ozod qil, meni o'ldiring.

Ot chopilar baland tog'ning pastiga,
Qancha jallod ikki go'dak qasdiga,
Har biriga elanadi Xolbeka,
Bo'zlab bordi zolim dorning ostiga.

Alqissa, Xolbekaning aqli shoshib qolgan edi.
Jallodlardan ko'p tayoq yeb, nima derini bilmay,
dorni ko'rgandan, ayol emasmi, joni chiqib qo'rqib,
ha derga holi, yurarga majoli bo'lmay, dorga qarab
bir so'z dedi:

Qaladin qalampir yuklar qalachi,
Durdonadan anbar tog'ning og'ochi,
Analhaq deb Mansur senga osildi,
Assalom alaykum, dorning og'ochi.

Shonaman taralar qizlarning sochi,
Madad qiling Bobo Zangi podachi,
Analhaq deb Mansur senga osildi,
Assalom alaykum, dorning og'ochi.

Uzoqda bollarning manzil-diyori,
Zor yig'laydi enasi, ichkuyari,
Analhaq deb Mansur senga osildi,
Assalom alaykum, Mansurning dori.

No'g'oyda bularning manzili-joyi,
Bu savdoni solgan qodir xudoyi,
Birdan yiqila ko'r, dorning og'ochi,
Qancha edi bollarimning gunoyi?!

Enasining bu so'zlariga Gurkiboyning achchig'i kelib, enasiga qarab: – E sho'rli, qismati qattiq enam. Bu dunyoga kelib, biror shod bo'lmay, yig'lab o'tgan enam, taqdiringga ko'n-da, bu og'ochning qo'lidan nima keladi, – deb bir so'z dedi:

Bizlar chiqdik, ena, Zangar elidan,
Bog'bon uzar bog'ning toza gulidan,
Yig'lasang xudoga yig'la, enajon,
Nima kelar quv og'ochning qo'lidan...

Podsholar tolibdir taxt bilan tojga,
Ko'ngli ketar doyim zakotman bojga,
Nima kelar quv og'ochning qo'lidan,
Kofirmiding, elanasan og'ochga?..

Gurkiboy qarasa, jallodlar Mohining boshida,
Mohini o'ldirmoqchi bo'layotibdi. Shunda enasiga aytayotgan so'zini qo'yib: – O', jallodlar, avval meni o'ldiringlar, mening oldimda Mohi o'lmasin, mening ko'zim ko'rmasin. Mening yoshim katta, yo'l meni-ki, – deb jallodlarga qarab, bir so'z aytayotibdi:

Beklar minar bedov oting tolmasin,
Hech kimsa dunyoda bizday bo'lmasin,
Mendan burun Mohi bebaxt o'lmasin,
Mohining o'ligin ko'zim ko'rmasin.

Bu yetimlik meni qildi sargardon,
Vayron bo'ldi, qaytay, manzilman makon,
Mendan burun mard Mohini o'ldirma,
Yo'lim ulug', mening yoshim kattakon.

Zolim jallod, bilmaganim bildirgin,
Yig'latma Mohini, o'ynab-kuldirgin,
Meni o'ldir, Mohini qo'y, jallodlar,
Yoshim ulug', avval meni o'ldirgin.

Jallodlar aytdi: – Yoshi katta bo'lsa, avval shuni
o'ldiraylik.

Shunda Mohi zor yig'lab: – E, jallodlar, gunohni
men qilganman, Gurkiboy meni shuncha qaytardi,
aytganini qilmadim. Gurkinging gunohi yo'q, meni
o'ldiringlar, Gurkini ozod qilinglar, men Gurkinging
qoniga zomin bo'lmayin, – deb jallodlarga qarab bir
so'z dedi:

Qonlar oqsin mening ikki ko'zimdan,
Yangilmadim aslo aytgan so'zimdan,
Bu ishda Gurkinging yo'qdir gunohi,
Qancha gunoh bo'lsa yolg'iz o'zimdan.

Quloq sol, jallodlar, qilgan dodima,
Qaytay, o'ldim yetmayim maqsadima,
Bu ishda Gurkinging yo'qdir gunohi,
Gurkiboy o'lmasin kasofatima.

Beklar minar bedov otning tolmasin,
Mard yigit beliga boylar olmasin,
Kasodimga Gurki nobud bo'lmasin,
Uvoli mening bo'ynima qolmasin.

Quloq soling menday Mohi tiliga,
Bulbul oshno bo'lar bog'ning guliga.
Meni o'ldir, Gurkini ozod aylanglar,
Musofirdir, eson ketsin eliga.

Men bebaxtning xotirin shod aylanglar,
Ilgarigi azizlarni yod aylanglar.
Bu ishda Gurkinging yo'qdir gunosi,
Meni o'ldir, Gurkini ozod aylanglar.

Hech odam dunyoda bizday bo'lmasin,
Bizday bo'lsa, bu dunyoga kelmasin.

Meni o'ldir, Gurkini ozod aylanglar,
Qoraxonning yurti sabil qolmasin.
No'g'oyning yurti besohib bo'lmasin,
Mening kasodimga Gurki o'lmasin.

Beklarning belinda olmos qiyog'i,
G'am bilan sarg'aygan gulday siyog'i,
Qoraxonning yurti sabil qolmasin,
Qurimasin Kuntug'mishning tuyog'i.

Bu so'zni Mohiboy shu yerda aytdi,
Xatosiz barini to'ra eshitdi,
Farzandining bu so'zini eshitib,
Vo bolam, deb to'ra birdan oh tortdi.

Endi ko'ring, to'ra ko'zin yoshladi,
Quvongandan yoqasini ushladi,
Vo bolam, deb mayiblarday ingranib,
Kuntug'mish taxtidan o'zin tashladi...

Ana endi Kuntug'mish to'ra taxtidan tushib, aq-
lidan adashib, nima qilarini bilmay shoshib, chopib
dorning ostiga kelsa, tomoshabin zich-to'p bo'lib
turibdi, yo'l bermaydi. Shunda to'ra zor yig'lab, to-
moshabinlarga qarab, qoch, deb bir so'z dedi:

Bolam kepti necha tog'lardan osha,
Ikki zulfi gardaniga yarasha,
Po'sht-a, po'sht, tomoshabin jonlarim,
O'lganning nesin qilasizlar tomosha.

Qo'ldan ketib davr ilan davronlarim,
Vayron bo'lib ko'shk ilan ayvonlarim,
O'lganning nesin qilasizlar tomosha,
Yo'l beringlar, tomoshabin jonlarim.

Bolamning oldida men dod aylayin,
O'z holima necha faryod aylayin,
O'lganning nesin qilasizlar tomosha.
Qochinglar, bolamni ozod aylayin.

Turgan xalqqa ancha tashvish tushdilar,
Bir-biriga podsho keldi deyishdilar,
Tomoshabin, qancha turgan xaloyiq,
Bosh-boshiga, tura-tura qochdilar.

Ot chopilar baland tog'ning pastiga,
Quloq soling, gapimning payvastiga,
Mayiblarday ingranadi Kuntug'mish,
Bo'zlab bordi zolim dorning ostiga.

Odamlar podsho keldi deganiga jallodlar shoshib: «Shu vaqtga davur o'ldirmabsan, deb bizlarni o'ldiradi. Shuning uchun kelgan-da podsho», – deb Mohiboyga pichoq solmoqqa shoshib, bo'ynidan arqon bilan kurmak boylab, mirg'azablarga «tort» deb yubordi. Tortib yubordi. Kuntug'mish to'ra chopib kelib, Mohiboyni suyab, jallodlarga: – Qo'yib yubor ipni, – dedi. Jallodlar ipni qo'yib yubordi. Mohining dami tutilib, dami ichiga tushib qoldi. Kuntug'mish to'ra Mohini ko'kragiga olib: – Shamolni ochinglar, – deb har ko'zidan yetmish qatra yoshini to'kib, qaddi bukilib, Mohining betiga tiklab turibdi. Gurkiboy ham yig'lab, ukasining oldiga borib: «Voh, ukamdan ayrildim», – deb yig'lab turgan mahalda, Xolbekka sho'r ham «Voh, bolam», – deb qarasa, Kuntug'mish to'ra Mohini ko'kragiga olib, ko'tarib yig'lab turibdi. Shunda Xolbeka oyim to'rasini yulmalab, erini qarg'ab: – Podsho bo'lmay bo'lusiz qolgur, – deb erini mushtlab qoldi. Xolbeka bechora bilsa, Zangarga yangi bo'lgan podsho Kuntug'mish to'ra ekan. Shunda erini tanib, bir so'z dedi:

Men seni shahzoda dedim, mard dedim,
Sen qanday siynamga qo‘ygan dard eding,
Chiqsin ko‘zing, tanimading bolangni,
Ne tilingman buni dorga tort, deding.

Avval oxir meni muncha kuydirding,
G‘am bilan ko‘zingning yoshin quydirding.
Chiqsin ko‘zing, tanimading bolangni,
Podsho bo‘lib, o‘z bolangni so‘ydirding.

Armon bilan bilmaganim bildirding,
Zor yig‘latib, ko‘zim yoshga to‘ldirding,
Ne tilingman buni dorga tort deding,
Podsho bo‘lib, o‘z bolangni o‘ldirding.

Yura bilmay yurar yo‘ldan toyrildim,
Ucha bilmay qanotimdan qayrildim,
Chiqsin ko‘zing, tanimading bolangni,
Armon bilan men bolamdan ayrildim.

Men seni shahzoda dedim, mard dedim,
Sen qanday siynamga qo‘ygan dard eding.

Xolbeka bechoraning «Voh, Mohi», – deb yig‘laganiga hech kimda tob-toqat qolmadi. Kuntug‘mish to‘raning «Bolam», – deb na‘ra tortgan dovushi osmonga yetdi. Gurkiboyning «Voh, ukam», – deb yig‘laganiga hech kim toqat qilolmadi...

Alqissa, shu turgan xaloyiqlar qarasalar, shu qalandarxon Kuntug‘mish to‘ra ekan, o‘g‘ri bo‘lib qo‘lga tushgan bachchalar qumda qolgan go‘daklar ekan. Arkoni davlat, Xolmo‘min bosh bo‘lib kelib, Mohiboyni suyab ko‘tarib, arkka olib chiqib ketdilar. Bir soatdan keyin Mohiboy ko‘zini ochib, o‘ziga keldi. Xolbeka bechora Mohini bag‘riga olib, quvonib, yuragi yorilib qolay dedi. Mohiboyning boshidan tovoq-tovoq tilla-kumushlarni sadaqa, deb chocha berdi.

Endi turgan katta-kichiklar, umarolar, amaldorlar, podshoning oldida turgan in'omli kishilar Kuntug'mish to'ra bilan qayta boshdan ko'rishib, ixlos-e'tiqodi ziyoda bo'lib, Gurkiboy bilan Mohiboy-ni izzat-hurmat qilib, shohona kiyimlar kiygizib, toji xisravni boshiga qo'yib, qayta boshdan muborakbod qildilar. Kuntug'mish to'ra ham ko'hna xazinalarini ochirib, tilla-kumushni elati yasiga in'om-ehson qila berdi. Endi Zangar eliga podshoh qirq kun to'y berdi.

Zangarning katta-kichigini yig'ib, hammasini o'zidan rozi qilib turgan vaqtida, arkon davlat turib arz qildi: – Bo'g'raxon podsho Azbarxo'jani zindon qilgan edi, hali o'lgani yo'q, zindonda yotibdi. Farmoyishlari nima? Kuntug'mish to'ra buyurdi: – Olib chiqinglar!

Azbarxo'jani zindondan olib chiqdilar. Kuntug'mish ikki o'g'liga buyurdi: – Mening «do'stimdan» o'chlaringni olinglar. Men do'stlik otini tutganman, qoshiga bormayman, yuzini ko'rmayman...

Shunda Mohiboy bilan Gurkiboy qo'llariga xanjarni olib, Azbarxo'janing qoshiga bordi. Ayt-di: – Huv otamning «do'sti», bizlarni taniysanmi? Bizlar Zarchamanning cho'lida emaklab yig'lab qolgan bolalar bo'lamiz. Sening shu qilgan «yaxshiligingni» qaytarmoqchi bo'lib keldik, – deb... ikki bola Azbarxo'jani bosib oldi. Baqirtib, tilini ko'makayidan kesib oldi. Azbarxo'ja gapirolmay, ho'kizday bo'kirib-bo'kirib, itday bo'lib o'lib qoldi. Gavdasini o'tga kuydirib, kulini shamolga uchirib yubordi. Azbarxo'janing ishi tamom bo'ldi.

Kuntug'mish to'ra qirq kun, qirq tun to'y berib, to'yi tamom bo'ladigan kuni jamiy arkon davlatini yig'ib, Xolmo'minni Zangarga podsho qildi. Zangar

shaharning jamiy bek, umarolari Xolmo'minga dasti bay'at berdi.

Endi Kuntug'mish to'ra No'g'oy elga bormoqchi bo'lib, yo'l jabdug'ini tayyorlay berdi. Qatorda nori bilan, xazinada zari bilan, ikkita bolasi qoshida, Xolbeka yori bilan, qancha xizmatkor, qul, cho'ri, kanizaklari bilan jo'nadi. Shunda Xolmo'min Zangarning ulug', akobirlari bilan o'n kunlik yerga billa kelib, Kuntug'mish to'ra bilan xo'shlashib, jiyanlari bilan ko'rishib, yig'lashib, Zangarga qarab qaytdi.

Kuntug'mish to'ra omon-eson, sihat va salomat yurtiga borib, qavm-u qarindoshlari bilan, o'zining yor-u jo'ralari bilan, elining ulug', kattalari bilan ko'rishib, o'ynab-kulishib, otasi Qoraxonning toji-taxtiga ega bo'lib, davrini sura berdi.

Lekin Qoraxon podsho necha yillardan beri o'zining o'miga qushbegisini qo'yib, Kuntug'mishning o'tiga kuyib, tagizaminga kirib, toat-ibodatga mashg'ul bo'lib yotib edi. Bechora ibodatxonasidan chiqib, yolg'iz farzandini ko'rib, ko'rishib, nabilalarini ko'rib, Xolbeka bilan ko'rishib, jamiy elini yig'ib, ko'hna xazinalarini ochib, qirq kecha-qirq kunduz podshohona to'y qilib berib, o'zining taxtiga Kuntug'mish to'rani chiqarib, o'zi boshidan muborakbod qilib, podsho qildi. Kuntug'mish to'ra shunday qilib murod-maqsadiga yetdi.

Yaxshi yetsin murodga,
Yomon qolsin uyatga,
Yomon faqir ne qipti,
U ham yetsin murodga.

T a m o m .



Burungi o'tgan zamonda, el-yurti omonda, o'zi qibla tomonda, Buxorodan to'manda, Taka-Yovmit deganda, Yovmit elida, Chambilning belida Go'ro'g'libek davrini surib o'tdi, dushmanning dodini berib o'tdi. Qirq yigitni yig'ib, dovulni tuyib, oltin piyolaga maylar quyib, araqqa bolni qotib, bolga araqni qotib, qirq yigitni yig'dirib, silovsin to'n kiydirib, kuniga kechkisin sergo'sht qilib, sermoyli palovga to'ydirib, semiz qo'ydan so'ydirib, ko'pkarisini choptirib, olomonga ola sarpo yoptirib, el-xalqning ko'nglin toptirib, Yunus bilan Misqol parini Ko'hiqofdan, Iram bog'idan keltirib, pari bilan o'y nab-kulib, davrini surib, umr o'tkarar edi.

Go'ro'g'libekka xudo farzand bermadi, oti o'chmadi. Shunda Go'ro'g'libek: «Asli taqdir-qismatda bizga farzandan taqsim bo'lgan yo'q ekan», – deb taqdirga tan berib, Hasanxonni Vayangandan, Avazxonni Xunxordan olib kelib, ikkovini ulim deb, iskasam gulim deb, jon-u dilim deb, tobutimning chegasini, el-yurtimning egasi, o'lsam merosxo'rim deb, ikkovi bilan ko'nglini xush qilib, shularga bino qo'yib, bolam-bo'tam, deb parvarish qilar edi.

Avazxonni Og'a Yunus pari o'g'lim deb yoqasidan solib, etagidan olib edi; Hasanxonni Misqol pari yoqasidan solib, etagidan olib edi; ikki pari ikkovining enasi bo'lib edi. Parilar ikkoviga bino qo'yib, bolam deb suyib, har qaysisi o'z uylarida parvarish qilib tarbiya qilar edi.

Ikkovini katta qildi. Avazxon bilan Hasanxon

ham sher haybatli, yo'lbars kelbatli, qoplon yurakli, arslon bilakli yigitlar bo'ldi. Go'ro'g'libekning ham o'g'illaridan ko'ngli to'ldi.

Hasanxon Arzrumdan xon Dallini olib qochib, qirq kun shohona to'ylar berib, o'z rasm-rusmlari bilan oldi. Avazxonga Gulqiz degan bir barno suluv olib berib, uyini tushirib berib, davrini surib yura berdi. Hasanxonga xon Dallidan bir o'g'il paydo bo'ldi. Go'ro'g'libek to'ylar qilib, otini Ravshanbek qo'ydi. (Go'ro'g'lining otasining oti Ravshan edi. «Otamning oti yo'qolmasin», deb Ravshanbek qo'ydi).

Avazxon bir-ikki yildan so'ng bir qizli bo'ldi. Go'ro'g'libek quvonib, suyunib bunga ham to'ylar qilib, otini Gulanor qo'ydi. Enagalar parvarish qilib boqib, bachchalarni tarbiya qilib katta qildi. Bachchalar birdan ikkiga kirdi, ota-ena deguday bo'ldi. Osh-u non bersa, yeguday bo'ldi. U yoq-bu yoqqa borib keguday bo'ldi. Ikkidan uchga, to'rtga kirdi, ikkovini bir maktabga berdi. Ikkovi ham o'qib mulla bo'ldi. Kunlardan bir kun Go'ro'g'libek parilar bilan o'tirib edi. Ravshanbek ayni o'n uch yoshida, zargi qalpoq boshida, yuzi yarqirab, kokili tirqirab eshikdan salom berib bordi. Go'ro'g'libek Ravshanbekni ko'rib, dimog'i chog' bo'lib, parilarga qarab aytdi: – Ho' parilar, mening ko'nglimga bir gap keldi. Sizlarga aytayin, sizlar nima deysizlar. Mening o'zimga shu ishim juda xush keldi, parilar, sizlarga ham xush kelar. Men Avazxon bilan Hasanxonni quda qilayin, Gulanorjonni Ravshanjonga fотиha qilayin, o'zim sovchi bo'layin, bugun borayin. Mol ham yotga ketmasin, bola ham yotga ketmasin, – dedi.

Unda parilar: – Juda yaxshi bo'ladi. Bizlarga ham bu so'zingiz yoqdi, yaxshi aytdingiz bu gapdi, – deyishib, quvonishib qoldi.

Gulanor ko'p suluvi: yaxshi suratli, shirin so'zli, quralay ko'zli, tor biqin, o'rta bo'yli, uzun o'yli, keng ko'krak, xush-xayol, zehni tez, serfahm qiz edi. Ravshanbek uning bilan maktabda birga o'qiganda, ko'zining ostiga bosib qo'yar edi.

Go'ro'g'libekning bu so'zi Ravshanbekka ham yoqib ketdi. Ichida aytdi: «Qizini bersa yaxshi; bu qizini bermas, bobomning so'zini sindirar», – deb qo'ydi.

Go'ro'g'libek parilar bilan maslahat qilib, Avazxon o'g'lining qoshiga sovchi bo'lib bora berdi. Shunda Ravshanbek qoralab, bobosining orqasidan bora berdi.

Avazxon qarasa, Go'ro'g'libek otasi kelayotibdi. Shunda otasining oldiga chiqib, mehmonxonaga tushirib, xush keldingiz, deb dasturxon tashlab, noz-u ne'matni to'kib, qand ustiga novvot, shira ustiga sharvat, ziyofat ustiga ziyofat qilib, otasini siylab xizmat qilib turdi. Go'ro'g'libek o'g'lidan dimog'i chog' bo'lib, kayfi to'g'ri bo'lib o'tirdi.

Avazxon polvon otasiga ziyofatlar qilib, otasining kelgan sababini bilmoqlik uchun joyidan turib, poygaga o'tib, dasti aliflom qilib, gardanini xam qilib, otasiga qarab, yo'l bo'lsin, deb bir so'z qotib turibdi:

So'rasang, Takali, Yovmit el bo'lsin,
Qush solsang, so'nali, o'rdak ko'l bo'lsin,
Makkamsan, Madinam, yurtning egasi,
Qaddingdan, vallamat, sizga yo'l bo'lsin?

Viloyating-yurting Chambilbel bo'lsin,
Qo'lingda ochilgan qizil gul bo'lsin,
Bir sababman kepsan o'rdaxonama,
Makkamsan, Madinam – otam, yo'l bo'lsin?

So'zga ketgan mayin shirin til bo'lsin,
Podsholarning yetagida fil bo'lsin,
Ne sababman kelding o'rdaxonama,
Vallamatim otam, sizga yo'l bo'lsin?

Yori o'lsa ne sanamlar tul bo'lsin,
Dushmaningda qayg'u, vahm mo'l bo'lsin,
Qaddingdan, yo'l bo'lsin, yurtning egasi,
Makkamsan, Madinam – otam, yo'l bo'lsin?

Kumush bo'lar tarlon qushning chegasi,
G'o'la bo'lar bedov otning to'qasi,
Makkamsan, Madinam – qiblagohimsan,
Qaddingdan, yo'l bo'lsin, yurtning egasi?

Arila bilmadi tog'larning qori,
Tirama pishadi bog'ning anori,
Makkamsan, Madinam – qiblagohimsan,
Qaddingdan, yo'l bo'lsin, elning sardori?

Ko'p gap keldi, ota, bugun o'yima,
So'z aytaman sizday vallamatima,
Qaddingdan, yo'l bo'lsin, yurtning egasi,
Bir sababli mehmon kepsan uyima.

Podsholar boshiga qo'yar tojini,
Eldan olar zakotiman bojini,
Ne sababman kelding o'rdaxonama,
Ota, aytgin kelganingning vajini.

O'zing mardsan, G'irotingni yelgansan,
G'anim bo'lsa, nimta-nimta bo'lgansan,
Qaddingdan, yo'l bo'lsin, yurtning egasi,
Vallamatim, ne ish bilan kelgansan?

Ot chopilar baland tog'ning pastiga,
Quloq soling gapimning payvastiga,
Qaddingdan, yo'l bo'lsin, yurtning egasi?
Qo'ygan qadamlaring diydam ustiga...

Unda Go'ro'g'libek dimog'i chog' bo'lib, gul-gul ochilib, vaqti xush bo'lib, yuragi toshib, bol Avazga qarab murtini burab: – Buni sen yaxshi aytding, o'zbekka «yo'l bo'lsin» degan so'z gapning o'rol bo'ladi; ilgarilarda bir odam menga «yo'l bo'lsin demading», deb araz urib ketgan, – deb bir so'z aytayotir.

Chorhokim emasman, Chambilgadir xon,
Azamatga berdim kark teri qalqon,
Bir sababli mehmon keldim o'rdangga,
Yo'l bo'lsa, o'zingdan bo'lsin, Avazxon.

Men o'lsam seniki Chambil elatim,
Harna borim, bari arkon davlatim,
Bir sababli mehmon keldim uyingga,
Yo'l bo'lsa, o'zingdan bo'lsin, farzandim.

Qaladan qalampir yuklar qalachi,
Har xil isli bo'lar tog'ning og'ochi.
Yo'l bo'lsa, o'zingdan bo'lsin, farzandim,
Vallamat kelibdi o'zingga sovchi.

Taroqman taralar qizlarning sochi,
Shohlar olar eldan zakot ham boji,
Yo'l bo'lsa, o'zingdan bo'lsin, Avazxon,
Vallamat kelibdi o'zingga sovchi.

Otang keldi sening so'zing olmoqqa,
Ko'nglidagi sirni bayon qilmoqqa,
Shul sababli mehmon keldim uyingga;
Hasanman o'zingni quda qilmoqqa.

Yeti yoshda olib keldim o'zingni,
Qo'limdan ko'p yeding osh-u tuzimni,
Otang keldi, bolam, o'zingga sovchi,
Ravshanga ber Gulanorday qizingni!

Otangning, farzandim, tilin olinglar,
Hasanman ikkoving quda bo'linglar,
Ravshanga ber Gulanorday qizingni,
Yovmitning eliga to'ylar beringlar!

Unda Avazxonning achchig'i keldi. Polvonning qahri kelib, ajdarday to'lg'onib, ko'zlari olovday yonib, Go'ro'g'libek otasiga qarab aytdi: – Ho'... ota! Ilgarigi odamlar aytar edi: «Odam qarisa, ayniydi», der edi, rost ekan. Ota, sen aynibsan, miyangni yeb qo'yibsan, bo'lmasa, menga sovchi bo'lib kelmas eding, menga bu so'zlarni demas eding. Kelgan bo'lsang, indamaygina keta ber, yo'lingdan qolma! Xotiring jam bo'lsin, men Gulanorjonni aslo Ravshanga bermasman, balki o'zimga teng ham ko'rmasman, shu so'zlarni, ota, ayniganingdan ayta-san, – deb otasining so'zini qaytarib, javob berib, bir so'z aytayotir:

Qaytayin, boshima bo'ldi qiyomat,
Kecha-kunduz ishim oh-u nadomat,
Hayron qoldim, ota, aytgan so'zingga,
Kelgan bo'lsang, keta bergin, vallamat!

Ilohi davlating bo'lsin salomat,
O'zing tirik, hech ko'rmagin alomat,
Bu so'zlaring, ota, bari afsona,
Kelgan bo'lsang, xush kelibsan, vallamat!

Qodir mavlon sening aqling olama,
Senday botir shunday aynib qolama,
Har kimni tengiga qo'sh-da, vallamat,
Qarchig'ay quzg'unman oshna bo'lama?

Mening qizim bog'dochilgan lolam-a,
Qariganda sening aqling olama,
Har kimni tengiga qo'sh-da, vallamat,
Qarchig'ay quzg'unman oshna bo'lama?

Bu ishingga, ota, o'g'ling hayrondi,
Sening so'zlaringga jonim o'rtandi,
Har kimni tengiga qo'sh-da, vallamat,
Ravshanga bermayman Gulonorjondi!

Yigitlar ichida menman o'dag'a,
Bedovga yarashar oltindan to'g'a.
Ravshanga bermayman Gulonorjoni,
Qizim tugul, kuchugimdan sadag'a.

Ota, javobingni berdim, jo'nagin,
Bundan keyin sovchi bo'lib kemagin,
Har kimni tengiga qo'sh-da, vallamat,
Menga bunday tuzsiz so'zni demagin!


Vallamatim otam, sovchi bo'lmagin,
Buningday yoqimsiz so'zni demagin.
Unday bo'lsa, xush kelibsan, vallamat,
Keta ber, ota, sen qaytib kelmagin!

Eshitib ol, ota, aytgan so'zimni,
O'zim o'lmay g'anim bosmas izimni,
Bermayman Ravshanga Gulonor qizimni,
Men Hasanga teng qilmayman o'zimni!

Jon ota, qilmagin ko'nglimni qora,
Sovchiman deb, ota, bo'lma ovora,
Ravshanga bermasman Gulonorjoni,
Gavharga loyiqmi bir sangi qora?!

Ravshanbek darchaning orqasida turib edi. Bu so'zlarni eshitib, bir umrida sovuq shamol yemagan bola emasmi, sovuq so'z tugul, bolaning o'mganidan bir jazoyil teshib o'tgandan yomon bo'ldi. Ravshanxon tovushining boricha vo, deb baqirib yig'lab qayta berdi.

Ravshanxon yig'lab qaytib ketdi. Bu gap turib-turib, Go'ro'g'libekka o'tdi; so'ng-so'ng juda



achchig'i kelib ketdi. Go'ro'g'libek, terisi qalin – og'ir odam emasmi, xo'p o'tirib gapning u yoq-bu yog'ini o'ylab oldi. Bir-ikki ag'darilib, Avazxonning betiga qarab-qarab oldi. Turib-turib, Go'ro'g'libek tutab ketdi. Avazxonga qarab: – Tura bor haromi, sen qayerda lochin bo'lding, Hasanxon qanday qilib quzg'un bo'lib qoldi? Sen Hasandan ortiq emassan-ku! Hali Hasanxon sendan kam bo'ldimi? – deb Go'ro'g'libekning shomurti shopday, har urti bir katta qopday bo'lib, qovog'ini uyib, o'g'lidan ko'ngli qolib, Avazxonning ko'nglini qoldirib: – Gap shunday bo'larmi? Bizning sovchi bo'lganimiz ayb bo'libdimi? Biz aynib qolibmizmi? Sening aqling teran bo'libdimi? Hali sen shunday dono, yugurik, lochin, qarchig'ay bo'ldingmi? – deb Go'ro'g'libekning juda achchig'i kelib, Avazxon o'g'luga qarab bir so'z dedi:

Ne bo'ldi qilmading gapimni bovar,
Senga qilay ichki so'zlarni izhor,
Tur bor, zotingni aytay, harami,
Sen qayerda lochin eding zanig'ar?!

Maydon-maydon G'irotimni yelganman,
G'anim bo'lsa, nimta-nimta bo'lganman.
Sen qayerda lochin eding, harami?
Ikkovingni o'zim olib kelganman.

Bir boqchada ochilmagan gulsan-da,
Bir qafasda sayragan bulbulsan-da.
Sen qayerda lochin eding, harami,
Ikkoving ham g'uldiragan qulsan-da.

Chambilga kelganda, bolam, eding yosh,
Chambil kelib ikking bo'lding emikdosh,
Sen qayerda lochin bo'lding, harami?
Ikkoving ham g'uldiragan qizilbosh.

Qirg'iy degan qushlar bo'lar qiyada,
O'limcha yomon ish bormi dunyoda.
Sen qayerda lochin bo'lding, harami,
Balki Hasan, bilsang, sendan ziyoda.

Bu gaplaring, Avaz, menga g'am emas,
Ba'zi odam o'z holini chenamas.
Balki Hasan, bilsang, sendan ziyoda,
Hasanxon, harami, sendan kam emas.

Oyimlar tong vaqti zulfin o'radi,
Mard o'g'lon ishini haqdan ko'radi,
Inonmasang, Registonni borib ko'r,
Senday qulni bir baytalga beradi.

Men gapiray, sen harami, tura bor,
Chambil kelib sen ham bo'lding zo'rabor,
Hasandan sen qanday bo'lding ziyoda?
Bahong sening bir baytalga barobar.

Ana endi Avazxon bilan Go'ro'g'libek katta mehmonxonaning ichida eshak sotgan har jallobday bo'lib, g'ir-g'ir etib olishayotir, birov-biroviga mushtini salmoqlab jimiyib-jimiyib o'qtalishayotir.

– Sen bilmaysan..., sen bilmaysan, – deb ota-bola bir-birining gapini bekor chiqarishib, – ha, seni ko'raman-da, – deyishib tura bersin, endi gapni Ravshanbekdan eshiting.

Bola shu yig'laganicha ko'chaning yuzi bilan yig'lab borayotir edi. Ravshanbekning yig'lagan to'vushi Og'a Yunus parining qulog'iga yetdi. Pari aytdi: «Qanday bola edi ko'chada yig'lagan?! Shunda qarasa, o'zining ko'rar ko'zi, so'zlar so'zi, o'z joniga teng ko'rib yurgan Ravshanbek bolasi yig'lab kelayotir. Yugurib borib, qo'ltig'iga qisib, ko'zining yoshini betidan artib: – Bek Ravshan bolam, nega yig'laysan? – deb so'rab turdi. Shunda Ravshan-

bek dim o'pkasini bosa olmaydi. «Ha bachchag'ar Avaz», – deb bola aslo turolmaydi.

Og'a Yunus pari: – E bolam, Avazxonni nega urishasan? Menga aytgin, anglab bilib olayin, – desa, bola har o'ksiydi, gapirolmaydi.

– E ena! Avazning qiziga bobom – Go'ro'g'libek sovchi bo'lib borgan ekan. Avaz: «Qizimni bermayman, mening tengim emas», deb bizni quzg'un, o'zini lochin tutdi. Bachchag'ar Avazxon bizdan ortiq bo'lib ketibdi. Shu Avazdan kam bo'lsam, cho'llarga boshimni olib ketaman. Qo'ya ber ena, qo'ya ber, endi Chambilda turmayman, shu Chambilni Avazga berdim, – deb bola dim o'pkasini bosolmaydi.

Shunda Og'a Yunus pari kulib, Ravshanbekning so'zlariga hayron qolib: – E bolam Ravshanxon, muddaong Avazning qizi – Gulanor bo'lsa, aslo g'am yema! «Qizi borning nozi bor» degan, shunday-shunday deydi-da. Unga sen xafa bo'lma. Mana men, men borayin otangning orqasidan; uning qizida nimasi bor ekan?! Tortib olib bersam ham Gulanorni senga olib beraman. E, go'dak, mard o'g'il ham yig'laydimi?! Qani men borayin, bermayman degan Avazni ko'rayin, shu Avazmi, qizini bermaydigan?! – deb Og'a Yunus pari bormoqchi bo'la berdi. Shunday qarasa, Ravshanbek juda otashin. Shunda pari ko'nglida: «Bu bola achchig'i bilan bir yoqqa ketib qolmasin», deb qo'lidagi xosiyatli hukumat niginni, «Ravshanbek ovunib o'tirsin», deb qo'lidan olib, Ravshanbekka berdi.

– E Ravshanjon, sen shu uzukka qarab o'tir; men borib, Avazning qizi – Gulanorjonni senga fotiha qilib, to'y taraddudini qilib darrov kelaman, – deb pari ham turib ketdi.

Endi Ravshanbek ko'zining yoshini artib, shunday nisinga qarasa, niginning yuzida xati bor. Ravshanbek qarab o'qidi, sharros savodi bor, yer yuzida jami parini bandiga olgan bandi bor, olam mamlatga bermaydigan xosiyati bor; ba'zi-ba'zi juda nozik uzukda suluvning ham oti bor, ham surati bor; Shunday Ravshanxon qarasa, shu uzukning bir chetida Qoraxon podshoning qizi – Zulxumor degan bir qizning oti bor, ham surati bor.

Ana endi bola buni ko'rib, yig'laganini qo'yib, g'oyibona Zulxumorga ko'ngil qo'yib, ishqivoz bo'lib, o'ziga-o'zi aytdi: «Kel-e, Avazning qizi bo'lmasa, Qoraxonning qizi-da! Avaxxon qizini bermadi, deb mening yig'lab yurganim qanday», deb bolaning g'ayrati kelib, belini ikki yeridan boylab, uzukni qo'lig'a solib, tura uyiga kelib, otasining Jiyronqush degan bir oti bor edi, g'azoga minadigan, shu Jiyronqushning oldiga keldi.

Jiyronqush ham shunday ot, to'rt oyog'i teng tushgan, biqini yoziq keng tushgan, pirlarning duosi tekkan, qarchig'ayning havosi tekkan.

Shu otni yetaklab olib chiqib, yakka mixga boylab, ana endi Ravshanbek, otni egar-qashov qilib, abzallab turibdi:

Quloq soling turli-turli namaga,
Qattiq kunlar tug'di endi bolaga,
Tomosha qing Ravshanxonday polvonni,
G'ayrat bilan bordi tablaxonaga.

Savdo tushdi bek Ravshanning boshiga,
Yoqasi ho'l ko'zdan oqqan yoshiga,
Endi ko'ring bek Ravshanday polvonni,
G'ayrat bilan bordi otning qoshiga.

Endi qarang Ravshan nodon bolaga,
Qolmasin-da yosh bola bir baloga,
Tomosha qing bek Ravshanday polvonni,
Yetaklab Jiyronni chiqdi dalaga.

O'tar dunyo o'tarini o'yladi,
Yosh bachchade, turli-turli so'yladi.
Olib chiqib Jiyronqushni dalaga,
Olib kelib, yakka mixga boyladi.

Endi bachcha ikki ko'zni yoshladi,
Tulparni yosh bachcha yalang'ochladi.
Ayil-pushtanini chechib bedovning,
Qulog'idan oldi zarli yolpushdi.

Bog'bon terar bog'ning toza gulini,
Mardlar ochar og'ir kunda yo'lini.
Ayil-pushtanini chechib bedovning,
Shipirib ustidan oldi zulini.

Ishonim yo'q mo'minlarning joniga,
Shahid o'lgan bo'yaladi qoniga,
Guldan jo'rob, tilla qashov qo'lida,
Torta berdi Jiyronning badaniga.

Olis yurtdan oshgan tortar xo'rlikni,
Bedov mingan yigit qilar erlikni,
Ot beliga qo'ya berdi bek Ravshan,
Toza ipak, mayin, qalin terlikni.

Uzoq yurtdan beklar ko'rar durbini,
Ustalar ishlatar tasha, qirg'ini.
Ot ustiga qo'ya berdi bek Ravshan,
O'yimalab tashlagan baxmal chirgini.

Bek Ravshanning shu ishlari ko'llikdi,
Bir tarafi erka o'sgan – o'rlikdi,
Endi ko'ring Ravshanxonday polvonni,
Chirgining ustidan qo'ydi bellikdi.

Chambilda bek Ravshan ko'ngli tirikdi,
Endi ko'ring bol Avazdan jirikdi.
Tomosha qing bek Ravshanday to'raga,
Suyab qo'ydi qunduz jahazdirikdi.

Mullalar o'qiydi zer-u zabarni,
Ustalar ishlatar tesha, tabarni,
Boz ustidan qo'ya berdi bek Ravshan,
Tilla qoshli, karsani kumush egarni.

Eranlarning qabrin tunab bosh urdi,
Ikki narkas xumor ko'zga yosh urdi,
Ikki uzangi, ikkovi ham tilladan,
Yarqiratib ikki yoqqa tushirdi...

Jiyronqushning yol, quyrug'i mayindi,
Mardning qilganiga hamma qoyildi,
Obro' talab Ravshandayin yosh bola,
Mahkam tortdi mayin ipak ayildi.

Bir necha sanamning tishlari durdi,
Izlab borar bo'ldi Zulxumor hurdi,
Ot beliga yozib, kerib tashladi,
Qimmatbaho zar chochoqli davirdi.

Bulbul oshna bo'lar Iram bog'iga,
Kuysin o'lim, kim chidaydi dog'iga.
Bek Ravshanning otga solgan daviri,
Tushadi Jiyronning baqalog'iga.

Hayvonni tuzadi oyoqdan boshdan,
Pir duosi ketgan g'o'nandan yoshdan,
Ot dumiga sola berdi bek Ravshan,
O'n ikki uzmalı karki quyushqon.

Har qubbasi katta edi tarkashdan,
Jonivor kami yo'q yo'rg'a yurishdan,
Chu desa, qutular qanotli qushdan,
Ot beliga torta berdi bek Ravshan,
Pay to'shab tashlagan chig'atoy pushtan.

Tomosha qing bek Ravshanning ishiga,
Yoqasi ho'l ko'zdan oqqan yoshiga.
Tilla o'muldirik taqib to'shiga,
Qo'tos taqib bo'yni uzun Jiyronga,
Qirq qubbali yugan urdi boshiga.

Bekning oti po'lat suvluq chaynadi,
Qizil kiyib, gulday bo'lib jaynadi.
Ilon tilli, yashin turli xanjarni,
Obro' ber, deb xipcha belga boyladi,
Tomosha qing xon Ravshanday polvonni,
Shirvonning yurtiga talab ayladi.

Ravshan mindi Jiyronqushning beliga,
Haybat qilib bachcha sog'-u so'liga;
Otasin Takali Yovmit yurtidan,
Talab qildi, ko'ring, Shirvon eliga.

Tomosha qing Chambilning shunqorini,
Mindi bachcha Jiyronqushday otini,
Yig'latib otasi – Hasan mardini,
Qon yig'latib xon Dalliday suluvni,
Ravshan izlar bo'ldi Shirvon yurtini.

Tomosha qing Hasanning farzandini,
Xon Dallining nodon jigarbandini.
Bir so'z bilan bachcha mindi otiga,
Hovlidan chiqardi chu deb otini,
Motamxona qilib Chambil yurtini.

Ana endi Ravshanbek otini hovlidan chiqarib,
ustiga minib, hovli-joy makonlari bilan xo'shlashib,
ota-enasidan g'oyibona rozi bo'lib, ko'chaning yuzi
bilan, odamlarning izi bilan yo'lga ravona bo'lib,
aqlidan begona bo'lib, gulday jaynab, suqsurday
bo'ylab, parvoz aylab, taraqqos boylab, ostida Jiy-
ronqush oti har usulda o'ynab; jonivor Jiyronqush

og'zini ochib, qo'ltig'idan parini sochib, bolani olib qochib, bek Ravshanning ko'nglini ochib, qushday uchib, mast ot, yosh bachcha, ko'ndalangko'ndalanglab olib borayotir edi. Ana shunda Ravshanbek yo'lbarsday bo'lib, darvozaning oldiga bordi. Endi gapni darvozabondan eshiting.

Hasanxon darvozabon bilan do'st edi, doim darvozabonning oldida o'tirar edi, ikkovi ko'p soz edi, birov-birovining so'zini tashlamas edi. Hasanxon darvozabon jo'rasi bilan gaplashib o'tirgan vaqtida, Ravshanxon otasining ustiga borib qoldi. Hasanxon ham qarasa, bir yosh bachcha gulday ochilgan, qizil gulday jaynagan, ostida oti o'ynagan, beliga qilich boylagan, egniga po'pakli nayza taylagan, o'zini juda shaylagan, bilmaydi qayerga talab aylagan. Hasan o'g'lini tanimadi. Nima uchun? Ravshanxon takpo'shi to'ni bilan po'ta boshida maktabda o'qir edi. Aslo o'g'lini bu shani-shavkatda ko'rgani yo'q edi. Hasanxon darvozabonga aytdi: – E jo'ra, mana bu bola qanday bir manglayli xudo suygan odamning bolasi ekan?

Shunda darvozabon ham aytdi: – Xo'p yigit ekan. Balli otangga, sinu sumbatingga! Shuni tuqqan enaning ham armoni bormikin, – deyishib turib edi, Ravshanbek otasini ko'rib, qamashib qanday o'tib ketarini bilmay turib qoldi. Hurmat qilib turganidan, Ravshanbekni darvozabon bilib, Hasanxon jo'rasiga: – Ho' jo'ra, ikkovimiz ham o'g'lingni tanimabmiz. Qarchig'ay kelbatli bek Ravshan o'g'ling ekan, – deb Hasanxonga bir so'z aytayapti:

Chambil deydi unib-o'sgan elingni,
Bulbuldayin go'yo qilsin tilingni,
Qarchig'ay kelbatli sening farzanding,
Ikkovimiz ham tanimabmiz ulingni.

So'rasang Takali Yovmit elating,
Har kimcha bor, do'stim, izzat, hurmating,
Jon do'stim, dunyoda bormi armoning,
Qarchig'ay kelbatli sening farzanding.

Oqizma ko'zingdan qonli jalangni,
Umri uzun bo'lsin ko'zi qorangni,
Qarchig'ay kelbatli sening farzanding,
Ikkovimiz ham tanimabmiz bolangni.

Yosh bachchade, suqsurdayin bo'ylabdi,
Mard bo'lib beliga olmas boylabdi,
Bir gap aytib qaytarmagin ra'yini,
Bilmayman qayerga talab aylabdi.

Chambil deydi unib-o'sgan elini,
Men bilmayman endi borar yurtini,
Rad berma talabga kirgan kishiga.
Bir gap aytib qaytarmagin yo'lini!

Javob ber, jon do'stim, xafa qilmagin,
Bir qattiq so'z ilkis aytib solmagin,
Jon do'stim, qaytarmagin ra'yini,
Javob ber, do'stimjon, oldin olmagin.

Mard yigit dushmanga sirin aytarma,
Yosh bolaning yuragini moytarma,
Rad berma talabga kirgan kishiga,
Bir gap aytib, do'stim, ra'yin qaytarma!..

Unda Hasanxon polvon yolg'iz bolasi, ko'zining
oqi bilan qorasi, balki Taka bilan Yovmitning sa-
rasi – Ravshanxonni tanib, joyidan turib, farzandi-
ning oldiga kelib, Jiyrongqushning jilovidan ushlab,
ko'zini yoshlab, bandi-bo'g'inini bo'shlab, hay at-
tang, deb barmog'ini tishlab, yolg'iz farzandiga qa-
rab bir so'z dedi:

Sensiz sabil bo'lar Chambil elatim,
Belimda quvvatim, boshda davlatim,
G'ayrat bilan minib otning beliga,
Ne tilakman tilab olgan farzandim.

Ulug' daryolardan chiqqan qunduzim,
Falak peshtoqidan uchgan yulduzim,
G'ayrat bilan minib otning beliga,
Ne tilakman tilab olgan yolg'izim.

Minibsan Jiyronqush oting tullatib,
Kuyganlarning gapin gapga ulatib,
Yo'l bo'lsin ko'zimning oqi-qorasi,
Chambilbelda bir otangni jilatib.

Bo'z qarchig'ay eding, parvoz aylading,
Suxanvar to'tisan, har xil so'ylading.
G'ayrat bilan minib otning beliga,
Yolg'izim, qayerga talab aylading?..

Qarab bo'lmas chin botirning bastiga,
Quloq solgin gapimning payvastiga.
Yolg'izim, yorqinim, senga ne bo'ldi,
G'ayratman minibsan otning ustiga.

Sen bo'lmasang, men dunyoni netarman,
Tirik yo'qman, o'lganlardan batarman,
Yolg'izim, qayerga talab aylading,
Qayda borsang, men ham birga ketarman!

Uzoqdan chopilar otning sarasi,
Otlarni koyitar tog'ning o'rasi,
G'ayrat bilan minib otning beliga,
Yolg'izim, ko'zimning oqi-qorasi.

Quloq solgin mard otangning dodiga,
Musofirdi otang Chambil yurtiga,
Sen bo'lmasang, menda toqat qaydadir,
Tog' chidamas otangning faryodiga!

Hali, bolam, yolg'iz eding, yosh eding,
Yosh ham bo'lsang, vatanimga bosh eding,
Ne sababman minding otning beliga,
Ko'ngil to'qim, bolam, qalamqosh eding.

Chambilbelda ko'ngil to'qim sen eding,
Bisotimda bor-u yo'g'im sen eding,
Farzandim, qayerga talab aylading,
Ko'rmasam, senga intig'im sen eding.

Seni ko'rib, menda toqat qolmadi,
Tanimda, jonda farog'at qolmadi,
Ravshanjon, rostin ayt, senga ne bo'ldi,
Seni ko'rib mening tarzim buzildi,
Ne sababman chiqding, bolam, so'ylagin,
So'ylagin, ko'nglingga, bolam, ne keldi?

Unda Hasanxon polvon o'g'lining gapirolmay
turganini bilib, yo'l bo'lsin, deb so'rab turibdi:

Umrimga bahorim, senga yo'l bo'lsin,
Tolpingan shunqorim, senga yo'l bo'lsin,
Bir qo'zi-qo'chqorim, senga yo'l bo'lsin,
Novda o'sgan chinorim, senga yo'l bo'lsin,
Sog'insam xumorim, senga yo'l bo'lsin?

Bog'imda anorim, senga yo'l bo'lsin,
Qatordagi norim, senga yo'l bo'lsin,
Isfahon xanjarim, senga yo'l bo'lsin,
Elga e'tiborim, senga yo'l bo'lsin.
Sersovda bozorim, senga yo'l bo'lsin?

To'rasan Ravshanjon, Chambil elingga,
Keskir isfahonni boylab belingga,
Qo'sh po'pakli nayza ushlab qo'lingga,
Otang qurbon bo'lsin shirin tilingga,
Yovda ajdahorim, senga yo'l bo'lsin?

Yosh bachchasan, gap bilmagan bo‘z bola,
Bir ham bo‘lsang, menga eding yuz bola,
Yurishing boadab, shirin so‘z bola,
Sog‘inganda ham quralay ko‘z bola,
Gaplari shakarim, senga yo‘l bo‘lsin?

Sen bo‘lmasang, otang holi ne kechar,
Sensiz menga falak kafan to‘n bichar,
Dunyoning bolini zahar deb ichar,
Qanday kuni kechar sho‘r enang nochor,
Harna yo‘q-u borim, senga yo‘l bo‘lsin?

Sen bo‘lmasang ota-enangga qiyomat,
Yig‘lov bilan o‘tar umri davomat,
Doim bo‘lgaysan-da sog‘-u salomat,
Otangga solmagin qayg‘u, nadomat,
E sabr-u qarorim, senga yo‘l bo‘lsin?

Seni ko‘rib otang bo‘ldi bemajol,
Bu qanday fikrdir, bu qanday xayol,
Ilohi bo‘lgaysan, bolam, barkamol,
Umrinning mevasi – bir toza nihol,
Bitgan olmazorim, senga yo‘l bo‘lsin?

Jonim bolam, Chambil elga to‘rasan,
To‘ralik zavqinda davron surasan,
Harna qismat bo‘lsa, endi ko‘rasan,
Ota-enangni kimga tashlab borasan,
Mushfiq vafodorim, senga yo‘l bo‘lsin?

Sensiz nima kechar otangning holi,
Karavka bo‘lmasmi gulday jamoli,
Endi nima bo‘lar holi, ahvoli,
Zahar-zaqqum bo‘lar og‘zinda boli,
Qoshlari xanjarim, senga yo‘l bo‘lsin?

Hali yoshing kichik – nodon bolasan,
Mavj urib daryoday toshib to‘lasan,
Yo‘l bilmay qayoqqa talab qilasan,

Chiqib ketsang, bolam, qachon kelasan,
Bebaho gavharim, senga yo'l bo'lsin?

Menga aytgin ko'nglingdagi o'yingni,
Aytgin, bolam, boradigan joyingni,
Men bilayin talab qilgan elingni,
Ayt siringni, qaytarmayin ra'yingni,
E yolg'iz shunqorim, senga yo'l bo'lsin?

Ravshanxonni otasining savlati bosib, hayosi
g'olib kelib, nima derini bilmay turib edi, axiri
bo'lmadi. Otasiga gapirmay o'tsa, u ham bo'lmaydi;
gapiray desa, uyaladi.

Ana Ravshanxon otasining so'zlariga javob be-
rib, ko'ngli buzilib, yurak-bag'ri ezilib, ko'zining
yoshi tizilib, boshidan o'tgan sir-savdosini otasiga
aytib, otasini ham o'zidan o'tganidan xabardor qilib,
Hasan mardga qarab bir so'z aytayotir:

Jonim ota, aytolmayman uyalib,
Bolang ketdi endi boshini olib,
Jon ota, alamim ko'pdir, so'rmasin,
Bek Ravshan jo'nadi, safarga tolib.

Qaladan qalampir yuklar qalachi,
Madad qilgan bobo Zangi podachi,
Otajon, alamim ko'pdir, so'rama,
Vallamat boribdi Avazga sovchi.

Qabul qilmay vallamatning so'zini
Nomard Avaz bermas bo'пти qizini,
O'tib ketdi shu bachchag'ar so'zlari,
Bizni quzg'un, lochin qipti o'zini.

Bachchag'arning so'zi o'tib boradi,
Simday bo'p suyakka botib boradi,
Bermas bo'пти nomard Avaz qizini,
Bek Ravshan yor izlab ketib boradi.

Maydon-maydon Jiyronimni yelmasam,
Dushman bo'lsa, bo'lak-bo'lak qilmasam,
Avazning qizidan yaxshini olmasam,
Jonim otam, Chambilbelda turmasman.

Shu nomardning shu so'zi ham tamomdir,
Mard yigitga maydon degan ne g'amdir,
Avazning qizidan yaxshini olmasam,
Vallamatim, menga Chambil haromdir.

Chambil deydi unib-o'sgan joyimni,
Avaz bermas bo'пти Gulnoroyimni,
Bir yor izlab Ravshan ketdi Chambildan,
Jonim ota, qaytarmagin ra'yimni.

Eshitib ol bek Ravshanning so'zini,
Yoshi bilan yuvib gulday yuzini,
Izlar bo'ldim Qoraxonning qizini,
Ot ko'targan Zulxumorning o'zini.

Mard bo'lib belimga xanjar boyladim,
Yosh bolaman, har xil-har xil so'yladim,
Omin de, otajon, ko'tar qo'lingni,
Shirvonning yurtiga talab ayladim!

Chambil deydi unib-o'sgan elingni,
Javob ber, otajon, ko'tar qo'lingni!
Talab qildim Shirvon elga, otajon,
Javob bersang, bermasang ham ketarman!

Kuygan qulman, gapni gapga ulayman,
Dev-parini bandga olgan Sulaymon.
Jonim ota, qaytarmagin ra'yimni,
Ota, sendan oq fotiha tilayman.

Ota, g'ayrat bilan mindim otimni,
Yig'latdim ortimda vallamatimni,
Avazning qizidan suluv topmasam,
Izlamayin, ota, viloyatimni.

Oh ursa to'kilar ko'zlarning yoshi,
Qiyomatday bo'lar mardning savoshi,
Talab qilib qaytarmikin mard kishi,
Talabdan qaytmoqlik nomardning ishi.

Otajon, rahm ayla ko'zda yoshima,
Falak titrar mening bu nolishima,
Avazning qizidan suluv olmasam,
Xotinning lachagi bo'lsin boshima.

Omin deng, otajon, yorga boraman,
Yor deymen-ku, nomus-orga boraman,
Ota, sizdan oq fotiha tilayman,
Shirvon elda Zulxumorga boraman.

Hasanxon bu so'zlarni eshitib, lol-hayron bo'ldi. Hasanxon: «Mening o'g'lim hali bola, er yetgan yo'q», deb yurar edi. Hasanxon polvon bu gaplarni eshitib, Avazxon ukasidan ko'ngli qolib, hay attang, deb barmog'ini tishlab, ko'zini yoshlab, o'g'liga ne derini bilmay, hayron bo'lib qoldi. Shirvonning eli uch oylik yo'l, ikki orasi suvsiz cho'l, u yog'i dushman el. «Yolg'iz bola yovdan yomon», uzoqroq bozorga yuborgisi kelmaydi.

Qanday qilarini bilmay turganda, darvozabon do'sti ham bir yog'idan zo'r berayotibdi: – Ho'jo'ra, jon do'stim, fotiha ber! Ra'yini qaytarma, bir safar mening ham aytganimni qil, jon jo'ra, jonim jo'ra! – deyayotir.

Hasanxon bechora o'g'lining jamoliga, novda o'sgan kamoliga ko'zi to'ymay, Jiyronqushning jilovini qo'ymay, qaddi yoyday bukilib, ikki ko'zidan yosh to'kilib, ichi g'amga to'lib, rangi gulday so'lib, yolg'iz bir bolasidan ayrilib qololmay, oh tortib: – E Ravshanjon! Axir mening uyimni motamxona qilib, meni tashlab ketar ekansan-da, – deb turib, asli

mard emasmi, «Kel, tavakkal-da», deb Hasan mard,
o'ziga-o'zi dildorlik berib, Ravshanxon bolasiga ja-
vob bermoqchi bo'lib, o'g'liga qarab, bir necha yer-
dan timsol keltirib, nasihat qilib, bir so'z aytayotir:

Falakning dastidan ming dod aylayin,
To'xta, bolam, bir nasihat aylayin,
Quloq solgin, nodon qo'zim, so'zima,
Nuchuk endi aysh-u ishrat aylayin.

Bir pasilga otning boshin to'xtatgin,
Quloq solgin bir nasihat aylayin.
Dushmanlarning dodin berib qaqshatgin,
Bolam, senga bir nasihat aylayin.

Paydo bo'lding ikki gavhar donadan,
Parvoz qilib uchding manzilxonadan.
Avval aytgan nasihatim, Ravshanjon,
Kechsang yomon bo'lar ota-enadan.

Eshitib ol otang sho'rming arzini,
Elida sarg'aytding gulday tarzini.
Bir qiz uchun unutmagin bizlarni,
Unutma otang ham enang qarzini!

O'zingdan pastlarman har yo'la ketma!
Bolam, aytgan nasihatim unutma!
Oldingdan kim chiqsa, besalom o'tma!
Bir g'aribni ko'rsang, zinhor, og'ritma!

Quloq solgin, bir-bir aytay, Ravshanjon,
Zinhor, manmanlikning yo'lini tutma!
Asli zotim baland dema, chirog'im,
Zinhor-zinhor, bolam, o'zingdan ketma!

Ko'ngli buzuq bo'lsa, bolam, shod ayla!
Yiqilganni, bolam, sen bosib o'tma!
Qo'lingdan kelgancha yomonga ketma!

Zinhor-zinhor bir miskinni yig'latma!
Yomon bilan sirdosh bo'lma, Ravshanjon,
Orqasiga pushaymon bo'p qon yutma!

Qo'lingdan kelgancha chiqar yaxshi ot,
Yaxshilik qil, bolam, yomonlikni ot,
Nasihatim yod qilib ol, yolg'izim,
Yolg'iz yursa, chang chiqarmas yaxshi ot!

Jon o'g'lim, aytganim asli unutmam,
Yomonlikni qilib, so'ngman qon yutma,
Kamlkning kamoli bordir, Ravshanjon,
Yolg'izim, so'zimni ol, manmanlik etma!

O'rgilay, gapimni bilmagin hazil,
Har yerda o'zingdan balandga osil.
Manmanlik yo'lini tutma, chirog'im,
Ulug' so'ylab, Shayton bo'ldi Azozil...

Ostingda o'ynaydi tulpardir oting,
Jiyronqush ostingda, Ravshandir oting,
Bolam, nasihatim bajo keltirsang,
Qayda borsang, dardga qolsang, men zomin!

Yaxshi bo'lsang, bolam, davron surarsan,
Ne izzat ham hurmatlarni ko'rarsan,
Nasihatim unutmagin, Ravshanjon,
Eson-omon Xumorni olib kelarsan.

Bor yolg'izim, Shirvon elga borib kel,
Yo'li uzoq, koyib, charchab, horib kel,
Sog'-salomat borib kelgin, yorqinim,
Izlaganing Xumor bo'lsa, olib kel!

Qavmim yo'q, Ravshanjon, qarindoshim yo'q,
Sir aytayin desam, emchakdoshim yo'q,
Sen bo'lmasang, mening ko'ngil xushim yo'q,
Sendan boshqa birorta koyishim yo'q.

Qaytayin, boshima bo'ldi qiyomat,
Kecha-kunduz ishim oh-u nadomat,
Sen kelgancha mening holim ne bo'lar,
Shirvon elga borib qaytgin salomat.

Toza gulday so'lar bo'ldim men endi,
Daryoday bo'p to'lar bo'ldim men endi.
Bir bolam – ko'zimning oqi-qorasi,
Men ayrilib qolar bo'ldim men endi.

Endi qonlar yutar bo'ldim men endi,
Tinmay motam tutar bo'ldim men endi,
Men tiriklay bir bolamdan ayrilib,
O'lganlardan batar bo'ldim men endi.

Qattiq savdo tushdi mening boshima,
Yoqam ho'ldir ko'zdan oqqan yoshima,
Xabar yo'qdir bundan qarindoshima,
Endi kelmas bo'ldim aslo hushima.

Maydon-maydon otin yelsin farzandim,
Dushmanin nimalab bo'lsin farzandim,
Omon-eson bo'lsin yolg'iz farzandim,
Sog' borib, salomat kelsin farzandim.

Hasanxon polvon, mard emasmi, bolasiga oq fo-
tiha berib yubora berdi: – Bor bolam, manglayingni
xudo ochsin! – deb qola berdi. Ravshanbek otasidan
duo olib, otini yo'lga solib, tavakkalni mahkam qi-
lib, yo'lga ravona, aqlidan begona bo'lib keta berdi.
Shunda Hasanxon bechora, o'g'lini ko'zi qiymay,
orqasidan chaqirib bir so'z aytayotir:

Chambilbelda otang qoldi sargardon,
Judolik o'tidan bag'ri to'la qon,
Xabardor bo'l, Shirvonning ko'p mastoni,
Mastonlardan xabardor bo'l, Ravshanjon!

Men yig'layman kecha-kunduz zor-zor,
Sen bo'lmasang, otang bo'lar xor-zor,
Shirvonning yurtiga borsang, farzandim,
Ravshanjon, mastondan bo'lgin xabardor!

Zimiston ko'p bo'lar tog'larning qori,
Chillada mast bo'lar qatorning nori,
Bul so'zima quloq solgin, farzandim,
Xabardor bo'l, Shirvonning ko'p mastoni!

Har kimga, Ravshanjon, siring oldirma,
Nodonlik qip iching g'amga to'ldirma,
Erdan ayyor, xotindan ko'p mastoni,
Siringni, yolg'izim, aslo bildirma!

O'zing yohsan, iching g'amga to'lmasin,
Siringni, Ravshanjon, g'anim bilmasin,
Xabardor bo'l mastonlardan, farzandim,
Mabodo yengil ish og'ir bo'lmasin!

Yosh bachchasan, o'ngarsin-da ishingni,
Tanib, bilib so'ylash tengi-to'shingni,
Mastoni ko'p, bilib yurgin o'zingni,
Ravshanjon, do'st bilma har bir kishingni.

Har ish bo'lsa, aqlingdan qolmagin,
Zinhor dushman bilan sirdosh bo'lmagin,
Farzandim, yolg'izim, nodon-shunqorim,
G'animga tutqun bo'lib qolmagin!

Otang qoldi oda bo'lmas kulfatda,
Enang sho'rli qoldi dardi hasratda,
Ham kecha, ham kunduz hozir bo'p yurgin,
Ishingga pishiq bo'l, bolam, albatta.

Borgin bolam, nodon qo'zim, yorga bor,
Qirq chiltan doimo bo'lsin jilovdor,
Kecha-kunduz sendan bo'lsin xabardor,
Nasib bo'lsa, yoring bo'lar Zulxumor.

Ana endi Ravshanbek otasidan duo olib, otini yo'lga solib, o'zini yo'lga chog'lab, o'tkir isfihon qilich beliga bog'lab, Shirvon yurtini so'rog'lab, Zulxumor oyni daraklab, Zulxumorga oshiq bo'lib, aytgani qo'shiq bo'lib, o'zining ishiga pishiq bo'lib, Shirvonni ko'zlab, Zulxumorjonni izlab, har nima deb gapirsa, Zulxumor deb so'zlab, agar Zulxumordan qo'shiq aytmoqchi bo'lsa, dovushini sozlab, bo'taday bo'zlab, ostidagi Jiyronqush otini tezroq yetsa ekan, deb tezlab borayotir:

Parvardigor panodi,
Holin bilgan donodi,
Otasidan duo olib,
Ravshan polvon jo'nadi.


Mardni tuqqan enadi,
Enadan yagonadi.
Obro' ber, deb yosh bachcha
Shirvon qarab jo'nadi.

Ko'lda suqsur-so'nadi,
Kattako'lga qo'nadi.
Obro' ber, deb bek Ravshan
Yo'lga tushib jo'nadi.

Kuysa yurak yonadi,
Sovuq suvga qonadi.
Obro' ber, deb bek Ravshan
Xumorni izlab jo'nadi.

Mehtaraga suv olib,
Chaqmog'iga quv olib,
Yo'lga tushdi bek Ravshan
Otasidan duo olib.

Belda bellik bulkullab,
Mehtarada suv sharqillab,



Yo'lga tushdi bek Ravshan,
Jiyronqush ot dirkillab.

Ot boradi arillab,
Otgan o'qday sharillab,
Ot alqimi, tong shamol
Mis karnayday zarillab.

Ot qo'yadi egilib,
Ot yoliga tigilib;
Ship-ship qamchi tortadi,
Qor-yomg'irday to'kilib.

Suvsiz cho'lda bedov ot
Borayotir yutinib,
Chu deganda Jiyronqush
Uchar qushdan qutulib.

Mardning joni sotilib,
Qo'lda xanjar katilib,
Oti to'pning o'qiday
Suvsiz cho'lda otilib...

Endi ko'ring, bek Ravshan
Shirvon elni izlaydi.
Ostidagi Jiyronqush,
Sovub, tortib buyrini,
Tog'ning boshin ko'zlaydi...

Qamchi urdi otiga,
Chidamay g'ayratiga,
Suvsiz cho'l gumbirlaydi
Mardning siyosatiga.

Qamchi urdi soniga,
Jabr qildi joniga,
Suvsiz cho'l gumbirlaydi
Otning irg'iganiga.
Olov tekkan Ravshanning
Guldayin badaniga...

Jiyron og'zin ochadi,
Qushday bo'lib uchadi,
Gohi-gohi yerlarda
Bachchani olib qochadi.

Yashinday bo'p jonivor,
Borayotir Jiyronqush,
Qamchi berib chu dedi,
Qattiroq bachcha qichadi.


Ot boradi arqirab,
Davirlari yarqirab,
Bek Ravshanday polvonning
Kokillari tirqirab.
Suvsiz cho'lda Jiyronqush
Oqqan suvday shirqirab,
Shamolday bo'p boradi
Suvsiz cho'lda pirqirab...

O'muldirik so'm oltin,
O'mirovda alqillab.
Kiygan to'ni tilladan,
Oftob tegsa yaltillab.

Uzangisi o'yma oltin,
Quyushqoni quyma oltin,
Yuganining boshi oltin,
Egarining qoshi oltin,
Qamchisining sopi oltin,
Qarasang yarqiraydi,
Turmushining bari oltin.

Tilladandir yoqasi,
Oltin otning to'qasi.
Xumorni izlab boradi
Yovmitning oltin soqasi.

Chalvar qildi banotdi,
Mindi Jiyronqush otdi,



Bahri ochilib Ravshaxon
Tulparni yo'rg'alatdi.

Xom ekandi bedov ot,
Oppoq ko'pikka botdi;
Ostidagi bedovi
Chirgilikdan ter qotdi.

Kam-kam o'zin tuzatdi,
Gardanini uzatdi.
Qulog'in qaychilatdi,
Suvlig'in qatirlatdi.
Ostidagi Jiyronqush,
Sovub qarsoqday qotdi.
Chu deganda oladi,
Och gaza ham darbanddi.
G'ayrat bilan bek Ravshan,
Shunday qichab yo'l tortdi.

Bo'ynida tugma banddi,
Bir yoqqa silkillatdi.
Ro'mol bilan shipirib,
Yuziga urgan garddi.
Kimga aytsin bek Ravshan
Ko'nglida ichki darddi.
Tomosha qing, yoronlar,
Ravshaxonday bir marddi.

O'r kelsa o'mganlatdi,
Nishab kelsa to'xtatdi,
Tekis kelsa o'ynatdi,
Jilg'a kelsa jilpitdi,
Ariq kelsa irg'itdi.
Har kunda ikki mahal
Jiyronqushni o'tlatdi.
Shunday qistab bek Ravshan,
Ayni uch oy yo'l tortdi,
Yo'lin juda mo'l tortdi.


Ot chopilar baland tog'ning pastidan,
Qichab bordi, kuyganidan, qasdidan,
Uch oy tinmay yo'llar yurib bek Ravshan,
Borib qoldi bir viloyat ustidan.

Ana endi Ravshanbek necha kunlar yo'l yurib, tunlar tun qotib, yo'l tortib, jonini koyitib, o'l-o'l yurib, o'l yurib, ozgina emas, mo'l yurib, uch oy tinmasdan yo'l yurib, nechcha tog'-u cho'l yurib, necha suvsiz el yurib, yosh bola birovdan so'ramoqqa ham bo'yni yor bermay, «ishing bo'lmasin, Shirvonga kelib qoldim», deb dimog'i chog' bo'lib, gul-gul ochilib, o'ziga-o'zi aytdi: «E Ravshanbek, hali sen bir savdo bilan Chambilning belidan chiqib kelayotibsan, o'zing hali kimnikiga borayotibsan? Yo Shirvonning xoni Qoraxon podshoning qizi Zulxumorga qayinga borayotibsanmi? Hali sening yangalaring otingni ushlab boylarmi, o'zingni yaxshi joyga qo'ndirib siylarmi, ostingga par ko'rpa taylarmi? E, esi ketgan Ravshanbek, kimnikiga borayotibsan?» – deb o'yladi. «Men bu otim bilan, bu kiyimlarim bilan qayerga boraman? «Sen qanday odam?» desa, men nima deyman? Mening bu yerda bir tanishim bo'lmasa, yo bir tomirim bo'lmasa, bu el bizlarga dushman el bo'lsa, agar meni tanisa, bir fasl ham qo'ymaydi. Endi men bir kambag'al, yetim bola bo'layin. Bo'lmasa, o'z oyog'im bilan baloning og'ziga keldim, – deb Ravshanbek otidan tushdi. Ustidagi jamiki shohona liboslarini yechib, barini yig'ib, biroviga o'rab mahkam qilib, Jiyronqush otning davirini, yugan-o'mildiriqlarini yig'ib, mahkam qilib, ot abzallarini berkitib, mahkam boylab, ustidan ayilni, pushtanni mahkam qilib tortib, og'ib tushib qolmasday qilib, Jiyronqush otning quyrug'idan bir

tol qil yulib olib, kissasiga solib, bir ko'lga haydab yubordi.

Ana endi yosh bola dirkillab o'ynab, piyoda ko'chaning yuzi bilan sakrab keta berdi. Tavakkalni mahkam qilib borayotib edi, bir tosh yo'ldan yurib edi, oldidan bir ko'cha chiqdi. Ko'cha bilan bir ozroq yurib edi, bir katta bog' chiqdi. Ravshanbek qarasa, bir katta bog', o'zi juda kalondimog', to'rt yog'ining devori uzun, kalta emas, baravar choppa-choq. Bir yog'i daraxt, bir yog'i olmazor, bir yog'i anjir, bir yog'i anor. Suvga to'la hovuzlar, tevaragida katta-katta chinor, masti xurram bo'lib yurur tovuslar, gul-gul ochilgan, chaq-chaq uchurgan, gullar ochilgan, bargi sochilgan. Gullar ekilgan, xazon bo'lib ostiga bargi to'kilgan. Gullar shoxasida bulbullar sayrab, to'ti maynaga qarab dam tortib, mayna to'tiga qarab chaq-chaq uchurib, g'urraqlar g'urullab, musichalar hu-hu tortib, bulbullar qo'nib, zog'lar uchib, ko'rganning bahrini ochib, Ravshanbek qarasa, noobod – suv chiqmagan toshloq, xarobot yerlarida la'limi qushlar: so'pito'rg'ay, g'azalay, puchchakalonlar, olapopush, olaqarg'a, qoraqarg'a, olashaqshaqlar – bari yig'ilib, laylakni sozanda qilib, aytirib yotibdi. Ular ham o'z oldiga bazmi suhbat qilib, kayfini chog' qilib o'tiri. Tovus xurramlar quyrug'ini chotir qilib, mast bo'lib aylanib, charx urib turi. Ravshanxon bu bog' devorlariga qarasa, tik paxsasini ishlagan, devorining tagini g'ishtlagan, juda mahkam qilib tashlagan, devorlarni ganchlagan; to'g'riga ketgan rastalar, devorlarda guldastalar, juda o'xshatibdi ustalar. Ko'rgan xasta, ko'rmagan havasda, gul ekilgan baland-pastda, gulni desang dastadasta, tevaragi yong'oq, pista, qilgan ham juda usta.

Ravshanbek bu bog'ni ko'rib, dimog'i chog'

A decorative border with a repeating floral motif surrounds the text. The border consists of a series of stylized, symmetrical floral designs, possibly resembling fleur-de-lis or similar motifs, arranged in a continuous line.

bo'lib, gullarning isi dimog'iga urib, hali boqqa kirgan yo'q, gullarning isi, bulbullarning dovushi olamni buzib turibdi. Shunda Ravshanxon aytdi: «Bunday bog' har kimga bo'la berami? Yo bu bog' bizning qaynatamiz – Qoraxon podshoning bog'i, yo bo'lmasa, bizning yorimiz – Zulxumorning bog'i, bo'lmasa, boshqa odamga bunday bog' tushib qolibdimi? Albatta, bu bog' odami – xizmatkori ko'p odamniki-da», – deb bog'ning eshigidan kirib, bir katta hovuzning oldiga borib, bir katta supaning ustiga chiqib o'tirib, Zulxumor yorini, labi shakarini bog'dagi qushlardan so'rab, bir so'z aytib turur:

Otga mindim avliyolar bor uchun,
Belimni boyladim nomus-or uchun,
Barakalla falakning gardishiga,
Eldin elga oshdim sanam yor uchun.

G'ayri-g'ayri joya keldim, naylayin,
Kun tushmagan soya keldim, naylayin,
Barakalla falakning gardishiga,
Bir tilla saroya keldim, naylayin.

Atrofiga ekkkan toza shamshot, gul,
Shoxasida sayrab o'tirar bulbul,
Odami yo'q obod joyga yetishdim,
Qirq ming tup xurma bor, qirq ming tup anjir.

Atrofiga qizil gullar ekilgan,
Xazon bo'p ostiga bargi to'kilgan,
Qatorlanib yakka mixlar ko'milgan,
Shosupa ustiga suvlar sepilgan.

Har tarafga to'g'ri ketgan rastalar,
Rastaning ustida bor guldastalar,
Obodonli obod joyga yetishdim,
Guldastalar bir-biriga payvastalar.

Qarayman ichinda yo'qdir hech kishi,
Ko'rganning qolmaydi aqli-hushi,
Qirq ming tup xurma bor, qirq ming kishmishi;
Odami yo'q obod joyga yetishdim.

Men bilmayman, bu bog' kimning bog'lari,
Ko'rganning chog' bo'lmasmi dimog'lari,
So'rayman sizlardan bo'stonning qushi,
Bulbullari qo'nib, uchgan zog'lari,
Sayringga sayr etib Xumor keldimi,
Kanizin iyartib dilbar keldimi?

Ko'rganning qolmaydi aql-hushlari,
Har kimga munosib tengi-to'shlari,
Sizlardan so'rayman, javob beringlar,
Bo'stonning mast bo'lib kezgan qushlari;
Sayringga sayr etib Xumor keldimi,
Kanizin iyartib dilbar keldimi?

Husni toshgan pari-paykar keldimi,
Ko'rgan oshiq o'tga yonar keldimi,
Ko'kragida qo'sha anor keldimi,
Ravshan ko'rsa, mehri qonar keldimi?
Bo'stonlar, daraxtlar, sendan so'rayman,
Sayringga sayr etib Xumor keldimi,
Kanizin iyartib dilbar keldimi?

Ravshanbek bog'ning ichidagi qushlardan yorini
so'rab turib edi, bir pilla shiq etib bog'ning devo-
ri ochildi. Ravshan qarasa, bir kampir, qo'lida ikki
mo'ndi-ko'za kelayotibdi.

Ravshanbek shunday qarasa, bir kampir, o'zi
qashqa kampir, bu kampirlardan boshqa kam-
pir, bilmayman kiribdi necha yoshga kampir.
Beli bukrayib qolgan, qulog'i tikrayib qolgan,
bachchag'arning tishlari omochday, sochlari poloch-
day, manglayidan tarlon ochgan, ikki chekkasining

go'shti qochgan, bo'yinlari tirishgan, hamma yeri qurishgan, iyaklari burishgan, ko'ringan odam bilan urishgan, agar boshqa odam erinmasa, erinmasdan urishgan kampir. Ko'zlari o'tday, manglayi cho'tday, kallasi gov savatday, qopadigan itday, balki bahaybat boytebatday kampir. Chaqadigan ilonday, qari ham bo'lsa qulunday, bo'ynin suzib bulunday, suvga kelayotipti.

Ravshanbek buni ko'rib, ko'rgandan rangi o'chib, tusining qoni qochib: «O', bachchag'ar, otam aytganning o'zi; bu la'nati qaydan kelib qoldi?» – deb yosh emasmi, yugurib bir daraxtga chiqib ketdi. Haligi kampir Ravshanbek o'tirgan supaga kelib, uh deb o'tirib, ko'zasini shu yerga quyib, suvga qarasa, suvning ichida birov turibdi. Kampir buni ko'rib, daraxtning boshiga qaradi, Ravshanbekni ko'rdi. Ravshanbek ichida: «O' bachchag'ar, ko'rib qo'ydi, endi qanday qilaman!» – deb bola emasmi, qo'rqayotir. Shunda kampir Ravshanbekning qizil gulday jamolini, kamolini ko'rib, Ravshanbekka qarab: – Sening tarzing bizning elga kelmaydi, – deb so'z so'rab turibdi. Ravshanbek ham kampirni aldab, javob aytib turibdi:

– Tarzingga qarasam, nodon bolasan,
Mavj urib daryoday toshib-to'lasan,
Sening tarzing bu ellarga kelmaydi,
So'ylagin, yosh bachcha, qaydan bo'lasan?

– Bu yetimlik meni qildi sargardon,
Xizmat qilib, tilab yeyman parcha non,
Darbadar yetimda vatan nimishlar?
Manzil, makon menda qayda, enajon!

– Qizil gul ochilar g'unchadan g'uncha,
Toqatim yo'q tag'i gul ochilguncha,

Gap bilmagan nodon o'zing, yosh bachcha,
So'ylagin, go'dagim, qaydan bo'lasan?

– Enajon, so'rama qayg'u ham dog'im,
G'am bilan sarg'aygan gulday siyog'im,
Bormoqqa bog'im yo'q, botmoqqa tog'im,
Aslim so'rsang, bevatandan bo'laman!

– Rost aytgin, bolam, diyoring qaysidir,
Qilib yurgan kasbi-koring qaysidir,
Podshohi nomdoring qaysidir,
So'yla, notavonim, qaydan bo'lasan?

– Men bilmayman makonimni, yurtimni,
Qachon men taniyman nomard, mardimni,
Qo'zg'amagin, ena, ichki dardimni,
Aslim so'rsang, bevatandan bo'laman.

– Otang bormi, enang bormi elingda,
Xudoning sanosi bormi tilingda,
Ne uchun yurmading tengi-xilingda,
Benomi nishonim, qaydan bo'lasan?

– Ota-ena yetim sho'rda nimishlar,
Yetimlarning ishi – yig'lov, koyishlar!
Yetimda ne qilar teng bilan to'shlar,
Aslim so'rsang, darbadardan bo'laman!

– Ko'zlaring qambardir, bodom qovog'ing,
Bilmayman ko'pmikan qayg'u ham dog'ing,
Darbadarga o'xshamaydi siyog'ing,
Musofir mehmonim, qaydan bo'lasan?

– Xudoyim beribdi sini-sumbatni,
Men ne qilay davlati yo'q kelbatni?!
Yetimlarga hech kim qilmas murvatni!
Aslim so'rsang, darbadardan bo'laman!

– O'rgilay, rost aytgin, qayda diyoring,
Elating, urug'ing, xesh-u tabaring.

Hali bunda ne manzilda qaroring,
Musofir mehmonim, qaydan bo'lasan?

– Tarzimga qarasang, nodon bolaman,
Men yetimman, daryoday bo'p to'laman,
Men yetimman, iliq so'zning gadoyi,
Ulsizga ul, qizsizga qiz bo'laman.

– Sening shavqing mening aqlim oladi,
Senday barno qanday yetim bo'ladi,
Bu so'zlaring, bolam, rost ayt, hiyladi(r),
So'ylagin, nodonim, qaydan bo'lasan?

– Qavmim yo'q, enajon, qarindoshim yo'q,
Sir aytayin desam, emchakdoshim yo'q,
Bir xudodan o'zga hech bir kishim yo'q,
Quvandisiz darbadardan bo'laman.

Unda kampir shuncha ko'rdi, bolaning so'zi aynamaydi; esdan, aqldan to'la bola.

Kampir Ravshanxonning qaddi-bastiga qarab, Ravshanbekdan ko'ngli to'lib, ichida aytdi: «Bu bola hech vaqt darbadar yetim bola emas. Albatta, bu bolaning ota-enasi bor. Bu bola bir katta yerdan chiqqan bola-da; yo bir podshoning bolasi, yo bir katta bekning bolasi, yo bir aslzoda, bir oqsuyak eshoning bolasi, albatta, bu bola bezot, noasl odamning bolasi emas», – deb Ravshanbekka qarab: – Esa, sen menga o'g'il bo'l, mening o'g'lim yo'q. Bu bog'-u bo'stonlar meniki, o'g'lim. Endi sen daraxtdan tushgin, men bilan uyga borgan, men seni o'g'lim dedim, jon-u dilim dedim, o'lsam merosxo'rim dedim, – deb, Ravshanbekka bir so'z dedi:

Aylanay, sen bo'lgin bog'imda gulim,
Saharlarda sayraydigan bulbulim,
Aynalayin, ena degin sen meni,
Jon-u dilim, men seni dedim ulim.

Yurgin endi, olib boray uyima,
Sayr etgizay bo'stonima, joyima,
Bolam dedim, tushgin endi, farzandim,
Uyimni ko'rsatay senday toyima.

Yerga tushgin, billa yurgin, farzandim,
Borib manzillarim ko'rgin, farzandim,
Bolam dedim, molu dunyom seniki,
Endi, bolam, davron surgin, farzandim.

Yurgin endi, aytgan so'zim shul bo'lar,
Bu enang xudoyga yozgan qul bo'lar;
Bolam dedim, senday esli farzandni,
O'ligimga ega senday ul bo'lar.

Yurgin, bolam, endi uyga borayik,
Ne ish bo'lsa, yaratgandan ko'rayik,
O'g'lim dedim, sen ena de, jon bolam,
Qolgan-qutganini so'ngman so'rayik.

Ana Ravshanni daraxtdan tushirib olib, uyga qarab yura berdi. Ravshanbek momoga ergashib keta berdi. Bog'dan chiqdi, oldidan bir katta darboza keldi. Darbozadan ichkari kirib yura berdi, oldidan bir darboza chiqdi, ikkovi qarshima-qarshi. Undan ham o'tdi. Shuning to'g'risida bir darboza chiqdi, undan ham o'tdi. Shunday qilib, yetti darbozadan o'tdi. Ravshanbek ko'rib borayotir: bir hovlidan unisi yaxshi, undan unisi yaxshi; har imoratlar, pesh-toqlar, mehmonxonalar, imorat ustiga bir ozoda joylar bir-biridan toza, bariga solinib qilingan andoza; har bir ayvon-kayvonlar falakka yuzlanadi. Ravshanbek og'zi ochilib borayotib edi. Hamma darbozadan o'tib, so'nggi darbozadan kirib bordi. Qarasa, bir hovli: devorlarni naqqosh ranglab tashlagan, hovli o'rtasida olti yakka mixga olti tulpar ot boylanib turibdi; yakka mixni aylanib, olti ot ham so-

vub turibdi. Egarlab, yuganlab, chuvurma-chalvarni ustiga solib, tilla qamchini egarning qoshiga ilibdi. Olti ot ham Ravshanbekning minib kelgan Jiyronqush tulparidan ilgari otlar. Ravshanbek buni ko'rib, hushi kallamush bo'lib: «O'bba, bachchag'ar kampir, otam aytgan mastonning o'zi ekan, bo'lmasa, bu bachchag'ar ko'pkari chopadi debmiding. Mana buning olti egasi bordir, oltovi olti ajdahordir, bo'lmasa, bu kampir otlarni nima qiladi?!» – deb asta-asta keyin qola berdi. Darbozalardan chiqib, qochib ketmoqchi bo'lib edi. Kampir qarasa, bolasi asta-asta keyin qolayotir. Shunda kampir ko'zasini yerga qo'yib, o'g'liga qarab bir so'z aytayotir, Ravshanbek ham enasiga javob berayotir:

– Tarzingga qarayman, nodon bolasan,
Mavj urib daryoday toshib to'lasan.
Xudoni o'rtaga solgan, farzandim,
Sabab nima keyin-keyin qolasan?

– Ishing firib, hiyla ekan so'zlaring,
Yuzing qonsiz, ola ekan ko'zlaring,
Shu sababdan keyin qoldim, enajon,
Ena, yolg'on ekan aytgan so'zlaring!

– Yura bergin, qolma mening izimdan,
Qonlar oqsin mening ikki ko'zimdan,
O'g'lim bo'lg'in, mening nodon farzandim,
Qancha yolg'on topding aytgan so'zimdan?

– Bu olti ot uzoq horib kelibdi,
Oltisin ustiga chalvar solibdi,
Ena, yolg'on ekan aytgan so'zlaring,
Oltovini olti ajdar minibdi.

– Bolam, mening olti o'g'lim bor edi,
Oltovi bir olti ajdahor edi,

Oltovidan podsho ham qo'rqar edi,
Oltovi ham podshoyi tojdor edi.

Oldida Qoraxon shoh bekor edi,
Bu shohlardan ular e'tibor edi.
Farzandim, o'rtangan jonim kuydirma,
Qatorlarda g'urg'uragan nor edi.

Qazodan oltovi bir kunda o'tdi,
Orqasidan men sho'rlikni yig'latdi,
Bolam, mening olti o'g'lim bor edi,
Oltovidan sabil qildim oltotdi.

Kuniga otlarni qantargolaman,
Qantarlab ustiga chalvar solaman,
Oltovin shunday qip qo'ysam, chirog'im,
Olti o'g'lim bir ko'rganday bo'laman.

Kumush bo'lar tarlon qushning chagasi,
G'o'la bo'lar bedov oting to'g'asi.
Yorqinim, farzandim, meni kuydirma,
Bu otlarning o'zing bo'lg'in egasi.

Ravshanbek momoning so'zlariga ishonmay, hurkib-hurkib bordi. Kampir Ravshanbek o'g'lini ichkari kirgizib, oldiga non-suv qo'yib, qornini to'yg'izib, choy damlab berib, o'g'lini ergashtirib chiqib, hovlisidagi borini ko'rsatdi. Shunda borib bir tomni ochdi – bari tillaga to'la, bir tomni ochdi – kumushga to'la, bir tomni ochdi – misga to'la, g'o'laga to'la; bir tom nayza, bir tom qilich, bir tom sovut, bir tom qalqon. Ravshanxon qarasa, bir podshoning asbobidan kam emas. Shunda kampir o'g'lini bir tomning ustiga chiqarib, bir baland daraxtni ko'rsatdi; Ravshanbekka aytdi: – E bolam, shu ko'ringan baland daraxtdan berisiga borib kela ber, yor-u jo'ra bo'la ber, bir xilini ergashtirib kelib, ziyofatlar qila ber,

bolam. Ular mening o'zimga qaraydi. Shu ko'ringan daraxtdan berisi katta o'g'limning fuqarosi edi. Besh o'g'limning joyini Qoraxon podsho mendan tortib olib qo'ydi. «Katta o'g'lingning joyi seniki bo'lsin», deb menga bergan. O'g'lim, endi bu yurtlar, bu mollar seniki bo'ldi, ana yura ber, – deb qo'ya berdi.

Endi Ravshanbek bir kun o'tlanib chiqib, bir ovulga borib sepoy o'ynadi. Bir ovulga borib chillak o'ynab bora berdi-kela berdi; shu yurtning odami bilan yor-u jo'ra bo'la berdi. Necha vaqt shu tartib bilan o'tdi. Ravshanbek bilib oldi, shu el Shirvonning bir cheti ekan, Qoraxon podshoning eliga ushlash ekan.

Ravshanbek bir kuni tabladan bir otni minib, qidirib, boyagi yerdan o'tib ketdi. Bir manzil, ikki manzil yo'l yurib borayotir edi. Oldidan bir kampir chiqdi. Ravshanbek qarasa, bir kampir halloslab kelayotipti. Tikon pishgan vaqti edi, kampir yalangoyoq g'ijirlatib tikonni bosib kelayotipti. Ravshanxon buni ko'rib: – Ha momo, qayoqdan kelayotibsiz? – dedi. Momo o'zi soqov edi, tili kalta g'uldiragan moxov edi, Ravshanbekka qarab: – Bozoydan, – dedi. Ravshanbek: – Momo, bozordan nima oldingiz? – dedi.

Kampir aytdi: – O', sho'rim quysin, sen ham menga o'xshagan kuyganlaydan ekansan. Bizning yutting yasmini bilmagan; hali eshitganing yo'qmidi, Zulxumoy yomon bo'pti; yashamag'iy, shu vaqtda yigitlayga qalpoqni yasim qilib, qalpoqning oldini ming tanga, oyqasini besh yuz tangadan sotadi. Mening biy o'g'lim boy edi. Go'shginasi qoqqina, uyquginasi soqqina, gapga tushay boshingni yeguy, qayg'ayin desam yolg'iz, qayg'amayin desam yal-movuz; yigit o'lguy, meni ko'p kuyduyadi, yalchi-

maguy. Shu mendan ayazlab, «biy qalpoq, biy qalpoq», deb olti oydan beyn oshini ichmay yotipti. Meni kuydiydi-ku, kuyib qog'uy.

Shunda Ravshanbek aytdi: – O' momo, olib kelayotgan qalpoq qani?

Kampir mana, deb qo'ynidan chiqarib berib edi, Ravshan qo'liga olib, «shu qalpoqqa bizning yor – Zulxumorning qo'li tekkanmikin?» – deb yorining hunarini ko'rib, ofarin, sad ofarin, deb qalpoqqa qarab, bir so'z dedi:

Daraging topmadim izlab elingdan,
Bog'bon bo'lib uzsam toza gulingdan,
Qalpoqning nusxasi gulning bargidan,
Yor, aynalay, qalpoq tikkan qo'lingdan.

Seni deb ayrildim Chambil yurtidan,
Qutulmadim ayriliqning dardidan,
Qalpoqning nusxasi gulning bargidan,
Yor, aynalay, qalpoq tikkan qo'lingdan.

Bugun tegdi bizga yorning nusxasi,
Qayda ekan buni tikkan ustasi,
Yetar kun bormikin, gapning qisqasi,
Yor, aynalay, qalpoq tikkan qo'lingdan.

Seni deb jonimdan kechdim, Xumorjon,
Judolik ko'yiga tushdim, Xumorjon,
Ishqingning o'tiga pishdim, Xumorjon,
Yor, aynalay, qalpoq tikkan qo'lingdan.

Men kuyarman, yorim sayri chorbog'da,
Sening uchun kuygan Ravshan ming dog'da.
G'oyibona so'zim aytay ovloqda,
Yor, aynalay, qalpoq tikkan qo'lingdan.

Mening yorim toza qizning tozasi,
So'yilasa, gapining ko'pdir mazasi;

Har qalpog'i, ko'rsang, bir qiz bahosi,
Yor, aynalay, qalpoq tikkan qo'lingdan.

Qachon Ravshan ko'rar gulday yuzingni,
Iyartib kelsang-chi hurday qizingni,
Bizga qarat, hur misolim, o'zingni,
Yor, aynalay, qalpoq tikkan qo'lingdan.

Bek Ravshan yonadi, yori bilmaydi,
Bilsa ham rahm etmas, ko'zga ilmaydi,
Qalpog'ingga gulning tarzi kelmaydi,
Yor, aynalay, qalpoq tikkan qo'lingdan.

Xumor desa, siyna-bag'rim teshilar,
O'tingga tomirlar ipday eshilar,
Kuygan tanim qachon senga qo'shilar?!
Yor, aynalay, qalpoq tikkan qo'lingdan.

Men qachon borarman sening qoshingga,
Borib mehmon bo'lsam oppoq to'shingga,
Zarli ro'mol yarashmasmi boshingga,
Yor, aynalay, qalpoq tikkan qo'lingdan.

Yuz ofarin hunaringga, gulingga,
Bek Ravshan musofir sening elingga,
Qo'lin solsa sening nozik belingga,
Yor, aynalay, qalpoq tikkan qo'lingdan.

Oting Xumor, o'zing Xumor, Xumorsan,
Chir atrofi uchburch isli tumorsan,
Oshiq'larni ko'zing bilan jo'marsan,
Yor, aynalay, qalpoq tikkan qo'lingdan.

Senday suluv kezsa Shirvon yurtida,
Ravshan kuysa oshiqlikning o'tiga,
Kim chidaydi ayriliqning dardiga,
Yor, aynalay, qalpoq tikkan qo'lingdan.

Seni deb unutdim o'sgan elimni,
Ko'yingga sayratib qizil tilimni,

Tavakkal qip, mahkam boylab belimni,
Yor, aynalay, qalpoq tikkan qo'lingdan.

Oshiqlaring ko'pdir, menday kuygan yo'q,
Shirin joni chakkasiga teygan yo'q,
Hech kim menday senga bino qo'ygan yo'q,
Yor, aynalay, qalpoq tikkan qo'lingdan.

Men kuyarman, yorim aysh-u ishratda,
Qirqin qizlar bilan bazm-u suhbatda,
Sening uchun Ravshan qayg'u, kulfatda,
Yor, aynalay, qalpoq tikkan qo'lingdan.

Sening darding olar mening jonimni,
Eshitsang netadi yig'laganimni,
Yig'latdim ortimda mehribonimni,
Yor, aynalay, qalpoq tikkan qo'lingdan.

Bek Ravshan bulbuling, sen bir gulimsan,
Shirvonning elida jon-u dilimsan,
Surati yarashgan xipcha belimsan,
Yor, aynalay, qalpoq tikkan qo'lingdan.

Kim yetkazar mening arzi-dodimni,
Tark ettim seni deb mamlakatimni,
Unutdim Chambilday viloyatimni,
Yor, aynalay, qalpoq tikkan qo'lingdan.

Bugun nusxang tegdi, o'zing ham teygini,
Bizdan boshqasini, Xumorjon, qo'ygin,
Oldimda yarashar liboslar kiygin,
Yor, aynalay, qalpoq tikkan qo'lingdan.

Ravshanbek bu so'zlarni aytib edi, u turgan kam-
pirning kayfi uchib ketdi. Ko'nglida qalpog'ini olib
qochib ketadiganday bo'lib: «Ne balosi keldi, ha
boshingni yeguy, sen ham mening yalchimaguy bo-
lamga o'xshagan yomon bola ekansan, sen ham Xu-

moy deb kuyganlaydan ekansan. U biy seni dog'lab o'tga kuydiyanmi? Uning oshig'i-o'tiga kuyganini so'yasang, sochidan ko'p; uning nimasini suyaysan. Ul hammani kuyduydi-ku hiysi dunyo bo'lgan», – deb Ravshanbekning qo'lidagi qalpoqni yulib olib, hayt deb keta berdi, bek Ravshanga qaramadi.


Ana, ishqivozlik yomon narsa, Ravshanbek qalpoqni ko'rib, badani balqib erib turib edi, momo qalpoqni olib keta berdi. Shunda Ravshan: – Yo momo, muncha qichaysan? Qarab tur, menga qalpoq bozorining yo'lini ko'rsat, to'xta, momo, to'xta, – dedi. Momo aytdi: – Ho'... sho'yli bola ekansan; mening bolamdan ham beyoqim ekansan, esing bo'lsa, shu yomonga oshiq bo'laymiding, u yuytni buzdi-ku, – deb dim qaramaydi.

Ravshanbek: – O' momo, qalpoq bozorining yo'li qayoqda, yo'li?! – dedi.

– Shu yoqqa keta bey, keta bey, – deb hayt deb, momo solib ketdi.

Ravshan bir alami ming bo'lib, ingichka o'ti jo'ng bo'lib, «osang ustga posang, hazor ustiga pon-sad». Endi Ravshanbek belini ikki yerdan boylab, tavakkalni mahkam aylab, o'ziga-o'zi so'ylab: «O' Ravshanbek, sening eling yo'qmidi, ovlarga qo'ling yo'qmidi, o'tirsang-qo'nsang manziling yo'qmidi, o'ynasang-yursang teng-u xiling yo'qmidi? E, uchangdan urgur Ravshanbek, hali sen nima qilib yuribsan, hali shu yurtdan, sen boy bo'lib, mol orttirib ketaman, deb yuribsanmi, mol izlab kelibmiding?» – deb o'ziga-o'zi o'ylab, xayoli tarlon bo'lib, o'zini har o'yga solib ketib borayotir.

Bir-ikki qirdan oshdi, bir yolg'iz oyoq yo'lga tushdi. Ravshanbek: «Ishing bo'lmasin, bozorining yo'li shu chiqar, shu yo'l bizni to'g'ri qalpoq



bozoriga olib borar», – deb borayotib edi, oldidan bir qir chiqdi. Ravshanbek otini haydab, yoʻrtib, doʻngning ustiga chiqib qarasa, bir toʻp, bari oʻziday yosh, xushroʻy, qalamqosh bola, barining qoʻlida bir lagancha tillasi bor, yaxshi ot ostida, bir tepaning ustida tillasi qoʻlida qator boʻlib, – saf tortib, otning boshini barobar qilib osmonga qarab turibdi. Ravshanbek bularning bu ishiga hayron qolib, bu ham shularning qaragan yogʻiga qarab, osmonga tiklaydi, hech nima koʻrinmaydi. Juda koʻp qaradi. Hech nima koʻrinmagandan soʻng: «Anovi turgan bolalardan soʻrayin, agar shuning maʼnosini bilmay ketsam boʻlmas», – deb otning boshini burib, qaqqayib turib, shu bolalardan soʻz soʻradi: – Ey! Nimaga ham-mang osmonga tiklab qaraysan, gaplashmaysan, bir-biringga indamaysan, koʻrganingni aytmaysan, nimaga qaraysizlar, joʻralar?! U bolalar indamadi. Ravshan baqirib: – Ey! Bir odam bir odamdan gap soʻrasa, oʻlib qolmasa – joni boʻlsa, javob beradida. Ey haromilar, padaringga poʻstak, eshaklar, dim indamaysizlar, tillaring yoʻqmi? Koʻzing u yoqda boʻlsa, ogʻzing ham bandmi, bachchagʻar? – deb qahri kelib, bir soʻz deb turibdi:

«Alif» oʻtib «lom» yozilar «mim» bilan,
Bir-biringga gap qotasani im bilan,
Baring birday tiklab qarab osmonga,
Osmonda savdo qilasan kim bilan?

Har kim ham oʻynaydi, kular teng bilan,
Seni koʻrgan oʻtib ketar gʻam bilan,
Baringning qoʻlingda puling, bachchagʻar,
Osmonda savdo qilasisizlar kim bilan?

Baring goʻdak hali, nodon bolasan,
Har ish qilsang, dim pishmagan chalasan,

Baringning qo'lingda puling, bachchag'ar,
Osmonda kim bilan savdo qilasan?

Men so'rasam, gapirmaysan, imlaysan,
Tiling yo'qmi, gapirmaysan, g'inglaysan,
Dovushing chiqarmay, baring gung bo'lib,
Haromilar, muncha o'zing dimlaysan?

Qo'lingda tillang bor, yaxshi ot ostingda,
Siringni menga ayt, ne bor qasdingda,
Men gapirsam, gapirolmay imlaysan,
Baring tiklab, ne bor ko'kning ustinda?

Menga aytgin, men ham tiklab qarayin,
Yaxshi bo'lsa qabatingga borayin,
Osmonda kim bilan savdo qilasan,
Harami, aysang-chi, men ham ko'rayin!

Sen javob bermaysan, men gap so'rayman,
Men ham senday osmonlarga qarayman.
Menga aytgin, men ham bilay, go'daklar,
Qiziq bo'lsa, qabatingga borayin.

Yosh bachchalar, o'l elingga to'rasan,
O'lmasang, dunyoda davron surasan,
Hammang birday tiklab qarab osmonga,
Menga ham aytinglar, nima ko'rasan?

Bedov minsam, yol-kokilin tarayman,
Men ham senday balandlarga qarayman,
Osmonda kim bilan savdo qilasan,
Osmonlarga qaraganing so'rayman!

Men yig'layman yolg'izlikda zor-zor,
Dushmanning elida bo'lmay xor-zor,
Hammang birday tiklab turib qaraysan,
Jon jo'ralar, bu osmonda nima bor?!

Ravshanbekning bu so'zini eshitib, u bolalar-
ning ichidan birovi aytdi: – Bu qanday o'zbek edi,

bu bachchag'ar juda ko'p baqira berdi, juda ahmoq bachchag'ar ekan. Indamaygina keta bersa-chi! Vag'irlagani-vag'irlagan. Shovqimchil ekan-ku. Bizlarni tomoshadan qoldirdi, – deb so'kina berdi. Shu vaqt, u bolalarning birovi ko'zi balandda, Ravshanbekka javob berib: – O' o'zbek! Keta bersang-chi, bu gaplarni senga kim qo'yibdi? – deb, bir so'z dedi:

Yurgan yo'lim bo'tako'zli jo'nag'ar,
Nayza tegsa, oq badandan qon oqar,
Har kim bo'lsang, ket yo'lingdan qolmagin,
Bizlar bilan ishing nima, bachchag'ar...

Xabaring yo'q sening sog'-u so'lingdan,
Lop-u lop so'z chiqar sening tilingdan,
Bizlar bilan ne ishing bor, bachchag'ar,
Keta ber yo'lovchi, qolma yo'lingdan!

Kim aytdi, bizlardan shuni so'ragin,
Qanday nodon senga berdi daragin,
Bir lagancha tillang bo'lsa, sen kelib,
Bizlarday bo'p, undan keyin qaragin!

Sen o'zbek ekansan, yurgan sahroyi,
Har yerda vag'irlab yurgan har joyi,
Bir lagancha tilla olib qo'lingga,
Undan so'ng bizlarman bo'l-da hamroyi!

Keta ber-keta ber, o'zbek, keta ber,
To'xtab turma, vag'irlamay o'ta ber,
Sen ham kelib qaraysanmi, o'larman,
Bozor borib, o'tiningni sot ber!..

Sening yurgan yering adir o'rama,
Oldi o'r kelganda otni urama,
Keta ber, yo'lovchi, yo'ldan qolmagin,
Bepul kelib, bizlardan gap so'rama!

Bizlar, do'stim, o'ynamaymiz, kulmaymiz,
Shu qarashdan boshqa ishni qilmaymiz,
Keta ber, yo'lovchi, yo'ldan qolmagin,
Bizlar sening so'zlaringni bilmaymiz.

Baqirmay ket, baqirmay ket, baqirmay,
Bizdan so'z so'ramay, o'tkin chaqirmay,
Keta ber, yo'lovchi, yo'ldan qolmagin,
O'ta ber, harami, bizga gapirmay!

Sening ko'ngling bu gaplarman xush emas,
O'zbakka bizlar teng-u to'sh emas,
Keta ber, yo'lovchi, yo'ldan qolmagin,
Qarama, bu kambag'alning ishi emas.


Bu yigitlar noilojdan to'p bo'ldi,
Ko'p so'zladim, mening so'zim ko'p bo'ldi,
Qaramayin keta bergin orqangga,
Tekin ko'rib aytma, do'stim, muft bo'ldi.

Jon jo'ra, keta ber, qaytib kelmagin,
Yo'lovchisan, jo'ra, yo'ldan qolmagin,
Har kim bo'lsang, ket yo'lingdan qolmagin,
So'z so'rab alamim ziyod qilmagin!

Quloq solgin alvon-alvon so'zlarga,
Yo'lovchi, taassub qilma bizlarga,
Yo'lovchi, keta ber, yo'ldan qolmagin,
Bu savdoni kim qo'yibdi sizlarga!

Poralab, poralab go'shing o'silar,
Qochmoqqa qo'ymaslar, yo'ling to'silar,
Yo'lovchi, taassub qilma bizlarga,
Bizlarga qo'shilma, boshing kesilar!

Toza gulsan, oftob tegib so'lmagin,
Keta bergin, o'zbak, yo'ldan qolmagin,
Bizlarga qo'shilma, boshing kesilar,
Armon bilan, hasrat bilan o'lmagin?



Ana endi Ravshanbek polvon ularning bu so'zini eshitib, sherday hurpayib, yo'lbarsday chirpinib, qoplonday jimiyib, xezlanib-tezlanib, qahri kelib, ajdahor ilonday zahri kelib, bahodirliklari uyg'onib, o'tday yonib, olovday qobinib, bir quti gugurtday bo'lib, o't olib ketganday bo'ldi. O'zi o'ziga aytdi: «He, attang, musofirchilik ish emas ekan, he attang. Kel-e, bugun indamay o'tib ketayin, ertaga anov olti otning birovini minib kelayin, yo'llarda yelayin, bularning barining bo'yini qiyib, og'zi-burnini qumga to'ldirib ketmasammi», – deb yo'rtib qirning ustiga chiqdi.

Ravshanbek qarasa, bir qari chol bechora bir qo'yning kallasini olibdi, to'rt pochasini beliga suqib, qornini bir qo'lga, o'pka-yurakni bir qo'lga olib, kallaning bir qulog'idan tishlab, olib kelayotipti. Shunda Ravshanbek: – O' bobo, qayoqdan kelayotibsiz? – dedi.

Shunda bobo bechora qarab turib, og'izdan kallani yerga qo'yib: – E bolam-ay, menga tashvish berding-ku! – dedi.

Ravshanbek: – Bobo, men bozorning yo'lini topolmay yuribman, shuning uchun sizga tashvish berdim, bobo, bozor yaqinmi? – dedi.

Bobo aytdi: – Bozor yaqin, mana kelding, yarim tosh qoldi-da; endi manov qirga chiqsang, Qoraxon podshoning qizi Zulxumor oyimning ko'shki ko'rinadi, bolam. O' bolam, sen bu yerning rasmi-rusmini bilmaydigan bolaga o'xshaysan. Bolam, endi meni yo'ldan qoldirding-ku, shunday ham bo'lsa, besh-olti og'iz so'zni senga aytib berib ketayin, sen bilmagan bola-da, senga yaxshi bo'ladi. Bu yerlar Qoraxon podshoga qaraydi. Shirvonga tobe. Qoraxon podshoning Zulxumor degan bir qizi bor,

o'g'li ham shu, qizi ham shu, bundan boshqa bolasi yo'q, shu qizdan boshqa ko'zining oq-qorasi yo'q. Endi bolam, podsholikda erka o'sgan chopson zo'r qiz-da, shu yerdan bir baland ko'shk qilib, tevaragini o'xshatib, pishiq g'isht bilan imoratlar qilib, otasidan so'rab olib, bozor yurgizib qo'yibdi. Bugungi bozor Zulxumor qizning bozori. Har bozor kuni bo'lsa, Zulxumor betiga niqob tortmaydi, betini ochib o'tiradi. Zulxumor shu vaqt yigitlarga qalpoq rasm qildi, hali Zulxumorning qalpog'ining oldini ming tanga, orqasini besh yuz tangadan sotadi. Shu bugun bozor kuni, bizning elning boyvachchalari, bekvachchalari qo'liga bir la'li tilla olib, «yuz ko'rim», deb Zulxumor oyni bir baland yerga chiqib tomosha qiladi. Qo'y-chi, o'g'lim, gap puli borniki. Hali Zulxumor g'ayrat qilayotgan emish: «Shu bozorni juda katta bozor qilaman, juda obod qilaman», – der emish. Obod qilsa qiladi-da, podshoning bir qizi bo'lsa, nima qilaman desa, qiladi.

Ana Ravshanbek endi bildi, yo'lda lagan ushlab osmonga qarab turganlar Zulxumorga qarab turgan ekan. Bobosidan bu so'zlarni eshitib, bilib oldi. Shu yo'l bilan otini chu deb yo'rtib, qirga chiqdi, soyga tushdi, qirga chiqdi, bozorning ustidan borib qoldi. Qarasa, bir kichkina bozor ekan, odam g'ijillab yotipti.

Ravshanbek bozorning ustidan kelib qolib: «Yorim Zulxumorjonni ko'raman», deb dimog'i chog' bo'lib, vaqti xush bo'lib, bozordagi odamlarga qarab, bir so'z aytib turibdi:

Uzoqdan kelayotibman,
G'amning loyiga botibman,
E yoronlar, birodarlar, birodarlar!
Men yorimni yo'qotibman.

E yoronlar, birodarlar, xaloyiq!
Men yorimdan adashibman.

So'z aytarman mayin-mayin,
Aqli borlar qilar fahim,
E yoronlar, birodarlar!
Izlab yorim topolmayin.

Yurak-bag'rim bo'lgan kabob,
Izlarini qilsam tavof,
Men yorimdan adashganman, xaloyiq!
Yo'lga solsang, katta savob.


Bog'lardan tergan bodomlar,
Yorsiz menga doyim g'amlar,
Men yorimdan adashibman, xaloyiq!
Bozordagi ko'p odamlar!

Qayda bo'lar yor makoni,
Otidir Xumor, makoni,
Man-ku yo'ldan adashganman, yoronlar,
Do'stlar, yo'lga soling mani.

Elda davron surgan bormi,
O'z davriman yurgan bormi,
Bizining yordan ko'rgan bormi,
Yor daragin bergan bormi?

Toblab zulfin o'rgan bormi,
Yorman suhbat qurgan bormi,
Yoki birga yurgan bormi,
Bog'idan gul tergan bormi.
Bizning yordan ko'rgan bormi,
Yor daragin bergan bormi?

Birga bo'p o'tirgan bormi,
Bazmiga ketirgan bormi,
Kengashin bitirgan bormi,
Hisobni yitirgan bormi.



Bizning yordan ko'rgan bormi,
Yor daragin bergan bormi?


Va'dasida turgan bormi,
Qaytib, xudoy urgan bormi,
Suhbatiga borgan bormi,
Unga sirin yorgan bormi.
Bizning yordan ko'rgan bormi,
Yor daragin bergan bormi?

E yoronlar, hay yoronlar,
Hamrangiz menga qaranglar,
«Yoring kim?» – deng-da, so'rganlar,
Mening kuningga yaranglar!
Bizning yordan ko'rgan bormi,
Yor daragin bergan bormi?

Mening yorim qiz bolami,
Ko'p achchig'i tez bolami,
Ko'zlari yulduz bolami,
Qoshlari qunduz bolami.
Bizning yordan ko'rgan bormi,
Yor daragin bergan bormi?

Lablari qirmiz bolami,
O'zi shirin so'z bolami,
O'zi nodon bo'z bolami.
O'zi jodu ko'z bolami.
Bizning yordan ko'rgan bormi,
Yor daragin bergan bormi?

Mening yorim oy boladi,
Ming qo'yli day boy boladi,
Juda hotamtoy boladi,
Shakli qarchig'ay boladi,
Hurkak, asov toy boladi...
Ko'p o'zi bejoy boladi,
O'tkir, lochinday boladi.
Bizning yordan ko'rgan bormi,
Yor daragin bergan bormi?




Mening yorim yorning yori,
Abasdir kuyganning bari,
Ko'p oshiqlar intizori,
Ko'zi – jodu, qosh-xanjari,
Jonni teshar kipriklari,
Teng bo'lolmas hur-u pari,
Balki jannatning hurlari.
Unga shaydo elning bari,
Yigit tuva qarilari,
Boylar tuva qashshoqlari.
Bizning yordan ko'rgan bormi,
Yor daragin bergan bormi?

Majnun qildi bora-bora,
Oshiq bo'lsa nedir chora,
Bir kuygur qildi ovora,
Topmadim men baxti qora.
Bizning yordan ko'rgan bormi,
Yor daragin bergan bormi?

Qaniki topilsa yorim,
Tasadduqdir harna borim,
Qalamqosh, ko'zi xumorim,
Ko'rmasdan ketdi madorim,
Mening shunda ixtiyorim,
Dunyoda yo'qdir xabarim,
Olgandi sabr-u qarorim.
Bizning yordan ko'rgan bormi, xaloyiq?!
Yor daragin bergan bormi?

Men izlab keldim izidan,
So'rsam labi qirmizidan,
Suyuldim qora ko'zidan,
Tirildim shirin so'zidan,
So'rasam shuning o'zidan
Bilmay qay shohning qizidan.
Bizning yordan ko'rgan bormi,
Yor daragin bergan bormi?



Yorimni ko'rsam deb keldim,
Bir dam o'ltirsam deb keldim.

La'li shakar lablaridan,
So'r desa, so'rsam deb keldim.

Shunday asov toyday yorni
Qo'lga keltirsam deb keldim.

Oshiqligim shu barnoga
Endi bildirsam deb keldim.

Eldan o'zgan chin suluvi
Ishqip ildirsam deb keldim.

Izlab yurgan sarvinozni
O'tga mindirsam deb keldim.

Aytganim ko'nmasa-chi,
Aldab ko'ndirsam deb keldim.


Hurkak yorning qal'asini
Urib sindirsam deb keldim.

Bizning yordan ko'rgan bormi,
Yor daragin bergan bormi?

Past-pastgina past ko'chalar,
Holin bilmas bir nechalar,
Bedov mingan boyvachchalar,
Boyvachchalar, bekvachchalar,
Qalpoq bozori qaysidi?

Oshiqning shavqi kechalar,
Ma'shuqni topsa muchalar,
Topolmay yurgan nechalar,
Ko'chada hindi bachchalar,
Qalpoq bozori qaysidi?

Dardiga topmay davolar,
G'amman mehnat havolar,



Eshak haydagan bobolar,
Kalava sotgan momolar,
Qalpoq bozori qaysidi?

Bozor kelgan bozorchilar,
Yo'lni kezgan guzarchilar,
Tinmay elni kezarchilar,
Jo'n savdoni buzarchilar,
Qalpoq bozori qaysidi?


Bozorga kelgan odamlar,
Bog'lardan tergan bodomlar,
Piyoda yo'lni qadamlar,
Horigan qarri nadamlar,
Qalpoq bozori qaysidi?

Otin chopgan mast bolalar,
O'z tengiman do'st bolalar,
Ishi garov, bas bolalar,
Polvon, nayzadast bolalar,
Qalpoq bozori qaysidi?

Bozor kelib yig'ilganlar,
Savdo deyishib uyulganlar,
Qo'y-serkalar so'yilganlar,
Qalpoq bozori qaysidi?

Mardikorlik – ish bozori,
Cho'yan bozor, mis bozori,
Manov pishiq g'isht bozori,
Qassob bozor – go'sh bozori,
Qalpoq bozori qaysidi?

Changib yotgan un bozori,
Ko'qib yotgan jun bozori,
Anov mursak, to'n bozori,
Pichoq bozor, qin bozori,
Qalpoq bozori qaysidi?

A decorative border with a repeating floral motif surrounds the text. The border consists of a series of stylized, symmetrical floral designs, possibly resembling fleur-de-lis or similar heraldic symbols, arranged in a continuous line.

Kalla sotgan kallapazlar,
Nag'magar nag'masin sozlar,
Shoirilar bo'taday bo'zlar,
Yo'lni bilmay kelgan bizlar,
Qalpoq bozori qaysidi?

Hunarmandlar hunarilar,
O'z ishiga jo'narilar,
Nashavandlar, ko'knorilar,
Choyman suvning qanorilar,
Qalpoq bozori qaysidi?


O'yinchilar, darvozlari,
Shoiri xushovzlari,
Yig'ilgan ko'p-u ozlari,
Shoir qo'lida sozlari,
Qalpoq bozori qaysidi?

Qopda turgan ko'mir bozor,
Anov po'lat, temir bozor.
Savdong ko'p bo'p, semir bozor,
Menga kep, xabar ber bozor,
Qalpoq bozori qaysidi?

Bozor bilan har shaharlar,
Sop benavo, darbadarlar,
Masxaraboz, bohunarlar,
Benavolar, mo'tabarlar,
Qalpoq bozori qaysidi?

Ishchi bo'lgan kambag'allar,
Savdo-sotiqqa dag'allar,
Gap topmay so'zni maqollar,
Yigitlari, oqsoqollar,
Qalpoq bozori qaysidi?

Anovi qovun bozori,
Baqqollik, sovun bozori,
Salloh sotib kalla-pocha,



Qassobga tovun bozori,
Qalpoq bozori qaysidi?

Chetda turgan qo'y bozori,
Yilqi bozor, toy bozori,
Qurt bilan sarmoy bozori,
Qog'ozdagi choy bozori,
Qalpoq bozori qaysidi?

Anovi poda bozori,
Bolor ham xoda bozori,
Paxta, uvada bozori,
Baland tepada bozori,
Qalpoq bozori qaysidi?

Shishada aroq bozori,
Xarroti taroq bozori,
Moychiman chiroq bozori,
Charx bilan o'roq bozori,
Qalpoq bozori qaysidi?

U chetda tuya bozori,
Qimizga biya bozori,
Rang-bo'yoq, kuya bozori,
Savdoni uy-a bozori,
Qalpoq bozori qaysidi?

Optovalar, mis bozori,
Beda bozor, xas bozori.
Qadi bozor, nos bozori,
Moxxov bozor, pes bozori,
Qalpoq bozori qaysidi?

Qovunman po'choq bozori,
Temirman o'choq bozori,
Ro'molman sochoq bozori,
Attorlik – munchoq bozori,
Qalpoq bozori qaysidi?

Bo‘z bilan alak bozori,
Attorda elak bozori,
Rang-bo‘yoq, lok bozori,
Paranji, jelak bozori,
Qalpoq bozori qaysidi?

Bug‘doy ham arpa bozori,
Paxtali ko‘rpa bozori,
Qo‘y teri – surpa bozori,
Sersavdo, turpa bozori,
Qalpoq bozori qaysidi?

Novvoylikman non bozori,
Nonlari son-son bozori,
Paranjiman to‘n bozori,
O‘rovlari sim bozori,
Qalpoq bozori qaysidi?

Anovi qimiz bozori,
Manovisi muz bozori,
Oriq ham semiz bozori,
Qopdagilar tuz bozori,
Qalpoq bozori qaysidi?

Qayerda qalpoq bozori,
Qoziqda telpak bozori,
Qatlama, chalpapak bozori,
Tupak ham bargak bozori,
Qalpoq bozori qaysidi?

Anovi tari¹ bozori,
Lo‘k bilan nori bozori,
Muz bilan qori bozori,
Turganning bari bozori,
Qalpoq bozori qaysidi?

¹ Tariq.

Echki bozor, tana bozor,
Sen izlasang, ana bozor,
Novvos-juvona bozor,
Maddoh-devona bozor,
Qalpoq bozori qaysidi?

Kadidagi moy bozori,
Do'ngdagilar qo'y bozori,
Qog'ozdagi choy bozori,
Baland bozor, o'y bozori,
Qalpoq bozori qaysidi?

Sabziman piyoz bozori,
Nazirman niyoz bozori,
Qancha ko'p-u oz bozori,
Savdo bilan soz bozori,
Qalpoq bozori qaysidi?

Echki ham uloq bozori,
Telpak ham tumoq bozori,
Qavob, qovurdoq bozori,
Nasya emas, naq¹ bozori,
Qalpoq bozori qaysidi?
Qalpoq bozori qaysidi?

Ravshanbek mast bo'lib «qalpoq bozori qayerda», deb baqirib borayotir edi. Shu yerda bir nashavand turib edi, kayfi uchib ketdi. Ravshanbekka qarab aytdi: – Ey o'zbek! Muncha baqirasan, kayf degan narsadan qolmadi-ku! Sen o'zing bu-run ham hech bozorga boribmiding, ilgari bozorni ko'ribmiding? Anov changib yotgan un bozori, narigi qo'qib yotgan jun bozori, xo' anov, katta do'kon – to'n bozori, narigi turgan pichoq bilan qin bozori, undan o'tsang, telpak bozori, undan o'tding, qalpoq bozori-da, yurtni buzdind-ku! – deyotir.

¹ Naqd.

Ravshanxon bozorni oralab o'tdi, qalpoq bozoriga yetdi. Qarasa, qirq zinalik ko'shkning ustida Zulxumor oyim kanizlari bilan qalpoq sotib turibdi. Zulxumor betidan niqobini olib, ko'p kanizlar o'rtaga olib turibdi. Ravshanbek Zulxumorning jamolini, nav daraxt kamolini ko'rib, tomosha qildi. Ravshanbek qarasa, Zulxumorning kamoli, oyday jamoli, oq yuzida xoli, yangi to'lgan oyday ikki qoshi hiloli. Ravshanbek zehnini qo'yib qarasa, yasangan hurday, tishlari durday, ko'zlari yulduzday, qoshlari qunduzday, lablari qirmizday, og'izlari o'ymoqday, lablari qaymoqday, ikki yuzi oyday, tarlon-qarchig'ay – uchadigan qushday, muhrlagan qog'ozday yalt-yult o'tiribdi. Zulxumoroyning bu yog'ida to'qson besh, bu yog'ida to'qson besh – o'n kam ikki yuz kokili bor, bir yog'ini tilla suviga botirgan, bir yog'ini kumush suviga botirgan, tong shamoliga qotirgan. Jamoli chillaning qoriday tinjirab, yaltirab o'tiri¹. Ana, Zulxumorning ko'zi jovdirab, zulfi shovdirab, zulfining shu'lasini betiga ursa, yarq-yurq etib, betining shu'lasini zulfiga ursa, yashin tushganday bo'lib o'tiri. Ravshanbek qarasa, musicha, so'pito'rg'ay, g'azalay, pismachi qushlar Zulxumorning jamoli jilvasiga chidamay, baland quyilib kelib, egniga, kiptiga tegib, uchib borayotipti.

Ravshanbek Zulxumoroyini bu sha'n-u shavkatda ko'rib, yuz jon-u dil bilan ishqiboz bo'lib, yuz jon-u dil bilan xaridor bo'lib, qarab qoldi. Qancha yosh barno kanizlar o'rtaga olib o'tiribdi. O'rta yashar bo'layin degan kanizdan, qartaygan-ko'hna-soltob kanizlar past tushib, qalpoq sotib turibdi. Ravshanbek qizlarni bunday ko'rgandan so'ng, ikki qulog'i

¹ O'tiribdi.

bitib, hisobi yitib, og‘zi ochilib – anqayib, nima qilarini bilmay, esi ketib qoldi. Shu vaqtda odam uymalashib-to‘dalashib turibdi.

Ravshanbek chu, deb otni bir qamchi urib, o‘rtaga kirib bordi. Baland qarasa, Zulxumorning betining shu‘lasi oynani kunga tutganday yarq-yurq etib yerga urayotipti. Buni ko‘rib Ravshanbek masti beixtiyor bo‘lib, ikki qo‘lini ko‘tarib bulg‘ab, oyoqni uzangiga tirab, balandga qarab baqirib, qizlarni chaqirib, bir so‘z aytadi:

Kuygan alvon-alvon so‘zlar,
Ayrilgan bir-birin izlar,
Ko‘shkida o‘tirgan qizlar,
Baring birday botamizlar,
Turinglar, Chambil ketamiz, o‘lgurlar,
Juringlar, Chambil ketamiz!

Shirvon elning barnolari,
Suluvlarning podsholari,
Yigitlarning dilxohlari,
Yuzlari mehr-u mohleri,
Juringlar, Chambil ketamiz, kuygurlar,
Turinglar, Chambil ketamiz!

Baring ko‘shkidan turinglar,
Bir-biringman xo‘shlashinglar.
Qadrdoning ergashinglar,
Bizning otga mingashinglar,
Juringlar, Chambil ketamiz, sanamlar,
Turinglar, Chambil ketamiz!

Endi davron Chambilbelda,
Turmang qizlar Shirvon elda,
Bulbulning makoni gulda,
Har kim bo‘lsa, sizga qul-da,
Turinglar, Chambil ketamiz,
Juringlar, Chambil ketamiz!

Turgan Shirvonning qizlari,
Saylangan jodu ko'zlari,
Bu elning botamizlari,
Bizning yorning kanizlari,
Juringlar, Chambil ketamiz,
Turinglar, Chambil ketamiz!

Qizning gavhar poralari,
Odam ko'rsa morolari,
Bizning yorning jo'ralari,
Bir-biridan saralari,
Turinglar, Chambil ketamiz,
Juringlar, Chambil ketamiz!


Unda ham bor ko'shk-u ayvon,
Zarvaraqli oltin kayvon,
Ziyodonlar alvon-alvon,
Chambilbelda bo'lsin davron,
Juringlar, Chambil ketamiz,
Turinglar, Chambil ketamiz!

Shirvon elning suluvlari,
Qo'yni issiq – jiluvlari¹,
Yurtdan o'zgan biluvlari,
Yaxshi borib keluvlari,
Juringlar, Chambil ketamiz,
Turinglar, Chambil ketamiz!

Ana qizlar, ana qizlar,
O'zi vazir, dono qizlar,
So'zlari afsona qizlar,
Ko'lda suqsur-so'na qizlar,
Juringlar, Chambil ketamiz,
Turinglar, Chambil ketamiz!

Zulfin toblab o'rgan qizlar,
Elda davron surgan qizlar,

¹ Iliq.



Kaptarday bo‘p yurgan qizlar,
Qalpoq sotib turgan qizlar,
Juringlar, Chambil ketamiz,
Turinglar, Chambil ketamiz!

Zarli ro‘mol o‘rashganlar,
O‘ragani yarashganlar,
Qiyalashib qarashganlar,
Bir-biriman talashganlar,
Juringlar, Chambil ketamiz,
Turinglar, Chambil ketamiz!

Shirvon elning uzuklari,
Ko‘lda tilla yuzuklari,
Qizning ko‘zi suzuklari,
Ingichka bel, noziklari,
Juringlar, Chambil ketamiz,
Turinglar, Chambil ketamiz!

Ey qizlar, qizning barnosi,
Sizlar suluvning poshshosi,
Sizlar yigitning nash‘asi,
Oshiqarning andishasi,
Juringlar, Chambil ketamiz,
Turinglar, Chambil ketamiz!

Siz Shirvonning qalamqoshi,
Shirvon elining mahvashi,
Bizning yorning tengi-to‘shi,
Sizlar Xumorning yo‘ldoshi,
Juringlar, Chambil ketamiz,
Turinglar, Chambil ketamiz!

Tinmasdan izlab sizlarni,
Yangi men topdim qizlarni,
Iyartgin, Xumor, kanizlarni,
Buncha kuydirma bizlarni,
Juringlar, Chambil ketamiz,
Turinglar, Chambil ketamiz!

O'tirib, turishgan qizlar,
Urishib, yulishgan qizlar,
Charchamay olishgan qizlar,
Qaqirlab kulishgan qizlar,
Juringlar, Chambil ketamiz,
Turinglar, Chambil ketamiz!


Chaq-chaqqina chaqqon qizlar,
Marjon kumush taqqan qizlar,
Yigitlarga yoqqan qizlar,
Doim o'zin boqqan qizlar,
Juringlar, Chambil ketamiz,
Turinglar, Chambil ketamiz!

Qiyο qoshi xanjar qizlar,
Kiprik bilan sanchar qizlar,
Yigitlarni yanchar qizlar,
Borsang, qo'ynin ochar qizlar,
Juringlar, Chambil ketamiz,
Turinglar, Chambil ketamiz!

Ro'mollari zarli qizlar,
Satta tovus parli qizlar,
Labi qirmiz, shakarli qizlar,
Bo'yni to'la zarli qizlar,
Juringlar, Chambil ketamiz,
Turinglar, Chambil ketamiz!

Kanizlar, yeting dodima,
Kelib mingashing otima.
Opketay viloyatima,
Shunda yetay maqsadima,
Juringlar, Chambil ketamiz,
Turinglar, Chambil ketamiz!..

Ravshanbek balandga qarab, oyoqni uzangiga ti-
rab, «Bizning bilan qaysing qo'shilib borasan», deb
qizlardan so'rab, bir qo'lini ko'tarib bulg'ab, ha deb



chaqira berdi: – Kelinglar-chi, kelinglar, darrov-tez-roq bo‘linglar! Ha, juvonmarg o‘lgurlar, yashama-gurlar, tez bo‘linglar, darrov kelinglar!

Unda hamma qizlar hayron qolib kulayotir, hammasi mazax-kalaka qilayotir. «Ho‘-ho‘», deyishib qarayotir. «Nega unday qiladi», deb bir-biridan so‘rayotir. Shu vaqtda Zulxumor oyim, xulqi-xo‘yi muloyim: – Ho‘ qizlar, o‘tirgan kanizlar, shu turgan sohibi tamizlar! Bu qiziq bo‘ldi, bu nima gap bo‘ldi? Yoronlar, meni bir ko‘rgan yigitlar bir la‘li tilla berib, yuz ko‘ruvga, deb o‘lib ko‘rolmay yuri. Manavi o‘zidan o‘zi, ha deb chaqirib, «tez bo‘l-chi, tez bo‘l, ko‘shkdan tushinglar, bizning otga mingashinglar, birovning-birovning bilan xo‘shlashinglar, bir xillaring piyoda yiqilib, surinib ergashinglar, yo‘lda yetolmay pishnashinglar», deb aytanasi chiqayotir. Voy-bo‘y, beti qora, bu nima degan gap edi, – dedi.

Shunda bir kaniz aytdi: – E buvishim, buning yuzi qursin, gapirgan so‘zi qursin, balki bu tentakning o‘zi qursin. Bu tentak. Buning ostidagi oti o‘ziniki emas; birovning otini tilab olib minib kelgan. Bozorga kelgandan keyin bu ko‘shkning ostiga kelgan, bu kanizlarni ko‘rib, balandga qarab sizni ko‘rib, buncha qizni ko‘rib, bu yashamagur qutirayotir, tentakligi avj urib. Tentakning kasali-da, qizil kiyganni ko‘rsa qutiradi, boshingni yegur, – deyisha berdilar.

Shunda Ravshan balandga qarab mast bo‘lib: «Tushchi-tush! Kel, ha kel! Bo‘l, ha bo‘l!» – deyo-tir, qo‘lini bulg‘ayotir, otini depsib tepinayotir. Tentaklikning ham ba‘zi yerlarda nafi tegadi ekan, bu tentak, deb hech kim indamadi, yuz ko‘rim ham ber demadi; Ravshanbek shu yerda qip-qizil tentakka chiqib qoldi.


Ravshanbek shu turgandan turib qoldi. Balandga qarab, qo'lini bulg'alab, izlarni chaqirib: «Tushinglar, bizning otga mingashinglar!» – deb dabdaba qilib tura berdi. Shu turgandan kun botib, bozor tarqab ketib, ko'shkdan qizlar ham tushib ketdi. Bozorda bir odam ham qolmadi. Ravshanbek balandga qarab, hali ham qo'lini bulg'ab: «Tushchi-tush, bo'l, ha bo'!» – deb turibdi. Bir pilla Ravshanbek hushiga kelib qarasa, qorong'i bo'lib qolibdi, bozor tarqab ketibdi. Qizlar tushib ketibdi, Ravshanbekning o'zi qolibdi. Hech kim yo'q.

Ravshanbekning bir ishq i ming bo'lib, jununi ko'payib, ishq i zo'rlab, nima qilarini bilmay, o'zidan boshqa odam yo'q, qizlarni «Qayoqdan tushib ketdi», deb so'rab yuribdi, qizlarni qarab yuribdi. Qo'li bulg'alov bilan tolib qolibdi, o'zi horib qolibdi, o'ylasa, toza qip-qizil tentak bo'lib qolibdi.

U yoq-bu yoqqa qarab, qizlarning qayoqqa ketganini bilmay, bir dardi ming bo'lib, ichi g'amga to'lib, ilonday to'lg'anib, olovday tutanib, Zulxumorning o'tiga yonib, nima qilarini bilmay, kelgan yo'li bilan kela berdi. Nayaki tortgan odamday gung-garang bo'lib, qulog'iga gap kirmay, ikki ko'zi qizarib, ne pillalarda uyiga keldi. Otidan tushib, otini boylab uyiga kirdi.

Shunda kampir enasi: – E bolam, bugun kechga qolding, nega unday qilding? – deb so'rayotir, u yer-bu yerini qarayotir, u yoq-bu yog'ini ko'rayotir. Ravshanbek aytdi: – E ena, mening bugun kechga qolganim: bir do'stim uchta-to'rtta mehmoni bor ekan, ularni ziyofatga aytgan ekan, meni ham to'xtaysan deb qo'ymadi. Shunday qilib, kechga qoldim, – deb enasining ko'ngliga tasalli berib, aldadi.

Enasi Ravshanbekning joyini solib berib, uxlagan



li joyiga o'tib yotdi. Bolaning uyquasi qayoqdan kel-
sin, bolani ilon, chiyon chaqqanday Zulxumorning
ishqi kuydirib borayotipti. Uh deydi, bo'lmaydi,
uyqu kelmaydi, yotolmay tipirlab, qashinib, qichi-
nib, uxlayolmay, oshib-tushib goh bu yog'i bilan,
goh u yog'i bilan tipirlab yotib edi. Bir pilla uh deb
dalaga chiqdi. Bolaning ko'ziga dalaning shu'lasi
baland ko'rindi. Tomning ustiga chiqib qarasa, katta
yo'l bilan boyagi ko'shkda ko'ringan qizlar, qancha
kanizlar kelayotir. Ravshanbek buni ko'rib, «ishing
bo'lmasin, topib oldim», deb dimog'i chog' bo'lib
turdi. Shunday qarasa, ikki yuzcha satta bo'z bola,
katta xodalarning uchiga katta choponni boylab,
moyga botirib, mash'al qilib yoqib, ko'tarib ke-
layotipti.

Qorong'ida hamma yerni kunduzday yorug' qi-
lib o'ta berdi. Bularning orqasidan uch yuzta qiz-
lar o'ynashib, bir-birovi bilan olishib, bir-birovining
bo'yniga qo'l solishib, barisi birday, bihishtdagi hur-
day bo'lib, o'ynab kulishib, bir-birini mushk-anbar,
sobunlar bilan urishib o'ta berdi. Bularning orqasi-
dan boyagi ko'shkda ko'rgan xossaki kanizlar bi-
lan Zulxumor oyim o'tib ketib borayotipti. Arava-
larga mingan, yaxshi kiyimlar kiyingan, satta semiz
xom qizlar kiyimlarini ko'tarolmay iyingan, etakbo-
shi yig'ingan. Ana shunday etib bir zamzama bilan
o'tdilar. Buni bek Ravshan ko'rib, tomdan tushib,
enasini uyg'otib, bilmamish bo'lib, enasidan so'rab,
bir so'z aytadi:

Boshima zarlidan dastor o'rayman,
Tush ko'rganda yaxshilikka yo'rayman,
Hayron qoldim elatingning rasmiga,
Ena, sendan shu bir gapni so'rayman.

Imo bilan qoshin qoqqan kim bo'ldi,
Zulflariga gavhar taqqan kim bo'ldi,
Jamoli yashinday oqqan kim bo'ldi,
Qorong'ida yo'lga chiqqan kim bo'ldi,
Hayron qoldim elatingning rasmiga,
Oqshomlari mash'al yoqqan kim bo'ldi?

Ko'p kanizlar la'l-u marjon taqinib,
Oladigan olg'ir qushday qoqinib,
Bir ko'rganlar boz ko'rsam deb sog'inib,
Qorong'ida oqqan suvday oqinib,
Hayron qoldim elatingning rasmiga,
Ko'rgan oshiq yonar o'tday qobinib.

Suluv qizlar yasanibdi kiyinib,
Kiyimlarin ko'tarolmay iyinib,
Chang bo'ldi, deb etaklarin yig'inib,
Sho'xligidan bir-biriga teginib,
Ko'chalarda sayron qilgan kim bo'ldi?
Ko'rgan yigit og'zi ochilib, suyunib.

Har kim ko'rsa, ena, qolar quvonib,
Oshiq bo'lib qolar olovga yonib,
Ko'rgan oshiq yonar o'tga tutanib,
Bu qizlarga hech kim bo'lmas ishonib,
Qorong'ida yo'lda yurgan kim bo'ldi?
Buning bari hayitlarmi yasanib?

Ena, ko'p qiz ko'chalarda jiyilgan¹,
Barisi yasangan, zulfi tuyulgan²,
Suluv qizlar, qosh-qovog'i uyilgan,
Hayit, to'yga borganday bo'p kiyingan,
Ko'chalarda hayitlagan kim bo'ldi?
Yarashsin deb qora xollar quyilgan.

Enajon, keladi bir to'da qizlar,
Bir to'p bo'lib satta suluv kanizlar,
Barisin qarasang, suluv, oy qizlar,

¹ Yig'ilgan.

² Tug'ilgan.

Ko'rmayoq yuribmiz ekan-da bizlar,
Ko'zlari quralay, qoshi qunduzlar,
Barisi boadab, sohib tamizlar.
Bari barno, suluv, labi qirmizlar,
Ko'chada yuribdi ko'p jod-u ko'zlar,
Imoman gap urar shu shirin so'zlar,
Qorong'ida kezib ul sarvinozlar,
Ko'llarda yuzadi o'rdak ham g'ozlar,
Yo'l bilan boradi bir to'da qizlar,
Oqshomlari sayr etganlar kim bo'ldi?
Yo'lman borayotgan qanday azizlar?

Qora zulfin qora qilib tarashgan,
Jamoliga qaragan ko'z qamashgan,
Ko'chalarda bir-biriman talashgan,
Kiygan kiyimlari juda yarashgan,
Zarli ro'molini qiya o'rashgan,
Har kim ko'rsa, bir ko'rsam deb qarashgan,
Suluvligi juda haddidan oshgan,
Bir bo'lak qiz yurur daryoday toshgan,
Mash'al yoqib yo'lda turgan kim bo'ldi?
Jon ena, shu qizlar yo'ldan adashgan?

Bir bo'lak qiz kelayotir o'ynashib,
Sho'x qiz ekan choyjo'shday bo'p qiynashib,
Bari birday qizil kiyib, jaynashib,
Bir-biriga kulumsirab so'ylashib,
Qorong'ida qiyib yurur bo'ylashib,
Bir-birin bo'yniga qo'lin taylashib,
Ena, bu yurganlar, aytgin, kim bo'ldi,
Bunday yurur, ena haddidan oshib?

Ravshanbekning bu so'zlarini enasi eshitib: – Ha, bolasi qurg'ur, qaramachi-qarama, ularni mendan so'rama, ichkari kir, yota bergin joyingga, ha, bolasi qurg'ur, kel uyga, qarama! – deb urishayotir.

Shunda kampir bechora, o'g'li Ravshanbekka qarab bir so'z dedi:

Xudoyim yetkizsin, bolam, talabga,
Aqling bo'lsa, zehningni qo'y bu gapga,
Qaray ko'rma kasofati buzuqqa,
Ichkari kir, yota bergin joyingga!

Inongin, jon bolam, mening gapima,
Har nechuk so'zlarni olma o'yingga,
Qaray ko'rma kasofati buzuqqa,
Ichkari kir, yota bergin joyingga!

Elatimiz bilsang so'zlar so'zidir,
Shirvon elda men deganning o'zidir,
Qaray ko'rma kasofati buzuqqa,
Oti Xumor, Qoraxonning qizidir.

Shirvonning bir degan sarvinozidir,
Oldida yurganlar ko'p kanizidir,
Qaray ko'rma kasofati buzuqqa,
Oti Xumor, podshomizning qizidir.

Har zamon, har zamon bunda keladi,
Kechalari shunda sayr qiladi.
Har kimsa qarasa, ko'rsa ularni,
Yuzko'rim deb lagan tilla oladi.

Men enangman, ko'pdir qayg'u ham dog'im,
Sen bilan chog' bo'lar mening dimog'im,
Ichkari kir, yota bergin joyingga,
Dim ularga qaray ko'rma, chirog'im!

Bolam, ular doim yomon tomondir,
Yaxshilarga ular oxir zamondir,
Ichkari kir, yota bergin joyingga,
Qarama, chirog'im, ular yomondir!

Sendirsan men sho'ring' ko'ngil xursandim,
Osoyishta aziz jonga payvandim.
Qaray ko'rma kasofati buzuqqa,
Ichkari kir, yota bergin, farzandim.

¹ Sho'rlikning.

Ular yomon, bolam, o'ynab-kularga,
U badbaxtlar teng yo'q¹, bolam, silarga²,
Ichkari kir, yota bergin joyingga,
Jonim bolam, qaramagin ularga!

Jon bolam, qarama, ular ko'rmasin,
Senga kelib, bolam, azob bermasin,
Ichkari kir, yota bergin joyingga,
Senga ham yuz ko'rim ber deb yurmasin...

Unda Ravshanbek aytdi: – E ena, jon ena, bachchag'arning qizi yomon suluv ko'rinadi. Ena-jon, menga bir lagancha tanga bergin, men borib bir ko'zimni qo'lim bilan yopib, bir ko'zim bilan ko'rib kelayin, jon ena, jonim ena; bir ko'radigan qiz ekan, birgina ko'radigan qiz ekan, ena, bera qol-da! Ha ena, qizlar o'tib ketmasin, bir tura kel, ena! – deb yerni har tepindi, bo'ladigan emas.

Kampir bechora: – E bolam-a, senga nima deyin, aytganimga ko'nmaysan, sen gapni bilmaysan, e nodon bolam, nima deyin, nima deyin, – deb joyidan turdi. Kampir bechora siypalanib, «G'aznaning kalitini qayerga qo'ygan ekanman», deb izlay berdi. Topolmay yuribdi kampir. Qasdi shul edi; qizlar uzab ketsin. Kampir bir lagan tilla tugur o'n la'li tillani Ravshandan ayamaydi; ko'nglida: «Agar Ravshanxon Zulxumorni ko'rsa, kelmay ketadi», deb Ravshanbekni ko'zi qiymay, xazinaning kalitini topolmay yuribdi. Ravshanbek tom ustida, ikki ko'zi qizlarda: – Ena, topdingmi? – deydi, enasi siypalanib: – Sabil qog'urni qayerga qo'ygan ekanman, – deb topolmaydi. Ravshanbek damba-dam: –

¹ Teng emas.

² Sizlarga.

Ena, topdingmi? – deb tom ustidan kelib so‘raydi; enasi: – Topolmay yuribman, – deydi.

Shunday qila-qila, tong otdi, qizlar uzab ketdi. Tong otgandan keyin ham: – Topdingmi? – dedi. Enasi: – Topolmay yuribman, – dedi.

– O‘ ena! Kalitingni topolmasang, pulingni bo-shingga ur, – deb Ravshanbek tom dan o‘zini tashlab, ketdi. Kampir: – Ha, bolasi qurg‘ur, qaytchi-qayt! – deb qichqira-qichqira qoldi. Ravshanbek piyoda yo‘rtib, ko‘chaning yuzi bilan, qizlarning izi bilan urib yugurib, qizlarni izlab keta berdi.

Kun chiqdi, olamga yoyilib kelayotir edi. Ravshanbek ham yo‘l bilan zo‘r berib borayotir edi, oldidan bir otli kela berdi. Ravshanbek qarasa, bir odam, yoldor, dumdor bir jiyron otni yo‘rg‘asiga solib selkillab, ha deb yo‘rg‘alatadi, oldingi bosgani orqasiga ketadi, yurgan yo‘li o‘ngmaydi, sakrab avvalgi o‘rniga tushadi, keyin ketsa ketadi, ilgari o‘tmaydi, shunday qilib qichab kelayotipti.

Ravshanxon qarasa, bir ko‘sa, juda ko‘hna bo‘lib ketgan pir ko‘sa, uch yuzdan oshgan, to‘rt yuzga yonashgan, juda qari ko‘sa, bachchag‘ar yildan adashgan, balki besh yuzga kirgan, daqyunus ko‘rgan, jami el-xalqqa firib bergan; doim juvonbozlik, bedanabozlik bilan umrini o‘tkazgan uying kuygur. Chekkasidan tarlon ochgan, iyagining go‘sh-ti qochgan, qoshlari o‘sgan, ko‘zini bosgan; iyagining o‘rtasida bitta tuki bor ekan, u ham bir qarich bo‘lib o‘sgan, bu yolg‘iz soqolga necha qimmatbaho yaxshi toshlardan teshib osgan. Burnining suvi sho‘rg‘alab, mingan oti yo‘rg‘alab, Ravshanbekning oldidan chiqa keldi. Yaqin kelgandan keyin ko‘zini ochib, Ravshanbekka qarab, ko‘rgandan otning jilovini tortib to‘xtatib, bek Ravshanga qarab, bir so‘z deb turi ko‘sa:

Ol-ol bo'lsin, ol-ol bo'lsin, ol bo'lsin,
Ko'ngli suysa yorning labi bol bo'lsin,
Sening tarzing bu ellarga kelmaydi,
So'ylagin, haromi, senga yo'l bo'lsin?

Oralasang, Shirvon katta el bo'lsin,
So'z aytmoqqa mayin, shirin til bo'lsin,
Sening tarzing bu ellarga kelmaydi,
Haromi bachchag'ar, senga yo'l bo'lsin?

Ko'zlarining qambardir, bodom qovog'ing,
Bilaging temirdan, po'lat tirnog'ing,
So'ylagin, haromi, senga yo'l bo'lsin?
Bu yerlikka o'xshamaydi siyog'ing...

Maydon-maydon bedovingni yelgansan,
Yosh bolasan, shirin joning bo'lgansan,
So'ylagin, haromi, senga yo'l bo'lsin?
Men bilgimda Xumorjonga kelgansan!

Yosh bolasan daryoday bo'p to'lgansan,
Sen juvonmarg bir shumlikni bilgansan,
So'ylagin, haromi, senga yo'l bo'lsin?
Tappa-tayin Xumorjonga kelgansan!

Menga ayt, haromi, to'g'ri so'zingni,
Hasanga o'xshatdim gulday yuzingni,
So'zlagin, haromi, qaydan bo'lasan?
Dalliga o'xshatdim qosh-u ko'zingni!

Ko'sa Ravshanbekka ko'ndalang bo'la ketdi,
oldini ola ketdi. Ravshanbek ko'sadan bu so'zlarni
eshitib, qahri kelib, ilonday zahri kelib, ichida aytdi:
«Bu la'nati ko'sani xudo urdi-ku. Bu bachchag'ar,
uying kuygur, otamni dalada, yo urush-purushda
ko'rsa ko'rgan chiqar, enamni qayerda ko'rgan ekan,
bu la'nati it ko'sa. Kel-e, bunga to'g'risini aytgan-
da qo'lidan bir ish kelarmi! Rost aytay, meni bir

nima qilarmikin shu ko'sa», – deb juda achchig'i kelib: – O' ko'sa! Nima deysan, bizlarda uch miring bormi? – deb bir so'z dedi:

Sen, ko'sa, o'zingni qilma barobar,
O'z oldima men ham yurgan zo'rabor,
O'laman, deb mard qavlidan toyarmi?
Bizlarda uch miring bormi, bachchag'ar.

Befarzandning ko'rgan kuni zoyama¹,
Yo'qchilik jo'martning ko'zin o'yama²,
Bizlarda uch miring bormi, bachchag'ar,
O'laman, deb mard qavlidan toyama?³
Rostin aytсам, men Chambilning yurtidan,
Qo'lingdan kelganin qilgin, ayama!

Tarzima qarasang nodon bolaman,
Qasd qilgan g'animni o'tga solaman,
Qo'lingdan kelganin qilgin, ayama!
Chambilbelda yo'lbarslardan bo'laman!

So'rasang, Chambildir o'sgan elatim,
Qayrilib sinmagay mening qanotim,
Qo'lingdan kelganin qilgin, ayama!
Chambilbelda yo'lbarslardan avlodim.

Men ham bir bog'chada bog'ning guliman,
Otam ham enamning joni diliman,
Otimni so'rasang, bek Ravshan deydi,
Chambilbelda Hasanxonning uliman⁴.

Men ham Chambilbelda yurgan to'raman,
To'ralik vaqtimda davron suraman,
Ot ustida qila berma dabdaba,
Ayyor ko'sa, javobingni beraman!

¹ Zoyemi?

² O'yarmi?

³ Toyarmi?

⁴ O'g'liman.

Sen ko'sami, sen ko'sami, sen ko'sa,
Ana maydon, bo'l-chi menga teng, ko'sa,
O'laman, deb mard qavlidan toyarmi?
Kuching yetsa, yengib olgin, kel, ko'sa!

Senday ko'sa mening bilan teng emas,
Bir nechalar o'z holini chengamas,
Ot ustidan qila berding dabdaba,
Sen aytgan qo'rqog'ing, ko'sa, men emas!

Sen olishsang, yetarmikin majoling,
Zolim ko'sa, yetgan ekan ajaling,
Bizlarga uch miring bormi, bachchag'ar?
Juda menga ko'p bo'ldi-ku janjaling.

Sen ko'sa, topibsan qo'rqqoq kishingni!
Menga qarab tezlay berma tishingni,
Qo'rqqoq o'zbek?! Sen anoying topibsan!
G'ingg'illagin, kesib ketay boshingni.

Qarg'alarga yemtik qilay go'shingni,
Topibsan o'zbekdan qo'rqqoq kishingni,
Bilib qil-da, ayyor ko'sa, ishingni,
Oqizarman ko'zda qonli yoshingni!

Sen ko'saning mendan o'lging keldimi,
Yo bilmayman kuning oxir bo'ldimi,
Menga buncha qila berding do'qingni,
Yo bilmayman shayton vosvos qildimi?

Ko'sa qaqirlab kulib, dimog'i chog' bo'lib: «Ana
endi mening kayfim chog' bo'lmay, kimning kayfi
chog' bo'ladi», – deb, – ha juvonmarg, haromi, seni
ongday topdim, mening kuygan pullarimni sendan
undirib olsam kerak. Sening otang Hasanda besh
yuz tilla pulim bor, shuni olaman. Juvonmarg, otang-
ning qarzini berib ketgin! – deb ko'sa Ravshanxon
o'g'longa bir so'z deb, pulini qichab turibdi:

Oralasang, shahri Shirvon elim bor,
Juvonmarg, o'zakli jonda o'lim bor,
Berib ket, juvonmarg, otang qarzini,
Xon Hasanda besh yuz tilla pulim bor.

Eshitib ol menday ko'sa arzini,
Sarg'aytarman senday bola tarzini,
Xon Hasanda besh yuz tilla pulim bor,
Berib ket, juvonmarg, otang qarzini!

Podsholar boshiga qo'yar tojini,
Eldan olar zakotini, bojini,
Xon Hasanda besh yuz tilla pulim bor,
Senga aytay arz bo'lganning vajini.

Otang kep bozorga soldi G'irotdi,
Do'st-dushmani tomoshaga qaratdi,
El bilmadi uning dushman ekanin,
«Asbi jallob sotar dedik bir otdi».

Men yig'ladim shu ot uchun zor-zor,
Shu ot uchun ko'sa bo'ldi xor-u zor,
Otang kep bozorga soldi G'irotdi,
Shu G'irotda ko'sa bo'ldi xaridor.

Men ko'sa ham gapni gapga uladim,
G'am kelganda g'amgin bo'lib yiladim¹,
Shu G'irotda ko'sa bo'ldi xaridor,
G'irko'k otni besh ming tilla tiladim.

Shu otini qizday qilib jiynatdi,
Nechovlarning yuragini qaynatdi,
Olib kelib xon Dallining ko'shkida,
G'irotni zolim otang o'ynatdi,
Kelgan ekan xon Dallining qasdiga,
Hiyla bilan xon Dallini opketdi.

¹ Yig'ladim. Shevada – jiladim.

Odamlar podshoga ayon ayladi,
Mirg'azab kep men ko'sani boyladi,
Menday ko'sa ko'chada voyvoyladi,
Kuyganidan necha alvon so'yladi.
Olib borib xon Dallining otasi,
Besh yuz tilla meni yorg'i ayladi.

G'irotg'a xaridor, ko'sa bo'laman,
Mavj urib daryoday toshib-to'laman,
Sho' pulimni sendan bugun olaman,
Undan so'ng yer bilan yakson qilaman!

Oqizarman ko'zdan selob yoshingni,
Yig'latib ortingda qarindoshingni,
Shu pulimni sendan avval olaman,
Andan so'ng, kesarman tandan boshingni!


Sen bachchag'ar, mening qattiq dushmanim,
Shirvon elidadir davr-u davronim,
Sen juvonmarg, Xumorjonga kelgansan,
Seni o'ldirsam, dilda qolmas armonim!

Ravshanbek ko'saning bu so'zlarini eshitib aytdi: – O' ko'sa bobo, meni aylantirma. Mening otam Chambilbelda hali tirik, o'lgani yo'q; puling bor-mi-yo'qmi, borib o'zidan ola ber, men bilmayman; «qo'l qo'lni taniydi, shariat yo'lni taniydi», degan ekan, puling bo'lsa, otamga bor!

– O' o'zbek, men seni qo'yib, Chambilga otangga boramanmi? Xo'p qutulasan mendan, sen qutuladigan odamingga yo'liqqaning yo'q! Men seni qishloqlarning bolasiga soyachiroq qilib o'ynatib, ham pulimni undirib olayin, sen «e, balli» degin, haromi, o'zbek, o'g'ri! – deb Ravshanning bo'yniga bir chilvirmni solib oldi. Taqimga bosib oldi, otini chu, deb bachchag'ar ko'sa yura berdi, yosh yigit emasmi,

ikki qo'llab ipni ushlab, ko'saning orqasidan ergashib, «Ko'sa, qo'ya ber, ho' ko'sa, qo'y deyman!» – deb borayotir. Unda ko'sa: «Ha, bobong qo'yadi, qo'yadigan odamingga yo'liqqaning yo'q!» – deb, otini chu deb, hu deb yura berdi. Shunda Ravshan: «Ha bobo, ha bobo, qo'ya ber!», deb o'n qadam yerga ergashib bordi, oldidan bir ko'prikchagina chiqdi, oldi o'r keldi, Ravshan oyog'ini yerga tirab, bir tortdi. Ko'sa taqqa tura berdi. Ravshanbek «Ho' ko'sa, tura bor deyman», deb bir imtildi, ko'saning o'ngiridan ushlay ketdi. Yulpi bir tortdi. Ko'sa otning sag'risiga ag'darilib tushdi, yana bir tortdi. Yer qattiq, ko'sa ih-ih etib tushdi. Ko'sa boboning belida shopginasi bor edi. Ravshan qo'lini uzatib, ko'saning shopini sug'urib olib, o'z shopi bilan kallasini g'archcha kesib olib, ko'saning «polidan» shu yerda jovlik qutulib oldi. Ko'saning javobini berib, qulog'idan ushlab osmonga qarab otdi. Bachchag'arning kallasiyay, qurib qolgan quv kalla ekan, qanqillab havoga chiqib ketdi. Patta novvoy degan novvoyning tandırining ustidan borib tushdi. Patta novvoyning ko'zi tushdi, aqli shoshdi. Esidan adashdi. Chopib borib xotiniga: – Xo' xotin. Ko'rpa-to'shakni bo'g'ib, orqangga ko'tar-a ko'tar, xun tushdi, – deb bechora novvoy uydan chiqib qochdi.

Ravshanbek ko'saning ishini bir yoqli qilib, ko'chaning yuzi bilan, qizlarning izi bilan yurib bora berdi. Bir qancha yo'l yurib edi, oldidan chiqdi katta bir bog', bir yog'i chorbog', juda katta-kalondimog', ko'rganlar farog', shunday joyga borib qoldi. Qarasa, ko'p qizlar, ancha sarvinozlar, beadam kanizlar haykallashib, o'n bir, besh bir, to'p-to'p bo'lib, bir xili oz, bir xili ko'p bo'lib, yuribdi sayilbog' qilib.

A decorative border with repeating floral motifs surrounds the text. The motifs are stylized flowers with multiple petals, arranged in a continuous line.

Ravshanbek bildi, kechagi qizlar shu yerga kelgan ekan. Dimog‘i chog‘ bo‘ldi. Qizlarning ko‘zini olib, astagina emaklab, devorning bir teshigidan boqqa kirdi. Qarasa, bir to‘p qizil gul bor ekan, bo‘yi o‘sgan, ariq yoqasida, odam ko‘rinmas ekan. Ravshanbek astagina pisib borib gulning ichiga yashirindi. Qizlardan, mahrambachchalardan hech qaysining xabari bo‘lmadi, hech kim bilmadi, gulning orasida, bir tup gulning panasida yota berdi. Endi tomoshaning quyug‘idan chiqib qoldi.

Ravshanbek qarasa, bir katta bog‘, chir atrofi choppa-chog‘, bir yog‘i bog‘, bir yog‘i daraxtzor, katta-katta chinor, barisi katta daraxti soyador; ichi to‘la suv, g‘alt urib turibdi hovuzlar, pishib turibdi anor. Olmalar pishgan, to‘pillab ostiga tushgan. «Ana olma tushdi», deb qizlar yugurishib, biri-biri bilan talashgan, qaragan ko‘z qamashgan, ichida yuribdi qiz bolalar jaynashgan, juda ham boqqa yarashgan, necha barno suluvlar qora zulfin tarashgan, «anovdan yaxshi bo‘pmanmi?» deb oyna olib qarashgan, «undan men suluvman», deb bir-biridan so‘rashgan.


Qizlarning qilgan ishiga, o‘tirish-turishiga, qantarday gurullab yurishiga Ravshanxon qarab, erib yotir. Bog‘ning har yerida gullar ekilgan, xazon bo‘lib ostiga bargi to‘kilgan, shosupa ustiga suvlar sepilgan, katta-katta yakka mixlar qator-qator ko‘milgan, kichkinasi keliday, kattasi tuyaning beliday. Oq o‘rdalar, atlas, kimxob, zarbof soyabonlar, har bir katta imorat tomlar, oldi peshayvonlar, ganchlangan, gul kesgan, naqqoshlar naqshlab tashlagan, devorlarini g‘ishtlagan, loyini juda ishlagan. Tovus, xurramlar quyrug‘ini chotir qilib, o‘z shavqi bilan chir aylanib, mast bo‘lib, xiromon-xiromon yuribdi. Bog‘ ichida

jami parranda – uchadigan qushning bari bor. To‘tilar dam tortib, maynaga qarab chaq-chaq uchurgan, bul-bullar qizil gulning zavqi-shavqida necha alvonda sayrab, g‘azalxonlikda turibdi. Musicha, g‘urraqlar g‘urullab, huv tortib, kaphtarlar halqa bo‘lib, haqqular haq-haq deb, qumrilar do‘st tortib, g‘azalaylar sayrab, har bir qush o‘z ohang-shavqida ohang tuzib, nag‘mada turibdi boqqa oroyish berib. Nag‘masozlik bir munosib yarashib turibdi. Hech zamonda, sho‘l vaqtda bunday farahmand, xushxayol joy hech yerda aslo yo‘q, ko‘rganlar farog‘, ko‘rmaganlar dog‘, har qanday qurumsoq ko‘rsa, dimog‘i chog‘. Ana bog‘, mana bog‘, Iramning bog‘i buning oldida bedimog‘.

Ravshanbek bunday joyni ko‘rib, qo‘rg‘oshinday balqib erib, ko‘p qiziq tomoshani bepul ko‘rib yotipti. Shosupalarning ustida qizlar, satta sarvinozlar, necha jodu ko‘zlar, lablari qirmizlar, shirin-shakar so‘zlar, o‘n bir bo‘lak, besh bir bo‘lak, o‘n besh bir bo‘lak o‘ynashib yuribdi. Ana shu bog‘da bitta ham erkak yo‘q. Qizlar o‘ynashib, qizg‘aldoqday yashnashib, choyjo‘shday qaynashib, yilqi bo‘lib kishnashib, bir-birovi bilan tishlashib, katta bog‘da mushtlashib, bir xillari birov-birovining bo‘yniga qo‘lin tashlashib yuribdi. Ravshanbekka tomoshaning bari bir yoq, Zulxumor oyimning jamoli bir yoq bo‘lib ko‘rib yotipti, moyday bo‘lib erib yotipti, o‘zi gulning ichiga kirib yotipti, boshqa qizlar ham yaxshiku, ulardan jerib yotipti.

Shunda qizlar bob-bobi bilan, o‘z to‘rida o‘tirib o‘ynab, choyni damlab, asbobini g‘amlab, Zulxumor oyim qizlarni jamlab, darvozani berkitib, erkaklarni hurkitib, o‘z zavqi-shavqida nag‘ma qilib, daplarni

¹ O‘sha.



chalib, qarsakchi qizlar qarsak urib, naychi qizlar nayni chalib, g'ijjak, balabon chalib, karnaychi qiz karnayni qo'yib, necha o'yinchi barnolar qo'l qoqib, o'rtaga tushib o'ynab turibdi. Qizlar bir bazmlar, tapur-tupur o'yinlar qilayotir, qizig'i keyin bo'layotir. Mast bo'lib, hech nima bilan ishi yo'q, qo'rqitadigan kishi yo'q, boshqa narsa bilan hushi yo'q, ko'pining aqli-hushi yo'q. Bazm avj urgan, daryoday bo'lib mavj urgan, necha garov – bas bo'lgan.

Bazm tarqadi. Bazmchilar, nag'machilar nag'masini qo'ydi, o'yinchilar o'yinini qo'ydi, liboslarini kiydi. Qizlarning qorni to'ydi, bir xili uxlagani boshini yastiqqa qo'ydi. Bir xil sho'x, kam uyqu qizlar jo'ra bo'lib, uchov bir, to'rtov bir, oltov bir bo'lib, gul termoqqa gulzorlarni oralab, yaxshisidan saralab, bir-birining orqasidan oralab, saralab g'unchasidan saylab, nimchasidan dasta-dasta qilib, qo'llariga olib, bir xilini boshlariga sanchib, olamdan xabari yo'q, qaqirlab-qiqirlab kulib, gulga talashib, birovining oldiga birovi chopib o'tib, «gulning yaxshisini men olaman», deb yugurgilashib, to'planishib, o'nta qiz Ravshanbekning ustidan kelib qoldi.

Ravshanbek nima qilarini bilmay, «har gap bo'lsa bo'ldi», deb shunday boshini ko'tarib, qizlarga bir qaradi. Ravshanni ko'rgandan, ne balosi keldi, deb qizlarning rangi o'chib, chayladay buzilib, ipday tizilib, munchoqlari uzilib, bir xili qochdi uloqib. Qizlarning ongi ketib, ikki qulog'i chippa bitib, hisobi yitib, esankirab, bir xili ro'molini yo'qotib, entikib, halloslab, voy-voy solib, qochgan bo'yicha qochib, chuvlab Zulxumorning oldiga bordi. Zulxumor oyim, xulqi-xo'yi muloyim bu qizlarni ko'rib hayron qoldi. Qizlarga qarab: – Nega muncha qo'rqdinglar,

bog‘da ilon bormikan, sizlarni bir nima quvdimi, nimaga bunday hurkib, qochib keldinglar, bog‘da nima bor ekan? Borib suv ichinglar! – deb urishdi. Shunda qizlar damini rostlab olib, Zulxumor oyimga qarab, bir so‘z deb turi:

Bizlar sayr etgali bordik chorboqqa,
Odami yo‘q gul ochilgan ovloqqa,
Qizlar bilan gulni terib, jon buvim,
Qarab yurdik gulni terib har yoqqa.

Shohlarning oldida bo‘lar shotiri,
Yovcha bo‘lar yigitlarning botiri,
Yurib edik, gullar terib, buvishim,
Bir yigit u yerda pisib yotiri¹.

Barimizni ko‘rib yotir bir yigit,
Qalin gulga kirib yotir bir yigit,
Bir odam yotipti bog‘ning ichida,
Gullaringdan terib yotir bir yigit.

Bir yigitdir, yigitlarning tozasi,
Yomon ishning doim bordir jazosi,
Bir yigitni ko‘rib keldik gulshanda,
Barakalla, yigitlarning mazasi.

Biz ustidan borib qoldik banogoh,
Ming ofarin shuni tuqqan enaga.
Bir ta‘rif aylayin, kuygin buvishim.
Tanda jonim shu yigitdan sadaqa.

Yoshligida adab opti mulladan,
Bir zuvala ortiq kelgan ollodan,
Zulfi zarafshonni ko‘rdim, buvishim,
Bir kokili nuqra, biri tilladan.

¹ Yotipti.

Bir yosh yigit, yetishgandir kamoli,
Kunni xira qilar oyday jamoli,
Yuz ofarin shuni tuqqan enaga,
Yuziga yarashgan kelishgan xoli.

Paydo bo'пти qanday gavhar donadan,
Parvoz qilib uchib¹ manzilxonadan.
Yigitning me'rojin ko'rdik gulshanda,
Unday yigit kam-kam tug'ar enadan.

Bunday xushro'y bo'пти, haqning farmoni,
Uni ko'rganlarning ketar darmoni.
Bir yigitni ko'rib keldik bog'ingda,
Unga tekkan qizning dim yo'q armoni.

Oyimlar o'tirar haykalin osib,
Bo'ynida mushk isi, anbarlar sasib,
Unga tekkan qizning dim yo'q armoni,
Shu yigitdir, buvim, senga munosib.

Zulfiari tilladan, zarli kulosi²,
Topilmaydi shirin jonning hiylasi,
Bilmayman qayerdan kepti bog'ingga,
Qaysi yurtda qanday shohning bolasi.

Ko'zlari qambardir, bodom qovog'i,
Bilagi temirdan, po'lat tirnog'i.
Ko'nglida lekin ko'p qayg'i ham dog'i,
Bu yerlikka o'xshamaydi siyog'i.

Qaysi yurtda qanday shohning chirog'i,
Rangin sarg'aytibdir yo'lning yirog'i,
Husni ko'rsang, yaxshi odam tarmog'i,
Oralasa shunga lozim chorbog'i.

¹ Uchibdi.

² Kulohi.

Quloq solgin menday kaniz so'ziga,
Bunday yigit ko'rinmagan ko'ziga,
U yigitlar arzimaydi iziga,
Shunday yigit loyiq shohning qiziga.

O'ynatib o'tirsang olib tizinga,
Ko'zing to'ysa qarab gulday yuziga,
Hech kim alishmaydi shohlar qiziga,
Jonim qurbon qoshi bilan ko'ziga.

Kokilingning bandin tuygin, buvishim,
Yarashiqqa turli kiygin, buvishim,
«E» degan so'zingni qo'ygin, buvishim,
Erga tegsang, shunga teygin, buvishim!

Qirg'iy degan qushlar bo'lar qiyoda,
O'limcha yomon ish bormi dunyoda,
Erga tegsang, shunga tekkin, buvishim,
Suluvligi, volloh, sizdan ziyoda.

Dunyoda bearmon o'tayin desang,
Bir mardning etagin tutayin desang,
Erga tegsang, shunga tekkin, buvishim,
Olmaday iskalab yotayin desang.
Jon buvishim, boshqani qo'ygin, buvishim,
Erga tegsang, shunga teygin, buvishim!

Zulxumor oyim, xulqi-xo'yi muloyim, kanizla-
ridan muncha ta'rif, tavsiflarni eshitdi, o'zi ham qi-
zishib ketdi, bazo'r entikib, joyidan bir qo'zg'alib
o'tirdi. Ko'ziga shu vaqt bir xil yigitlar yaxshi
ko'rinadigan bo'lib qolib edi. Qizlar bilmasin, deb
o'zini bosdi, yuragi hovliqib qoldi. Zulxumor oyim
bir entikdi. Qizlarga ko'p otashin bo'la berdi.

– O' uchangdan urgurlar! Nima balo bo'ldi siz-
larga? Bir odamni shuncha maqtaysizlarmi, e o'la

qolgurlar, nima balo bo'ldi, beti qoralar! Suluvligi mencha bo'ladi-da, mendan ham suluv bo'ldimi? Shoshgan o'jarlar, o'lganlaring yaxshi, – dedi.

Shunda kanizlarning yoshginalari, undan boshqalari ham: – Ho' buvishim, bizlar ham ko'rdikku, moxov bo'layin, qiyshiq bo'layin, unga ko'nmasang, pes bo'layin, sizdan suluv, – deyishayotir.

Unda Zulxumor oyimga juda yoqib: – Esa, Oqqiz, borib sen ham ko'rib kelchi! Qo'lingga laganini ol, oldiga bor, qanday odam ekan, nimaga kelgan ekan, qaysi yurtdan bo'lar ekan, bu bog'da nima qilar ekan? Sen aytgin: «Bu boqqa erkak, jin, jondor kelmaydi. Bu podshoning qizining bog'i, sen qayoqdan kelding?» – deb so'ra, agar mehmon bo'lsa, bizlarni bilmay kelgan odam chiqar; bizni ko'ribdi, bir la'li tilla yuz ko'rim bersin, bo'lmasa qanday odam ekan, nimaga yurgan ekan? Bor, Oqqizjon, tayinini bilib kel! – deb vazir qizini yubordi.

Oqqiz bilqillab, inqillab, shinqillab joyidan turdi, qo'liga laganni olib, gullarni oralab, moralab, bek Ravshanni qoralab bora berdi.

Oqqiz shunday qiz edi: oti Oqqiz, Zulxumorga naq' qiz. Oqqiz o'zi oq qiz, o'zi to'lgan sog' qiz, o'rta bo'yli chog' qiz, o'ynagani bog' qiz, uyquchi emas, sog' qiz, eri yo'q – o'zi toq qiz, ko'p kalondimog' qiz, yaxshi tekil bo'z bolani ko'rsa, esi yo'q – ahmoq qiz, qora qiz, bodom qovoq qiz, sinli-siyog qiz, o'zi semiz – turishi yog' qiz; o'yinga qulayroq qiz, to'g'ri ishga bulayroq qiz, o'zi anqov olayroq qiz, tanasi to'sh qo'ygan keng qiz, sag'risi do'ng qiz, urushqoq emas – jo'n qiz, a'zosi bari teng qiz; yaxshilardan so'ng qiz, et ko'targan go'shdor

¹ Naqd.

qiz, biqini tor, to'shdor qiz, aqli kam, hushdor qiz. Oq yuzin ko'rsang, oyday, hurkak-asov toyday, olg'ir-qarchig'ayday qiz; yuvoshligi qo'yday, semiz emasmi, yoysang, eriydi sarig' moyday. Shunday oq qiz edi: sayroqli, kachkil bet, pas burun, kulcha betli, o'rta bo'yli, qizil chiroyli, keng manglayli, tor biqinli, qobirg'ali, go'shdor, to'shdor, olchanglagan, boybicha monand, og'ir ko'chgan, qulog'i yuqa, iya-gi sergo'sht, qoshi ko'proq, bir-biriga ushlar, ko'zi qisiqnamo qiz edi.

Bir-bir bosib, Ravshanning oldiga kelib, saddi-bastiga, baland-pastiga qarab, «xo'p yigit ekan», deb Oqqiz ko'p behuzur bo'ldi. Bunga ham yoqib qoldi. Ko'nglida aytdi: «Buvishim qursin, kimni ko'rsa, yuz ko'rim bersin deydi-da; shu bolalardan ham yuz ko'rim olsa bo'larmi. Bu hirsu dunyo to'qol-da; bo'lmasa shu bolalarni uch kun, to'rt kun mehmon qilsang, shuni er qilsang, boshqani sadqayi sar qilsang, topganingni shunga kiydursang, oqshom ham, kunduz ham o'zingni suydursang», – deb Oqqiz ham yaxshi ko'rib qoldi.

Oqqiz kulib, iljayib: – Hormang, yaxshi yigit, qayoqdan bo'lasiz, bu boqqa qayoqdan kelib qoldingiz? – deb savol so'rab, bek Ravshanga bir so'z aytib turibdi:

– Tarzingga qarayman, nodon bolasan,
Qasd qilgan g'animgni o'tga solasan,
Yurting qayer, qaysi eldan kelasan,
Zulfi zarafshonim, qaydan bo'lasan?

– Men bilmayman makonimni, yurtimni,
Kimga aytay, oy qiz, ichki dardimni,
Darbadar yurganga elat nimishlar!
Bilmayman, Oqqizjon, viloyatimni.

– Oyim qizman, zarli ro‘mol o‘rayman,
Taroq olib qora zulfim tarayman,
Zulfi zarafshonim, qaydan bo‘lasan?
Tarzing ko‘rib makoningni so‘rayman.

– Bu judolik meni qildi sargardon,
Ayriliqdan yurak-bag‘rim to‘la qon,
Mening dardim qo‘zg‘ay berma, Oqqizjon,
Oshiqda bo‘lmaydi manzil ham makon.

– Rostin aytgin sen, diyoring qaysidir,
Unib-o‘sgan ul shaharing qaysidir,
Vallamatim, azamatim, yosh bachcha,
Qilib yurgan kasb-koring qaysidir?

– Zotim o‘zbek, men bilmayman xeshimni,
O‘zim nodon, haq o‘ngargay ishimni,
Dunyoda kasbim yo‘q, ixtiyorim yo‘q,
Bir xudo, deb olib chiqqan boshimni.

– Polvon to‘ram, sen yashirding siringni,
So‘rayman, aysang-chi o‘sgan yeringni,
Harna darding bo‘lsa menga so‘ylagin,
Ko‘nglingdan olayin zang-u kiringni.

– Mening sirim, ixtiyorim menda yo‘q,
Bir yerda turmoqqa qaror menda yo‘q.
Oshiq ixtiyori ma‘shuq qo‘lida,
Bu bog‘da o‘zimdan xabar menga yo‘q.

– Bir bog‘chada olmamidi, normidi,
Mard yigitga avliyolar yormidi,
Sendan buvim yuz ko‘rining tilaydi,
Polvonim, kissangda puling bormidi?

– Quloq solgin turli-turli namaga,
Yaxshi so‘zdan odam bo‘lar sadag‘a,
Musofirman elatingga, bo‘yingdan,
Bir safarga tushib turgin oraga.

– Mehring bilan sen qaragin yuzima,
Ko'nglingni qo'ya qol qora ko'zima,
Bir safarga tushsam tushay o'rtaga,
Kirasiga ne berasan o'zima?

– Sen tila, qatorda beray norimni,
Nor ustiga yuklab beray zarimni,
Bir safarga tushib turgin oraga,
Undan so'ngra olgin har darkoringni.

– Qizlar bilan o'ynagali bog' yaxshi,
Bahorda salqinli sovuq tog' yaxshi,
Necha-necha nasiyandan kuyganman,
Hama bersang, to'ram, bizga naq yaxshi.


– Mard o'g'lonman, ishim haqdan ko'rayin,
O'lmasam dunyoda davron surayin,
Nasiyadan kuygan bo'lsang, bo'yingdan,
Esa tila, maqsadingni berayin.

– Sening husning mening aqlim oladi,
Suratlaring bir xayolga soladi.
Mol-u dunyong darkor emas Oqqizga,
O'xshatib bir muchchi olsang bo'ladi.

– Esa, Oqqiz, aytganingni qilayin,
Kuygan qulman, gapni gapga ulayin,
Shu mavridga ko'ndirib kel Xumorni,
Bir muchchi yo'q, to'qqiz muchchi olayin.

– Zolim Xumor yuz ko'rimni o'tarmi,
To'qqiz muchchi hali senda yotarmi,
Polvon to'ram, hech nishonang yo'qmidi,
Esa to'ram, lagan quruq ketarmi?

Musofir qulingni qilmagin qalloch,
Talabli har bandangning baxtin och,
Mamlakatga bermaydigan niginni
Ravshanbek laganga soldi noiloj.



Ana endi Oqqiz dikillab yuzukni olib, qo'liga so-
lib, laganni qo'liga olib ketdi, Zulxumorning oldiga
yetdi. Zulxumor oyim aytdi: – Ho', Oqqiz, mehmon-
ning hech nimasi yo'qmi ekan, laganni quruq olib
kelding?

Oqqiz aytdi: – Uning o'zi qursin, bo'zargan ko'zi
qursin, «hech nimam yo'q», deb yerga tiklab o'tirsa,
men nima deyman, hech narsasi yo'q ekan.

Zulxumor aytdi: – Hech narsa ham bermadimi,
ko'p gaplashib o'tirding, bir nishona ham bermadi-
dimi?

Unda Oqqiz: – Bitta pul yuzugi bor ekan, shuni
berdi, – dedi.

Zulxumor oyim: – Qani men ko'rayin, – dedi.

Oqqiz qo'lini ichiga olib yashirib: – Ha, sen-
ga bizlar shunday xizmatkor-da, bizlarga bir pul
yuzukni ham ko'zing qiymaydi, shuni ham olib
qo'yasan, – dedi.

Zulxumor oyim aytdi: – Ho' beti qora, borgan ki-
rangga yuzukni senga berdim; shunchaki, ko'rayik,
ne nishonasi bor ekan. Bizning muddaomiz: shu
yigit aslzodami, yo bir bekszoda, poshshozodami,
xonzodami, xo'jazodami, albatta, bir yerda nishonasi
bo'ladi, har kimning o'ziga yarasha belgisi bo'ladi,
shuni ko'rib beraman, bo'lmasa yuzuk o'zingniki.

Oqqiz achchig'i kelib, «o'zi pul yuzuk ovo-
rasi», deb qo'lidan chiqarib otib yubordi. Boyagi asl
yuzuk jingirlab un berib, yumalab borib tuproqqa
botib turdi. Shunda Zulxumor oyimning o'zi turib
borib, yuzukni olib, tozalab qarasa, yuzukning xati
bor. Zulxumor oyimning ham sharro-shar savodi
bor. Zulxumor yuzukni ko'rsa, olam mamlakatga
bermaydigan xosiyati bor, jamiy dev, parini bandiga
olgan bandi bor. Har qayerdagi yaxshi, suluv, barno

qizlarning oti bor, bir burchida o'zining oti bor, ham surati bor. Shunda Oqqizga qarab: – Shunday yuzukni ham odam otarmi, pul yuzuk shumi? O'lganing yaxshi emasmi, – deb Oqqizga qarab, Zulxumor oyim bir so'z dedi:

Ayo Oqqiz, daryoday bo'p to'lmading,
Ajalginang yetib, sen bir o'lmading,
«Zarning qadrin zargar bilar» har yerda,
Oqqiz-a, niginning qadrin bilmading!

Shundayin niginni odam otarmi,
Shunday nigin tuproqqa ag'nab yotarmi,
Agar bunga baho qo'ysa egasi,
Olanan deganman¹ kuchim yetarmi?
Oqqiz-a, niginning qadrin bilmading!

Oydayin ochilgan mening baxtimdi,
Daftarimda nasiyamdir, naqdimdi,
Agar bersam bunga gavhar taxtimdi,
Oqqiz, bo'lmas bilgin nisfi bahosi,
Oqqiz-a, niginning qadrin bilmading!

Endi senga aytay ichki dardimni,
Sinamoqchi nomardimni, mardimni,
Agar bersam shunga Shirvon yurtimni,
Shunda ham bo'lmaydi nisfi bahosi,
Oqqiz-a, niginning qadrin bilmading!

Oqizsam ko'zimdan qonli yoshimni,
Eshitgin, Oqqizjon, bu nolishimni,
Agar bersam bunga qora boshimni,
Sarf aylasam qavmim bilan xeshimni,
Shunda ham bo'lmaydi nisfi bahosi.
Oqqiz-a, niginning qadrin bilmading!

¹ Degan bilan.

Ko'rmaysanmi bu niginning xati bor,
Dev-parini bandiga olgan bandi bor,
Har kimsa bir ko'rsa muhabbati bor,
Olamga bergisiz xosiyati bor.
Oqqiz-a, niginning qadrin bilmading!

Niginning egasi nomdor ekandi,
Bir shaharga shohi tojdor ekandi,
Har kimni desang, shuncha bor ekandi,
Shu bachcha to'ra e'tibor ekandi,
Oqqiz-a, niginning qadrin bilmading!

Bunday nigin bo'lar katta shohlarda,
Yer yuzining ishidan ogohlarda,
Qayoqda bir necha kadxudolarda,
Sira tegmas nigin sendaychalarga.
Oqqiz-a, niginning qadrin bilmading!

Qizlar aytdi: «Sendan ziyod kelbati,
Endi bildik, baland ekan davlati,
Xor qilmanglar, bir azizning farzandi,
Biz siyladik shu niginning hurmati.
Oqqiz-a, niginning qadrin bilmading!

Nomardga ketmasin bir mardning ori,
Kuyganlarning chiqar oh bilan zori,
Bir yurtning to'rasi, elning qo'chqori,
Bizning uchun kelgan bir el nomdori.
Oqqiz-a, niginning qadrin bilmading!

Eshitgin, Oqqizjon, yig'laganimni,
Sabil qilay Shirvondayin shahrimni,
Niginning hurmati bag'ishlay tanimni,
Izzat bilan keltir pahlavonimni.
Oqqiz-a, niginning qadrin bilmading!

Bog'da bo'lar toza gulning lolasi,
Topilarmi shirin jonning hilasi,
Xor qilmanglar, bir azizning bolasi,

Kelib bo'lsin toj-u baxtim egasi.
Oqqiz-a, niginning qadrin bilmading!

Quloq solgin Zulxumorning so'ziga,
Bir nechalar yetolmaydi iziga,
Har yuzukni kim qo'yibdi bizlarga,
Obborib ber omonatin o'ziga.
Oqqiz-a, niginning qadrin bilmading!

Kanizlar, boringlar, bekni siylanglar,
Poyandozga yaxshi libos taylanglar¹,
Yaxshi mehmon ekan, xizmat aylanglar,
Kiyintiring, yasantiring, shaylanglar.
Oqqiz-a, niginning qadrin bilmading!

Boqqa kepti mening aziz mehmonim,
Unga fido bo'lsin tandagi jonim,
Yurtimning egasi, davlatli xonim,
Shafqati ko'p, muruvvatli sultonim.
Oqqiz-a, niginning qadrin bilmading!

Oqqizdan qancha qizlar bilan, necha jodu ko'zlar bilan, shirin-shakar so'zlar bilan, xizmatkor kanizlar bilan niginni berib yubordi. Oqqiz niginni olib, boshqa qizlar palos, gilam ko'tarib, adras, atlas ko'rpachalar, par yostiqlar olib kelib qoldi. Ravshanbekning tevaragini qizlar olib qoldi. Qizlar daryoday bo'lib to'lib qoldi, nechovining ichi kuyib, o'lib qoldi. Qizlar Ravshanni bir yaxshi yerga ergashtirib borib, ko'p qizlar girdini olib, yaxshi paloslar solib, Ravshanbekni o'tqizib, qand ustiga novvot, shira ustiga sharbat, shakar ustidan asal, yong'oq ustidan bodom, pista ustidan rusta, mayiz ustidan oftobi, uning ustidan objo'shi miska mayiz; sho'rva ustiga palov, choy ustiga shirchoy, uning ustiga sarimoy, ziyofat

¹ Tashlanglar.

ustiga ziyofat tortayotir, ortganini opketayotir¹, dadadagi qizlar yeb ketayotir, ko'rgan qizlar «ha, seni-mi», deb ketayotir.

Kun kech bo'ldi, oftob botdi, yer yuzi qorong'i bo'ldi. Qizlar bek Ravshanni yasatib, o'rdaga olib jo'nadi. Qizlar bari g'arroq mast bo'lib, bir turli sozlarni qo'yib, har usulga nag'ma qilib, har tusli o'yindan o'yinchilar o'ynaytir.

Qizlar taloto'p bo'lib, o'z vaqtidagi rasm-rusmlari, hangama, kulgilari bilan Ravshanbekni Zulxumor oyimning oldiga olib bordi. Katta qizlar o'rta olib, «kampir o'ldi», «it hurullar», «soch siypatar», «qo'l ushlatar»larini qilib o'tkardi. Ikkovini tilla taxt ustida tizdan ko'rpa, beldan dostiq qo'yib, qizlar chiqib ketdi.

Ravshanbek Zulxumor oyim bilan ikkovginasi bir ovloq uyda o'tirib qoldi. Shunda Zulxumor oyim to'rasining saddi-bastiga, baland-pastiga qarasa, Ravshanxon so'ylaydi alvon-alvon, yag'rini yoziq polvon, yuzlari olmaday pishgan, zarkokil irg'olib gardaniga tushgan, ko'rganing aqli shoshgan, suluvligi haddidan oshgan, kiygan to'ni, o'tirish-turishi juda ham yarashgan. Ikki yog'ida ikki to'p kokili bor, el-yurtdan ziyod aqli bor, bir yog'ini nuqra suviga botirgan, bir yog'ini tilla suviga botirgan, tong shamoliga qotirgan; Yunus pari bilan Misqol pari o'rgan, kuniga o'n uch-o'n to'rt ko'rgan, bir yeri zehniga yoqmasa, buzib qaytadan o'rgan.

Zulxumor ichida aytdi: «Bu to'ram har qanday odam bo'lsa, bu tilla kokil nima ishlaydi. Ulay-bulay odamda tilla kokil, bu yuzuk tushib qolibdimi? Bu bir asl – tegdor, xonzodami», – deb joyidan turib,

¹ Olib ketayotibdi.

qo'l qovushtirib, qoshini kerib, labini burib, chikka
bel bo'lib, qaqqayib turib, bir so'z aytadi:

Kelbating, savlating lochin qarchig'ay,
Shohlar chiqsa, tortiladi nuqra nay.
Yaxshi kelding, to'ram, toza kelibsan,
Xush kelibsiz, ana manzil, ana joy.

Endi siznikidir davr-u davronim,
Ko'rgandan emrandi tandagi jonim,
Oyog'ing ostida taxti ravonim,
Xudo bergan menga aziz mehmonim,
Xush kelibsiz, ana manzil, ana joy.


Sizga bo'lsin tanimdagi bu jonim,
Siz erursiz mening orzu-armonim,
Men kanizing bo'lsam, ayo sultonim,
Meni izlab kelgan aziz mehmonim,
Xush kelibsiz, ana manzil, ana joy.

Ega bo'p¹ so'ragin Shirvon ellarni,
Qush solib ovlagin oydin ko'llarni.
Ko'ngil ketsa quching xipcha bellarni,
Sayron qilgin tar ochilgan gullarni,
Xush kelibsiz, ana manzil, ana joy.

Ot chopilar baland tog'ning pastiga,
Quloq soling gapimning payvastiga,
Qarab bo'lmas chin botirning bastiga,
Qo'ygan qadamlaring diydam ustiga,
Xush kelibsiz, ana manzil, ana joy.

Men sizga munosib ko'rdim o'zimni,
Eshitgin, mard to'ram, aytgan so'zimni,
Xizmatkor qilg'aysan ko'p kanizimni,
Telmurtma, mard to'ram, shahlo ko'zimni,
Xush kelibsiz, ana manzil, ana joy.

¹ Bo'lib.



Endi to'ram, senikidir bu joylar,
Tilladan naqqoshli oltin saroylar,
Xizimatingda yuzi bir to'lgan oylar,
Rang-barang taomlar, turli sarpoylar,
Xush kelibsiz, ana manzil, ana joy.
Olib iching bir piyola berdim choy,
Mehri bilan kosa berdi Xumoroy.

Ravshanbek Zulxumor oyimning qo'lidan choyni olmadi. Ravshanbek Zulxumor yorining oldida aytdi: – Sening uchun Chambilday diyorimni, otam – Hasan mardday ajdahorimni, enam – xon Dalliday g'amguzorimni tashlab, elimdan, yurtimdan chiqib, musofir, g'arib bo'lib, tanimagan kishining yurtiga shuncha alamlar, sitamlar, ranj-u mehnatlar tortib keldim; ana seni topdim, murod-maqsadimga yetdim. Lekin sening otang – Qoraxon zolim bir podsho; sen otang bilan bo'lib, menga vafo qilmaysan, – deb qo'rqaman.

Unda Zulxumor oyim bir so'z dedi:

Agar suysang, qo'yningdagi yoringman,
Sening uchun doim intizoringman,
Har so'zingdan tanda jonim aylansin,
Mening uchun xafa bo'lma, bo'yingdan.

Men gulingman, bulbulimsan, to'rajon,
Sen mening jon-u dilimsan, to'rajon,
Yorim bevafo deb xafa bo'lmagin,
Xohlab tekkan ko'nglimsan, to'rajon!

Qiyomatli hamrohimsan, to'ramjon,
Xohlab olgan dilxohimsan, to'ramjon,
Tanda jonim jasadindan aylansin,
Tan mulkida podshoyimsan, to'ramjon.

Ko'zimning yorug'i, tanim rohati,
Jonimning huzuri, belim quvvati,
Vallamatim, saltanatli polvonim,
Zulxumorning sening bilan davlati!

Er dedim, etaging tutdim men endi,
Boshqaning bahridan o'tdim men endi,
Sen na yo'lda bo'lsang, ketdim men endi,
Sening bilan vatan etdim men endi.

Sensan mening endi orzu armonim,
Sening bilan o'tsin davr-u davronim,
Meni deb kelgan aziz mehmonim,
Zulxumor haqiqatli yoring, polvonim.

Men yoringman, sensan umrimning guli,
Sening bilan bo'lsin umrim hosili,
Zulxumorning sensan ham joni, dili,
Doim senda sevar yorning ko'ngili.

Senga yarashsin-da gulzor manzili,
Mening gulzorimda sayrar bulbuli,
Sizning, jon to'ram, Shirvonning eli,
Dabdala bo'lmasin mardning ko'ngili.

Ravshanbek Zulxumor yoridan bu so'zlarni eshitib,
gul-gul yonib, quvonib, yorini suyib, ana-mana
degancha o'n besh, yigirma muchchini olib, Zulxumor
oyning dimog'i chog' bo'lib, to'rasini o'ziga
ishtiyoq qilib, bir so'z dedi:

Ana, sen so'rasang, Shirvon seniki,
Mulku davlat, alvon-alvon seniki,
Zulxumorday chaman, bo'ston seniki,
Sura ko'rgin, yorim, davron seniki.

Bahra olgin, to'ram, shirin so'zimdan,
Oshiq bo'lsang, qolma mening izimdan,

To'lganligi ravshan oyday yuzimdan,
O'pa ko'rgin, yorim, davron seniki.

Xina qo'ygan nozik qo'ldan ushlagin,
Suyib-suyib oq betimdan tishlagin,
Menday suluv bilan vaqting xushlagin,
O'ynasha ko'r, yorim, davron seniki.

Bog'bon bo'lib uzgin toza gulimdan,
Oshiqning parvoyi bo'lmas o'limdan,
Qo'rqma, yorim, mening Shirvon elimdan,
Sura ko'rgin, yorim, davron seniki.

Mening gulzorimni sayron aylading,
Gulzorimda bulbul bo'lib so'ylading,
Mening to'shim sening doim yayloving,
Yaylay ko'rgin, yorim, davron seniki.

– E to'ram, siz hali «Zulxumorga oshiqman, meni kuydirdi, yondirdi», deb yurgansiz; hali siz bilmaysiz; Zulxumor sizga oshiq, sizning undan xabaringiz yo'q-da. Bo'lmasa, men boya qizlar – kanizlarga buyurib, urishib, quvlatib yuborganda, nima qilar edingiz? Siz ham urishib-urishib ketar edingiz-da. Men sizga, sizdan oshiqroq uchun qizlarni yuborib, olib kelib, silab-siypab, yangi yuvoshib oldim; siz hali ham hurkib turibsiz. «Oshiq degan ilgaridan bir ko'hna qo'shiq». Hali siz yosh bola, oshiqlikni nima bilasiz. Oshiqlikning ma'nosin Zulxumordan so'rang, sizni men uyg'otib qo'yayin. Hali siz oshiq bo'ldingizmi, biz ma'shuq bo'ldikmi? Ana endi, to'ram, biz sizniki bo'ldik, siz bizniki bo'ldingiz! – dedi.

Necha kun o'tdi. Ravshanbek Zulxumor bilan bo'lib ketdi. Anov qizga «men o'rtaga tushsam nima berasan», deganda to'qqiz muchchi va'da bo'lib edi.

Qoqqiz shu to'qqiz muchchini bugun olar, bugun olar, deb olti kun o'tdi. Qoqqiz qaradi, Ravshanbek Zulxumorning shavqiga g'arq bo'libdi, Qoqqizdan dim so'ramasa ham ajab emas, juda beparvo, Qoqqizga qaramay ketib boradi. Qoqqizga turib-turib bu ish o'tdi, achchig'i kelib turib ketdi. Uyiga yetdi.

Qoqqizning enasi bor edi, Shirvon eli mastonlarining ustodi edi, barisidan baland edi. Qoqqiz to'g'ri borib, enasiga voqyeani bir-bir aytib berdi.

Qoqqizning enasining qahri kelib, ilonday zahri kelib, bir katta oq eshagi bor edi, opkep to'qimlab, eshakni teskari minib, Qoraxon podshoning oldiga qarab bora berdi. Qoraxon podsho davlati bilan o'tirib edi, katta maston Qoraxon podshoga qarab bir so'z deb turibdi:

So'rasang, shaharing, elingdir Shirvon,
Shirvonning elida davr ila davron,
So'zima quloq sol, bayon aylayin,
Katta maston arzga keldi Qoraxon...

Shirvonga vallamat deydi o'zingni,
O'zing o'lmay dushman bosib¹ izingni,
Hammaga adolat qilding, Qoraxon,
Tergamading buzuq, battol qizingni.

Qizing turkman eldan birov topibdi,
Qizing ko'ngli shu turkmanga og'ibdi,
Tergamading, shohim, battol qizingni,
O'ylagin, Shirvonga balo yog'ibdi.

Arkoni davlating bari qoshingga,
Qo'l quvshirib² turur tegra-toshingga,
Yovmitning elidan birov kelibdi,
Battol qizing, xonim, yetar boshingga.

¹ Bosibdi.

² Qovushtirib.

Qiz degan o'ylasang, xonim, dushmandir,
Dushmanligi dushmanlarga tushgandir,
Sening qizing o'zbaklarman bir bo'lib,
O'ylagin, qasdingga sening tushgandir.

Yurtingga e'tibor bo'lg'in, Qoraxon,
Doimo tojdor bo'lg'in, Qoraxon,
Quloq solgin katta maston so'ziga,
Qizingdan xabardor bo'lg'in, Qoraxon.

Qizing buzar shaharingni, yurtingni,
Vayron qilib ketar mamlakatingni,
Sening qizing o'zbak bilan bir bo'lib,
Shohim, barbod bermasin davlatingni.

Qiz deganning ko'zini o'y, Qoraxon,
Yoshlikdan birovga ber qo'y, Qoraxon,
Ana katta qilding, topdi dushmanni,
Olib kelib tezroq so'y, Qoraxon!

Qizingga ishonsang, yurting ketadi,
Axir boshingga shu qiz yetadi,
Battol qizing, xonim, yetar boshingga,
Axiri shohlikni barbod etadi.

Armon bilan bilmaganin bildirgin,
Xanjar chekib, bag'rin qonga to'ldirgin,
Yomon qizing axir yetar boshingga,
Qizingni ham qo'shib, shohim, o'ldirgin!

Oqizgin ko'zidan selob yoshini,
To bilmasa, sinab bo'lmas kishini,
Qoraxon, ko'rdingmi qizning ishini,
Ikkovining birday kesgin boshini!

Poralab-poralab go'shi o'silsin!¹
Qochmoqqa qo'ymasin, yo'li to'silsin,

¹ *Tilishlansin.*

Qizing bilan ikkovini bir ushlab,
Ikkovining boshi birday kesilsin!

Karvon yursa, katta chiyir yo‘l bo‘lar,
G‘afatiga qayg‘u-vahm mo‘l bo‘lar,
Ikkovining birday kesgin boshini,
Xonim, senga aytgan so‘zim shul bo‘lar...

Men aytdim, xabardor bo‘lgin o‘zingdan,
Shirvon elda, bilsang, so‘zlar so‘zingdan,
Xonim, endi dushman bo‘pti bir qizing,
Xonim, xabardor bo‘l Xumor qizingdan!

Bir yigitni Zulxumoring topibdi,
Xumorning Shirvondan ko‘ngli sovibdi,
Shu qizingdan xabardor bo‘l, Qoraxon,
Qizing ko‘ngli boshqa yurtga og‘ibdi.

Men aytdim, Qoraxon, xoh qil, qilmagin,
Qilmayin so‘ng ko‘p pushaymon bo‘lmagin,
Ehtiyot bo‘l, shohim, battol qizingga,
Hay attang, deb barmoq tishlab qolmagin.

Qoraxon podshoning qahri kelib, ilonday zahri
kelib, podsho emasmi: – Borib shu beadabni boylab,
siynasini dog‘lab, tayoqlab haydab, oldilaringga so-
lib olib kelinglar! – deb birdan besh yuz jallod, to‘rt
yuz mirg‘azabni buyurdi.

Jallod, mirg‘azablar yura berdi. Bularning orqasi-
dan qancha mahram, yasovul, ugach, shig‘ovul, qan-
cha soqchi-qorovul – barisi borayotir. Podshoning
achchig‘i kelgan, shunday buyurgan: «Ikkovini bir-
biriga qo‘shmay, ikki bo‘lak qilib haydaysizlar», –
deb farmon bo‘lgan.

Ot chopib, birdan podsholikdan odam borib qol-

di. Bechora kanizlar, boshqa qizlar shoshib xabar berolmay qoldi. Mirg'azablar qarasa, ikkovi katta to'shakning ustida uxlab yotibdi. Mirg'azablar Ravshanbekni olib, oldiga solib haydab, ikki qo'lini boylab, urib tayoqlab, siynasini dog'lab, o'ldirmoqqa chog'lab, haydab keta berdi. Ravshanbek dushmanlarga bandi bo'lib, ichi g'amga to'lib, rangi gulday so'lib keta bersin. Zulxumor oyim to'rasining bandi bo'lib ketganini bilmay qoldi.

Oqqiz qilgan ishlariga pushaymon bo'lib, nima qilarini bilmay, attang, deb ko'p afsuslar yeb, bek Ravshanga ichi achib, o'ziga-o'zi aytdi: «Kel-e, endi Ravshanbek o'ladi, Zulxumor qoladi, podshoning yolg'iz bolasi emasmi, buni nima qiladi; «menga bildirmabsan», deb o'pkalab yurar, deb Zulxumor oyimga xabar berib, yorining ketganligini aytib, bir so'z dedi:

Dushman oldi sening teng-u to'shingni,
Falak og'ir qildi sening ishingni;
Uyquning kasoti ko'pdir kishiga,
Buvushim, g'aflatdan ko'tar boshingni!

Dushmanlar oqizdi ko'zdan yoshingni,
Falakka chiqardi bu nolishingni,
Shohdan farmon bo'ldi, keldi mirg'azab,
Och ko'zing, g'aflatdan ko'tar boshingni!

Shohdan farmon bo'ldi, mirg'azab keldi,
Sen g'aflatda qolding, to'rangni oldi,
Shohdan farmon bo'ldi, keldi mahosil,
Uyqudan, Zulxumor, tursang ne bo'ldi?!

Oyimlar shonaman¹ zulfin o'radi,
Ishi tavakkal yaratgandan ko'radi,

¹ Shona (taroq) bilan.

Och ko'zing uyqudan, ko'tar boshingni,
Seni deb bir yo'lbars o'lib boradi.

Ot chopmoqqa qoyim dashtning dalasi,
Topilmaydi shirin jonning hilasi,
Seni deb bir yo'lbars o'lib boradi,
Yovmit elda bir podshoning bolasi.

Savdo tushdi mard to'raning boshiga,
Falak titrat uning u nolishiga,
Och ko'zing uyqudan, ko'tar boshingni,
Uyquning kasoti ko'pdir kishiga...

Foni dunyo barcha quldan o'tarmi,
Kuysin o'lim, barchani yig'latarmi,
Och ko'zing uyqudan, ko'tar boshingni,
Uxlaganman¹ maqsadiga yetarmi?

Sening ahvolingga men qildim g'azab,
Sening omonliging ayladim talab,
Uxlagan qul maqsadiga yetarmi?
Shohdan farmon bo'ldi, keldi mirg'azab.

Bahorda ochilgan chamanda guldi(r),
Gulga shaydo bo'lgan to'ti, bulbuldi(r),
Och ko'zing, g'aflatdan ko'tar boshingni,
Sen to'rangdan xabar olsang ne bo'ldi?

Mergan otar suvsiz cho'lning g'ozini,
Kim ko'tarmas sanam yorning nozini,
Eshitib Oqqizning aytgan so'zini,
Zulxumor uyqudan ochdi ko'zini.

Zulxumor oyim ko'zini ochib qarasa, qoshidagi
jo'rasi, uxlab yotgan to'rasi, ko'zining oq-u qorasi,
shu yig'inning sarasi yo'q. Qizlardan so'rab yuru²,

¹ Uxlagan bilan.

² Yurur.

to'rasini qarab yuru. Kanizlar aytdi: – E buvishim, shohdan odam keldi, to'rangni jallo, mirg'azablar ikki ko'zini boylab, oldiga solib haydab, aziz jonini qiynab, boshiga qor-yomg'irday qamchi urib, bandi qilib, oldiga solib haydab ketdi.

Shunda Zulxumor oyim bechora devordan osilib qarasa, bir to'p odam – sipoyilar urib, qiynab, haydab ketib borayotibdi. Buni ko'rib, to'rasining orqasidan yugurdi. Shunda kanizlari ham orqasidan yig'lab kelayotir.

Zulxumor oyim kelib, odamlarga aralashib qoldi. Odam to'da bo'lgan, to'p bo'lib Zulxumoroyga yo'l bermaydi; tomoshabin juda qalin, Zulxumor to'rasiga yetolmay, odamlarga po'sht-po'sht, deb bir so'z dedi:

Qo'ldan ketdi davr ila davronlarim,
Sabil bo'lib naqqoshli ayvonlarim,
O'lganning nesin qilarsiz tomosha?
Po'sht-a po'sht, tomoshabin jonlarim!

Ko'nglimda ko'p orzu-armonlarim,
Xazon bo'lib bog' ila bo'stonlarim,
O'lganning nesin qilarsiz tomosha?
Yo'l beringlar, tomoshabin jonlarim!

Ko'kka chiqar yorim deb afg'onlarim,
Ayriliqqa tushgandir, yoronlarim,
O'lganning nesin qilarsiz tomosha?
Yo'l beringlar, tomoshabin jonlarim!

Yorim kepti necha tog'lardan osha,
Ikki zulfi gardaniga yarasha,
Yo'l beringlar, tomoshabin jonlarim,
O'lganning nesin qilarsiz tomosha?

Men to‘ramning oldida dod aylayin,
Doddan o‘tib necha faryod aylasin,
Po‘sh-ta po‘sh-t, tomoshabin jonlarim!
Yo‘l bering, to‘ramni ozod aylayin!

Savdo tushgan Zulxumorning boshiga,
Kim rahm etar ko‘zdan oqqan yoshiga,
Yo‘l bering, to‘ramni ozod qilayin,
Yo‘l qo‘yinglar, borib olay qoshiga!

Turgan elga juda tashvishlar tushdi,
Bir-biriga «Xumor keldi» deyishdi,
To‘p bo‘p turgan tomoshabin – xaloyiq,
Bu so‘z bilan to‘sh-to‘shiga qochishdi.
Saf bo‘p turgan Qoraxonning elati,
Xumor oyga endi yo‘lni ochishdi.

Yomon savdo kasot qilar kishiga,
Savdo tushar jo‘mart o‘g‘il boshiga,
«Xumor keldi», – dedi, elat qochishdi,
Bo‘zlab bordi to‘rasining qoshiga.

Qon to‘kilib bek Ravshanning qo‘yniga,
G‘aflat vaqtda dushman tushib keyniga,
Bo‘zlab borib to‘rasining qoshiga,
Qo‘lin soldi bek Ravshanning bo‘yniga.

Zulxumor qarasa, Ravshanbekning qo‘lini bog‘-
lab, siynasini dog‘lab, o‘ldirmakka chog‘lab, hay-
dab borayotibdi. To‘rasining boshiga birdan uch yuz,
to‘rt yuz qamchidan tushadi, boshi-ko‘zi demay urib
borayotibdi. Bir necha qamchi-tayoq Zulxumorga
ham tegib qoldi. Shunda Zulxumor, o‘ziga tekkan
tayoq ko‘ziga ko‘rinmay, bir so‘z dedi:

Uzoqda to‘ramning manzili-joyi,
Otasi, enasi falakning mohi,
Meni o‘ldir, to‘ramni ozod aylanglar,
Bu ishda to‘ramning yo‘qdir gunohi!

Qonlar oqsin mening ikki ko'zimdan,
Hay attang-a, pardam ketdi yuzimdan,
Bu ishda to'ramning yo'qdir gunohi,
Qancha gunoh bo'lsa, mening o'zimdan.

Men bebaxtning ko'nglini shod aylanglar,
To'ramning hurmatin ziyod aylanglar,
Bu ishda to'ramning yo'qdir gunohi,
Meni o'ldir, to'ramni ozod aylanglar!

Quloq sol jallodlar qilgan dodima,
Qaytayin', yetmay o'ldim maqsadima,
Meni o'ldir, to'ramni ozod aylanglar,
Bir polvon o'lmasin kasofatima!

Quloq soling Zulxumorning tiliga,
Bulbul oshna bo'lar bog'ning guliga,
Meni o'ldir, to'ramni ozod aylanglar,
Musofirdir, eson ketsin eliga!

Beklar minar bedov otning tolmasin,
Bemahal o'limni mardga solmasin,
Meni o'ldir, to'ramni ozod aylanglar,
Kasotima bir mard nobud bo'lmasin!
Bu ishda to'ramning yo'qdir gunohi,
Uvoli mening bo'ynima qolmasin!

Unda jallodlar, mirg'azablar: – Mana bunga qara,
bachchag'ar, Shirvonday yurtda, shunday bir o'zbek
yo'qmikan, o' yoronlar, qizi qursin, qiz boqqanning
yuzi qursin, ilkisdan birovga ko'ngil berib, bo'zarib
turgan ko'zi qursin, ana unga qara, tag'in ayirib
olaman deyapti. Hay attang, podshomizni yerga
ko'mdi-da, – deb o'lguday qattiqroq urib jo'nadi.
Shunda Ravshan yoriga qarab:

¹ Qanday qilay.

– Nega tutasan? – deb so‘rab, jallodlarga elanma,
deb tasalli berib, bir so‘z aytadi:

Ayo, nozim, bir gapim bor, anglab ol,
Men gapiray, zehningni qo‘y, quloq sol,
Jallodlarga elanmagin, bo‘yingdan,
Gavharni ne bilsin ushalgan sopol!

Befarzandning ko‘rgan kuni zoyami¹,
Yo‘qchilik jo‘martning ko‘zin o‘yami²,
Jallodlarga elanmagin, bo‘yingdan,
Sen «qo‘y» degan bilan jallod qo‘yami?³

Yomonning qarori bo‘lmas bir yerda,
Kishiga kasoti tegar tor yerda,
Gavharni ne bilsin ushalgan sopol,
Zarning qadrin zargar bilar har yerda.

Omonat, bo‘yingdan, tandagi jonim,
Seni oldim, yo‘qdir, endi armonim,
Jallodlarga elanmagin, bo‘yingdan,
Sen yig‘lasang, ketar mening darmonim.

Paydo bo‘ldim ikki gavhar donadan,
Parvoz qilib uchdim manzilxonadan,
O‘lim uchun g‘am yemayman, bo‘yingdan,
Bir armonim, yolg‘iz edim enadan.

Belimda boylangan zarli po‘tadan,
Kamligim yo‘q edi atlas, kimxodan⁴.
O‘lim uchun g‘am yemayman, bo‘yingdan,
Bir armonim, yolg‘iz edim otadan.

¹ Zoyemi?

² O‘yarmi?

³ Qo‘yarmi?

⁴ Kimxob.

Belima boylagan olmos qiyog'im,
G'am bilan sarg'aygan gulday siyog'im,
Bir armonim, yolg'iz edim otadan,
Attang-a, qolmadi biror tuyog'im.

Otadan to'rtni yarat, beshni yarat,
Birov qilma, ikov ham uchni yarat,
Bir armonim, yolg'iz edim otadan,
Yolg'izni yaratgancha, toshni yarat.

Biri o'lsa, to'rti yilar¹ boshiga,
Yolg'iz sho'rning kimi kelar, qoshiga?
O'lim uchun g'am yemayman, bo'yingdan,
Yolg'izligim asar qildi boshima.

Elimda davri davronim bo'lmadi,
Men shuningday bandi bo'lgan kunimda,
Bu ishlardan pushaymonim bo'lmadi.
«Voy bolam», der otajonim bo'lmadi.

Attang-a, Chambil diyorim bo'lmadi,
Jon achirim, ichkuyarim bo'lmadi,
Men shuningday bandi bo'lgan kunimda,
Mehribonim, enam nochorim bo'lmadi.

Chambilday o'sgan elatim bo'lmadi,
Yolg'izlikda bir madatim bo'lmadi,
Men shuningday bandi bo'lgan kunimda,
Bek Go'ro'g'li vallamatim bo'lmadi.

Attang-a, Chambil diyorim bo'lmadi,
Jon achirim, g'amguzorim bo'lmadi,
Men shuningday bandi bo'lgan kunimda,
Qirq yigitim – ajdahorim bo'lmadi.

¹ *Shevada aytilishi jilar.*


Daryoday bo'p to'lar bo'ldim men endi,
Armon bilan o'lar bo'ldim men endi,
Qaytayin, tayin mozorim bo'lmadi,
Toza gulday so'lar bo'ldim men endi.

Armon bilan o'lar bo'ldim men endi,
G'arib mozor bo'lar bo'ldim men endi,
Qora cho'lda qolar bo'ldim men endi,
Bemurabbiy bo'lar bo'ldim men endi,
Yolg'iz ne qilar bo'ldim men endi,
G'arib bo'lib qolar bo'ldim men endi,
Yakka mozor bo'lar bo'ldim men endi,
Armon bilan o'lar bo'ldim men endi.

Ravshanbek bu so'zlarni aytdi, yig'lamagan odam qolmadi, hech bir odam tobu toqat qilib turolmadi. Shunda Ravshanbek zor-zor, chun abri navbahor yig'lab, o'zining yakkalik-yolg'izligiga ko'p afsus-nadomatlar qilib borayotir. Zulxumor bechora qancha kanizlari dod, deb yig'lashib, orqasidan ergashib borar edi. Bekni ko'rgan birorta odamning ko'ngli o'ldirmoq u yoqda tursin, urmoqqa qo'li bormas edi. Ravshan o'z ahvolini aytib borayotir. Bek Ravshanning yig'lab qilgan afsuslari:

Yig'lay-yig'lay odo bo'ldim,
Elatimdan judo bo'ldim,
Armon bilan pano bo'ldim,
Barisidan sivo bo'ldim.

Chambilbelday elatimdan,
Ulug' arkon davlatimdan,
Netay sinu sumbatimdan,
Bul quvvatim – madatimdan,
Dushmanga siyosatimdan,
G'animlarga haybatimdan,

A decorative border with a repeating floral motif surrounds the text. The border consists of a top row, a bottom row, and two vertical side rows, all featuring stylized flowers and leaves.


Ham urug'im – ajdodimdan,
Go'ro'g'li vallamatimdan,
Qiblagohdan judo bo'ldim.

Chambilda o'sgan joyimdan,
Mening pushti panohimdan,
Tojdorim kaj kulog'imdan,
Ko'p sirdosh sipohimdan,
Mard Hasan, qiblagohimdan -
Bir otamdan judo bo'ldim.

Ayrildim kulbaxonamdan,
Joni chiqqan ul tanamdan,
Duogo'y pushti panomdan,
Boshimdagi parvonamdan,
Kecha-kunduz hamxonamdan,
Men joniman, ul tanamdan,
Chidamsiz sho'r enamdan,
Mehribondan judo bo'ldim.

Chambilday diyorimdan,
Necha xesh-u tabarimdan,
Necha og'a-jigarimdan,
Elimda e'tiborimdan.
Qatorda yurgan norimdan.
Sog'inganda xumorimdan,
Qirq yigit ajdahorimdan,
Barisi jonsiporimdan,
Ravshanga xizmatkorimdan,
Daraxti soyadorimdan,
Haybatli ul chinorimdan,
Har ish desam, tayyorimdan,
Ravshanga xaridorimdan,
Yigitlardan judo bo'ldim.

Chambilda qarindoshimdan,
Sir aytarga sirdoshimdan,



Necha bir teng-u to'shimdan,
Og'a-ini – qardoshimdan.
Aylanib, ketmay qoshimdan,
Xabari yo'q bu ishimdan,
Qancha vafodor kishimdan,
Barisidan judo bo'ldim.


Yovmitdayin elatimdan,
Takaday mamlakatimdan,
Ko'p fuqaro elatimdan,
Bel quvvatim holatimdan,
Barisidan judo bo'ldim.

Minadigan tulporimdan,
Soladigan shunqorimdan,
Tog'da asov olqorimdan,
Har nima yo'g'-u borimdan,
Qatorda yurgan norimdan,
Tillali g'aznakorimdan.
Barisidan judo bo'ldim...

Birga yurgan jo'ralardan,
Necha qoshi qoralardan,
Bir-biridan saralardan,
Asl gavhar poralardan,
Xizmatkor, fuqarolardan,
Halolxo'r bechoralardan,
Barisidan judo bo'ldim.

Judo bo'ldim beklarimdan,
Qancha nor-u lo'klarimdan,
Or-nomus, keklarimdan,
Qancha og'ir yuklarimdan,
Barisidan judo bo'ldim.

Judo bo'ldim bo'stonimdan,
Ochilgan gulistonimdan.



Zahmatlar o'tdi jonimdan,
Balli, manzil-makonimdan,
Bulbulim-g'azalxonimdan,
Sayrovchi xush alhonimdan,
Barisidan judo bo'ldim.

Oltin edim, cho'pon bo'ldim,
Dona edim, somon bo'ldim,
Qimmat edim, arzon bo'ldim,
G'amga qolgan Ravshan bo'ldim,
Yuragi to'la qon bo'ldim,
Avvaldan namoyon bo'ldim,
Yangi oyday pinhon bo'ldim,
Hay attang-a, hay attang-a,
Barisidan judo bo'ldim.

Bandi bo'ldim bilmaganga,
Meni ko'zga ilmaganga,
Manzur nazar qilmaganga,
Bedov minib yelmaganga,
Daryoday bo'p to'lmaganga,
Mardlik bilan o'lmaganga.
Hay attang-a, hay attang-a.

Bu ne bilsin qimmatimni,
Mening qancha holatimni,
Qayoqdagi elatimni,
Mening qanday savlatimni,
Mening arzon-qimmatimni.


Bandi bo'ldim bilmaslarga,
Meni ko'zga ilmaslarga,
Manzur nazar qilmaslarga,
Biron o'ynab-kulmaslarga,
Araq ichgan mastlarga,
Maydon bilmagan naslarga.

Bandi bo'ldim beboshlarga,
Mehri yo'q, ko'ngli toshlarga,
Boylanib qizilboshlarga.
Qo'lda xanjar, otim bo'lsa,
Bir tushmadim savoshlarga,
Mingiga bas bo'lar edim,
«Botir» bo'lgan beboshlarga.
Bularda aql bo'lmasa,
Gap bilmas bekengashlarga.

Endi Ravshan o'lar bo'ldi,
Qizil gulday so'lar bo'ldi,
Armon bilan maydon qilmay,
Ichi g'amga to'lar bo'ldi.
Dushman elda, g'arib yurtda
Yakka mozor bo'lar bo'ldi.


Armon ko'p qoldi, yoronlar,
Uxlab qolib bo'ldim bandi.
Qoldim yuz tuman armonda,
Bandi bo'lmadim maydonda,
Menday bandi bo'lgan qanda?
Qo'lda qilichim bo'lganda,
Nima jon bor edi sanda!
Maydon bo'lsa, ko'rar eding,
Ne hunar bo'lsa Ravshanda!
Meni uyquda bandi qilding,
Sen ham endi botirsan-da?!
Seni ko'rsa bo'lar edi –
Yov-yarog'im bo'lsa menda.
Armon bilan Ravshan o'ldi,
Yuz tuman g'amman¹ armonda,
Bearmon odamzod qanda?

¹ G'am bilan.




Ravshanbek qo'li bog'li, siynasi dog'li haydolib borayotir. Tomoshaga yaxshi-yomon, yugrukchabon, xurd-u kalon, qiz-u juvon, shahri Shirvonda qancha odam bo'lsa, bari chiqdi. Tomlarning ustiga, daraxtlarning ustiga, baland joylarga odam bosib chiqib ketgan. Guzarlarni, shaharlarni tomoshabin odam bosib, hech yerda odam o'tiradigan joy yo'q. Hammaning ikki ko'zi Ravshanbekda. Ravshanbekning kamolini, oyday jamolini, qaddi niholini ko'rgan odamning bari: «Hay attang, yosh bola ekan, juda yaxshi bola ekan», – deb ko'p afsuslar yedi. Yosh-u qari, ko'rganing bari katta mastonga la'nat aytadi.

Zulxumor oyim qaddi bukilib, ko'zidan yoshi to'kilib, to'rasining dog'iga kuyib, ikki betini yulib, dod deb borayotir. Uni ko'rgan beaql odamlar kalaka qilib kulayotir: «Anov bachchag'arga qarang, shu bachchag'arning kasofatiga shunday bola o'lib ketib borayotipti, bo'lmasa, bunga er topilmay yotibmidingi! O'lasanmi, bachchag'ar, otang birovga bergancha xotirjam o'tirsang», – deyishadi. Unda bir xili aytadi: «Unday dema, bekor birovning uvoliga qolma! Zulxumor har kim bilan keta beradigan ahmoq qiz emas. Anov bolaga qara, o'n uch yo o'n to'rtida kamoli bor, oyday jamoli bor, eldan ziyod aqli bor, tilla-nuqradan kokili bor. Esa, sen devonaning bolasi debmiding? U ham bir katta podshoning bolasi. Bo'lmasa, nuqra, tilla kokil har kimga tushib qolibdimi?! U ham ulug'zoda-da. Bo'lmasa, Zulxumor tanimasa, u bilan nega yursin. Bilib, ko'ngli to'lib oshna bo'lgan, shunga tekkan; bo'lmasa, sen ham borib hazillashib ko'r-chi, ko'rayin», – deganning ham soni yo'q. Bir xili aytadi: «Asli Zulxumorning shu ishi ayb». Har kim har tusli gapirib yotipti.



Ravshanni dorning ostiga olib bordi. Podshoning oldidagi kattakon vazirlar, amaldorlar, bakovul, yasovullar, asabador, tug'dor, qozi, muhrdor, mahram, hudaychi, shig'ovul, qorovul – jami el kattalari, Shirvonning foyda-ziyonlari, yaxshi-yomonlari, yugruk-chabonlari – hammasi yig'ilib kelib, bek Ravshanning qabatida yig'lab turgan Zulxumor oyimni ko'rib, barisi «hay attang» deb afsus, nado-mat qila berdi. Ikkiovara, uchovora shivir-shivir, odamlar shivirlasha berdi. Oq ko'ngilroq odam ti-pirlasha berdi, chet-chetdagilar kufurlasha berdi. Gapga tushunmagan odamlari shobirlasha berdi. Podshoning inoq, e'tiborli odamlari, Shirvonning kattalari, podshoga yaqinlari – barisi jallod bilan mirg'azabga: – Ey, to'xta! Bizlar borib podshoga bir maslahat qilayik, undan keyin senga buyuramiz, sen ungacha turasan! – deb turib ketdilar.

Barisi podshoning oldiga borib, arz qildi: – Taq-sir podshohim, bizlar sizga arzga keldik. Arzimiz shuki, bugun hukmikushga buyurgan odam juda yosh bola ekan. Jallodlar dorning ostiga haydab keldi. Bizlar borib ko'rdik, taq-sir podshohim, asli odamning ko'zi qiyadigan bola emas. Shunday barmo bir yosh bola o'lib ketmasin. Sizga arzimiz shulki, shu bolaning yoshi o'n uch, o'n to'rtda ekan, tilla kokili bor ekan, bir ulug' odamning bolasi chiqar. Juda yosh ekan, yosh ham bo'lsa, Zulxumorga oshiq ekan, Zulxumor ham unga oshiq ekan. Endi shohim, oshiqlar-ni o'ldirmoq shohlarga ayb bo'ladi. Yana sizdan ti-laymiz: qirq kun muhlat bersangiz, shu bolani zin-don qilsak, qirq kundan keyin shu bolani chiqarib so'rasak: «E bola, sen o'zing yosh bola ekansan. Qo-raxon podshoning o'g'il bolasi yo'q. Zulxumor oyga



oshiq bo'libsan, Zulxumor deb shu shaharga kelibsan, Zulxumorga chin oshiq bo'lsang, otasi Qoraxon podshoning diniga kirsang, lotga iqror bo'lsang, manotga tobe bo'lsang, tana xudoga tag'i iqror bo'lsang, oftobga ko'nsang, otashga bo'ysunsang, shisha payg'ambarlarga, nuqra choryorlar, qalayi avliyolarga iqror bo'lsang agar, Zulxumorni senga beramiz, podshoga kuyov o'g'il qilamiz», desak. Shu aytganimizga ko'nsa, yosh bola ekan-ku, ko'nar, ko'nsa qizing Zulxumorni shu bolaga berib, kuyov qilib qo'lingga olsang, ham kuyoving, ham o'g'ling bo'lsa; bizlarning senga ko'rsatgan maslahatimiz shu, – deb podshosiga ma'qul qildi.

Qoraxon aytdi: – Unday bo'lsa, yaxshi aytdinglar, juda yaxshi bola bo'lsa, ko'nsa ham ko'nar. Esa, jallodlar so'yib qo'ymasin, tezroq borib qo'lidan olinglar, zindonga solinglar! Lekin Zulxumorni ham urmanglar, so'kmanglar, bir yo'llik olib borib qamang; tag'i undan boshqa gap chiqib yurmasin, shuni ehtiyot qilinglar, endigi gap shunda, – dedi.

Podshodan bu gaplarni eshitib, chopqillab kelib, bek Ravshanni qirq kunlik qilib zindonga olib bordilar. Zulxumor bechorani ham bir mahkam hovliga olib borib, qizlari bilan, balki jami kanizlari bilan qamab tashladilar. Zulxumorning tevaragiga besh yuz sarboz qorovul qo'yib, juda ehtiyot qilib yota berdilar.

Zulxumor oyim bir hovlida qamalib, yo o'zi, yo qirqin kanizi dalaga chiqolmay qoldi, to'rasidan nima gap o'tganini bilmay, xabar ololmay qoldi. Shunda Zulxumor kanizlarini darcha teshikdan chiqarib, qorong'ida bir yerdan bir-ikki lahimchini top-tirib kelib, lahimni kovlatib, o'n to'qqiz kun deganda zindon labidan chiqdi.

Zindon labidan, to'rasining ustidan pastga qarab,
holi ahvolini so'rab turu, pastda bek Ravshan yori-
ning kelganini bilib javob berayotir:

– Men zulfimni toblab-toblab o'rgali,
Ilojim yetmaydi jonim bergali,
Zindonning ichida, to'ram, bormisan?
Baxti qora yoring keldi ko'rgali.

– Tor zindonda yotib doim huv dedim,
Kim o'tsa boshimdan osh ham suv dedim,
Omonat yor, yo'lay ko'rma qoshima,
Ajalning otini mindim, chu dedim!

– Sening bilan doimgiday yurgali,
Zolim falak menga shikast bergali,
Zindonning ichida, to'ram, bormisan?
Zulxumorday yoring keldi ko'rgali.

– Yov bo'lsa, qo'limda yashil tuv' edim,
Qo'rroq bo'lsa, «nega uytadi bu?» dedim,
Omonat yor, aslo kelma qoshima,
Ajalning otini minib, chu dedim!

– Bir bog'chada olmamisan, normisan,
Sen ham menday menga intizormisan,
Baxti qora yoring keldi ko'rgali,
Zindonning ichida, to'ram, bormisan?

– Savdo tushdi yoshligimdan boshima,
Kim rahm etar ko'zdan oqqan yoshima,
Ravshan bo'lsa o'lgan kishi, bo'yingdan,
Sen omonat, yo'lay ko'rma qoshima.

¹ Tug' – bayroq.

– Maydon bo'lsa yo'lbars bilan shermisan,
Zulxumorni yorim bo'lsa dermisan,
Zulxumoring yangi keldi ko'rgali,
Zindonning ichida, to'ram, bormisan?

– Sen omonat, menga yo'qdir yorliging,
Mening uchun bekor intizorliging,
Yigirma kun mening umrim qolibdi,
Undan so'ng bekor-da vafodorliging,
Omonat yor, aslo kelma qoshima!

– Yigirma kun sening umring bor bo'sa,
Yigirma kungacha Xumor yor bo'sa,
Sen ketgan so'ng bu yoring bekor bo'sa,
Nima qilar, ayt-chi, vafodor bo'sa,
Zindonning ichida, to'ram, bormisan?

– Mening umrim yigirma kun qoladi,
Va'da tamom bo'lsa, to'rang o'ladi,
Men o'lganman senga nima qiladi,
Suluv qizsan, yana birov oladi,
Omonat yor, aslo kelma qoshima!

– Mening uchun o'lib ketsang bayakbor,
Sening uchun o'lmasmikin Zulxumor,
Bir xotinning eri bitta bo'lmasmi,
Meni olgan erim – Ravshanday shunqor,
Zindonning ichida, to'ram, bormisan?

– Ayrilarsan suyib tekkan do'singdan¹,
Harna degan ko'nglingda havasingdan,
Men o'lgan so'ng seni birov oladi,
Olgan vaqtda chiqar-ketar esingdan,
Omonat yor, aslo kelma qoshima!

¹ Do'stingdan.

– Sening husning mening aqlim oladi,
Xulqing ofat, har xayolga soladi,
To‘rasi o‘lgandan Xumor o‘ladi.
Men o‘lsam, mard to‘ram, qanday oladi,
Zindonning ichida, to‘ram, bormisan?

– Suluv qizsan, senga tolib ko‘p bo‘lar,
O‘ydan-qirdan necha tusli gap bo‘lar,
Ko‘p gapirsa, shuning o‘zi jup bo‘lar,
Ravshan o‘lgan kuni g‘ami yo‘q bo‘lar,
Omonat yor, aslo kelma qoshima!

– Sen aytasan: Xumor g‘ami yo‘q bo‘lar,
Sensiz Xumor yonib turgan cho‘g‘ bo‘lar,
Sening ishqing oy Xumorga o‘q bo‘lar,
Sensiz yoring g‘ami ortiqroq bo‘lar,
Zindonning ichida, to‘ram, bormisan?

– Men bo‘lmasam, sening qanday g‘aming bor,
Menday tolib sening ming odaming bor,
Ering bo‘lsa, sening nedan kaming bor,
Ravshansiz ham, sening ko‘p hamdaming bor.
Omonat yor, aslo kelma qoshima!

– Mening erim sensan, boshqa er bo‘lmas,
Endi Xumor boshqalarman bir bo‘lmas,
«Ering bo‘lsa, kaming yo‘q», deb aytma-da,
Sening g‘aming menga mingdan bir bo‘lmas,
Zindonning ichida, to‘ram, bormisan?

– Toza gulsan, oftob tegib so‘lmasin,
Bundan bo‘lay meni izlab kelmagin,
Sening to‘rang o‘lgan kishi, bo‘yingdan,
Keta ber, Xumorjon, yo‘ldan qolmagin,
Omonat yor, yo‘lay berma qoshima!

– Men so‘lsang, to‘ramjon, Xumor so‘ladi,
Sen bo‘lmasang, Xumor darrov o‘ladi,
Sen tiriksan – Xumor tirik, polvonim,
Seniman¹ barobar umri to‘ladi,
Zindonning ichida, to‘ram, bormisan?

– Sanam qizsan, qora zulfi tugundi,
To‘rang g‘oyib eranlarga sig‘indi,
Mendan qolsang, seni birov oladi-da²,
Xumorjon, o‘lmaklik juda qiyindi.
Omonat yor, aslo kelma qoshima!

– Xumor qizning qora zulfi tuguldi,
Sening uchun qosh-qovog‘i uyuldi,
Sen bo‘lmasang, kim oladi Xumorni,
O‘lgan oson, tirik ayrilmoq qiyindi,
Zindonning ichida, to‘ram, bormisan?

– Men o‘lgan so‘ng senga ne bir er chiqar,
Mendan ziyod necha na‘ra sher chiqar,
Mening uchun xafa bo‘lma, Xumorim,
O‘yin-kulgi, ne bir huzurlar chiqar,
Omonat yor, aslo kelma qoshima!


– Zulxumoring sendan judo bo‘larmi,
Sendan qop³ birovning yori bo‘larmi,
Yo birovman o‘yin-kulgi qilarmi,
Xazon urgan gulda hech is bo‘larmi,
Zindonning ichida, to‘ram, bormisan?

– Endi mendan umid uzgin, bo‘yingdan,
Avvalgi ya‘dangni buzgin, bo‘yingdan,
Boshqa bilan vatan tuzgin, bo‘yingdan,

¹ Sening bilan.

² Talaffuzda «olatda».

³ Qolib.



Ishratman dunyoni kezgin, bo'yingdan,
Omonat yor, aslo kelma qoshima!

– Vatanim buzildi, ishrat sop bo'ldi,
Zulxumorning g'ami qator qoq bo'ldi,
Zulxumorning endi eri op bo'ldi,
Zulxumor endi o'limga bop bo'ldi,
Zindonning ichida, to'ram, bormisan?

– Unday dema, omon bo'lg'in, Xumorjon,
Qora qoshi kamon bo'lg'in, Xumorxon,
Bir er qil, shodmon bo'lg'in, Xumorjon,
Ilgarigiday bo'ston bo'lg'in, Xumorjon,
Omonat yor, aslo kelma qoshima!

– Omon edim, sen ham omon bo'lganda,
Sensiz Xumor holi yomon bo'lgan-da,
Xumor bo'ston edi, Ravshan bulbuli,
Oy Xumorga oxir zamon bo'lgan-da,
Zindonning ichida, to'ram, bormisan?

– Mening uchun Xumor tortma alamni,
Kuydirmayin senday qoshi-qalamni,
Endi mendan umid uzib er qilgin,
Kim olmaydi senday barno sanamni?
Omonat yor, aslo kelma qoshima!

– Men er qildim, boshqa erim bo'lmaydi,
Boshqa mardga, to'ram, ko'nglim to'lmaydi,
Menga kerak sening aziz joningdir,
Sen ketsang, Xumor ham sendan qolmaydi.
Zindonning ichida, to'ram, bormisan?

– Mening uchun jabr qilma joningga,
Falak titrar sening yig'laganingga,

Davron surgin, Xumorim, makoningga¹,
Rozi bo'l, kulishib, o'ynaganingga,
Omonat yor, aslo kelma qoshima!

– Sensiz Xumoroyga davron haromdi,
Sen bo'lganda Xumoroyga ne g'amdi?
Sening bilan edi ayshi mudomdi,
Ming marta Xumoring rozi bo'lgandi.
Zindonning ichida, to'ram, bormisan?

– Xo'sh endi, Xumorim endi, xo'sh endi,
Ko'p baloga qolgan g'arib bosh endi,
G'ariblikda oqdi ko'zdan yosh endi,
Omon bo'l, suydigim, qolding, xo'sh endi.

– Bir bog'chada olmamidi, normidi,
Mendan o'zga sening g'aming yermidi,
Bir xabar yuborsam Chambil yurtiga,
Izlab kelguday rahbaring bormidi?

– Foni dunyo barcha quldan o'tadi,
Darvishlar bo'yniga solgan po'tadi,
Xabar qilsang elatinga, bo'yingdan,
Xabaring uch oyda borib yetadi,
Xon otam kelgancha oltoy o'tadi;
Yigirma kun qolgan mening muhlatim,
Men o'lgan so'ng otam kelib netadi?
Omonat yor, aslo kelma qoshima!

– Sen bandisan, yo'qdir sabr-u qarorim,
To'ram deyman, chiqar oh bilan zorim,
Izlab kelar odam sizda bor bo'lsa,
Shu bugun tong otmay yetsin xabarim.

¹ *Makoningda.*

– Qodir mavlon sening aqling olmasa,
Seni agar bir xayolga solmasa,
Tong otmayin qanday yetar xabarim,
Uchar qush qanotli hayvon bo‘lmasa?

– Sen bandisan, ko‘zda oqqan yoshim bor,
Sening uchun mening ko‘p nolishim bor,
Agar izlab kelar odam bor bo‘lsa,
Xabarchiga mayna degan qushim bor.

– Suluv qizlar kunda ko‘rar oynani,
Orqaga borganlar ko‘rar foydani,
Kelmaklikka menda rahbar topilar,
Unday esa chopson jo‘nat maynani.

Uzoq eldan yaxshi tulpar chopilar,
Yovni ko‘rsa, botir qalqon jomilar,
Unday bo‘lsa chopson jo‘nat maynani,
Kelmaklikka menda rahbar topilar.

Otga yo‘l bermaydi tog‘ning o‘rlari,
Jabr qilsa chiqib otning terlari,
Kelmaklikka menda rahbar topilar,
Ilg‘ab yetar chin turkmanning sherlari.

Qatorda yuk tortar norcha, lo‘klari,
Nor deganning og‘ir bo‘lar yuklari.
Kelmaklikka menda rahbar topilar,
Ilg‘or bo‘p kep qolar turkman beklari.

Dam shu damdir, o‘zga damni dam dema,
Shukur qilgin, davlatingni kam dema,
Kelmaklikka menda rahbar topilar,
Kep qolar yo‘lbarlar, yorim, g‘am yema.

Eshitsa turolmas turkman erlari,
Ilg'or qilib yetar na'rasherlari,
Chin botirlar kelib qolar, bo'yingdan,
Bek Ravshanning qirqta ajdahorlari...

Otin chopar o'zbek elning yigiti,
Barining belida keskir po'lati,
Otning bari yo'lda qolsa yetolmay,
Ilg'ab yetar Go'ro'g'lining G'iroti.

G'am yema, Xumorjon, rahbar kep qolar,
Shirvon elda ko'p taloto'p bo'p qolar,
Hech bo'lmasa yetar bobomning oti,
Botirman deganlar qilich yeb qolar.


Qochmoqqa qo'ymaslar, yo'li to'silar,
Poralab-poralab go'shi o'silar.
G'am yema, kep qolar turkman sherlari,
Kep qolsa otangning boshi kesilar.

Ne bir erlar, vo Ravshan, deb kelar-a,
Umid qil, to'rangni ayrib olar-a,
Xabaringni yubora ber, bo'yingdan,
Ichkuyarlar kelib qirg'in solar-a.

Sen maynani tezroq ketkiz, Xumorjon,
Tong otmay Chambilga yetkiz, Xumorjon.
Unday bo'lsa, tezroq jo'nat, bo'yingdan,
Elatimga xabar yetkiz, bo'yingdan.

Zulxumor oyim bechora zor-zor, abri navbahor
yig'lab, to'rasining ahvolini ko'rib, ko'ngli qo'rg'o-
shinday erib, muncha g'am-u g'urbatni ko'rib, yig'-
lab, to'rasidan javob olib, lahim bilan joyiga keldi.

Zulxumor oyim bechora o'z qo'li bilan bir xatni
bitdi, shunday qilib bitdi: «Hasan mardning o'g'li,

A decorative border with repeating floral motifs surrounds the text. The motifs are stylized flowers with multiple petals, arranged in a continuous line.

xon Dallining joni-dili, oti bek Ravhan, Shirvon mamlakatiga, Qoraxon viloyatiga kelib bandi bo'ldi. Qirq kun muhlat qilib, zindonga soldi. Shu qirq kunning o'n to'qqiz kuni o'tganda shu xat bo'ldi, nomozshomda bitildi. Tong otmay, Chambilbelga, to'ramning eliga yetadi. Nomozi bomdod shu xabar bo'lsa, Ravshanning murabbiylari bo'lsa, kelsa, ayirib olsa. Shu xat tekkandan so'ng yigirmanchi kunida Shirvon shahrining bozori, bozorining o'rtasida dori, shu yerda Ravshanbekning osilib o'ladigan yeri. Agar Ravshanbekning xesh-tabarlari, g'amguzorlari, ichkuyarlari bor bo'lsa, kelib Ravshanbekning gavda-suyagini olib ketsin, deb xat bitildi».

Xatni mahkam qildi; o'rab berkitib, bir narsa zarar qilmasday, yog'in-yomg'ir bo'lsa o'chmasday qildi. Shu xatni mayna qushning bo'yniga mahkam boylab, berkitib, tushib qolmasday qilib, maynaga necha bir so'zlarni tayin qilib, mayna jonivor ham oqshom uchmoqqa g'ayrat taraddud qilayotir.

Jonivor mayna Chambilbelga, Yovmitning eliga Ravshanbekdan elchi bo'lib borayotir. Zulxumor maynasiga: «E jonivor, mening boshimga mushkuldandan mushkul ish tushib qoldi, aqlim shoshib qoldi. Shunday kunda sen yarasang, men ham bergan tuzimga, ko'pmi-ozmi rozi bo'laman qancha xizmatima. E jonivor, agar omon-eson Chambil borsang, shu xabarni omon-eson yetkazgin. Agar shulardan birov-ikov kelib, to'ramni o'lmay ayirib olar zamon bo'lsa, undan keyin seni men jonim bilan barobar ko'raman, tepamga ko'taraman», – deb maynasiga ko'p so'zlarni aytayotir, qayta-qayta tayin qilayotir: «Mabodo yo'lda lochin, bahrin duchor kelmasin, shu

mehnatim zoye bo'lmasin, zindonda yotgan mard nobud bo'lmasin, shu ish oro yo'lda qolmasin!»


Ziyrak mayna Zulxumor oyimning aytgan so'zlarini ko'p takror bilib turibdi.

– E jonivor mayna! Ish qichov, qofiya tang: tag'i adashib boshqa elga ketma! Agar omon-eson Chambilbelga borsang, mard to'ramning xabarini bersang, ishni bitkazib kelgaysan, meni o'zingdan xushnud qilgaysan, e jonivor, vafodor, – deb Zulxumor bechora maynasiga elanib, bir necha so'zlarni aytdi. Zulxumorning so'zlarini mayna aql bilan xo'p eshitib oldi. Zulxumor oyim maynani osmonga uchirib, dod deb, faryod deb, «Jonivor! To'ramning xon Dalli enasiga, ikki pari enasiga salom degin», – deb zor-zor yig'lab, maynasiga aytgan so'zi:

Oqar ko'zdan qonli yoshim,
Cho'q savdoga qolgan boshim,
Arzim eshit, mayna qushim,
Bor, Chambilning xoni kelsin,
Yovmitning beklari kelsin!

Dushman olgan tegra-doshim,
Xasim bo'lib tengi to'shim,
So'zim eshit, mayna qushim,
Bor, Chambilning xoni kelsin,
Yovmitning erlari kelsin!

Yig'lamoqlik mening ishim,
Holim so'rar yo'qdir kishim,
Arzim eshit, mayna qushim,
Bor, Chambilning xoni kelsin,
Yovmitning sherlari kelsin!



Qattiq bo'ldi mening ishim,
Kun-kundan ortar koyishim,
Arzim eshit, mayna qushim,
Bor, Chambilning xoni kelsin,
Yovmitning beklari kelsin!


Bu dardimning davosiga,
Baland tog'ning havosiga,
Arzimni yetkaz, maynajon,
Mard to'ramning bobosiga,
Bor, Chambilning xoni kelsin,
Yovmitning beklari kelsin!

Belda zarli po'tasiga,
Qilgan ishning xatosiga,
Arzimni yetkaz, maynajon,
Mard to'ramning otasiga,
Bor, Chambilning xoni kelsin,
Yovmitning sirtloni kelsin!

Kuygan kulbaxonasiga,
Joni chiqqan tanasiga,
Arzimni aytgin, maynajon,
Ikki pari enasiga,
Bor, Chambilning xoni kelsin,
Yovmitning sirtloni kelsin!

Yetgan gavhar donasiga,
Ayab boqqan panosiga,
Arzimni yetkiz, maynajon,
Xon Dalliday enasiga.
Bor, Chambilning xoni kelsin, maynajon!
Yovmitning sirtloni kelsin!

Borgin Chambil elatiga,
To'ramning mamlakatiga,



Bir arzim bor, aytgin, mayna,
Qirq yigit azamatiga,
Bor, Chambilning xoni kelsin,
Yovmitning sirtloni kelsin!


Qatorda nor-lo'klariga,
Satta og'ir yuklariga,
Arzimni aytgin, maynajon,
Yovmit elning beklariga.
Bor, Chambilning xoni kelsin,
Yovmitning sirtloni kelsin!

Yetgan gavhar porasiga,
Bandi baxti qorasiga,
Arzimni yetkiz, maynajon,
Bek to'ramning jo'rasiga,
Bor, Chambilning xoni kelsin,
Yovmitning sirtloni kelsin!

Yo'q savdo tushdi boshiga,
Hech kimi yo'qdir qoshiga,
Arzimni yetkiz, maynajon,
To'ramning qarindoshiga,
Bor, Chambilning xoni kelsin,
Yovmitning sirtloni kelsin!

Qanotingga to'kkin kuching,
Yo'llarda ko'rmasin lochin,
Mushtiparman, mening uchun,
Chohda yotgan begim uchun,
Bor, Chambilning xoni kelsin,
Yovmitning sirtloni kelsin!

Bandi to'ram rahmin etgin,
Yo'lning tanobini tortgin,
Tong otmay Chambilga yetgin,



To'ram qavm-u qarindoshin,
Tong otmayin xabar etgin,
Bor, Chambilning xoni kelsin,
Yovmitning polvoni kelsin!

Jonivor Chambilbelga sog'-salomat bor, deb
qo'yib yubordi. Mayna Chambil qayoqdasan, deb
osmonga chiqib ketdi. Zulxumor zor-zor yig'lab
qola berdi. Ana maynadan eshiting, mayna uchib bo-
rayotir.

Quloq soling turli-tuman na'maga,
Kim rahm etmas Ravshanbekday bolaga;
Namozshomda parvoz aylab shu mayna,
Esli mayna chiqib ketdi havoga.

Borayotir elchi bo'lib davoga,
So'z aytisa bo'larmi bodi saboga,
Uchib chiqib Zulxumorning qo'lidan,
Esli mayna chiqib ketdi havoga.

Bulbul oshna bo'lar bog'ning guliga,
Iqbol bersin bek Ravshanning o'ziga,
Kuysin o'lim, kim chidaydi hiliga,
Quloq soling suxanvarning tiliga.
Borayotir obro' ber deb havolab,
Elchi bo'lib jonivor Chambil eliga.

Jonvor havolab balandga oladi,
Shirvon eli ancha uzoq qoladi.
Qorong'ida parvoz aylab shu mayna,
Chambilbelga elchi bo'lib keladi.

Jonvor mayna g'ayrat qilib uchadi,
Jonvor mayna qichagandan qichadi,
Havolab boradi ko'kning yuziga,
Hech ne ko'rinmaydi qora kechadi.

Parvoz qip qanotin mayna ochadi,
Jonvor mayna suvday terin sochadi,
Elchi bo'lgan mayna Chambil eliga
Yetsam deydi, qorong'ida uchadi.

Ko'rinmaydi qorong'ida hech narsa,
Chambilni tasmollab jonvor uchadi,

Parvoz qilar goh balandda, pastadir,
Bir xil ishlar bo'lar asta-astadi.
Yetsam deydi tong otmayin Chambilga,
Jonvor mayna yana g'ayratman qistadi.

Esli mayna uchmoqlikka ustadi,
Elchi bo'lib Chambilbelni istadi,
Tong otmayin yetsam deydi Chambilga,
Jonvor mayna yana g'ayratman qistadi.

Bir qush yetmagaydi (uni) quvalab,
Borayotir osmon bilan havolab,
Yetsam deydi tong otmayin Chambilga,
Jonvor mayna tasmol bilan chamalab.

Jonvor shu mayna qistab xezlaydi,
O'zini uchmoqqa jonvor sozlaydi.
Tomosha qing haqiqatli maynaga,
Yetsam deydi, Chambilbelni izlaydi.

Jonvor mayna unutgandir o'zini,
Chambil qarab tikkan ikki ko'zini,
Qorong'ida jonvor mayna uchadi,
Haqlayman deb Zulxumorning tuzini.

Shod qilmoqchi Qoraxonning qizini,
Esidan chiqarmay aytgan so'zini,

Kelayotir elchi bo'lib Chambilga,
Haqlayman deb Zulxumorning tuzini.

Mergan otar suvsiz cho'lning g'ozini,
Kim ko'tarmas sanam yorning nozini,
Elchi bo'lib kelayotir Chambilga,
Haqlayman deb Zulxumorning tuzini.

Ko'rsam deydi Zulxumorning yuzini,
Surma qilsam deydi bosgan izini,
Shu bo'z mayna haqlamoqchi tuzini,
Chambilbelga elchi qildi o'zini.

Zulxumorga aytgan mayna rozini,
Nima sir eshitsa, ko'pi-ozini,
Quvontirsa Qoraxonning qizini,
Chambilbelga elchi qildi o'zini,
Qabul qildi egasining so'zini,
Haqladi shu mayna yegan tuzini.

Necha-necha bandargohdan o'tsam deb,
Xatarli yerlardan o'tib ketsam deb,
«Elchiga o'lim yo'q, egam, sog' qilgin»,
Omon-esson Chambilbelga yetsam deb.

Jonvor mayna yozibdi qanotini,
Chiqarib Xumoroyning hojatini,
Chambilbelni ko'zlab uchib boradi,
Yetkizsam deb uning omonatini.

Kimga aytsin ko'ngildagi dodini,
Ko'rsam deydi Chambil viloyatini,
Jonvor mayna sarf aylab g'ayratini,
Yetkizsam deb Zulxumorning xatini.

Jonvor shu mayna g'ayrat qiladi,
Havolab o'zini ko'kka oladi,

Qistov ishga yaragandir shu mayna,
Tusmollab Chambilni izlab keladi.

Mabodo adashib, keyin qolmay deb,
Jonvor yulduzni nishon oladi.
Havolab, balandga olib o'zini,
Tusmollab o'zini yo'lga soladi.

Fahmdan, taxmindan ko'p ham bor edi,
Zulxumorga juda xizmatkor edi,
Qorong'ida qattiq qistab shu mayna,
Jonvor mayna uzoq uchib, horidi.

Qorli tog'da qalin bitgan archadi,
Boyvachchalar kiygan to'ni parchadi,
Juda qattiq g'ayrat qildi uzoqqa,
Jonvor uzoq uchib juda charchadi.

G'ayrat qildi jonvor mayna qo'nmay deb,
Uchgan bilan Chambil yetmay qo'ymay, deb,
Parvoz qilib baland olib boradi:
Baland tog'ning bellariga tegmay deb.

Oldi o'r kelganda og'ir oshadi,
Baland tog' kelganda mayna shoshadi,
Qanoti bo'lsa ham jonvor charchadi,
Baland uchaman deb pastga tushadi.

Yer bag'irlab ucha berdi shu mayna,
Shirin jondan kecha berdi shu mayna,
G'ayrat bilan qistab ketib boradi,
Pardan terin socha berdi shu mayna...

Ucha-ucha jonvor holi qolmadi,
Biror dam bir yerda orom olmadi,
Tong otmay Chambilga mayna yetsam deb,
Dam olay deb aslo ko'ngil qilmadi.

Yetmay qo'nmasman deb Chambilbeliga,
Yetsam deydi Ravshanbekning eliga,
Borayotir g'ayrat qilib shu mayna,
Yetmay qo'ymayman deb Chambilbeliga.

Maynada uchardan armon qolmadi,
Qorong'ida uni hech kim bilmadi,
G'ayrat qilib ucha berdi shu mayna,
Hech yerda jonvor damin olmadi.

Beklar minar bedov otning sarasin,
Yaxshi tulpar uzoq yo'lga yarasin,
Qichay berdi jonvor mayna g'ayratman,
Sahar vaqti oldi Chambil qorasin.

Ot chopilar baland tog'ning pastiga,
Quloq soling gapimning payvastiga,
Sahar bordi mayna Chambilbeliga,
Borib qo'ndi bir hovlining ustiga.

Uchmoqdan maynada armon qolmadi,
Biror yerda mayna damin olmadi,
Borib qo'ndi bir hovlining ustiga,
Har paridan chakillab ter tomadi.

Mayna bir hovlining peshtoqiga qo'ndi, har paridan chakillab suv tomayotir. Chir atrofiga qarab: «Hasanning hovlisi qayoqda ekan», – deb zehn qo'yib, taxminlab o'tirdi. Endi gapni Hasan mardan eshiting.

Hasan mard Ravshanbek o'g'lini darvozabon do'stining oldida ko'rib, oq fotiha berib qolib edi. Kech bo'ldi, uyga bordi. Xon Dalli: – Ravshanxon nimaga kelmadi ekan, – deyberdi.

Hasanxon aytdi: – E yorim, sevgilim, obod ro‘zg‘orim! Bek Ravshan katta ishni qilib, senga kelin izlab, o‘zini sozlab, Shirvon mamlakatiga, Qoraxon podshoning yurtiga, Qoraxonning qizi Zulxumorni izlab ketdi, – deb bo‘lgan voqeani bir-bir aytib bayon qildi. Xon Dalli bu so‘zlarni eshitib, yuragida tim toqati qolmay, eri – mard Hasanga qarab: – Seni xudo urg’an ekan, qibladan tovir turgan ekan, sen miyangni yeb qo‘yibsan. Hali u dalaga chiqqan bola bo‘lmasa, loqal bozorga borgan bo‘lmasa, senga nima balo bo‘ldi, ko‘zing bo‘zarib qola bergancha bu yerga qaytarib olib kelsang bo‘lmasmi? Agar Ravshanbek qaytmasa, o‘zing birga borsang bo‘lmasmidi? Bu nima degan so‘zing menga?! U endi qayoqqa adashib ketdi?! Shirvon qayoqqa, Qoraxon podshoning yurti, uning Zulxumor qizi qayoqda? – deb erini ko‘p urishib, shundan beri eri bilan gaplashmas edi.

Ana endi sahar vaqti xon Dalli yolg‘iz bolasi, ko‘zining oqi-qorasi, umrining mevasi, ko‘ngil havasi, Ravshan bolasini sog‘inib dalaga chiqib bora turib: «Voy Ravshan», – dedi. Buni jonivor mayna eshitib, shul ayol xon Dalli, Ravshanbekning enasi ekanligini bilib, bir qaqirlab, juda qattiq sayradi. Buni xon Dalli eshitib, yuragi qaynab, maynaga qarab, bolasini so‘rab, bir so‘z deb turu:

Sahar vaqti, mayna, gulday jaynading,
Osoyishta tanda jonim qiynading,
Hayron qoldim dovushingdan, maynajon,
Ne sababdan, mayna, bunday sayrading?

Sen bunday sayraysan, jonim olasan,
Meni endi har xayolga solasan,

Ne sababdan, mayna, bunday sayrading,
Joningni achitib dovush qilasan?

Bu sayroving meni qildi sargardon,
Omon bo'lsin qayda bo'lsa Ravshanjon!
Yomon xabar opkelganday, maynajon,
Ne sababdan joning qiynab sayraysan?

Kuymasin hech kimning kulbaxonasi,
Sarg'aymasin g'amdan gulday tanasi,
Yomon xabar opkelganday sayraysan,
Men bo'laman bek Ravshanning enasi!

Mayna, senga birov xabar qildimi,
Sening bunday sayroving ko'p bo'ldimi,
Kashal ketgan mening bolam o'ldimi,
Men bebaxtning kuni oxir bo'limi?

Xon Dallining kuni to'lgan o'xshaydi,
Yig'layin, qiyomat bo'lgan o'xshaydi,
Ochilganda gulim so'lgan o'xshaydi,
Shu mayna xabarga kelgan o'xshaydi.

Mana dunyong bari yolg'on o'xshaydi,
Judolikni menga solgan o'xshaydi,
Bek Ravshandan xabar kelgan o'xshaydi,
Mana mayna elchi bo'lgan o'xshaydi.

Dallining ajali yetgan o'xshaydi,
Esankirab, esi ketgan o'xshaydi,
Dallining hisobi yitgan o'xshaydi,
Qo'lidan davroni ketgan o'xshaydi.

Dod deb yig'lar yo'qlab gavhar donasin,
Kuygan qullar aytar tasbih sanosin,
Esli mayna aniqladi, fahmladi,
Xo'p tanidi bek Ravshanning enasin.

Jonvor shu mayna joyidan uchdi,
Baland uchdi-da, pastroqqa tushdi,
Qanot yozib uchib jonvor, yoronlar,
Parvoz qilib xon Dalliga yetishdi.

Bulbul oshna bo'lar bog'ning guliga,
Mayna yetdi talab qilgan eliga;
O'tirgan joyidan uchib shu mayna,
Kelib qo'ndi xon Dallining qo'liga.

Xon Dalli qarasa, qushning dodi bor,
Ko'p uzoqdan qistagan holati bor,
Xon Dalli qo'liga olib qarasa,
Maynaning bo'ynida arza xati bor.

Xon Dalliga toza bo'ldi qiyomat,
Vo bolam, deb qilib qayu nadomat,
Tavof qilib, siypab jonvor maynani:
– Jonvor, bek Ravshan bormi salomat?

Jonvor, Ravshanni o'zing ko'rdingmi,
Bek Ravshandan menga xabar berdingmi,
Jonvor mayna, Ravshan bormi salomat,
Bek Ravshanman gaplashdingmi, ko'rdingmi?

Vo bolam, deb na'ra tortib yig'ladi,
Bebaxt Dalli tinmay nolish qiladi,
Hay attang, qiyomat bo'lgan ekandi,
Mayna nega elchi bo'lib keladi?

Savdo tushdi xon Dallining boshiga,
Yoqasi ho'l ko'zdan oqqan yoshiga,
Vo bolam, deb uvvos tortib xon Dalli,
Bo'zlab bordi to'rasining qoshiga.

Xizmatkorlar xon oldidan joy oldi,
Banda degan – fikr, vasvas xayoldi,

Xon Dallining yig'laganin eshitib,
Yo pirim deb Hasan polvon o'yondi.¹

Necha soat o'tar tuqqan oyidan,
Mard yigitlar qaytarmikan ra'yidan,
Suyar yorin yig'laganin eshitib,
O'yonib Hasan mard turdi joyidan.

Qarasa, Dallining ko'zda yoshi bor,
Bolam, deydi, yig'lagan nolishi bor,
Vo bolam, deb o'zin urib yig'laydi,
Dallining qo'lida bitta qushi bor.

Vo Ravshan, der, sening uchun o'ldim, der,
Armon bilan sen uldan² ayrildim, der
Voy-voy, deydi, o'zin urib bo'zlaydi,
Ketganingni, bolam, bilmay qoldim, der.

Dalli yig'lar: – Qavmim yo'q ham xeshim yo'q,
Bu Chambilda mening teng-u to'shim yo'q,
Sendan boshqa bir murabbiy kishim yo'q,
Ravshandan boshqaga mening ishim yo'q.

Mening bolam toza nodon bolami,
Enasiga shunday o'tlar solami,
Ravshan agar omon-eson bor bo'lsa,
Menga mayna elchi bo'lib kelami?

Maynani yuborgan Ravshanday polvon,
Yig'lay-yig'lay enang bo'ldi sargardon,
Sendan nima kunlar o'tdi bilmayman,
Kishining yurtida qolding, Ravshanjon!

¹ Uyg'ondi.

² O'g'ildan.

Ne sababdan xat yubording, chirog'im,
Qani senga xon Dalliday mehribon!
Sening ichkuyaring bormi Shirvonda?
Otang o'lsin urib yotar osh ham non.


Hay attang-a, uzoq ekan orasi,
Uzoq yurtda qolding, bolam Ravshanjon!

Ne sababdan xat yubording, nodonim,
Bu xatingda nima deding, bolamjon,
Enang o'lsin, ne qilarin bilmaydi,
Ravshanjon der, Ravshanjon der, Ravshanjon!

Shunda mard yigit hovliqmaydi, lekin «Yolg'iz bola yovdan yomon», o'zi ham xavotirda, ne qilarini bilmay yurib edi. Xon Dallini bunday bezovta ko'rib, bola qanday narsa, mard Hasan ham yig'lay berdi. Mayiblarday ingranib, yuragi olovday yonib, yolg'iz farzandining o'tiga tutoqib, ikki ko'zidan yoshi oqib, aqlidan adashib, nima derini bilmay, aqli shoshib, yolg'iz bolaning o'tiga pishib, yig'lab, yorining oldiga kelib, qaddi bukilib, ko'zining yoshi to'kilib, xon Dalliday yoriga qarab, nima bo'ldi deb so'rab, bir so'z aytayotipti:

Kuyganlarga dod bilan oh-voy berdi,
Bu ishingga Hasan aqlin boy berdi,
Ne sababdan zor yig'laysan, bo'yingdan,
Chopson gapir, ne alomat ro'y berdi?

Sevar yorim, senga bir gap bo'ldimi,
Shirvon eldan yo bir xabar keldimi,
Ne bo'ldi, g'amxona ko'ngling buzildi,
Kashal ketgan yolg'iz bolam o'ldimi?



Nargas-nargas xumor ko'zlar suzildi,
Sen yig'lading, jonim tandan uzildi,
Saylangan sevdigim, nozim, ne bo'ldi,
Ne bo'ldi, g'amxona ko'ngling buzildi?

Sen yig'lading, menda toqat qolmadi,
Jonimda, xon Dalli, rohat qolmadi,
Ne bo'ldi, g'amxona ko'ngling buzildi?
Gapirgin, bo'yingdan, holat qolmadi.

Gapirgin, bo'yingdan, men ham bilayin,
Bir bolam, deb yo shu yo'lda o'layin.
Ne sababdan zor yig'laysan, bo'yingdan?
Kuchim yetsa, ilojini qilayin.

Ravshan desa, mening bag'rim ezilar,
U bo'lmasa, mening uyim buzilar.
Chopson gapir, nega bunday yig'laysan?
Sen yig'lasang, jonim tandan uzilar.

Bilmayman Ravshandan xabar keldimi,
Shirvon ketgan yolg'iz bolam o'ldimi,
Ne sababdan bunday qaqshab yig'laysan,
Senga biror yomon xabar bo'ldimi?

Menga bildir, menda toqat qolmadi,
Jonimda, bo'yingdan, rohat qolmadi,
Ne sababdan bunday qattiq yig'lading?
Aytsang-chi, xon Dalli, fursat qolmadi.

Men bilmayman shirin jonning do'sini,
Dalli, mendan yashirasani nesini?
Nima bo'lsa, bildirsang-chi, bo'yingdan?
Bunday yig'lab, olding to'rang esini.

Hasan kuygan bolasining o'tiga,
Chidamaydi xon Dalli faryodiga.

Nima xabar bo'lsa, menga aytsang-chi,
Men chopson jo'nayin Shirvon yurtiga.

Bo'yingdan, bildirib so'ngra bo'zlagin,
O'zing pastda, baland yerni ko'zlagin,
Ne gap bo'lsa, bildirsang-chi, bo'yingdan,
Bo'lgan gapni bir-bir menga so'zlagin!

Xon Dalli Hasan mardning bu so'zini eshitib,
dod deb: – Menga sen qilaringni qilgansan, Rav-
shanday go'dak bolani jo'natib yuborgansan, sening
iching achiydimi? Iching achisa, shunday qilarmi-
ding, senga Ravshan nima qilib edi? Sening Rav-
shanxonda ololmay yurgan o'ching bor ekan! Ana
endi ko'nglingdagi bo'ldi. Ravshan endi sob bo'ldi.
Chambil senga, jovlik o'zingga qoldi, – deb avval-
avval urishib, so'ng chiday olmay. – Voy Ravshan, –
deb yig'layotir. Mard Hasan bechora nima derini
bilmay turibdi. Shunda xon Dalli bechora yuragi yo-
nib, eriga qarab, nima qilasan, – deb so'rab, bir so'z
dedi:

Shirvonning elidan xabar kelibdi,
Volloh a'lam Ravshan bandi bo'libdi,
Vallamatim, quloq solgin, aytayin,
Elchi bo'lib bitta mayna kelibdi.

Maynaning bo'ynida tugun xati bor,
Ravshanday bolaning qilgan dodi bor,
Volloh a'lam Ravshan bandi bo'libdi,
O'ldim degan bek Ravshanning oti bor.

Endi sening toza guling so'lgandi,
Men Dalliga kun qiyomat bo'lgandi,

Shu mayna kelibdi bolang Ravshandan,
Quruq emas, bir xabarga kelgandi.

Quloq solgin xon Dallining tiliga,
O'zi musofirdir Chambil eliga,
Shirvondan shu mayna – elchi kelibdi, –
Dedi-da, maynani berdi qo'liga.

Hasan ochib o'qib ko'rdi xatini,
O'ldim degan bek Ravshanning dodini,
Hay attang, deb yig'lay berdi mard Hasan,
Xatda o'qib bolasining otini.

Ana endi Hasanxon xatni o'qib ko'rsa, xatda aytibdi: «Ravshanbekni qirq kunlik bandi qilib zindonga soldi, qirq kundan so'ng dorga osmoqchi, boshini kesmoqchi, go'shtini poralab o'smoqchi. Zindon qilgandan so'ng Zulxumor oyimni ham bir hovliga qamab, besh yuz soqchi qo'yib, dalaga chiqarmay qo'ydi. Zulxumor axiri chidayolmay, bir lahimchini topib, hovlining ichida lahim urib, zindon boshidan chiqdi. Yigirma kun o'tganda zindonda gaplashib, shu maynani yigirmanchi oqshomda uchirdik. Agar shu yigirma kunning ichida kelgan odam bo'lsa, Ravshanni ko'rib qoladi, bo'lmasa yo'q. Yigirma birlamchi kuni Shirvonning bozori, bozorning o'rtasida dori, shu yerda Ravshanning osilib o'ladigan yeri. Agar Ravshanda umidi bor odami bo'lsa, Ravshanbekning gavda-suyagini yig'ib olib ketsin», – debdi.

Ana endi mard Hasan: «Hay, attang, hay attang», – deb soniga urib yig'lay berdi. Shunda xon Dalli: – Nega yig'laysan? Ertaroq jo'nasangchi, tezroq Shirvonga yetsangchi, Ravshanxonni ayirib

oluvning fikrini qil! – dedi. Hasan mard boshini
chayqab yig'laydi, bir so'z aytadi:

– Uchayin desam qanotim bo'lmasa,
Turmoqqa sab-ru toqatim bo'lmasa,
Yigirma kun kalta, qopti muhlati,
Hay attang, bormoqqa otim bo'lmasa.

– So'ragali Chambilday elating bor,
Kam emassan arkon davlating bor,
«Otim yo'q», deb qalay aytding, e nomard,
«Ot yo'q» deysan, tabla to'lgan oting bor!

– Parilar maskani Ko'hiqofidir,
Suv tubida yurgan odamobidir,
Bu qichovga bu otlaring bo'lmaydi,
Tulpar emas, buning bari yobidir.

– Kuygan qulmiz, gapni gapga ulayik,
Ravshan deb tinmasdan nolish qilayik,
Bu qichovga yaramasa boshqa ot,
Jur, esa otangning otin tilayik.

– Bilmaysan, ahvolim qanday bo'ladi,
Taqotim yo'q, yurak-bag'rim yonadi,
Borgan bilan otam bermas otini,
Bo'yingdan, ayrganman so'zing o'ladi.

– Ravshan holin Go'ro'g'liga aytayik,
Yolborayik, G'irotni so'rayik,
Shu mavridga bermasa-chi otini,
Chambilbelda nimang qolar, e nomard,
Qo'l ushlab Vayanganga ketayik.

Hasanxon polvon o'zi yolg'iz bolasining o'tiga
kuyib turib edi, tirikchilik joniga tegib turibdi edi,

o'zi o'ziga aytdi: «Shuni xotin yaxshi aytdi, xon Dallining shu so'zi to'g'ri so'z. Mening ko'zimning oq-u qorasi yolg'iz bir bolam bor ekan, bu Chambilda ekkanim-tikkanim yo'q. Endi shu mavridga otam otini bermasa, hayt, deyin-da, Vayanganga ketayin», – deb belini ikki yerdan boylab, mayiblarday ingranib, xon Dalli bilan ikkovi voy bolam, deb zor zor yig'lab borayotipti.

Go'ro'g'libek tahorat qilmoq uchun dalaga chiqqan ekan, qulog'iga bir odamning «voy bolam», degan dovushi yetdi, lekin dovush zo'r dovush. Go'ro'g'libek: «Vo ajab, sahar vaqtida bolasi o'lgan kim bo'ldi?» – deb shunday qarasa, joniga o'lchab barobar ko'rib yurgan mard Hasan o'g'li, qavatida oy ko'rmagan xon Dalli kelini dod deb, voy-voylab kelayotir. Buni ko'rib, hushi uchib, yig'lab borayotgan bolasi bilan ko'rishib, mayiblarday ingranib, Ravshanbekning o'tiga yonib, Hasanxon o'g'liga bir so'z dedi:

Oh urding, g'amxona ko'nglim buzildi,
Hasratingdan yurak-bag'rim ezildi,
Hasan bolam, Dalli kelin, ne bo'ldi,
Ne bo'ldi, g'amxona ko'ngling buzildi?

So'ylagin, mard Hasan, bir gap bo'ldimi,
Ravshanning xabari senga keldimi,
Hasan bolam, Dalli kelin, ne bo'ldi,
Bolam deysan, nodon Ravshan o'ldimi?

So'rarga, farzandim, darmon bo'lmadi,
Sen yig'lading, menda toqat qolmadi,
Vo bolam, deb zor yig'laysan, Hasanxon,
Bek Go'ro'g'li nega burun o'lmadi.

Sen eding Go'ro'g'libekning quvvati,
Ravshan edi ko'ngil to'qi, madadi,
Nima bo'ldi, vo bolam, deb yig'laysan.
Ravshandan ne so'z bor, Chambilning mardi?

Sen yig'lading, yurak oshday qaynadi,
Osoyishta tanda jonim qiynadi.
Ne xabar, ne so'z bo'libdi, Hasanxon?
Vo bolam der, Hasan, nega buytadi?¹


Aytolmaydi polvon Hasan dodini,
Qo'liga berdi bek Ravshanning xatini,
Bir-bir aytib Go'ro'g'liga bildirdi,
Go'ro'g'li buyurdi G'irko'k otini.

– Bor, Hasanxon, G'irko'kni egarla, – dey berdi. Hasanxon polvon chopib borib tosh tabladan G'irko'kni egarlab, yuganlab, olib keldi. Unga dovur Go'ro'g'libek namozini shu yerda o'qib oldi. Jami yov-yarog'ini parilarga buyurdi: – Olib kelib xurjunga sol, – dedi. Shunda parilar Dallini o'rtaga olib turibdi.

Go'ro'g'libek: – Bismillo, ollohu akbar, – deb uzangiga oyog'ini qo'yib, otiga minib, parilarga aytdi: – O' parilar! Men endi Shirvonga ketdim, sizlar xolis duoda yod qilib turinglar! – deb bir necha gapni shoshib, surunib, tayinlab, jo'namoqchi bo'ldi. Parilar Go'ro'g'libekning bu ishiga hayron bo'ldi. Hasan mard ham indayolmay qoldi.

Go'ro'g'libekning yori – Og'a Yunus pari, Misqol pari xatdagi gaplarni o'qib, va'dadan yigirma kun qolganini bilib, Misqol pari kelib, Go'ro'g'libekning jiloviga tarmasha ketdi. Aytdi: – E vallamat, oting-

¹ *Bunday etadi.*



dan tush, G'irotni Hasanga ber; otni minsin, o'zi
borsin, bearmon bo'lsin. Sen ketsang, Hasan qolsa,
omon-eson olib kelsang, xo'b yaxshi; muhlat yomon
yaqin qolibdi, agar yetolmasang, Hasanga ko'p
yomon bo'ladi, oda bo'lmas armon bo'ladi. U, yo'q,
bir yetolmay qolsa ham, bearmon bo'ladi.

Hasanning boshiga bo'pti qiyomat,
Vo bolam, deb tortar qayg'u-nadomat,
Otdan tush, otingni bergin, vallamat,
Bolasi o'lib, bag'ri kuygan Hasan mard.

Omonat, vallamat, odamning joni,
O'lmasa, shuncha xalq hammasi qani?
Sen otni o'ziga bersang, vallamat,
Qolmasin-da mard Hasanning armoni.

Maydon-maydon beklar otin yelmasmi,
Mard o'g'lonlar o'ynamasmi, kulmasmi,
Yigirma kun buning qopti muhlati,
Sen borguncha nodon Ravshan o'lmasmi,
Agar bir gap bo'lsa, qolsang yetolmay,
Hasanning ko'ngliga bir gap kelmasmi?

Yetolmasang bu muddatga, vallamat,
«Otam otin qichamagan», demasmi?!
Otdan tush, otingni bergin, vallamat,
Bolasi o'lib, bag'ri kuygan Hasan mard.

Vo bolam, deb yo'lda bo'lsin sargardon,
Bu Chambilda turolmaydi Hasanxon.
Otni bersang, yetolmasa yo'llarda,
Shunchaki xon Hasan bo'lar bearmon.
Otdan tush, otingni bergin, vallamat,
Bolasi o'lib, bag'ri kuygan Hasan mard.


Quloq solgin oy Misqolning so'ziga,
Jimma-jimma yoshi to'lgan ko'ziga.
Iqbol bersin bek Ravshanday qo'ziga,
Qichab yetsin, Hasan bo'lsin bearmon.
Vallamat, otingni bergin o'ziga...
Otdan tush, otingni bergin, vallamat,
Bolasi o'lib, bag'ri kuygan Hasan mard.

Otingni ber, o'zi borsin, qolmasin,
Bunda qop¹ Hasan armonli bo'lmasin,
Yetmay qolsang shu xonada, vallamat,
«Otam otin qichamagan», demasin,
O'ziga ber, yetmasa ham, bearmon,
Bolamning ko'nglida armon qolmasin.
Omon-eson olib kelsin Ravshanni,
Mard Hasanda so'nggi armon bo'lmasin.
Otdan tush, otingni bergin, vallamat,
Bolasi o'lib, bag'ri kuygan Hasan mard.

Yovmit deydi o'sgan mamlakatingni,
Turkman elda shahanshoh der zotingni,
Bu xonada sen qilma g'ayratingni,
Hasanning o'ziga bergin otingni.
Otdan tush, o'ziga bergin, vallamat,
Bolasi o'lib, bag'ri kuygan Hasan mard.

Ravshanning ustida ko'p ekan xatar,
Mard Hasanning ko'ngli yig'lovman o'tar,
Xon Hasanning o'zi jonini sotar,
O'zi borsa, armon qolmas ko'nglida,
Sen qo'ygin, Hasanxon borsin bu safar.
Otdan tush, otingni bergin, vallamat,
Bolasi o'lib, bag'ri kuygan Hasan mard.

¹ Qolib.




Mard Hasanning o'zi borsin, qolmasin,
Hasanxonning ichi g'amga to'lmasin,
Bu yerda mard Hasan g'amman o'lmasin,
O'zi borsin-da, so'ng armonli bo'lmasin.
Ochilganda toza gulim so'lmasin,
Bir bolamga hamma g'amni solmasin,
Omon bo'lsin bolam, Ravshan o'lmasin.
Otingni ber, Hasan borsin shu safar,
Bolamning ko'nglida armon qolmasin.
Otdan tush, otingni bergin, vallamat,
Bolasi o'lib, bag'ri kuygan Hasan mard.

Mard edi, bolamning ko'ngli cho'kmasin,
Vo bolam, deb Hasan yoshin to'kmasin,
Yosh yigit bolamning dog'in chekmasin,
Vo bolam, deb bosolmaydi o'pkasin,
Otdan tush, otingni bergin, vallamat,
Bolasi o'lib, bag'ri kuygan Hasan mard.

Vallamat, o'ylagin, bu ish yomondi,
Ravshan o'lsa, toza oxir zamondi,
O'zini yuborgin Hasan polvondi,
Ravshan uchun ichi to'lgan armondi,
Mard Hasanga bersin endi darmondi,
Omon-eson olib kelsin Ravshandi.
Ayriliqning barin menga solgandi.
Sen otingni berib, duo qilmasang,
Sening ota, mening ena bo'lganim,
Shu xonada yubormasang, yolg'ondi.
Otdan tush, otingni bergin, vallamat,
Bolasi o'lib, bag'ri kuygan Hasan mard.

Quloq solgin parilarning dodiga,
Hasan minsin G'irko'k tulpar otiga,
Qichab yetsin Shirvon mamlakatiga,
Nayza tegar mard o'g'lonning etiga,



Qaramasin G'irko'k otning betiga,
Kuysin Hasan bu alamning o'tiga,
Ishonmasin mard Hasan g'ayratiga,
Yetmay, deb qo'ymasin Shirvon yurtiga,
Kim chidabdi yolg'iz farzand o'tiga,
Kim sherik Hasanning ichki dardiga,
Yolg'iz bir bolaning muhabbatiga,
Achchiq qamchi bera bersin otiga,
Ot chidamas polvonning g'ayratiga,
Vallamat, ko'nmading nasihatiga.
Otdan tush, otingni bergin, vallamat,
Bolasi o'lib, bag'ri kuygan Hasan mard.

Go'ro'g'li Misqol parining bu so'zini eshitib, o'ziga ma'qul bo'lib, otidan tushib, Hasan o'g'liga: – Kel, bolam, otni tez min, yo'lga ravona bo'l, aslo hayallama, tushma, gidirma, birov bilan gaplashma, kuning bekorga o'tib ketmasin! – deb Hasanxon o'g'liga G'irko'k otni berdi.

Hasanxon yo'lbarsday bo'lib chirpinib, sherday bo'lib ingranib, qoplonday xezlandi. Shunda Go'ro'g'li parilarga aytdi: – E parilar, sizlar shu safar menga ko'p yaxshi maslahat berdinglar, pok bo'lmasa, Ravshanxon g'ami bilan Hasanxon polvonga ishim bo'lmay, o'zim ketab borayotibman. Agar yetolmay yo'lda qolsam, agar bir o'sal ish bo'lsa, Hasan mardning ko'nglida armoni qoldirdi. Rost, «Otam otini qistamagan», deyari rost. Bu bormoq Hasanxonning o'zining ishi ekan, men bilmabman, – deb Go'ro'g'libek shoshib surunib, vag'irlayotir, shoshib doirlayotir.

Hasanxon polvon yov-yarog'ini xurjunga so'lib, G'irko'k tulparni minib, etak-boshini yig'inib, qirg'iday bo'lib qiyilib, qosh-qovog'i uyi-

lib, mayiblarday iyinib, otasidan oq fotiha tilab,
Go'ro'g'libekka qarab, bir so'z deb turibdi:

Kuygan qulman, gapni gapga ulayman,
Ravshan deyman, turolmayman, yilayman¹.
Ota, sizdan ko'nglim to'ldi, vallamat,
Endi sizdan oq fotiha tilayman.

Bedov minsam, yol-kokilin silayman,
Taqdirda shu bo'lsa, nima qilay man,
Otni berding, endi o'pkam qolmadi,
Ota, sizdan oq fotiha tilayman.

Ravshanxon, deb, ota, qurbon bo'lay man,
Javob bersang tezroq yo'lni olay man,
Maqsadim shu, otni berding, otajon,
Endi sizdan oq fotiha tilayman.

G'animplarga sho'r g'avg'oni solay man,
Qasd etgan zolimning jonin olay man,
Qiblagohim, vallamatim, quloq sol,
Endi sizdan oq fotiha tilayman.

Otim mard Hasan, men o'zim qalayman?
Bek Ravshan, deb daryoday bo'p to'lay man,
G'irko'k otni berding, ko'nglim topildi,
Ota, sizdan oq fotiha tilayman.

Maydon-maydon bedov otim yelay man,
Omon-eson Ravshanni olib kelay man,
Maqsadim ot edi, berding, vallamat,
Ota, sizdan oq fotiha tilayman.

Dushmanlarni nayza bilan olay man,
G'anim bo'lsa qora bag'rin tilay man,

¹ Shevada talaffuzi – jilayman.

G'irotimni berding, ota, kamim yo'q,
Ota, sizdan oq fотиha tilayman.

Ochilar bog'larda gullar har sahar,
Savdogarlar yukin ortar har shahar.
Ketib borayotir o'g'ling ajdahor,
Duo qil, ota, xolis har sahar.

Otajon, alamim bo'ldi ziyoda,
Bo'z tarlon charqillar baland uyada,
Duo qiling, ota, turib har sahar,
Jonim ota, bo'ling doim duoda.

Duo qilgin, ota, bo'lsin mustajob,
Bu ahvolim mening bo'ldi ko'p ajab,
Xolis duo qiling kunda, otajon,
Ravshaxonni izlab ayladim talab.

Hasanxonning bir joniga duo qil,
Ravshandayin polvoniga duo qil,
Gap bilmagan o'g'loniga duo qil,
Omon-eson kelganiga duo qil!

Go'ro'g'libek bechora, dovdirab: – O' parilar,
Dalli kelin, sen ham kel, sizlar mushtiparsizlar, duo
qilinglar, albatta, mustajob bo'ladi. Ilohi sog' borib,
salomat kelgaysan, omon-eson, bolang Ravshaxon-
ni ayirib olib, Chambilbelga omon-eson o'ynab-ku-
lib, qizg'aldoqday yashnab kelgaysan! Yomon ku-
ning bo'lmasin, safaring bexatar bo'lsin; dushman
bilan urushsang, senga zafar yor bo'lsin! Sog' bor-
gaysan, bolangni ayirib, salomat kelgaysan! – deb
duo qilayotipti. Yunus bilan Misqol, xon Dalli be-
chora «Omin, omin», deb yig'lab turibdi.

Go'ro'g'libek fotihani yuziga tortdi. O'g'lini dar-
bozadan chiqarib: – Bor, bolam, manglaying ochil-

sin, – deb javob berib turibdi. Shunda Go‘ro‘g‘libek Hasan o‘g‘liga – joni-diliga nasihat qilib, juda qicha, deb shiddat berib, bir so‘z aytadi:

Hasan tushgin Shirvon elning yo‘liga,
Quloq solgin Go‘ro‘g‘lining tiliga,
Ishqilib Shirvonga yetgin farzandim,
Minib olgin G‘irko‘k otning beliga.

Hasanxon, hech yerda hayal qilmagin,
Jadad qil, kecha-kunduzni bilmagin,
Ishqilib Shirvonga yetgin, Hasanxon,
G‘irko‘kka, farzandim, rahm qilmagin!

Quloq solgin Go‘ro‘g‘lining dodiga,
Quloqlab qamchi ur G‘irning chotiga,
Ot topilar, bolang Ravshan topilmas,
Aslo qaray ko‘rma otning betiga!

Quloq solgin Go‘ro‘g‘libek so‘ziga,
Jimma-jimma yoshi to‘lgan ko‘ziga,
Ot topilar, bolang Ravshan topilmas,
Xom, deb qaray ko‘rma G‘irning betiga!

Uzoq yo‘ldan yaxshi tulpar chopilmas,
Chopilmayin qolsa, tulpar sovulmas,
Asli qaray ko‘rma otning betiga,
Ot topilar, bolang Ravshan topilmas!

Yigitlar ichida sensan o‘dag‘a,
Bedovga yarashar oltindan to‘g‘a,
Omon-esson olib kelsang Ravshanni,
G‘irko‘k o‘lsa, kokilidan sadag‘a!

Yomg‘ir yog‘sa, halqob yerlar loylansin,
G‘animlarning qo‘li mahkam boylansin,
Omon-esson olib kelsang Ravshanni,
G‘irko‘k o‘lsa, kokilidan aylansin!

Ich kuygan so'ng yurak o'tday qobinar,
Yov ko'rsa botirlar qalqon jomilar,
Omon-eson olib kelsang Ravshanni,
G'irko'k o'lsa, yana bir ot topilar.

Ish qilib Shirvonga yetsang bo'ladi,
Bek Ravshanni ozod etsang bo'ladi,
Omon-eson olib kelsang o'g'lingni,
Hasanxon, shuni bitkangsang, bo'ladi!

Yakka-tanho chiqsang Chambil yurtingdan,
Hech kim bilmas sening ichki dardingdan,
Farzandim, quloq sol aytgan so'zima,
Qirq yigitni yubormaymi ortingdan?

Shonaman zulfingni toblab o'rsinmi,
Ish tavakkal yaratgandan ko'rsinmi,
Menga aytib ketgin, Hasan, so'zingni,
Qirq yigit ortingdan, bolam, borsinmi?

Hasan polvon o'tga ketding tutanib,
Bek Ravshan deb, Hasan, o'tlarga yonib,
Menga aytib ketgin, bolam, so'zingni,
Ortingdan qirq yigit borsin otlanib?

Men bilmayman, mening aqlim qochgandir,
Sen kelding, Hasanxon, kayfim uchgandir,
Qirq yigitni yuboraymi ortingdan?
Go'ro'g'libek endi jondan kechgandir!

– Qirq yigiting borib nima qiladi?
G'irko'k otni berding, ota, bo'ladi,
Mard Hasanga darkor emas yigiting,
Ota, xolis duo qilsang, bo'ladi.
Bir qo'shinga Hasan o'g'ling barobar,
Shirvonga mard Hasan zo'rlik qiladi,
Ota, menga qirq yigiting ne darkor?

Ostimda o'ynasa, G'irko'kday tulpar!
Vallamatim, duo qilsang, bo'ladi,
Jonim ota, duo qiling Ravshanni,
Shirvonga jo'nadi Hasanday ajdar.
Otni berding, yigitlaring ne darkor;
Menga javob bersin Shirvonday shahar!


Jon ota, G'irko'kni har yoq choparman,
Dushman bo'lsa, junday qilib savarman,
Ravshan tirik, Shirvon yetsam bo'ladi,
Yakka-tanho Shirvon elin qamarman!

Vallamatim, qolding, ketdim men endi,
Ravshan deb jonimni sotdim men endi,
Shirvonning yo'lini tutdim men endi,
Bek Ravshan, deb qonlar yutdim men endi.

Ana endi Go'ro'g'libek shoshib, surinib, yig'lab-
ingranib, Hasan mardga oq fotiha berib yubordi. Ha-
sanbek hayt deb G'irko'kni o'ynatib, suvliqni chay-
natib, dushmanlarning zardasini qaynatib, Shirvon
qaydasan, deb yakka-tanho savab ketib borayotir,
huv deb ketib borayotir.

Parvardigor panodi,
Holin bilgan donodi;
Go'ro'g'lidan duo olib,
Hasan polvon jo'nadi.

Mardni tuqqan enadi,
Enadan yagonadi,
Yakka-tanho mard Hasan
Obro' ber deb jo'nadi.
Mehtaraga suv olib,
Chaqmog'iga quv olib,



Yo'lga tushdi Hasan mard
Go'ro'g'lidan duo olib.

Ichi o'tday yonadi,
Goda suvday tinadi,
Go'ro'g'lidan duo olib,
Hasan polvon jo'nadi.


Sovutini bo'ktarib,
Qalqonini do'ngtarib,
Yo'lga tushdi mard Hasan
Shirvon elni axtarib.

Goh sozini sozlaydi,
Goh bo'taday bo'zlaydi,
Endi ko'ring mard Hasan
Shirvon elni izlaydi.

Otga soldi dirdikka,
Qoyil bo'ling erlikka,
Suvsiz cho'lda bedov ot
Gohi chikka, goh pukka.
Qamchi ura o'ynaydi,
Yo'llarda dirikka-dirikka.

Ot boradi arillab,
Otgan o'qday sharillab,
Ot alqimi – tong shamol
Mis karnayday zarillab.
Suvsiz cho'lda G'irko'k ot
Borayotir parillab.

Ot boradi asirlab,
Otgan o'qday tasirlab,
Tilla uzangi, mahsi-kavsh
Tepsinganda qasirlab.



Ot qo'yadi egilib,
Ot yoliga tikilib,
Ship-ship qamchi tortdi,
Qor-yomg'irday to'kilib,
Suvsiz yo'lda G'irko'k ot
Borayotir yutunib.


Ariq tubinda andiz,
Daryo tubinda qunduz,
Qistab ketib boradi,
Kecha demaydi kunduz.

Hasanning aqli shoshdi,
Bedovga qamchi qo'shdi,
Tomosha qing Hasanni,
Bolam deb yo'lga tushdi.
Endi ko'ring mard Hasan
Necha tog'lardan oshdi.

Ot boradi irkillab,
Kiyikday bo'p dirkillab,
Ostidagi G'irko'k ot
Pita ko'rsa pirqillab.

Belda keskir isfihon
Uzangida chirqillab
O'mildiriq so'm oltin,
O'mirovda alqillab.
Suvsiz cho'lda keladi
Polvon Hasan, mard Hasan
Och tuyg'unday charqillab.

Otga qamchi choladi,
Oting jonin oladi,
Suvsiz cho'lda mard Hasan
Obro' ber deb keladi.



O'yga-qirga barobar
Tinmayin otin yeladi,
Shirvon elni axtarib,
Polvon Hasan keladi.

Men Shirvonga yetsam deb,
Ravshanni ozod etsam deb,
Xudo dedi mard Hasan
Bandargohdan o'tsam deb.


Hasan haq deb, huv dedi,
G'irko'k otini chu, dedi.
Tezroq yur, deb Hasanxon,
«Nega uytadi bu», dedi.

G'irko'k o'zin tuzab ob,
Otib ketib boradi.
Hasan shirin jonini
Sotib ketib boradi.

Changi to'zib yo'llarni
Tutib ketib boradi.
Ne bir baland tog'lardan
O'tib ketib boradi.
G'irko'k otning tuyog'i
Osmonga otib tuproqni,
Otib ketib boradi.

Bek Ravshan deb mard Hasan
Kecha-kunduz demasdan
Yo'lda ketib boradi.
Yakka-tanho mard Hasan
Cho'lda ketib boradi.

Ravshanxon deb Hasanxon
Jonin sotib boradi.
O'qday bo'lib G'irko'k ot
O'zin otib boradi.



Tonglar otib boradi,
Kunlar botib boradi,
Suvsiz cho'lda mard Hasan
Yakka ketib boradi.

Shirvon elga Hasanni
Taqdir tortib boradi.
Shamolday bo'p G'irko'k ot
Cho'lda ketib boradi.

Ikki ko'zi yoshday bo'p,
Qulog'i qamishday bo'p,
Borayotir G'irko'k ot
Qanoti bor qushday bo'p.


Og'zin ochib boradi,
Parin sochib boradi.
Jonivor G'irko'k shirillab,
Qushday uchib boradi.

Gohi-gohi yerlarda
Hasanxonday polvonni
Olib qochib boradi.
Hasan mardni yo'llarda,
Bahrin ochib boradi.

Ravshan uchun mard Hasan
Jondan kechib boradi.
Bir otning ham changiga
Olam ko'chib boradi.

Vo bolam, deb mard Hasan
Ichi achib boradi.
Hasanxonday polvonning
Tishi qichib boradi.

Qachon Shirvon yetsam deb,
Kayfi uchib boradi.



Hech nimaga rahm etmay,
Qoni qochib boradi.
G'irko'k to'pning o'qiday,
Qushday uchib boradi.

Bog'da ochilgan gulim, deb,
Ravshan jon-u dilim, deb,
Suvsiz cho'lda mard Hasan
Qani nodon ulim, deb
Qoldi Chambilbelim, deb,
Qayda qoldi elim, deb,
Borayotir mard Hasan,
Ravshan nodon ulim, deb,
So'ylar shirin tilim, deb,
Kisamda bor pulim, deb,
Borayotir mard Hasan,
Qani Ravshan ulim, deb.

Shirvon elga yetsam, deb,
Ko'p taloto'p etsam, deb,
Ushlab olib ko'pini
Changalima otsam, deb,
Borib kirsam maydonga,
Achchig'im tarqatsam, deb,
Ajdar bo'lib, damimga
Barisini tortsam, deb,

Dushmanlarning qonini
Bo'z tuproqqa qotsam, deb,
Qoraxonday podshoni,
Yerman yakson etsam, deb.
Shirvon elning to'rasin
Yuragin qon etsam, deb,
Bek Ravshaning ustida,
Katta to'fon etsam, deb.

«Botirlarin» kallasin
Katta xirmon etsam, deb,
Topib olib Ravshanni,
Dardga darmon etsam, deb.

Chu, deb otin uradi,
Oyog'ini tiradi,
Suvsiz cho'lda G'irko'k ot
Irg'ib, sakrab boradi.
Suvsiz cho'lda mard Hasan,
Qattiq qistab boradi.
Obro' ber, deb yo'llarda
Hasan ketib boradi.
Shirvon yurti qayda, deb,
Bu jon menga foyda, deb
Borayotir mard Hasan
Ravshan bolam, qayda, deb...

G'irni chopib boradi,
Og'ib-og'ib boradi,
Mard Hasanning qamchisi
Qorday yog'ib boradi.

Ostidagi G'irko'k ot
Xomdan sovub boradi.
Shirvon elni axtarib,
Hasan quvib boradi.
Hasan mardning boshiga
Kunlar tuvib boradi.
Hasan ko'zin yoshiman
Betin yuvib boradi.

Hasan qildi g'ayratni,
Yo'rg'alatdi G'irotni,
Qamchi bosib: chu, dedi,
Asl tulpor zo'r otni.
Gohi-gohi yerlarda

Mard Hasan qip faryodni.
Shunday qilib mard Hasan,
Kecha-kunduz yo‘l tortdi.
Qamchi berdi otiga,
Chidamay g‘ayratiga,
Suvsiz cho‘l gumburlaydi,
Mardning siyosatiga.
Chu, deb shiddat beradi
G‘irko‘k tulpor otiga.

Jabr qildi joniga,
Qamchi urdi soniga,
Suvsiz cho‘l gumburlaydi,
Otning irg‘iganiga.
Cho‘l chidamas Hasanning
Ravshan deb yig‘laganiga.
Hay attang, deb mard Hasan,
Shart uradi soniga...

Qistagandan qistadi,
Yo‘l yurmoqqa ustadi(r),
Ot ustida mard Hasan
O‘zin juda rostladi.

O‘rni, pastni bilmaydi,
Yo‘lni ko‘zga ilmaydi,
Yakkaman deb o‘ylamas,
Yovni ko‘zga ilmaydi.
Biror soat tinmaydi,
Otdan yerga qo‘nmaydi.
Qushday uchar G‘iroti,
Yurganiga ko‘nmaydi;
G‘irko‘k otni uradi:
«Nega yo‘ling o‘ngmaydi?!»

Shirvon elga eltgin, deb,
Meni xursand etgin deb,
Uchar qushdan kammiding,
Qushday uchib ketgin», deb.
Mard Hasanday polvon-da,
Shunday qichab boradi,
Hasanning G'irko'k oti
So'ng-so'ng kuch ob boradi...

Yon-yog'iga qaraydi,
Otning yolin taraydi,
Bunday-bunday qichovga
Shunday polvon yaraydi.

Bu har kimning ishimi,
Samarqandning dashimi,
Osonmikin bu ishlar.
Qassoblarning go'shimi?

Ot ko'tarib o'tibdi,
Yaxshi ot qo'yib ketibdi,
Yaxshi ishga shu erlar
Shunday jonni sotibdi.
Shirvon elning qasdida
Hasan kelayotibdi.

Tomosha qing¹ Hasandi,
Yov deganda yasandi.
Qattiq xizmat bo'p qolsa,
Hasanga uzat kosangdi.
Qari-qartang, bekuchlar,
Suyani yur asongdi.
Hasandayin mardlarga
Qani jo'ra bo'sangdi².

¹ Qiling.


² Bo'lsang edi.

Shunday qattiq ishida
Horma, jo'ra, desangdi.

Hasan botir botiri,
Yo'lda kelayotiri,
Bir ham bo'lsa birakay,
Katta yovga tatiri.
Chambilbelda yurganda,
Zarli edi chotiri,
Go'ro'g'lining davrida,
Jilovda ikki shotiri.
Muncha maqtab, men muni
Sotamizmi, yoronlar,
Arvohining xotiri.
Agar sotsam Hasanni,
Kimning kuchi yetadi?
Chambilning gala botiri,
Elsiz-subsiz yarlarda
Yolg'iz kelayotiri.

Qulon yurmas yarlardan
Quvib o'tib boradi.
Bulon yurmas yarlardan
Buvib o'tib boradi.
Qarsoq yurmas yarlardan
Qalqib o'tib boradi.
Bo'ri yurmas yarlardan
Bo'zlab ketib boradi.
Polvon Hasan dovushin
Sozlab ketib boradi.
Bek Ravshanni tinmasdan
Izlab ketib boradi.

Quyvon yurmas yarlardan
Quyib ketib boradi.
Subsiz cho'lda qovog'in
Uyib ketib boradi.



G'irko'k otning, yoronlar,
Sovunday tushgan oyog'i
Qora yerni qarsillab
O'yib ketib boradi.

Tulki yurmas soylardan
Tunda ketib boradi.
Unday-unday yerlardan
Kunda ketib boradi.

Qulon yurmas yerlardan
Quvlab ketib boradi.
Mard Hasanning badani
G'uvlab ketib boradi.
Ikki ko'zi Hasanning
Lovullab ketib boradi.
Ostidagi G'irko'k ot
Shuvullab ketib boradi.

Bulon yurmas yerlardan
Bo'ylab ketib boradi,
Necha so'zni mard Hasan
O'ylab ketib boradi.
Kuyganidan yo'llarda
So'ylab ketib boradi.
G'irko'k jonvor kokilin
Taylab ketib boradi.

Olqor yurmas yerlardan
Oqib o'tib boradi.
Bek Ravshanning alami
Chaqib o'tib boradi.

Kiyik yurmas yerlardan
Kuyib o'tib boradi,
Tirikchilik joniga
Tiyib¹ o'tib boradi.

¹ Tegib.

Necha tog'ning tumshug'in
Qiyib o'tib boradi.
Etak boshin mard Hasan
Jiyib¹ ketib boradi.

Qashqir yurmas yerlardan
Qamrab o'tib boradi,
Qorong'ida qilichin
Sermab o'tib boradi.

Yo'lbars yurmas yo'llardan
Yo'rtib o'tib boradi.
Bek Ravshanning alamin
Tortib o'tib boradi.

Sherlar yurmas yerlardan
Shirillab o'tib boradi,
Ostidagi G'irko'k ot
Pirillab o'tib boradi.


Asov yurmas yerlardan
Anglab o'tib boradi,
Jonvor G'irko'k har yoqqa
Tanglab o'tib boradi.

Yilon yurmas yerlardan
Yelib o'tib boradi.
Shunday Hasan holini
Bo'lib o'tib boradi.

Odam yurmas tovlardan²,
Qush turolmas zovlardan,
Mergan adir, ovlardan,
Yolg'iz o'zi Hasan mard
Qistab o'tib boradi.

¹ Yig'ib.

² Tog'lardan.



Qush uchmagan cho'llardan,
So'na yuzgan ko'llardan,
Odami yo'q yerlardan,
Dim uchi yo'q cho'llardan,
Tomosha qing, mard Hasan
Qistab o'tib boradi.


Haybati ko'p soylardan,
Borib qoldi qaylardan,
Juda yomon joylardan,
Qudug bilan suv ichgan
Qo'ra-qo'ra qo'ylardan,
Tomosha qing, mard Hasan
Qistab o'tib boradi.

Necha qozoq boylardan,
Yilqi, asov toylardan,
Yo'lda boylar o'tirgan
Olti qanot uylardan,
Ipak qamish chiylardan,
Tomosha qing, mard Hasan
Urib o'tib boradi.

Yolg'iz bola qiyindir,
G'ami, holi keyindir.
Ravshan uchun mard Hasan
Pirlariga siyindi.

Adir yerda ot bo'lmas,
Bo'lmasa uning to'qasi,
Kiysang chopon yarashmas,
Bo'lmasa uning yoqasi.

Shuytib yo'lda yuribdi
Yigit lodon og'asi.
Boshga tushsa, ko'z tortar,



Iloj bormi, yoronlar,
Suvsiz cho'lda sandirab,
Chambilning oltin soqasi.

Katta suvning yoqasi,
Bedov oltin to'g'asi.
Shunday yo'lda boradi.
Bir o'g'lining o'tiga
Kuyib ketgan mard Hasan,
Mardlarning oltin soqasi.

Yigit bo'lsa netadi,
Yigitlar xizmat etadi,
Bunday-bunday savdolar,
Odamdan kam-kam o'tadi.

Savdo tushdi boshiga,
Yoqasi ho'l yoshiga,
Bunday savdo tushgan so'ng,
Kemaydi har kim qoshiga.
Jon ayashmas do'st bo'lsa,
Shu turar yonboshiga.
Hasanda jo'ra yo'qmidi?
Yakka tanho keladi,
Er Xizrning dashiga.
Urug'li el bo'lganda
Sira tanho kelmaydi;
Yakka ekan mard Hasan,

Odami yo'q qoshiga.
Obro' bersin, yoronlar,
Shunday yakka kishiga.
Shunday Hasan yakka ekan,
Dushman qoyil ishiga.
Tanholikdan bechora
Ishonmaydi kishiga,
O'zi pishiq ishiga.

Odami yo'q, bir o'zi
Shirvon qarab keladi.
Ravshan deydi yig'laydi,
Bir bola deb keladi.

Yolg'iz yigit olp bo'lar,
Olp bo'lsa ham, qalb bo'lar,
Yolg'iz agar yiqilsa,
Orti yo'q yomon gap bo'lar.

Yolg'iz otda chang bo'lmas,
Chang bo'lsa ham, dong bo'lmas,
Orti yo'qqa qiyin-da,
Yolg'iz ko'pdan kam bo'lmas.

Yolg'izlik shunday bo'ladi-da¹,
Urug'siz odam dim bo'lmas.
Falak boshga solgan so'ng,
Odamzod beg'am bo'lmas.
Saxiy bo'lsa mard yigit,
Hech narsadan kam bo'lmas.
Mard nomardman teng bo'lmas,
Etakni kessang, yeng bo'lmas.
Yugruk-chabon ne so'zdir,
Ot cho'birday dim bo'lmas.
Norni qimmat oladi,
Charchasa ham, jo'ng bo'lmas.
Aqlman qilsang har ishni,
Pushaymoni dim bo'lmas.
Hovliqib ishni o'tkarsang,
Attang, deb chayqab boshingni
Pushaymonman so'ng bo'lmas,
Har so'zni aysang gap bo'lmas,
Adir-budir bob bo'lmas.

¹ Talaffuzda – bo'latta.

Hasan qolib ketmasin,
Shoir, so'zing sop bo'lmas.
Hasanni qancha maqtasang,
O'zi mardku, lof bo'lmas.

Hasandan endi so'zlayin,
Bek Ravshanni izlayin.
Shoirligim bob bo'lsa,
Dovushimni sozlayin,
Nag'ma qilsa do'mbira,
Bo'tadayin bo'layin,
So'zim ta'sir qilganda,
Baland yerni ko'zlayin.
So'zim ko'p bo'p ketmasin,
Shu yerda pichi ozlayin.
Shu yo'lda yursin mard Hasan,
Boshqa yoqdan so'zlayin,
Ravshanbek ham qolmasin,
Turganda shoir bizdayin.

Hasan mard yo'lni qichab ola bersin, Shirvonga yaqin kela bersin, shu so'z shu yerda qola bersin. Endi so'zni Ravshanxonning enasidan, joni chiqqan tanasidan, ayrilib gavhar donasidan, bog'da ochilgan lolasidan ayrilib, qanotidan qayrilib, yurar yo'lidan toyrilib, yuragi kuyib moyrilib qolgan kampirdan eshiting.

Kampir o'sha kuni bek Ravshanga: – Ha, bolasi tushmagur, ichkari kirib pisib yota ber, hech qayoqqa qarama, ularni mendan so'rama, – degan edi. Ravshanbek ko'nmadi. Shundan beri Ravshanbekni izlab yurib edi.

Ravshanbekni amaldorlar o'ldirmoqqa ko'zi qiymay, olib borgandan tappa bosib so'ymay, qirq

kunli qilib zindonga solib qo‘yganini kampir ko‘rib, yuragi yorilib quvonib, uyiga keldi. «Hay attang, tug‘masam ham tutingan edim, bolam, deb mehrimni qo‘ygan edim», – deb yig‘lab, ingrab, sho‘rli ho‘ngrab, Ravshanbekning xayoli bilan har yoqqa qarab, uloqib gangrab qoldi.

Shu kampirning avval olti o‘g‘li bor edi, oltovi ajdahor edi, har biridan Qoraxon podsho qo‘rqar edi, oltovi olti yerda qal‘a-qo‘rg‘on qilib turar edi. Olti o‘g‘li o‘lib ketdi. Kampir bolalarining o‘tiga kuyibyonib, o‘rtanib, tutanib, jizig‘i chiqib qolgan kampir edi. Ravshanbekni o‘g‘lim deb, jon-u dilim deb, o‘lsam merosxo‘rim deb qo‘ygan edi. Bu ham podshoga bandi bo‘lib, kampirning avvalgi alamlaridan shunisi o‘tdi, kampirni tentak qilib tashladi. Kampir bechoraning dod-faryod deb yig‘lamoqdan boshqa ishi yo‘q edi.

Ana shu kampirning katta o‘g‘lining bir nonxo‘r polvoni bor edi, o‘zi juda zo‘r edi, urush-surush bo‘lsa, mingga barobar edi. U polvonning otini Aynoq kal der edi. Lekin o‘zлари to‘rt og‘a-ini edi, to‘rtovi ham kal edi, barisi ham bohunar edi.

Kattasi Aynoq kal zo‘r edi. Aynoq kal shunday edi: ot, tuya, arava ko‘tarolmas edi. Doim bir yoqqa ko‘chirmoqchi bo‘lsa, piyoda ketar edi. Lekin ukalari ham barisi durust kallar edi. Ukalarining otlarini Jaynoq kal, Ersak kal, Tersak kal der edi. Jaynoq juda masxaraboz edi, har tusli bo‘la berar edi. Agar birovni aldamoqchi bo‘lsa, har tusli bo‘lganda, o‘zining jo‘ralari ham tanimas edi.

Ersak kal shunday edi: oqshomlari kamonni qo‘liga olsa, qushni ko‘zidan urar edi. Juda mergan edi, qushlarning, onglarning dodini bergan edi.

Tersak kal sinchi edi. Yilqining tulparini suyagi-
dan tanir edi, qilichning o'tkirini qinidan bilar edi.

Kampir yig'lab, ingrab Aynoq kalga bordi. Ayt-
di: – Aynoqjon! Mening qarigan vaqtimda xudo
menga tag'i bir g'amni soldi, u bolalarimning
g'amidan ziyodaroq bo'ldi. Sen ilgari, o'g'limning
borida, davlatimning ko'pida mening osh-nonimni
ko'p yeding. Endi mening ishim senga tushib qol-
di. Shu Ravshanbek bolamni ayirib olaman desang,
sening qo'lingdan keladi, boshqaning qo'lidan kel-
maydi, – deb kampir yig'ladi.

Shunda Aynoq aytdi: – Ho' ena! Sen qarib
miyangni yeb qo'ygansan. Sening bolang o'lib, sen-
da jon qoldimi? Sening aqling-esing qachon ketgan
edi. Bo'lmasa meni «Qoraxon podsho bilan uru-
shib, uddasidan chiqasan», dermiding. U bir podsho
bo'lsa, unda qo'r-u qo'rxona, to'p-u to'pxona, hama
asbob, lashkar – olomon ko'p bo'lsa, men bir kal-
man-da, menda nima bor? – deb ro'yixush bermadi.

Shunda kampir yig'lab, ho'nggrab: – Hay attang,
hay attang, Aynoq kal, sen ham menga qaramading,
meni ayniganga chiqarding. Menda miya qolgani
yo'q, qolmasa ham ayniganim yo'q. Sen bunday qil-
masang kerak edi. Sen mening tuzimni juda ko'p ye-
gan eding-ku! Bir safarga mening o'g'limning tuzini
haqlaganingda, men, men bo'lmasam, o'g'limning
arvohi sendan rozi bo'lar edi, Aynoqjon! Hali ham
bunday qilmay, mening shu ishimga yorlash! – deb
zor-zor yig'lab, bir so'z dedi:

Bu ayriliq meni qildi sargardon,
Qaytayin¹, topmadim dardimga darmon,

¹ Qanday qilayin.

Men miyamni yeb qo'ysam ham, Aynoqjon,
Sendan o'g'lim bo'lar edi shodmon.

Bolam borda yer edinglar tuzimni,
Endilikda aynigan deb o'zimni.
Shu ishimga g'ayrat qilgin, Aynoqjon,
Qo'ldan kelsa, ayirib ber qo'zimni.

Bollarimning¹ haqi uchun, Aynoqjon,
Do'stingning arvohi uchun, Aynoqjon,
Qo'limdan ko'p yeding, bolam, tuzimni,
Bu sochimning oqi uchun, Aynoqjon.

Sen eding o'g'limning avval nonxo'ri,
Savashda sen eding erlarning eri,
O'zing ko'rgan qanday davrim bor edi,
Yo'lbars edi bollarimning har biri...

Aynoqjon, belingni mahkam boylagin,
Meni qo'ygin, o'tganlarni siylagin,
Meni, Aynoq, rozi qilgin o'zingdan,
G'ayrat qil, bolamni ozod aylagin.

Ravshanjonni olib bergin qo'lina,
Quloq sol, Aynoqjon, aytgan tilima,
Qo'ldan kelsa, ayirib ber bolamni,
Aynoqjon, rahm qil g'arib holima.

Eshitgin, Aynoqjon, aytgan so'zimdi,
Xizmat qilib haqla bergan tuzimni.
Qo'ldan kelsa, ayirib ber qo'zimdi,
O'g'lim uchun ayirmog'ing lozimdi.

¹ Bolalarimning.

Shu o'g'limning haqi uchun, Aynoqjon,
Jo'rangning arvohi uchun, Aynoqjon,
Ayirib ber mening nodon qo'zimni,
Shular bori-yo'g'i uchun, Aynoqjon!

Sen ayirib bersang, rozi bo'laman,
Bo'lmasa, Ravshan deb, Aynoq, o'laman.
O'g'illarim haqi uchun, Aynoqjon,
Qo'lingdan kelar deb senga kelaman.


Ayiraman desang, kelar qo'lingdan,
Sen botirsan, har so'z chiqar tilingdan,
Qo'ldan kelsa, ayirib ber bolamni,
Xabardor bo'laman, Aynoq, holingdan.

Aynoqjon, g'ayrat qil, o'g'limni olib ber,
Qoraxonga ming qayg'uni solib ber.
Burungi bolalarim hurmati,
Ravshanni, Aynoqjon, ozod qilib ber...

G'ayrat qilsang, bolamni ayirib olasan,
Qoraxonga yuz ming g'amni solasan,
Qo'lingdan ish kelar polvon bolasan,
U yog'in, Aynoqjon, o'zing bilasan.

Senga hamdam bolalarim arvohi,
Beega bo'lmasin ular chorbog'i,
G'ayrat qilib, ayirib ber bolamni,
Qoraxonni, bolam, arvoch urmog'i!

Aynoq o'ylab turib aytdi: – Ho' ena! Senga av-
val qattiqroq aytdim. Ena, mendan rozi bo'l, endi
belimni boyladim, g'ayratni mahkam qildim, endi
yo o'g'lingni ayirib olaman, yo ajalim yetgan bo'lsa
o'laman! Aslo g'am yema! Shu o'g'illaringning




menda haqi ko'p. Sening tuzingni men ko'p yeganman, sening tuzing bilan mening suyagim qotgan. Sening katta o'g'ling meni ko'p parvarish qilar edi. Men ham o'l degan yerda o'lar edim, asli gapini ikki qilgan emas edim. Endi shuning arvohi uchun ertaga maydonga kiraman, menga bersa, Ravshanni ayirib olaman, – deb Aynoq belini mahkam boyladi, kampirni siyladi, dimog'ini chog'ladi.

Aynoq ukalariga qarab aytdi: – E ukalar! Sizlar ham belni mahkam boylanglar, o'zlaringni shaylanglar, bek Ravshanning ustiga bir taloto'p qilib tashlanglar! Sizlar ham yaxshi o'ylanglar, shu kampirning bolalarining vaqtida tuzini ko'p yedik; ana endi bu kampir bizlarga muhtoj bo'lib kelibdi. Endi yigitlar, erta Ravshanbekni chiqaradigan kuni-da choq bo'lib turinglar, o'zingizni shu dushmanga uringlar! Tavakkal-da, yo ularga berar, yo bizlarga. Agar bizlarga bo'lib, bek Ravshanni ayirib olsak, Qoraxon podshoga qora kunni solsak, tura-solib tushib qolsak, gap shunda-da! – deyishayotir, daryoday bo'lib toshayotir.

Shunday qilib, kallar maslahatlarini bitirib, shahardan xabardor bo'lib, borib-kelib yura berdi.

Erta muhlat tamom bo'ladi, bek Ravshanni shu yerga olib keladi. Kallar to'rtovi barvaqt borib, gash-tagini qilib, palovini yeb, choyini ichib, kayfini qilib, bahuzur dimog'ini chog'lab, «ertaga qudag'ay kimga qo'y so'yadi», deb to'rtovi o'tirib edi. Shu kuni kun pora-pora bo'lib yerga o'tirgan vaqtda jonivor G'irko'k suzilib, buyri-buyriga qopishib, qorni qorniga yopishib, ter bilan qotgan changlar yong'oqday dumaloq bo'lib, yungiga yopishib, Shirvonga kirib bordi.



Shaharning o'rtasida bozorjoy. Do'konlarni shipirib-sidirgan. Bozorjoyning o'rtasida bir yangi dor qurilgan. Hasan ko'nglida: «Shu dor bek Ravshanga deb qurilgan chiqar; bo'lsa-bo'lmasa, ertaga shu yerga keladigan bo'lsam, kel, shu bu-gun shu yerda turib damimni olayin», – deb tushib, bir do'konga otini tortib o'tira berdi. Endi gapni kallardan eshiting.

To'rtovi o'tirib edi, Hasan mard ham shularning qavatiga tomon borib qo'ndi, u ham o'tira berdi. Shunda masxaraboz kal aytdi: – Aynoq, ishimiz yaxshi bo'ldi, o'ng keldi, Ravshanni endi ayirib oladigan bo'ldik, balki ayirib oldik. Ana qara, Hasan mard ham keldi. Shu o'tirgan yigit Chambilning belidan, Yovmitning elidan kelgan Hasan mardning o'zi shu.

Shunda Aynoq aytdi: – E uchangdan urgur, har kimni ham odam deyberasanmi! Xudo urgani yo'q, Hasan mard shunday bo'lsa, G'irko'k ot – ovozasi olamni tutib yurgan ot; bu ot Ishrat devonaning otidan ham yomon, o'libdimi shunday bo'lsa! Men ertaga urush bo'lsa, boyadan beri shuni chog'lab-ko'zlab o'tiribman; anov tolni, mana bu qayrag'ochni sug'urib olib, ertaga to'dada «qadama og'och» qilaman, deb o'ylab o'tiribman. Agar ertaga badanim qizisa, shu devona otini qo'ynimga solib, kuni bilan yugurib yursam ham, bir noncha salmog'i bo'lmas. Qanday qilib bu Hasan mard bo'ladi, u G'irko'k ot bo'ladi?! – deb ukasini urishdi. Shunda Tersakka qarab aytdi: – Tersak! Shu odamni sen bir sinla, ani qayoqning odami ekan. Agar sening ham didingga kelmasa, undan keyin qo'yamiz.

Tersak damini ichiga olib, tishini tishiga qo'yib, kiprigini qoqmay tiklab qoldi. Turib-turib, ancha vaqtdan keyin damini chiqarib «o'h», dedi.

Ersak aytdi: – E Tersak, sinadingmi, qayerning odami ekan, shu ot qayerning oti ekan?

Shunda Tersak og'a-inilariga qarab, Hasan mardan xabar berib, bir so'z deb turibdi:

Bu so'zlaring, Aynoq, bekor ekandi,
Maydonga bu ham talabgor ekandi,
Yobi dema, shu ot tulpor ekandi,
Shu o'tirgan Hasan shunqor ekandi,
Bolasin ko'rmoqqa ko'p zor ekandi,
Devona yo'q, bu ajdahor ekandi.

Sadog' etsang sag'risini gazlaydi,
Dashtga qo'ysang, qulon o'tin izlaydi,
Halidan «xoning»ning taxtin ko'zlaydi,
Ha! degandan ot maydonni sozlaydi,
Maydon ko'rsa kiyikday bo'p xezlaydi,
Dushmanga tishini doim tezlaydi.
Yobi dema, shu ot tulpor ekandi,
Shu o'tirgan Hasan shunqor ekandi.

Mergan otar suvsiz cho'lning ongini,
Tomosha qil chin bedovning tongini,
Erta nizom boylab urush boshlansa,
Otman degan ko'rmay qolar changini.
Yobi dema, shu ot tulpor ekandi,
Shu o'tirgan Hasan shunqor ekandi.

Ot chopilar baland tog'ning pastiga,
Quloq soling gapimning payvastiga,
Shu ot kepti Qoraxonning qasdigga,
Endi maydon bek Ravshanning ustiga,

Keskir isfahonni olib dastiga,
Qarab bo'lmas chin botirning bastiga.
Yobi dema, shu ot tulpor ekandi,
Shu o'tirgan Hasan shunqor ekandi.
Bolasin ko'rmakka afgor ekandi,
Erligi-chi har kimcha bor ekandi.

Ikki qarich supra ekan qulog'i,
Chu, desang tog'larni chog'lar dimog'i,
Toshni yanchar po'lat, asil tuyog'i,
Bolasi uchun sarg'aygandir siyog'i,
Beliga boylagan olmos qiyog'i,
Bolasin ko'rmoqqa afgor ekandi,
Shu o'tirgan Hasan shunqor ekandi.

Jonvor uzoqdan chopib kelibdi,
Xosaki tulpor-da, sovub kelibdi,
Qoraxonning qasdin topib kelibdi,
Shirvon elga balo yog'ib kelibdi.
Yobi dema, shu ot tulpor ekandi,
Shu o'tirgan Hasan shunqor ekandi,
Ravshanni ko'rmoqqa ko'p zor ekandi,
Musofirlik, attang, bekor ekandi.

Erta bildim qiyomatning bo'larin,
Aniq bildim Qoraxonning o'larin,
Qochirmay yo'lin shu ot olarin,
Shirvon shohi oyoqosti bo'larin.
Yobi dema, shu ot tulpor ekandi,
Shu o'tirgan Hasan shunqor ekandi,
Bolasin ko'rmoqqa ko'p zor ekandi,
Musofirlik, attang, bekor ekandi.

Aynoq aytdi: – Nima balo bo'ldi senga Tersak!
Urush ertaga. Sen halitdan qo'rqib, yuraging yorilib,
har nima deyberding, nima balo bo'ldi? Bo'lmasa,

Ishrat devonani Hasanjon polvon deb sandirab o'tiribsan. Endi bo'lmadi, yuringlar borib o'zidan so'raymiz. Hasan mard bo'lsa, «Hasanxonman», deydi-da, qo'yadi, ulay-bulay siypalab o'tirmaydi, – deb joyidan tura keldi. Ana endi to'rt mard Hasanxon polvonning oldiga keldi. Salom berib, ko'rishib o'tirdi. Aynoq qarasa, bir «devona» o'tiribdi: dev-sifat, bir ajdahorday, hech narsani ko'ziga iladigan emas, balki nazariga keltirmay, pisand qiladigan ham emas; shunday haybatli, siyosatli. Aynoq ichida aytdi: «Hasanxon ekan, bechora Tersakni bekorga urishgan ekanman».

Aynoq polvon Hasan mardga qarab: – Sen qayerdan bo'lasan? – deb so'rab, murtini burab, bir so'z aytayotipti:

Qizil gul ochilar g'unchadan g'uncha,
Toqatim yo'q tag'i gul ochilguncha,
Suratga qalandar, tarzing xonzoda,
So'ylagin, bo'yingdan, qalandarbachcha.

Hali bu turishing, do'stim, darbadar,
Darbadarlik bilan kezib har shahar,
Kelbating xonzoda, turqing qalandar,
So'ylagin, bo'yingdan, qalandarbachcha.

Sening, do'stim, oshyoningni so'rayman,
Unib-o'sgan makoningni so'rayman,
Nima ishga kelganingni so'rayman.
Yo'l bo'lsin, qaddingdan, qalandarbachcha?

Jon jo'ra, ayt, diyoring qaysidi,
Rostin ayt, do'stim, shaharing qaysidi,
Qilib yurgan kasbi-koring qaysidi,
Yo'l bo'lsin, qaddingdan, qalandarbachcha?

Menga aytgin, urug'ingni, otingni,
Bayon ber, jon jo'ra, mamlakatingni,
Otang kim, enang kim, aytgin zotingni,
So'ylagin, bo'yingdan, qalandarbachcha!

Jonim do'stim, bayon ayla bilayin,
Har so'zingga jonim qurbon qilayin.
So'ylagin, bo'yingdan, darding bilayin,
So'ylagin, bo'yingdan, qalandarbachcha!

Rostin ayt, nima der o'sgan yeringni?
Jonim do'stim, yashirmagin siringni,
O'sgan diyoringdan xabar ber endi,
So'ylagin, bo'yingdan, qalandarbachcha!

Hasanxon polvon kallardan bu so'zni eshitib,
avvaldan ham ko'p gap qilayotganini bilib o'tirib
edi: – E jo'ra! Meni qo'zg'ab nima qilasan? – deb
bir so'z dedi:

Yaxshilik ko'r, yomonlikni ko'rmagin,
Ko'p yashagin, ko'p yilgacha o'lmagin,
Jonim do'stim, meni aslo qo'zg'ama,
Birodar, alamim ko'pdir, so'rmagin!

Kokilingning bandi-bandin tuydirma,
Qoshing kerib, qovog'ingni uydirma,
Birodar, alamim ko'pdir, so'rmagin,
Jon jo'ra, o'rtangan jonim kuydirma!

Tarzinga qarasang, nodon bolaman,
Qasd qilgan g'animni o'tga solaman,
Jon jo'ra, o'rtangan jonim kuydirma,
Chambilbelda yo'lbarslardan bo'laman.

Chambilning elida o'sgan elatim,
Uzoqda qolgandir arkon davlatim,
Jon jo'ra, o'rtangan jonim kuydirma,
Chambilbelda botirlardan avlodim.

Men ham bir bog'chada bog'ning guliman,
Otam ham enamning joni-diliman,
Jon jo'ra, o'rtangan jonim kuydirma,
Otim Hasan, Go'ro'g'lining uliman.

Tashlab keldim Chambilbelday elimni,
Bulbulday qip sayrataman tilimni,
Jon jo'ra, alamim ko'pdir, so'rmagin,
Izlab keldim xon Ravshanday ulimni.

Aynoq joyidan irg'ib turdi, ukalari ham tura keldi; mard Hasan bilan quchoqlashib, qaytadan ko'rishib aytdi: – Yaxshi kelibsan jo'ra, juda yaxshi kelibsan. Bizlar ham, shu yerga Ravshan keladi, deb sening o'g'ling uchun o'tiribmiz. Ana endi sen kelding, ishimiz o'ng keldi. Endi jo'ra, ertaga Ravshanxonni shu yerga hayday keladi, nasib qilsa talato'p bo'ladi, xudo xohlasa, Qoraxon podsho o'ladi, yer bilan yakson bo'ladi, taxti vayron bo'ladi, – deb Hasan mard bilan kallar suhbatlasha berdilar.

Aynoq ukalarini yuborib, G'irko'k otga beda, yem oldirib keldi. Hasanxon polvonga palov, go'sht, manti, barak berib siylab, ziyofat ustiga ziyofat qilib, choyni damlab, G'irko'kni yemlab, ertaga urushning g'amini g'amlab, xotirni jamlab o'tira berdi.

Qirq kun muhlati tamom bo'ldi. Qoraxon podshoga: – Taqsir podshoyim, kechagi gunohkorning muhlati bitdi, ajali yetdi, endi olib borib, dorga osib, boshini kesib, dodini bermoq kerak, – deb amaldor-

lari arz qildi, Qoraxon podsho: – Olib borib, dodini beringlar, bugun osinglar, boshini kesinglar! – dedi.

Ravshanjonni zindondan chiqarib, bo'yniga g'ul-zanjir solib, tevaragini ko'p dushman olib, bo'taday bo'zlatib, ko'zini boylab, ko'p zulmlarni aylab kela berdi.

Ravshan chiqqan kuni Zulxumor oyim qancha kanizlari bilan dod deb yig'lab, Ravshanning o'ng tarafidan kelib, to'rasining dog'iga kuyib, betini yulib, dovushining boricha chirqirab, yig'lab kelayotipti. Bir tarafida kampir enasi dod, deb bolasining dog'iga kuyib, betini yulib, voy bolam, deb Ravshanning bo'yniga osilib kelayotipti.

Zolimlar dorning ostiga yaqinlashib qoldi. Hasanson G'irko'kning ustiga minib, yov-yarog'ini choq qilib, ustiga eski to'n kiyib, bir devona bo'lib turib edi. Dasta-dasta, baland-pastda, odam bosib kela berdi asta-asta, maydon sipohiga to'lib ketdi. Qoraxon podsho saltanati bilan, bir bo'lak amaldor-umarolari bilan kelib, bir yaxshi joyni olib, tushib o'tira berdi. Baland ham odam, past ham odam.

Shunda jallod, mirg'azablar Ravshanni haydab kela berdi. Hasan mard buni ko'rib, ko'zi yoshga to'lib, jazavalari qo'zg'alib, polvonlik tomirlari uyg'onib, o'zini tuzab tezlana berdi. Shunda Jaynoq masxaraboz kal kelib, Hasan mardga aytdi: – Hayhay polvon, bunday qilma. Avval o'g'lingni sinayik, mardmikin, nomardmikin, bilayik.

Hasanson polvonning achchig'i kelib: – E tentak! Mening o'g'limning ostida oti bor, ustida to'ni borki, buni sinaysanmi? – dedi.

Jaynoq aytdi: – Polvon, bek Ravshanni olib kelandan darrov o'ldirmaydi, hali qo'yadi. Qoraxon

podshoning beshta-to'rtta katta amaldorlari, umarolari o'g'lingning oldiga borsa kerak, Ravshanga aytsa kerak. «Ho' o'zbek! Sen ko'p yosh ekansan, seni bizlar podshodan tilab olayik va mana Zulxumor sening yoring ekan, sen Zulxumorga yor ekansan, ikkoving ham yosh ekansan, endi ikkovingni ayirmayik. Sen Qoraxon podshoning diniga kirgin, lotga iqror bo'l, manotga banda bo'l, tana xudoga tag'i banda bo'l, oyga, oftobga, yulduzga iqror bo'lsang, shu Qoraxon podshoga bizlar seni o'g'il qilib, Zulxumor yoringni senga to'y qilib berayik», deydi. Shunda o'g'ling bir xotin uchun yurtidan kechsa, o'limdan qo'rqsa, o'g'lingning nomard, qo'rqqoligi; bo'lmasa, ularni aytmasa, o'g'lingning ustida bizlar o'lamiz-ku. Qoraxon podshoga o'g'il bo'lsa, kelgan o'z oyog'ing, yana o'z oyog'ing bilan keta berasan-da! O'g'ling Qoraxon podshoga kuyov, Shirvonga to'ra ham podsho bo'lib qola beradi, – deb ma'qul qildi. Hasanxon noiloj to'xtadi.

Ravshanxonni zor yig'latib, jallodlarga haydatib, dorning ostiga olib keldi. Shunda Qoraxon podshoning amri bilan ikki hudaychi, salom og'asi kelib, Ravshanbekni dorning ostida to'xtatib, Qoraxon podshoning tili bo'lib, Ravshanxonga qarab bir so'z aytdi:

Qizil gul ochilar g'unchadan g'uncha,
Yurakda dard-u g'am ko'p turur ancha.
O'zbekning elidan kelgan, yosh bachcha,
Quloq sol, aytayin, so'zim bir necha.

Davlatim bor, turli kiyib jaynayin,
Quloq solgin, o'zbek, senga so'ylayin,

Bu gapimga quloq solgin, yosh bachcha,
Eshitgin, so‘zimni bayon aylayin.

Jallodlar opkeldi, dorda so‘yadi,
O‘zing yosh ekansan, umring zoyadi¹,
O‘zbakning elidan kelgan, yosh bachcha,
Seni qanday qilib ko‘zi qiyadi?

Bo‘ysunsang Shirvon elning xoniga,
Ko‘nsang agar vazirlar deganiga,
Seni dordan ayirib olib ketayik,
Agar kirsang Qoraxonning diniga.

Berdirayik senga Shirvon shahrini,
Senga bersin g‘aznadagi zarini,
Obberayik suluv qiz Zulxumorini,
Seniki qilayik elning barini.

Men podshoga yetkizayin zoringni,
Ziyod qip Shirvonda e‘tiboringni,
Agar kirsang Qoraxonning diniga,
Senga olib beray Xumor yoringni.

Eshitib ol vazirlarning so‘zini,
Shirvon elda podsho deydi o‘zini,
Agar kirsang Qoraxonning diniga,
Olib beray suluv Xumor qizini.

Shunda Ravshanxon polvon vazirlarning bu gapi-
ni eshitib, qahri kelib, ilonday zahri kelib, sen aytgan
odaming men emasman, men qo‘rqoq emasman,
o‘limdan qo‘rqadigan odaming boshqadir, deb Shir-
vonning amaldorlariga qarab bir so‘z aytib turibdi:

¹ Zoyedir.

Sen aytgan odaming, zolim, men emas,
Bir nechalar o'z holini chengamas,
Men o'lmasam, o'z elimdan kechmayman!
Aziz boshing oyog'imga teng emas.

Befarzandning ko'rgan kuni zoyami,
Yo'qchilik jo'mardning ko'zin o'yami,
Qo'lingdan kelganin qilgin, ayama!
O'laman deb mard yo'lidan toyami?

Ravshanbek Shirvonning kattalariga javob berib, undan so'ng aytdi: – E yoronlar, voy yig'ilgan tomoshabinlar! Men endi bu dunyodan o'tib borayotibman. Hali men yosh edim, dunyodan to'yanlardan emasman. Sizlar mening ko'zimni boylab, oldilaringga solib haydab keldinglar. Endi mening ko'zimni ochsanglar, nima bo'ladi, men ham yorug' dunyoni bir ko'rsam, yosh bola edim, mening ichimda armonim ketmasin. Sizlardan mening tilagan tilagim shu, boshqa so'zni demayman.

Shunda dushmanlar quvonishib qoldi. – Ishing bo'lmasin, bu gapni sara aytdi, ochinglar ko'zini! Hali bu bola yosh bo'lsa ham, yomon o'r bola ekan, ko'zini ochsang, shuncha xalqni ko'rar, to'garaklab turgan jallod, mirg'azabni ko'rar, ana bu dorni ko'rar, bo'yniga tushib turgan arqonni ko'rar, yosh bola emasmi, qo'r qar, keyin «Men sizlarning dinlaringga kiraman», der, darrov och ko'zini, – deyberdi. Mirg'azab Ravshanning ikki ko'zini ochdi.

Ravshanbek ko'zini ochib qarasa, bir yog'ida Zulxumor yori, qancha kanizlar, to'rasining dog'iga kuyib, betini so'yib, dod deb turibdi; bir yog'ida

enasi – kampir Ravshanning dog'iga kuyib, bu ham betini so'yib, voy bolam, deb o'zini urayotir. Shirvon eli katta-kichik, yaxshi-yomon, yugruk-chabon, qiz-u juvon – jami odamning bari tomoshaga yig'ilgan. Ravshanbekka qarashib turibdi.

Ravshanbek o'ng tarafiga qarasa, otasi – Hasan mard polvon yo'lbarsday kelib turibdi; ostida G'irko'k oti, sherday haybati, qaynab g'ayrati, ko'zi yoshga to'lib, ot qo'yayin deb turibdi. Otasini ko'rib, aslo dalaga chiqmagan bola emasmi, yig'lab yubordi.

Voy ota, deb baqirib, Ravshan polvon shu yerda bir so'z aytayotir:

Uyquda boyladi nozik qo'limni,
Sog'indim, otajon, Chambil elimni,
Tor zindonda vo ota, deb yig'ladim,
Ko'rdingmi, otajon, mening holimni?

Menga xudo g'olib qildi zolimni,
Zolim falak kajga qurdi folimni,
Tor zindonda vo ota, deb yig'ladim,
Ko'rdingmi, otajon, mening holimni?

Voy otajon, ko'rdingizmi holimni,
Atrofimda turgan qancha zolimni,
Tor zindonda vo ota, deb yig'ladim,
Ko'rdingizmi, mehribon, ahvolimni?

Yo'lingga intizor bo'ldim, otajon,
Sensiz, ota, nochor bo'ldim, otajon,
Baloga giriftor bo'ldim, otajon,
Dushmanga xor-u zor bo'ldim, otajon,
Bir ko'rmoqqa xumor bo'ldim, otajon,
Shirvonda juda xor bo'ldim, otajon.

Mehribonim kelgan ekan, ming shukur,
Mendan xabar olgan ekan, ming shukur,
Tulporini yelgan ekan, ming shukur,
Menga soya solgan ekan, ming shukur.
Tor zindonda mening yig'laganimni
Bilib, otam kelgan ekan, ming shukur.

Meni o'ldirmoqqa kelgan Qoraxon,
Endi zolim o'lgan ekan, ming shukur.
Men yosh edim, gunohimni bilmayman,
Ravshan ozod bo'lgan ekan, ming shukur.

Otajon, ko'rdingmi ahvolimni,
To'garagimni olib turgan zolimni,
Chambibelga vallamat der o'zingni,
Jon ota, chiqarsang-chi, ovozingni,
Otajon, eshitay endi so'zingni.

Dushmanlarga ola qilgin ko'zingni,
Maydonda o'ynatgin asbi tozingni,
Ota, ayirib ol Ravshan qo'zingni.
Jonim ota, ko'rdingiz ahvolimni,
To'garagimni olib turgan zolimni!

Hasan polvon o'zi olovday yonib, dudday tuta-
nib turib edi. Endi mardning g'ayrati kelib, jazavasi
qo'zg'alib, o'g'lining bu so'zlarini eshitib, bir na'ra
tortib yubordi. Shu yerda turganlarning ko'pi et-peti-
dan tushib, aqli shoshib, esidan adashib, ne botirman
deganlar turolmay emaklashib, bari birday chuvla-
shib qoldi.

Chuvlaganining ma'nosi bor edi: shu vaqtda Ish-
rat devona degan devona bor edi. Bir cho'biri bor
edi – xalakash. Xalalasa, dingillar edi. Qayerda

yig'in-to'da bo'lsa, shu yerga borib bir xala urar edi, oti dingillar edi, nechovini tepib yiqitar edi. Odamlar: – Ha bachchag'ar, nega unday qilasan? – desa, – bir pul bersang, unday qilmayman, – der edi. Shunday qilib, odamlardan bir pul, ikki pul olar edi.

Barisi bu Ishrat devona deb: – Ha devona, ha devona, qarab tur, sening o'yiming so'ng bo'ladi, bugun pulni senga ko'p olib beramiz, – deyishayotir.

Shunda Hasanxon G'irko'kka qamchi berib, qilichini g'ilofidan sug'urib, ot qo'yib turibdi. Bir yoqda kallar ham choq turibdi. Hasanxon polvon kaljo'ralariga qarab, otini maydonga haydab, bir so'z deb turibdi:

Keling, kallar, keching jondan,
Umiding bo'lsa maydondan,
Siz bir yondan, men bir yondan,
Ot qo'y g'animning ustiga,
Kalla kesing, qon to'kilsin,
Ravshan polvonning ustiga.

Ot qo'ying, kallar, tush-tushdan,
Yuraklaring temir-toshdan,
Dim irkilmang qizilboshdan,
Ot qo'y g'animning qasdiga,
Kalla kesib, qon to'kilsin, Aynoqjon!
Ravshan o'g'ilning ustiga.

Ot qo'yinglar yakka-yakka,
Ovoza soling falakka.
Dushman bo'lsin tikka-tikka,
Ot qo'y g'animning qasdiga,
Kalla kesing, qon to'kilsin,
Ravshan o'g'ilning ustiga.

Urrib o'ldir bo'ydog'ini,
Yarador qil ahmog'ini,
Quving, do'stlar, qo'rqog'ini,
Ot qo'y g'animning qasdiga,
Kalla kesib, qon to'kinglar, kallarim,
Ravshan o'g'ilning ustiga.

Oq, qora bosh, yashil tug'lar
Tikildi maydon ichinda,
O'mirovli ne polvonlar
Yiqildi maydon ichinda.

Bo'z tuproqqa qirmizi qon
Sepildi maydon ichinda,
Ne go'zallar qaddi yoyday
Bukildi maydon ichinda.

Oq badandan qizil qonlar
To'kildi maydon ichinda.
Nayza tegib kirovkalar
So'tildi maydon ichinda.

Saf tortib satta bo'ydoqlar,
Ostida oti o'ynoqlar,
Kumush qo'tosli bayroqlar
Shirillab maydon ichinda.

Saf tortibdi satta quvlar,
Qo'yma deyishib bari chuvlar,
Oq, qora bosh, tilla tuvlar¹
Tikildi maydon ichinda.

Og'zi katta ashrapilar
Otildi maydon ichinda.
Mard yigitning shirin joni
Sotildi maydon ichinda.

¹ Tug'lar.

Mard qo'lida po'lat xanjar,
Katildi maydon ichinda.

Bo'z tuproqqa qirmizi qon
Qotildi maydon ichinda,
Sholg'omday bo'p kalla desang,
Otildi maydon ichinda.


Bag'ri tortiq sari yoylar
Tortildi maydon ichinda.
Bog' bug'doyday murdalari
Yotildi maydon ichinda.

Yasov tortgan satta «botir»
Saylanishib kelayotir,
Parang miltiq patir-patir
Otildi maydon ichinda.

Bedovga ipak ayillar,
Dushmanni qilib qoyillar.
Po'lat o'qli jazoyillar
Otildi maydon ichinda.

Qo'shin keldi dasta-dasta,
Yasov tortdi baland-pastda.
Kim o'ldi, kim bo'ldi xasta,
Urush bo'ldi asta-asta,
So'ng bo'p qoldi chaparasta,
Hasan polvon nayzadast-da,
Sanchildi maydon ichinda.

Qilich kelar alab-yalab,
G'arib ko'ngil istar talab,
Oltin kosa, gulgun sharob
Ichildi maydon ichinda.
Ajallining kafan to'ni
Bichildi maydon ichinda.



Ot qo'yadi to'plab-to'plab,
Farangining og'zin qoplab,
Qo'sh jilovni qo'lga juplab,
Charx urdi maydon ichinda.

O'lgan otdan og'ib tushib,
O'liklar qoldi ayqashib,
Otlar yurolmay chalkashib,
Ko'p o'liklar qopday ishib,
Har o'likka quzg'un tushib,
G'ajir qo'nib tortqilashib,
Tortishdi maydon ichinda.


Goh ul quvib, goh bul quvib,
Qilichni qon bilan yuvib,
Dushman boshiga kun tuvib¹,
Maydonda bedovlar suvib²,
Gurzi, xanjar ko'kdan yog'ib,
Ajallilar qirg'in topib,
G'irko'kni Hasanxon chopib,
Ot qo'yadi og'ib-og'ib,
Qo'yishdi maydon ichinda.

Dutor bo'yin arabi otlar,
Chu desa bir qirdan hatlar,
Yashin qanot xonazotlar
Qutuldi maydon ichinda.

Har tarafdin ol-ha, deyishib,
Ol-ha xanjar, sol-ha, deyishib,
Til bilmasga bo'l-ha, deyishib,
Mayling bo'lsa kel-ha, deyishib,
Kelib qo'lingni ol-ha, deyishib,
Qarmashdi maydon ichinda.

¹ Tug'ib.

² Sovib.



Zumrat dovullar qoqildi,
Dushman dushmanga boqildi,
Ustixonga o't yoqildi,
Surishdi maydon ichinda.

Qirg'iy yurar qiyada,
Lochin yotar uyada,
To'rt kal u ham qiradi,
Hasanxondan ziyada.


Endi ko'ring Aynoqni,
Masxaraboz Jaynoqni,
Qo'shinning oldin oladi,
Yetganini soladi,
Kimga yetsa shu kallar,
Yetgandan ikki bo'ladi.

To'dani Aynoq oladi,
Ayirib olib bo'ladi.
Kim yo'liqsa Aynoqqa,
Uchrashgandan o'ladi.

Qo'lida ikki tayog'i,
Tayoqqa o'xshamas siyog'i,
Ikki yog'ochni sug'urib op,
Qadama tayoq boyagi.

Aynoq murtin buraydi,
Oyog'in yerga tiraydi,
Chilladagi norga o'xshab
Aynoq kal g'urg'uraydi.

Kaltaklarin otadi,
Aynoq jonin sotadi,
Katta to'pning o'qiday,
Ko'p odamni shipirib,
Qo'ymasdan olib ketadi.



Yetgancha Aynoq o'ynaydi,
Ushlab olsa qo'ymaydi,
Tayog'iga yetgancha,
Tepib ketar nechovni,
Mayib qilmay qo'ymaydi,
Tayog'in otib qoladi,
Nechovlar yotib qoladi,
Aynoq kalning tayog'i
Tekkan qotib qoladi.

Endi Aynoq mast bo'ldi,
Hasan bilan do'st bo'ldi,
Kim qo'shinni ko'p qirar
Degan garov – bas bo'ldi.

Shu sababdan, yoronlar,
Yelib qirdi Aynoq kal,
Ko'p bo'p turgan qo'shinni
Bo'lib qirdi Aynoq kal,
Daryoday bo'p urushda
To'lib qirdi Aynoq kal.

Aynoqjon ham zo'r edi,
Mingga barobar edi,
Bunday qo'shin bo'lgan so'ng,
Katta ajdahor edi.
Ilgari – yosh vaqtida
Qatordagi nor edi.

Aynoq ur-ha, ur, dedi,
Botir bo'lsang, tur! – dedi.
Baqirib aytdi Aynoq kal:
Talabgor bo'lsang, kir! – dedi.
Aynoqni endi ko'r! – dedi.

Yeyman, deydi, go'shini,
Qayraydi kal tishini,
Endi ko'ring, yoronlar,

Aynoq kalning ishini.
Qo'rqib qopti kallardan
Qoraxonning qo'shini.

U ham kelayotiri¹,
Mard Hasanning girdini
Qarmab olayotiri².
Chiqarmoqqa qo'ymadi,
Jamab olayotiri.
Ajallisi shu yerda,
Ko'ring, o'layotiri.

U ham «qo'yma-qo'yma!» deb,
Bu ham «bizni dema», deb.
«Ha, senimi, ha seni,
O'likni muncha uyma», deb,
«Pul opmidig o'likka?
Bizga endi tegma!» deb.

Qoraxonning qo'shini
Jonni sotayotiri,
Mard Hasanning girdini
Qat-qat tutayotiri.
Sarig' yoy ham miltiqni
Ha deb otayotiri,
Nishona qip Hasanni
O'qqa tutayotiri.
Jondan kechgan mard Hasan
Ko'p qo'shinga urindi.
Dushmanlarning ko'ziga
Birov ming bo'p ko'rindi.
Otni chopdi mard Hasan,
Oldi juda o'r endi.

¹ Kelayotibdi.

² Olayotibdi.


Baqiradi Aynoq kal:
– Ayamay Hasan, qir endi!

Bu tomon bari amaldor,
Shu to'pga o'zing kir endi.
Botirman degan beklarning
Jazosini ber endi!
O'zing kirgin to'daga,
Chekkani menga ber endi!
O'zingdan meni kam dema,
Aynoq kalni ko'r endi.
Sen nechovni o'ldirsang,
Adashmay sanay ber endi.
Seniki ko'pmi, meniki,
Adashmayin yur endi.
Qilichga o'lgan seniki,
Tayoqqa o'lgan meniki,
Hisoblab ham ko'r endi.

Aynoq shunday oshadi,
Hasanman garovlashadi,
Qoraxonning qo'shini
Bulardan juda shoshadi.
Bir-biriga shivirlab:
«Endi qaytamiz»¹ deyishadi.

Hasan yurur g'urg'urab,
G'irko'k oti pirqirab,
Qayoqqa Hasan qarasa,
Oldi qochar tirqirab.
Aynoq kal ham mast bo'ldi,
Qo'yma deydi varqirab.
Uch ukasi chetni opti,
Quvib yurur zirqirab.

¹ Qanday qilamiz?



Qoraxonning qo‘shini
Shoshib qoldi, yoronlar,
Qirg‘in juda haddidan
Oshib qoldi, yoronlar.
Shohga juda katta g‘am
Tushib qoldi, yoronlar.

Aytganingcha bor edi,
Urushga xumor edi.
Mard Hasan ham Aynoq kal
Qoraxonning eliga
Och bo‘riday doridi.

Endi ko‘ring, mard Hasan
Mardi maydon etadi.
Tuyg‘unday bo‘p tikilsa,
Quvganiga yetadi.
Yonashsa mardning qilichi
Ikki bo‘lib o‘tadi.
Shamoli tegsa qilichning,
U ham tipirlab yotadi.
G‘irko‘kday ot ostida,
Kimni quvsa yetadi.
Do‘ngni, pastni bilmaydi,
O‘lik to‘shab ketadi.
Bunday bo‘lsa qirg‘ini,
Qo‘shin qochmay netadi?

Maslahat qip ko‘p qo‘shin:
«Endi qochsak netadi?
Eshitmasin Qoraxon
U ham oxir qochadi-da?
Qayoqdan qo‘shin yetadi.
Shunday qirsa shu odam
Kechgacha oda etadi.
Endi buni netamiz?

Ne maslahat etamiz?
Bir odamdan, yoronlar,
Qayoqqa qochib ketamiz.

Odam emas, parimi?
Bu jahonning zo'rimi?
Yovda yo bir bo'rimi?
Sohibqiron ko'p o'tgan,
Yo shularning birimi?
Odam shunday bo'larmi?
Bir qo'shinga bir odam
Shunday zo'rlik qilarmi,
Qo'shinni shunday quvganni
Hech qariya bilarmi?
Kim joniga pul olgan,
Bekorga odam o'larmi?!»

Hasan qildi xurushdi,
G'irko'kka qamchi qo'shdi,
G'irko'k og'zini ochdi,
Qo'ltiqdan parin sochdi,
Jonvor qushday uchdi,
Qo'shinga aralashdi.
Buni ko'rgan ko'p qo'shin
Qo'rqib yuragi shishdi.

Qo'shin kelar to'p-to'p bo'p,
Har to'pi undan ko'p bo'p,
Qancha kelsa Hasanga
Barisi birdan sop bo'p,
Hasan qildi xurushdi,
Tinmay polvon urushdi,
Barakalla Hasanga
Ko'p qo'shinman urushdi.
Baxt qaradi Hasanga,
Kallar hamdam berishdi.

Buni ko'rib ko'p dushman
Ko'zidan to'kdi yoshdi.
«Endi qaytar¹ qochsak?» – deb
Bir-biriman kengashdi,
Qo'rqoqlari enkayib,
Toshloq panadan qochdi.

Endi kallar toshadi,
Tinmay hay-haylashadi,
Ne botirlar shoshadi,
Shoshmay qaytsin² botirlar,
Ko'p maydonlar bo'shadi.

Kim yo'liqsa Aynoqqa,
To'p etib ostiga tushadi.
Qochmasin, deb shu kallar,
Chetlab quvalashadi.
Ne botirlar hingqillab,
Dustuman bo'p yiqilib,
Tuproq, qumni oshadi.

Hasan otin to'daga
Solib borayotiri.
Kimga yetsa jonini
Olib borayotiri.
Qo'lidagi xanjari
Bo'lib borayotiri.
Kim yonasha Hasanga
O'lib borayotiri.
G'irko'k oti ostida,
Yelib borayotiri.
Qo'rqoqligin shu elning
Bilib borayotiri.

¹ *Qanday qilar* – nima bo'ladi?

² *Qanday qilsin.*


Bilganini Hasanxon
Qirib borayotiri.

Botirligin bildirdi,
Ichin g'amga to'ldirdi,
Ne bir menman deganning
Boshin kesib o'ldirdi.

Hasan yurur tolmayin,
Biyor damin olmayin,
Qo'ymayman, der Hasanjon,
– Baring oda qilayin!
Ha deb Hasan ot qo'ydi,
Ortidan kallar choq qo'ydi.
Qoraxonning diliga,
Hasan katta dog' qo'ydi.

Hasanxonning ko'ziga
Tuman ko'chganday bo'ldi.
Hasan polvon maydonda
Araq ichganday bo'ldi.
Hasan botir maydonda
Qizni quchganday bo'ldi.
Qoraxonning shu kuni
Kayfi uchganday bo'ldi.
Chuvlab yotir ko'p qo'shin
Qunduz ko'chganday bo'ldi.
Yarqillashib qilichlar,
Yulduz uchganday bo'ldi.


Hasanxonning G'iroti
Qonni kechganday bo'ldi.
Sovub kelgan G'irko'k ot
Og'zin ochganday bo'ldi.
Bir naygaza Hasanxon
Yuzni sanchganday bo'ldi.



Shirvonning shu lashkari
Ordan kechganday bo'ldi.
Qoraxon shohning chirog'i
Shu kun o'chganday bo'ldi.
Hasanxonning ko'nglida
Qo'shin qochganday bo'ldi.
Oshiqlarga suluv qiz
Qo'ynin ochganday bo'ldi.

Hasan yuri qizday bo'p,
Ko'lda o'rdak, g'ozday bo'p,
Qo'rqqanidan Qoraxon
Ranggi o'chib bo'zday bo'p.
Shu qo'shinning ko'nglida
Dunyo qoldi muzday bo'p.
Shirvonning ne bir botiri
Shu kuni qoldi hezday bo'p.
Hasanxonning maydoni
Kayf berar qimizday bo'p.
Hasanxonning oldida
Qoraxonshoh yerday bo'p.
Yiqilib yotir ko'p dushman,
Og'zi ochilib go'rday bo'p.
Ko'p qo'shinni quvalab,
Hasan yuri sherday bo'p.
Hech kim chiqmay barobar,
Yolg'iz o'zi erday bo'p.
Urdu Hasan dovuldi,
Qattiq tortib ayildi.
Hasanxonday polvonga
Qoraxonshoh qoyildi.

Hasan qildi erlikni,
Maydonda polvongirlikni.
Qoraxon qo'shiniga,
Bir o'zi qildi zo'rlikni.



Hasan polvon op qo'ydi,
Shu qo'shinning esini,
Bir qo'shinga bir botir,
Zo'rlik qilsa, yoronlar,
Biz maqtayik nesini.

Hasan ishin ishladi,
Pastki labin tishladi.
Yig'ilib kelgan qo'shinning
Ko'pini qirib tashladi.
Ozi qoldi, qo'rqog'i
Qo'rqib qocha boshladi.
Daladagi zo'r kallar
«Turavor!» deb ushladi.

Yig'ilib, qo'rqib elansa,
O'xshatib uch-to'rt mushtladi.
Hasan vaqtin xushladi,
Ishi yaxshi tishladi.
Ostidagi G'irko'kni,
Mard Hasan kish-kishladi.
Og'zin ochib G'irko'k ot,
Nechovini tishladi.
«O'zi qirgani ozmidi,
Oti ham urush boshladi.
Necha odamning kallasin
Oti uzib tashladi».
Bu so'zni aytib turgan yov,
Tura qocha boshladi.

Endi ko'ring, Qoraxon,
Bo'lib qoldi sargardon.
Qo'shin qochib boradi,
Bir er chiqmay Shirvondan.


Podshoga vahm tushdi,
Endi yuragi shishdi.

Otin minib Qoraxon,
Qo'shından chiqa qochdi.
Qoraxon shoh uzamay,
Hasanning ko'zi tushdi.
G'irko'kka qamchi qo'shdi,
Quvib keynidan tushdi.
Og'zin ochib G'irko'k ot,
Qoraxonga yetishdi.

Endi Hasanxon polvon,
G'irko'k otin yeldirdi,
Zo'rligini bildirdi,
Quvib yetib ortidan,
Oq nayzaga ildirdi.
Dustaman qip yiqitib,
Og'zin qumga to'ldirdi.
Egnidan sop nayzasin,
O'pkasidan o'tkazib,
Qoraxonni o'ldirdi.

Qo'shin qochdi tirqirab,
Piyodasi zirqirab,
O'ldik deyishib yig'laydi,
Qo'rzoqlari chirqirab.
Aynoq kalning dovushi:
– Qo'yma! – deydi varqirab.

O'lib ketdi Qoraxon,
To'p-to'p jami olomon.
Ikki qo'li tos tepada:
– Begim , – der, – omon-omon!
Bizga bo'p oxir zamon,
Holimiz bo'ldi yomon.
Arzimiz shu Hasanjon,
Polvonim, omon-omon!




Tog'larning boshi tuman,
Tiriklik bizga gumon.
O'lgan bo'lsa Qoraxon,
Vallamat, omon-omon!
Kaling qursin ko'p yomon,
Bormanglar kallar tomon.
Qo'lingni tort, Hasanjon,
Vallamat, omon-omon!

Ana endi Hasanxon polvon Shirvon odamlaridan omon tilaganlariga omon berib, qo'shinning u yoqqa-bu yoqqa qochganlari yig'ilib, hammasi bir yerga uyilib, qilich, sadoqlarini bo'yniga solib kelib, Hasanxon polvonga elanib, yolborib itoat qildi. Eliyurt omon-omon bo'ldi.

Hasanxon polvon yov-yorog'ini yechib, Ravshanxon o'g'li bilan ko'rishib, hol-ahvol so'rashib, bolasi bilan topishib, og'iz-burnidan o'pishib, toyqulunday iskashib, kishnashib qoldi. Hasanxon polvon Ravshanxonning enasi bilan ko'rishib, undan keyin Zulxumor kelini bilan ko'rishib, kanizlari bilan so'rashib tanishdi.

Shirvon kattalari, maslahatdor kayvonilar – kengash boshilar Zulxumorni, Ravshanbekni, Hasan polvonni, to'rtta jo'rasi: Aynoq, Jaynoq, Ersak, Tersak kallarni izzat-ikromlar bilan shaharga olib jo'nadi.

Endi Shirvon mamlakatiga otini boylab, shodiyona qo'ydirib, Qoraxon podshoning xazina-dafinalarini bo'shatib, elni yig'dirib, ochni to'ydirib, yalong'ochni kiydirib, bolabon, g'ijjak, karnay, surnay qo'ydirib, qirq kun to'y qilib, Zulxumoroyini Ravshanxonga nikoh qilib berdi.



To'y tarqadi. Hasanxon polvon Shirvonning katta-kichigini yig'ib, shu Shirvonni kallarga topshirdi. Aynoq jo'rasini Shirvon shahriga podsho qildi, ukalarini vazir, mahram qildi.

Zulxumor oyimni qancha quli-cho'risi bilan, necha yaxshi kanizlari bilan, qancha jodu ko'zlari bilan, shirin so'zlari bilan, o'yinchi qizlari bilan olib, Ravshanxon polvon yo'lga tushdi. Ravshanxonning enasi: «Meni tashlab ketdingmi», – deb yig'lab, noiloj javob berdi. Aynoq va boshqalari necha kunlik yerga chiqib, xo'shlashib qaytdilar.

Hasanxon boshliq yo'lni boshlab, necha kun yo'l yurib, qancha suvsiz cho'l yurib, ozgina emas, mo'l yurib, axiri Chambilga yetdilar.

Otasi Go'ro'g'libek, enasi Yunus, Misqol parilar, yori xon Dalli, qirq yigit jo'rasi – bari oldiga chiqib, Hasanxon bilan, Ravshanbek bilan ko'rishib, holahvol so'rashib, Zulxumor oyim bilan, necha kaniz qizlari bilan tanishib, izzat-ikromlar bilan Chambilga olib bordilar.

Go'ro'g'libek Yovmit-Takaning eliga odam qo'yib, Zulxumor oyimga to'y boshlab, qirq kun to'y qilib, qancha o'yin qilib, to'yni tarqatdi. Ko'p in'om-ehsonlar bilan to'yni tamom qilib, murod-maqsadlariga yetdi.

T a m o m .



MUNDARIJA

Kuntug'mish..... 3



Ravshan..... 163

A decorative border with a repeating floral motif surrounds the text. The motif consists of stylized flowers and leaves arranged in a continuous line.

Kuntug‘mish



Ravshan

Dostonlar

«Sharq» nashriyot-matbaa
aksiyadorlik kompaniyasi
Bosh tahririyati
Toshkent – 2011

Muharrir *Qodirjon Qayumov*
Badiiy muharrir *Umid Sulaymonov*
Texnik muharrir *Ra'no Boboxonova*
Musahhihlar: *Jamila Toirova, Ma'mura Ziyamuhamedova*
Sahifalovchi *Lidiya Soy*

Nashr litsenziyasi AI № 078, 18.09.2006

Terishga berildi 22.05.2011. Bosishga ruxsat etildi 16.08. 2011.

Bichimi 60x90^{1/16}, «Times» garniturası. Ofset bosma.
Shartli bosma tabog'i 23,0. Nashriyot-hisob tabog'i 22,12.
Adadi 5000 nusxa. Buyurtma № 1797.

**«Sharq» nashriyot-matbaa aksiyadorlik
kompaniyasi bosmaxonasi,
100000, Toshkent shahri, Buyuk Turon ko'chasi, 41-uy.**